<p>Ma'ruza mashg'uloti texnologiyasi</p> <p>vaqti – 2 soat</p> <p>O'quv mashg'ulotining shakli</p> <p>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</p> <p><i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> adabiy turlar (poeziya, proza, drama) va janrlar tarkibi bilan tanishtirish</p> <p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <p>-adabiy turlar va adabiy janr tushunchalarini harhlash;</p> <p>-nasriy tur va unga xos janrlarni sanab ko'rsatish;</p> <p>-she'riy tur va unga xos janrlarni sanab ko'rsatish;</p> <p>-dramatik tur va unga xos janrlarni sanab ko'rsatish;</p> <p>-tur va janrlarning nazariy xususiyatlarini aniqlash.</p> <p>O'qitish uslubi va texnikasi</p> <p>O'qitish shakli</p> <p>O'qitish vositalari</p> <p>O'qitish hart-haroiti</p>	<p>Ma'ruza mashg'uloti texnologiyasi</p> <p>Talabalar soni: 50 nafar</p> <p>Vizual, axborot ma'ruza</p> <p>1.Adabiy tur tushunchasi.</p> <p>2.Adabiy janr tushunchasi.</p> <p>3.Nasriy tur va unga xos janrlar.</p> <p>4.She'riy tur va unga xos janrlar.</p> <p>5.Dramatik tur va unga xos janrlar.</p> <p><i>O'quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p>talaba:</p> <p>-adabiy turlar va adabiy janr tushunchalari haqidagi nazariy ma'lumotlarni daftarga yozib oladi;</p> <p>-nasriy tur va unga xos janrlarni sanab ko'rsatadi, misollar topadi;</p> <p>-she'riy tur va unga xos janrlarni sanab ko'rsatadi, misollar topadi;</p> <p>-dramatik tur va unga xos janrlarni sanab ko'rsatadi, misollar topadi;</p> <p>Axborot-ma'ruza, insert, hamkorlikda o'qitish texnikasi, sinkveyn</p> <p>frontal, guruhlarda</p> <p>Ma'ruza matni, poyektor, grafik organayzerlar</p> <p>Namunadagi auditoriya</p> <p>Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi</p>
Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni
	O'qituvchi talaba

Tayyorgarlik bosqichi (5 min)	Avvalgi darsning so'ngida ma'ruza matni talabalarga berilgan. "Insert" texnikasini qo'llagan holda o'qib chiqish tayinlangan. Guruhlarda o'qitish uchun har bir guruh vazifasi ishlab chiqiladi.	Vazifani oladi va bajaradilar.
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu maqsad va rejadagi o'quv natijalari va uni o'tkazish natijasini ma'lum qiladi. Mashg'ulotning o'zaro aloqa usulida o'qitishni e'lon qiladi. 1.2. Talabalarga berilgan vazifani eslatadi. Mazkur mavzudan qanday yangi ma'lumot olganliklarini so'raydi. 1.3. Qanday savollar tug'ilganligini bilish uchun ularni doskaga yozib chiqadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladilar 1.2. Savollarni o'rtaga tashlaydilar.
2-bosqich. Asosiy (55 min.)	2.1. Talabalarni kichik guruhlariga ajratadi. Har bir guruh mavzuning ma'lum bir savoli bo'yicha "ekspert" bo'lishini va boshqalarni o'qitishni ma'lum qiladi. Ekspert varaqlari, oq qog'oz (A32) markerlarni tarqatadi. Savollarning mazmunini tushuntiradi. Qaysi materialdan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Ish reglamenti, baholash mezonlari bilan tanishtiradi va mashg'ulot boshlanganini e'lon qiladi. 2.2. Mavzu savollarining jamoa bo'lib muhokamasi va taqdimotini e'lon qiladi. 1) O'zi konsultant-arbitr vazifasini o'taydi; 2) qo'shimcha savollar beradi; 3) har bir savol muhokamasining so'ngida o'zaro baholashni tashkil etib, yakuniy xulosa qiladi va talabalar e'tiborini masalaning muhim tomonlariga qaratadi. 2.3. Talabalar bilimini tekshirish maqsadida mavzu savollariga javob berishni taklif qiladi. Tezkor savol-javob yoki test o'tkazadi.	2.1. Guruhlar vazifalarini oladi va muhokama qiladilar. Kichik guruhlarda ishlashni boshlaydi. 2.2. Guruhda javoblarni tayyorlaydi. Ko'rgazmali material tayyorlaydi. 2.3. Guruh yetakchilari yoki a'zolari o'zlarining savollari bo'yicha axborot beradi. Ko'rgazmali materialdan foydalanadi va qo'shimcha savollarga javob beradi. 2.4. Boshqa guruh javoblarini baholaydi, savollar beradi.
3-bosqich Yakuniy (10 min)	3.1. O'quv faoliyatiga yakun yasaydi. O'zaro o'qitish natijalarini e'lon qiladi. Faol ishtirokchilarni belgilaydi va olingan bilimlarning kelajakdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. 3.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: mavzu bo'yicha klaster tayyorlash	Vazifani yozib oladi.

1-ilova.

#### Reglament

- Muammoni yechish va prezentatsiya varag'ini yozish uchun guruhda ishlashga – 20 min.
- Muammo yechimini prezentatsiya qilish – 8 min.gacha.
- Jamoa bo'lib muhokama qilish, xulosalarni shakllantirish – 10 min.gacha.
- O'zaro baholash – 1 min.

2 – ilova.

#### Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Har bir guruh boshqa guruhlar taqdimotini baholaydi, mezonlar bo'yicha ballarni jamlaydi					
Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	Maksimal ball	1 guruh	2 guruh	3 guruh	4 guruh
Yechimlar:	1,2				
- muammoni va quyi muammoni to'g'ri shakllantirish	0,4				
- yechimni muammo va quyi muammo shakliga mos kelishi	0,4				
- mantiqiylik, aniqlik, xulosalarning qisqaligi	0,4				
Taqdimot:	1,4				
- javoblarning aniqligi va tushunariligi	1,0				
- har bir guruh ishtirokchisining faolligi (savollar, qo'shimchalar)	0,4				
Reglament	0,4				
Umumiy ballar yig'indisi	3,0				

## 1-ekspert varag'i.

1. Prozaik turning asosiy nazariy belgilarini tushuntiring.  
(*T-sxema, klaster, insert texnikasidan foydalangan holda*)

## 2-ekspert varag'i.

2. Lirik turning asosiy nazariy belgilarini tushuntiring.  
(*T-sxema, klaster, insert texnikasidan foydalangan holda*)

## 3-ekspert varag'i.

3. Dramatik turning asosiy nazariy belgilarini tushuntiring.  
(*T-sxema, klaster, insert texnikasidan foydalangan holda*)

## 4-ekspert varag'i.

4. Adabiy tur va janrlarga ajratish tamoyillari haqida fikr yuriting  
(*T-sxema, klaster, insert texnikasidan foydalangan holda*)

**Adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik.-T.: «Fan», 1978-1979.
3. Arastu. Poetika. Ahloqi kabir.-T.: «Yangi asr avlodi», 2004
4. Valixojaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi.-T.: «O'zbekiston»,1993.
5. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi.-T.: «O'qituvchi», 2002.
6. Fitrat. Adabiyot qoidalari.-T.: «O'qituvchi»,1995.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.-T.: «Xalq merosi» nashriyoti, 2004
8. Xotamov N. Xolmatov Sh. Mahmudov M. Adabiyotshunoslikka kirish. T., “O'qituvchi” 1984.
9. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T., “O'zbekiston” 2002.
10. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash.-T.: “Fan”, 2006
11. Ziyonet axborot tarmog'i-[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

**IJODIY METOD VA USLUB**

11-mavzu	Ijodiy metod va uslub
Ma'ruza mashg'uloti texnologiyasi	
vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 50 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Talabalar bilan hamkorlikda binar ma'ruza.
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1.Ijodiy metodlar. 2.Ijodiy uslublar. 3.Zamonaviy metod va uslublar. Xulosa.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> ijodiy metodlar (klassisizm, sentimentalizm, naturalizm, romantizm, realism, modernism) va uslublar haqida nazariy bilim berish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> -klassisizm, sentimentalizm, naturaliz, realism, romantizm va modernistik (ratsionalizm, abstraksionizm, simionizm, syurealizm, futurizm, kubizm) metodlarining har biri to'g'risida nazariy ma'lumot berish; -ijodiy uslub tushunchasini harhlash.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> talaba: -ijodiy metod atamasi ta'rifini yozib oladi; -klassisizm, sentimentalizm, naturaliz, realism, romantizm va modernistik (ratsionalizm, abstraksionizm, simionizm, syurealizm, futurizm, kubizm) metodlarining har biri to'g'risida nazariy ma'lumot oladi, har bir metodda yaratilgan asarlar haqida xulosalar beradi; -ijodiy uslub atamasi ta'rifini yozib oladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, 2 kishilik (binar) dialog, klaster, Insert
O'qitish shakli	Frontal, kollektiv, guruh
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, poyektor, grafik organayzerlar
O'qitish hart-haroiti	Namunadagi auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, maqsad va rejalashtirilgan o'quv natijalarni ma'lum qiladi. 1.2. Reja va binar (2 kishilik) ma'ruzaning xususiyati bilan tanishtiradi. 1.3. Ma'ruzadagi asosiy kategoriya va tushunchalarni mustaqil ishlash uchun savollarni, qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatini keltiradi. 1.4. Mazkur mashg'ulotda o'quv faoliyatining ko'rsatkichlari va baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	Eshitadi. Yozib oladi. Aniqlik kiritadi.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Mavzusi bilan bog'liq tezkor savollarni beradi. 2.2. Mashg'ulot rejasiga asosan ijodiy metodning mazmunini aniqlashtiradi. 2.3. Ijodiy metodlarning turlarini sanab, ularga ta'rif beradi, misollar keltiradi.	Birin-ketin javob beradi. Konspekt qiladi. Yozib oladilar, esda olib qoladi. Eshitadi. Savol beradi. Fikrlaydi, savollar beradi.
3-bosqich Yakuniy (10 min)	3.1. Mavzu bo'yicha yakun yasaydi, talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Ijodiy metod tushunchasi bilan bog'liq klaster tuzish vazifasini topshiradi. 3.3. 2 ta eng yaxshi klasterni namoyish qiladi, baholaydi. 3.4. Mustaqil ish uchun nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida 3 ta masala beradi (4-ilova).	Klaster tuzadi. Namoyishga tayyorlanadi. Yozib oladi.

1 – ilova.

#### Baholar mezoni va ko'rsatkichlari jadvali

Doklad qiluvchilar	Dokladdagi ma'lumotning to'liqligi 60%	Axborotning yangiligi 15%	Axborotni tasvirlashda vositalarning ishlatilishi 15%	Reglament 10%	Jami
<b>1</b>					
<b>2</b>					
<b>3</b>					
<b>4</b>					

Oponentlar	Dokladga qilingan qo'shimchalar 40%	Munozarada qatnashganligi 20%	Savollar		Jami
			Miqdori	Sifati	
<b>1</b>					
<b>2</b>					
<b>3</b>					
<b>4</b>					

Diskussiya qatnashchilari	Savollar (0,1 har biri uchun )	Maqsadlilik ( 0, 3 )	Qo'shimchalar (0,2 har biri uchun)	Jami
<b>1</b>				
<b>2</b>				

3				
4				

### Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik.-T.: «Fan», 1978-1979.
3. Arastu. Poetika. Ahloqi kabir-T.: «Yangi asr avlodi», 2004
4. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi.-T.: «O'zbekiston»,1993.
5. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi.-T.: «O'qituvchi», 2002.
6. Fitrat. Adabiyot qoidalari.-T.: «O'qituvchi»,1995.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.-T.: «Xalq merosi» nashriyoti, 2004
8. Xotamov N. Xolmatov Sh. Mahmudov M. Adabiyotshunoslikka kirish. T., “O'qituvchi” 1984.
9. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T., “O'zbekiston” 2002.
10. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash.-T.: “Fan”, 2006
11. Ziyonet axborot tarmog'i-[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**Adabiyotshunoslik kafedrası**

***ADABIYOT NAZARIYASI***  
**fanidan**

***MA‘RUZA MATNI***

## **“Adabiyot nazariyasi” fani bo‘yicha ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari**

Ta’lim texnologiyasi insoniylik tamoyillariga tayanadi. Falsafa, pedagogika va psixologiyada bu yo‘nalishning o‘ziga xosligi talabaning individualligiga alohida e’tibor berish orqali namoyon bo‘ladi.

SHulardan kelib chiqqan holda “Adabiyot nazariyasi” kursining ta’lim texnologiyalarini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondashuvlarga e’tibor berish kerak.

**Ta’limning shaxsga yo‘naltirilganligi.** O‘z mohiyatiga ko‘ra bu yo‘nalish ta’lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning to‘laqonli rivojlanishini ko‘zda tutadi. Bu esa Davlat ta’lim standarti talablariga rioya qilgan holda o‘quvchining intellektual rivojlanishi darajasiga yo‘naltirilib qolmay, uningning ruhiy-kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni ham anglatadi.

• **Tizimli yondashuv.** Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam qilishi zarur: jarayonning mantiqiyliqi, undagi qismlarning o‘zaro aloqadorligi, yaxlitligi.

• **Amaliy yondashuv.** SHaxsda ish yuritish xususiyatlarini shakllantirishga ta’lim jarayonini yo‘naltirish; o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha layoqati va imkoniyatlarini, sinchkovligi va tashabbuskorligini ishga solishni hart qilib qo‘yadi.

• **Dialogik yondashuv.** Ta’lim jarayonidagi ishtirokchi sub’ektlarning psixologik birligi va o‘zaro hamkorligini yaratish zaruratini belgilaydi. Natijada esa, shaxsning ijodiy faolligi va taqdimot kuchayadi.

• **Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish.** Demokratiya, tenglik, sub’ektlar munosabatida o‘qituvchi va o‘quvchining tengligi, maqsadini va faoliyat mazmunini birgalikda aniqlashni ko‘zda tutadi.

• **Muammoli yondashuv.** Ta’lim jarayonini muammoli holatlar orqali namoyish qilish asosida o‘quvchi bilan birgalikdagi hamkorlikni faollashtirish usullaridan biridir. Bu jarayonda ilmiy bilishning obektiv ziddiyatlarini aniqlash va ularni hal qilishning dialektik tafakkurni rivojlantirish va ularni amaliy faoliyatda ijodiy ravishda qo‘llash ta’minlanadi.

• **Axborot berishning eng yangi vosita va usullaridan foydalanish,** ya’ni o‘quv jarayoniga komputer va axborot texnologiyalarini jalb qilish.

Yuqoridagi konseptual yondashuv va “Adabiyotshunoslikka kirish” fanining tarkibi, mazmuni, o‘quv axborot hajmidan kelib chiqqan holda o‘qitishning quyidagi usul va vositalari tanlab olindi.

• **O‘qitish usullari va texnikasi:** muloqot, keys stadi, muammoli usul, o‘rgatuvchi o‘yinlar, “aqliy hujum”, insert, “Birgalikda o‘rganamiz”, pinbord, ma’ruza (kirish ma’ruzasi, vizual ma’ruza, tematik, ma’ruza-konferensiya, aniq holatlarni yechish, avvaldan rejalashtirilgan xatoli, harhlovchi, yakuniy).

• **O‘qitishni tashkil qilish shakllari:** frontal, kollektiv, guruhiy, dialog, polilog va o‘zaro hamkorlikka asoslangan.

• **O‘qitish vositalari:** odatdagi o‘qitish vositalari (darslik, ma’ruza matni, tayanch konspekti, kodoskop)dan tashqari grafik organayzerlar, komputer va axborot texnologiyalari.

• **O‘zaro aloqa vositalari:** nazorat natijalarining tahlili asosida o‘qitishning diagnostikasi (tashxisi).

• **Boshqarishning usuli va vositalari.** O‘quv mashg‘ulotini texnologik karta ko‘rinishida rejalashtirish o‘quv mashg‘ulotining bosqichlarini belgilab, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘quvchi va o‘qituvchining hamkorlikdagi faoliyatini talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini aniqlab beradi.

• **Monitoring va baholash.** O‘quv mashg‘uloti va butun kurs davomida o‘qitish natijalarini kuzatib borish, o‘quvchi faoliyatini har bir mashg‘ulot va semestr davomida reyting asosida baholash.

### **Ma’ruza mashg‘ulotini tashkil etishning shakl va xususiyatlari:**

#### **№ Ma’ruza shakllari**

#### **O‘ziga xos tavsiflovchi xususiyatlari**

1.	Kirish ma’ruzasi	Fan to‘g‘risida yaxlit tasavvur hamda ma’lum yo‘nalishlar beradi. Pedagogik vazifasi: o‘quvchini ushbu fanning vazifalari va maqsadi bilan tanishtirish, kasbiy tayyorgarlik tizimida uning o‘rni va rolini belgilash, kursning qisqacha harhini berish, fanning yutuqlari va taniqli olimlar nomlari bilan tanishtirib, kelajakdagi izlanishlarning yo‘nalishini belgilash, tavsiya qilingan o‘quv-uslubiy adabiyotlar tahlilini berish, hisobot va baholashning muddatlari va shakllarini belgilash.
2.	Ma’ruza axborot	Ma’ruzaning odatdagi an’anaviy turi. Pedagogik vazifasi: o‘quv ma’lumotlarini bayon qilish va tushuntirish.
3.	Harhlovchi ma’ruza	Bayon qilinayotgan nazariy fikrlarning o‘zagini, ilmiy tushunchalar va butun kurs yoki bo‘limlarining konseptual asosini tashkil etadi. Pedagogik vazifasi: ilmiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish, fanlarning



4	Muammoli ma'ruza	o'zaro aloqadorligini ochish. Yangi bilimlar qo'yilgan savol, masala, holatning muammoliligi orqali beriladi. Bunda o'quvchining o'qituvchi bilan birgalikdagi bilish jarayoni ilmiy izlanishga yaqinlashdi. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv axborotining mazmunini ochish, muammoni qo'yish va uni yechimini topishni tashkil qilish, hozirgi zamon nuqta nazarlarini tahlil qilish.
5	Vizual ma'ruza	Ma'ruzaning mazkur shakli vizual materiallarni namoyish etish hamda ularga aniq va qisqa harflar berishga qaratilgan. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotlarini o'qitishning texnik vositalari va audio, videotexnika yordamida berish.
6	Binar (ikki kishilik) ma'ruza	Bu ma'ruza ikki o'qituvchining yoki ikkita ilmiy maktab namoyondasining, o'qituvchi-talabaning dialogidan iborat. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotlarining mazmunini yoritish.
7	Avvaldan rejalashtirilgan xatoli ma'ruza	Xatolarni izlashga mo'ljallangan mazmuni va uslubiyatida, ma'ruza oxirida tinglovchilar tashxisi o'tkaziladi va qilingan xatolar tekshiriladi. Pedagogik vazifasi: yangi materiallar mazmunini yoritish, berilgan ma'lumotni doimiy nazorat qilishga talabalarni rag'batlantirish.
8	Ma'ruza konferensiya	Avvaldan qo'yilgan muammo va dokladlar tizimi (5-10 minut)dan iborat ilmiy-amaliy dars sifatida o'quv dasturi chegarasida o'tiladi. Dokladlar birgalikda muammoni har tomonlama yoritishga qaratilishi kerak. Mashg'ulot oxirida o'qituvchi mustaqil ishlar va talabalarning ma'ruzalarga yakun yasab, to'ldirib, aniqlashtirib xulosa qiladi. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotning mazmunini yoritish.
9	Maslahat ma'ruza	Turli ssenariylar yordamida o'tishi mumkin. Masalan, 1) «Savol-javob» - ma'ruzachi tomonidan butun kurs bo'yicha yoki alohida bo'lim bo'yicha savollarga javob beriladi. 2) «Savol-javob-diskussiya» - izlanishga imkon beradi. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotni o'zlashtirishga qaratilgan.

## KIRISH. ADABIYOT NAZARIYASI FANINING PREDMETI VA MAZMUNI

1-mavzu	<p style="text-align: center;"><b>Kirish. Adabiyot nazariyasi fanining predmeti va mazmuni</b></p> <p style="text-align: center;">Ma'ruza mashg'uloti texnologiyasi</p> <p style="text-align: center;">vaqti – 2 soat</p> <p style="text-align: center;">O'quv mashg'ulotining shakli</p> <p style="text-align: center;">Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</p>	<p style="text-align: center;"><b>Kirish. Adabiyot nazariyasi fanining predmeti va mazmuni</b></p> <p style="text-align: center;">Talabalar soni: 50 nafar</p> <p style="text-align: center;">Kirish, vizual ma'ruza</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Adabiyotshunoslik asoslari fanining ob'ekti va vazifalari.</li> <li>2. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari: <ol style="list-style-type: none"> <li>a) Adabiyotshunoslikning asosiy sohalari;</li> <li>b) Adabiyotshunoslikning yordamchi sohalari.</li> </ol> </li> <li>3. Fanning tuzilishi, mazmuni va vazifalari.</li> </ol>
	<p><i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> fanning umumiy hajmi, reyting baholash mezonini; adabiyot nazariyasi fani predmeti, fanning o'rganish obyekti haqida ma'lumot berish</p> <p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- fanning umumiy hajmi haqida ma'lumot berish;</li> <li>- reyting va baholash mezonini tushuntirish;</li> <li>- adabiyotshunoslikka kirish fanining o'rganish ob'ekti, uning maqsad va vazifalarini belgilash;</li> <li>- adabiyotshunoslikning tarkibiy va yordamchi sohalari haqida ma'lumot berish;</li> <li>- Harq adabiyotshunosligi to'g'risida tushuncha berish.</li> </ul> <p style="text-align: center;">O'qitish uslubi va texnikasi</p> <p style="text-align: center;">O'qitish shakli</p> <p style="text-align: center;">O'qitish vositalari</p>	<p><i>O'quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p style="text-align: center;">talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- adabiyot nazariyasi fani haqida fikr bildiradilar;</li> <li>- guruh a'zolari fanning o'rganish obyekti, o'rganadigan masalalarni tushuntiradilar;</li> <li>- fanning tarkibiy va yordamchi sohalarining vazifalarini asoslaydilar;</li> <li>- fanni "Adabiyotshunoslikka kirish" fanidan farqlanuvchi o'rinlarini aniqlaydilar</li> </ul> <p style="text-align: center;">vizual-ma'ruza, blits-so'rov, bayon qilish, klaster, "ha-yo'q" texnikasi</p> <p style="text-align: center;">Jamoat, guruh va juftlikda ishlash</p> <p style="text-align: center;">Ma'ruza matni, poyektor, grafik organayzerlar,</p>

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2-bosqich. Asosiy (55 min.)	2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. Adabiyotshunoslikning tarkibiy va yordamchi sohalariga doir tushunchalarini harhlaydi. 2.3. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi.	2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi. O'ylaydi, javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Atamalar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. Ta'rifni yozib oladi, misollar keltiradi.
3-bosqich Yakuniy (10 min)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Adabiyot nazriyasi" so'ziga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

1-ilova.

**1-ma'ruza mashg'uloti bo'yicha bilimlarni mustahkamlash uchun vazifa (Ha, yo'q texnikasi).**

1. Nazariya bilan amaliyot o'zaro muvofiq kelmaydigan o'rinlar bo'ladimi?
2. Vaqt o'tishi hamda jamiyatdagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda adabiyotga doir tushunchalar o'zgaradimi?
3. Adabiyot nazariyasiga oid tadqiqotlarda tilshunoslik masalalari yoritiladimi?

2 – ilova.

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Har bir guruh boshqa guruhlar taqdimotini baholaydi, mezonlar bo'yicha ballarni jamlaydi

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	Maksimal ball	1 guruh	2 guruh	3 guruh	4 guruh
Yechimlar:	1,2				
- muammoni va quyi muammoni to'g'ri shakllantirish	0,4				
- yechimni muammo va quyi muammo shakliga mos kelishi	0,4				
- mantiqiylik, aniqlik, xulosalarning qisqaligi	0,4				
Taqdimot:	1,4				
- javoblarning aniqligi va tushunarililigi	1,0				
- har bir guruh ishtirokchisining faolligi (savollar, qo'shimchalar)	0,4				
Reglament	0,4				
Umumiy ballar yig'indisi	3,0				

1-ekspert varag'i.

1. San'atning paydo bo'lishi adabiyot tarixi bilan bog'liqmi yoki aksincha?.

*(T-sxema, klaster, insert texnikasidan foydalangan holda)*

2-ekspert varag'i.

2. Badiiy adabiyot bilan uning nazariyasi har doim ham bir-biri bilan muvofiqmi?

*(T-sxema, klaster, insert texnikasidan foydalangan holda)*

3-ekspert varag'i.

3. Bir millat adabiyotiga doir nazariy ma'lumotlar boshqa millat adabiyoti uchun nechog'li muhim ahamiyatga ega?

*(T-sxema, klaster, insert texnikasidan foydalangan holda)***Adabiyotlar ro'yxati:**

5. H.Umurov. Adabiyot nazariyasi. T., 2002.

6. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. T., 2005.

7. Aristotel. Poetika. T., 1980.

8. Abu Nasr Farobiy. She'r san'ati. T., 1979.

**O'QUV MATERIALI**

Adabiyot atamasi arabcha "adab" so'zining ko'plik shaklidir. U keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda ishlatilganda kitoblar, risolalar, maqolalar, umuman, ko'pchilikning o'qishi uchun mo'ljallangan nashrlar tushuniladi. Bunday adabiyotlar turli sohalarga bo'linadi va turlicha nomlar bilan yuritiladi: "Qishloq xo'jaligi adabiyoti", "Texnika adabiyoti", "Meditsina adabiyoti", "Badiiy adabiyot" singari. Adabiyot atamasi tor ma'noda qo'llanganda faqat badiiy adabiyotlar (romanlar, qissalar, hikoyalar, she'rlar, balladalar, dramalar, qasidalar) tushuniladi.

Maxsus, tor va profetsional ma'nodagi "adabiyot" atamasi o'zbek adabiy tiliga XX asrning boshlarida kirib kelgan. O'tmishda badiiy adabiyot bilan birga ilmiy, tarixiy, axloqiy kitoblar ham adabiyot atamasi tushunchasi ham doirasiga kiritilgan. O'rta asrlarda shunday asarlar ham yaratilganki, ulardan so'z san'ati ilm-fan, odob-axloq masalalari bilan qorishib ketgan ("Qobusnoma", "Qutadg'u bilig", "Boburnoma" singari). Bundan tashqari sof badiiy asarlar ham "adabiyot" atamasi tushunchasi doirasiga kiritilgan. She'riy asarlar "nazm", "manzuma", "abyot", "she'r" atamalarini bilan nasriy asarlar "nasr" nomi bilan yuritilgan. She'riy to'plamlar uchun "devon", "bayoz" singari atamalar qo'llanilsa-da, umumiy maxsus atama ishlatilmagan. XX asr boshlarida Hamza, Abdulla Avloniy va boshqalar o'zlarining badiiy asarlarini "adabiyot" deb atay boshlaganlar. XX asrning 20-yillariga kelib, badiiy asarlarga nisbatan "adabiyot" atamasini qo'llash odat tusiga kirgan.

Adabiyotshunoslik badiiy adabiyot – so'z san'ati haqidagi fandir. Badiiy adabiyotning muhim xususiyatlarini rus tanqidchisi I.Belinskiy "Adabiyot so'zining umumiy ma'nosi" asarida ko'rsatib o'tadi. Uningcha, adabiyotning eng muhim va umumiy xususiyati 3 tadir:

1. Adabiyot doimo ommaviylikka suyanadi, ya'ni adabiyot boy va kambag'alga, erkak va ayollarga, yoshu-qariga, demak irqi, millati, dinidan qat'iy nazar hammaga birdek xizmat qiladi.

2. Adabiyot ma'lum shaxslar, talant egalari tomonidan yaratiladi. Shu nuqtai nazardan yozma adabiyot bilan xalq og'zaki ijodi bir-biridan farqlanadi. Og'zaki ijodning bunyodkori xalq bo'lsa, yozma adabiyot ma'lum bir shaxslar tomonidan yaratiladi.

3. Adabiyotning badiiylikidir, ya'ni unda hayot obrazlar orqali tasvirlanadi. So'z vositasida inson qalbi kashf etiladi, u orqali hayot jonli qilib, boyitib ta'sirli qilib tasvirlanadi.

"Adabiyotshunoslik" so'zi kelib chiqish jihatdan "adabiyot" so'ziga tojikcha "shinos" (yaxshi bilish, tayin etish) fe'li va o'zbekcha lik qo'shimchasini qo'shilishidan paydo bo'lgan. "Shinos" fe'li o'zbek tili taqozosiga ko'ra, "shunos" shaklini olgan. "Adabiyotshunoslik" atamasiga Qisqacha Adabiyot ensiklopediyasida shunday ta'rif berilgan: Adabiyotshunoslik – badiiy adabiyotni uning mohiyatini, kelib chiqishini va ijtimoiy aloqalarini har taraflama o'rganuvchi fandir; so'z orqali badiiy fikrlashning negizi, zamini, tuzilishi, tarixiy-adabiy jarayonning lokal (ma'lum joy, davrga oid) va umumiy qonuniyatlari haqidagi bilimlar jamidir".

Izzat Sulton "Adabiyot nazariyasi" fan sifatida" nomli maqolasida adabiyotshunoslik haqida shunday deydi:

“1. Adabiyotshunoslikning diqqat markazida dastavval adabiyotning eng yaxshi namunalari, ya’ni klassik asarlar va klassik yozuvchilar ijodi turadi. Ana shunday asarlar va yozuvchilar ijodi tahlili jarayonida badiiy adabiyotning qonuniyatlari, o’ziga xos xususiyatlari kashf etiladi.

2. Adabiyotshunoslik tarixiy-adabiy jarayon – adabiyotning ma’sum bir davrda rivojlanish haroiti va yo’llarini o’rganadi, qonuniyatlarini ochadi.

3. Adabiyotshunoslik adabiyotni yaratuvchilarning o’zlarining adabiyot va tarixiy –adabiy jarayon haqida aytgan fikrlari ham hisobga oladi, ularga tayanadi. Demak, adabiy klassika, buyuk yozuvchilarning adabiyot haqidagi fikrlari, tarixiy-adabiy jarayon va uning hamma arboblari faoliyati, ijodiy mahsuloti – adabiyotshunoslikning ob’ektidir.

Adabiyotshunoslikning asosiy vazifasi biridan, adabiy jarayonni, adabiyot taraqqiyoti an’analari, qonuniyatlari- chuqur o’rganishdan iborat. Adabiyotshunoslik badiiy adabiyoti zamon talablari asosida tinimsiz rivojlanib borishga va xalqqa xizmat qilishga da’vat etadi. Ikkinchidan, adabiyotshunoslik kitobxonning estetik didini shakllantirishga, uni nazariy jihatdan qurollantirishga xizmat qilishi kerak”.

Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari ikkiga bo’linadi:

I. Adabiyotshunoslikning asosiy sohalari:

1. Adabiyot nazariyasi – so’z san’atining mohiyati, sotsial tabiati, taraqqiyot qonuniyatlari, kishilik jamiyati rivojidadagi o’rni va rolini, o’ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi.

2. Adabiyot tarixi – so’z san’atining vujudga kelishi va rivojlanishini tadqiq etadi. Kishilik jamiyatining rivojida badiiy adabiyotning roli va ahamiyatini belgilaydi. Adabiyot tarixi adabiyot nazariyasi qoidalariga suyanib ish ko’radi va, ayni chog’da, uni yangi ilmiy xulosalar bilan boyitadi.

3. Adabiy tanqid – har bir davrning adabiy hodisalari, yozuvchilari ijodi haqida o’z vaqtida muhokama yurgizadi, ularni badiiy adabiyotning vazifalari va o’z zamonasining ijtimoiy talablari nuqtai nazaridan tahlil etadi, baholaydi.

II. Adabiyotshunoslikning yordamchi sohalari:

1. Adabiyotshunoslik istoriografiyasi – adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqidning barcha davrlardagi tarixiy taraqqiyotiga oid materiallar majmui, ularning umumlashmasi. Istoriografiya adabiyotshunoslik fanlari erishgan yutuqlarni umumlashtirish yo’li bilan uning taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

2. Matnshunoslik – tadqiq etish, harhlash, ommabop yoki akademik nashrga tayyorlash maqsadida adabiyot va folklor asarlarini o’rganish, ularning yaratilishi tarixini aniqlash, aslga yaqinroq matnini tiklash ishlari bilan shug’ullanadi. Matnshunoslik badiiy asarning u yoki bu nusxasi yoxud nashri nechog’li mukammal, nomukammalligi bilan shug’ullanadi.

3. Adabiyot bibliografiyasi – badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikka oid asarlar ko’rsatkichi matnlar, maqolalar, materiallar va manbalarni aniqlaydi, tadqiq etilayotgan mavzuning ishlanish tarixini kuzatib borishga yordam beradi.

Bibliografiyaning ikki tipi mavjud: a) ilmiy tadqiqot ishlariga yordam beradigan bibliografiya;

B) o’qish uchun tavsiya qilinadigan asarlar bibliografiyasi.

“Adabiyotshunoslik asoslari” fani uch bo’limdan iborat:

1-bo’lim: “Badiiy adabiyot haqida ta’limot”.

2-bo’lim: “Badiiy asar haqida ta’limot”.

3-bo’lim: “Adabiy jarayon” deb nomlangan. Kurs davomida adabiyot nazariyasining asosiy tushunchalari xaqida ma’lumot beriladi. Adabiyot tarixi va nazariyasining asosiy tushunchalari xaqida ma’lumot beriladi. Adabiyot tarixi va nazariyasini o’rganish uchun hart-haroitlar yaratiladi. Bu kursda, asosan, badiiy adabiyotning umumiy xususiyatlari, badiiy asar tabiati va adabiy jarayonning eng muxim muammolariga e’tibor qilinadi.

### Savol va topshiriqlar:

1. “Adabiyotshunoslik” atamasining etimologiyasi haqida gapiring.
2. Adabiyotshunoslik tarkibiga qanday predmetlar kiradi va ular o’rtasida qanday aloqadorlik bor?
3. Harq klassik adabiyotidagi qaysi asarlarda adabiy-nazariy fikrlar bayon etilgan? Ularning o’xshash va farqli tomonlari haqida gapiring.
4. Adabiyotni sinflarga bo’lishib o’rganish noto’g’ri ekanligini fikrlaringiz asosida isbotlang.

## II MAVZU. SAN'ATNING TURLARI

2-mavzu	San'atning turlari
	Ma'ruza mashg'uloti texnologiyasi
vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 50 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	axborot vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. San'at tushunchasi.
	2. San'atning turlari.
	3. So'z san'ati.
	4. Xulosa.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> san'at va uning turlari: so'z san'ati, musiqa, haykaltaroshlik, rasm va hokazolar haqida tushuncha berish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	
-San'at tushunchasi.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i>
-San'atning turlari.	talaba:
-So'z san'ati tushunchalarini tushuntirish.	-san'at tushunchasi mohiyatini anglaydi;
	-san'at va uning turlari haqida bilim oladi
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, sinkveyn, blits-so'rov, grafik organayzer: klaster, konseptual jadval
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamo'a va juftlikda ishlash
O'qitish vositalari	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r
O'qitish hart-haroiti	Namunadagi auditoriya

### Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu, maqsad va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Reja va muammoli holatlarni ifodalovchi savollarni ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadi, yozib oladilar. 1.2. E'tibor beradilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 min.)	2.1. Asosiy kategoriya va tushunchalarni va ma'ruza oxirida yechiladigan masalalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qilinadi.	2.1. Aniqlik kiritadilar. Savollar beradi.
3-bosqich. asosiy (55 min)	3.1. Tanlangan savol bo'yicha bilimlarni mustahkamlash uchun "Sinkveyn" usulidan foydalangan holda har bir omilga ta'rif beradi. 3.2. San'at jarayonining mohiyati bilan tanishtiradi. 3.3. San'atning umumiy va pirovard masalalarga ta'rif beradi.	3.1. Omillarni sanaydi. Ta'riflarni yozib oladilar. 3.2. Yozib oladilar, muhokama qiladilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. 4.2. Mustaqil ishlash va nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun savolarni beradi: san'at kategoriyalariga "Sinkveyn" misoli yordamida ta'rif berishni topshiradi.	4.1. Eshitadi. Aniqlashtiradi. 4.2. Topshiriqni yozib oladilar.

1-ilova.

### "Sinkveyn" (5 qator) texnikasi

Maqsad – tushunchaga xarakteristika berish

Sinkveyn sxemasi:

1–qator – tushuncha (SAN'AT);

2-qator – tushunchani tavsiflovchi 2 ta to'rtlik;

3-qator – ushbu tushuncha vazifalari to'g'risidagi 3 ta aforizm;

4-qator – ushbu tushuncha mohiyati to‘g‘risidagi 4 so‘zdan iborat so‘z birikmasi;  
5-qator – ushbu tushuncha sinonimi.

2 – ilova.

### Baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari

Har bir guruh boshqa guruhlar taqdimotini baholaydi, mezonlar bo‘yicha ballarni jamlaydi

Baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari	Maksimal ball	1 guruh	2 guruh	3 guruh	4 guruh
Yechimlar:	1,2				
- muammoni va quyi muammoni to‘g‘ri shakllantirish	0,4				
- yechimni muammo va quyi muammo shakliga mos kelishi	0,4				
- mantiqiylik, aniqlik, xulosalarning qisqaligi	0,4				
Taqdimot:	1,4				
- javoblarning aniqligi va tushunariligi	1,0				
- har bir guruh ishtirokchisining faolligi (savollar, qo‘shimchalar)	0,4				
Reglament	0,4				
Umumiy ballar yig‘indisi	3,0				

### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. T., 2005.
2. N.Umurov. Adabiyot nazariyasi. T., 2002.

### O‘QUV MATERIALI

San‘at ijtimoiy ong shakllaridan biri, insoniyat ma‘naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni amaliy-ma‘naviy anglashning turidir. O‘z ichiga tasviriy san‘at, arxitektura, musiqa, kino, badiiy adabiyot va boshqalarni oladi. San‘atning turli ko‘rinishlari voqelikni, undagi hodisa, narsa va holatlarni o‘zlariga xos usullar yordamida aks ettiradi. Lekin shu bilan birga ular o‘rtasida ma‘lum umumiylik mavjud. Bu umumiylik shundan iboratki, ularning hammasida voqelik badiiy-obrazli tarzda aks ettiriladi.

San‘atni tushunish, uning kishilar hayotidagi rolini aniqlash masalasi butun insoniyat madaniyati tarixi davomida keskin bahslarga sabab bo‘lib kelgan. Masalan, ba‘zi san‘atshunoslar san‘atni “tabiatning taqlidi” yo “voqelikning aks ettirilishi” deb hisoblasalar, boshqalari “san‘atkorning sof subyektiv ijod mahsuli”, “o‘z-o‘zini izhor etishdir” deb bilganlar.

San‘at juda qadimiy tarixga ega. U jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog‘liq holda vujudga kelgan.

San‘at ham hayot jumboqlaridan saboq beradi. Lekin u obrazlar orqali fikrlashdir. Tabiiyki, bu jonlilik va ravshanlik, ta‘sirdorlik va ommaviylik, noziklik va mukammallik san‘at turning har birida o‘z tili orqali ro‘yobga chiqadi. Rassomlikda badiiy obraz yaratish chiziqlar, ranglar, yorug‘lik va soya til vazifasini o‘tasam xoreografiyaning tili inson tanasining o‘ziga xos ifodali harakati sanaladi.

San‘atning turlari.

Portret - rangtasvir janrlari ichida eng qadimiylaridan bo‘lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Portret janrida ishlangan tasviriy san‘at asarlari bizga musavvir yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin etadi.

Avtoportret - portret janrining ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, musavvir o‘zining tashqi qiyofasini o‘zi tasvirlaydi.

Manzara - janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko‘rinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Ayrim musavvirilar vodiylarni, tog‘u-toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo‘lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda mohirdirlar. Manzara janrida musavvirlardan O‘.Tansiqboyevning “O‘zbekistonda mart”, “Jonajon o‘lka”, “Mening qo‘shig‘im”, N.Kashinaning “Tog‘da bahor”, Z.Inog‘omovanning “Arpa o‘rimi”, “Choyga”, R.Temurovning “Bibixonimda bahor”, “Ulug‘bek madrasasi” asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi.

Natyurmort - fransuzcha soʻz boʻlib, “jonsiz tabiat” degan maʼnoni anglatadi. Bu janrda musavvir asosan insonni oʻrab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qoʻllaniladigan buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi. U oʻz asarida tevarak-atrofdagi narsalarni tasvirlash orqali uning xarakterli xususiyatlarini, voqea qaysi davrda roʻy berayotganligini ham koʻrsata oladi. Taniqli ijodkor musavvirlardan R.Axmedov, L.Salimjonova, Gʻ.Abdurahmonov va boshqalar natyurmort janrida barakali ijod qilmoqdalar.

Tarixiy janrda ishlangan suratlar orqali biz uzoq oʻtmishda boʻlib oʻtgan voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyati bilan tanishamiz. Tarixiy janrning koʻrinishlaridan biri jang (botal) manzaralaridir.

Botal janr - “botal” fransuzcha soʻz boʻlib, “jang”, “urush” maʼnosini bildiradi. U jang manzaralarini oʻzida aks ettiradi. Bu janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy oʻrinni egallaydi. Botalist - rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qahramonligi, mardligi, jasorati hamda oʻz ona Vataniga boʻlgan cheksiz muhabbati ifodalanadi. Leonardo da Vinchi, M.B.Grekov, G.K.Savitskiy, A.A.Deyneka, V.V.Volkov va boshqalar ana shunday musavvirlardandir. Taniqli ijodkor M.Nabiyevning “Spitamen qoʻzgʻoloni”, musavvir R.Rizamuhammedovning “Muqanna qoʻzgʻoloni”, musavvir T.Sodiqovning “Toʻmarisning qasosi” nomli asarlari bunga yorqin misol boʻla oladi.

Animalistik - janr oʻzgacha tasviri sanʼat turidir. U lotincha “anima”, “hayvonot olami” degan maʼnoni bildiradi. Animalistik rassom hayvonot dunyosiga zoʻr qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondoshadi.

Hayvonot dunyosi ibtidoiy odamlar hayotida katta ahamiyatga ega boʻlgan. Oʻsha davrda ular gʻorlarining devorlariga kiyik, qoʻtos, mamontlarning suratlarini chizganlar.

Qadimga Yaponiya va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar tuzishda hamda monumental kompozitsiyalar yaratishda asosiy hisoblangan. XVI asrga kelib hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar Leonardo da Vinchi va A.Dyurerlar ishladilar.

Keksa haykaltarosh va grafik musavvir V.A.Vatagin oʻzining asarlarida toʻrt oyoqli doʻstlarini haqqoniy va ishonchli tasvirlaydi.

Maishiy janr: tasviriy sanʼatda bu janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli voqealarni oʻzida mujassamlashtiradi. Aksariyat rangtasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XVII asrda yashab ijod etgan Golland rassomlari - Piter de Xox, Ostade, Sten, Terborx, Vermer kabilar ijodida namoyon boʻladi. Realist rassomlardan P.Fedotov, V.Perov, V.Maksimov, V.Makovskiy, K.Savitskiy, I.Repin kabilar maishiy janrning taraqqiyotiga katta hissa qoʻshdilar. Oʻzbek rassomlaridan R.Axmedov, M.Saidov, Z.Inogʻomov, R.Choriyev, Gʻ.Abdurahmonovlar ham shu janrning yetuk vakillari hisoblanadilar. Mashgʻulot rahbari oʻquvchilarga nazariy bilim berish jarayonida mazmuniy toʻliq ochib berishi uchun jonli nutq orqali soʻzlash bilan birga musavvirlar asarlaridan surat-lavhalar, adabiyotlar, kino va diafilmlar va slaydalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Badiiy adabiyot oʻquvchining hissiyoti va shuuriga kuchli taʼsir koʻrsatadi. Asar qahramonlariga taqlid qilish yoki ulardan nafratlanish hissini uygʻotadi. Hayotni obrazlar orqali aks ettirish jihatidan sanʼat turlari oʻrtasida umumiylik, oʻxshashlik, mushtaraklik mavjud boʻlsa-da obraz yaratish jarayonida sanʼatning har bir turi uning faqat oʻzigagina xos boʻlgan ifoda vositalaridan foydalaniladi. Adabiyot soʻz vositasida obraz yaratganligi sababli sanʼatning boshqa turlariga nisbatan hayotni va insonni mumkin qadar toʻlaroq ifodalash imkoniga ega. Shuning uchun ham adabiyot inson maʼnaviyatiga kuchli taʼsir koʻrsatadi. uni boyitishi, goʻzallashtirishi, komillikka yetaklashi mumkin.

Badiiy adabiyotda hayot voqealari, inson ruhiy kechinmalari, qarashlari, orzu-umidlari, oʻy-xayollari tasvirlanadi. Sanʼatning boshqa turlari singari adabiyot ham hayot jumboqlaridan saboq beradi. Lekin bu obrazli fikrlashdir. Tabiiyki, bu jonlilik va ravshanlik, taʼsirdorlik va ommaviylik, noziklik va mukammallik sanʼatning har turida “oʻz tili” orqali roʻyobga chiqadi. Adabiyotda til, kompozitsiya, ohang, retimlar vositasida badiiy obrazlar yaratiladi. Har bir badiiy asarning yaratilishida quyidagilar asosiy rol oʻynaydi: 1. Hayot. 2. Uni mushohada va muhokama natijasida yozuvchi ongida tugʻilgan fikr. 3. Shu fikr (gʻoya) ni ifoda etish uchun yozuvchi tomonidan yaratilgan asar. Bular hayot, uning voqealari taassurotlar orqali yozuvchining ongiga kirishi, aql ishtirokida maʼlum maʼno kasb etishi va tasavvurda pishib yetilib adabiyot asari sifatida namoyon boʻlishini anglatadi. Demak badiiy asar hayotning yozuvchi ongidagi inʼikosi tariqasida maydonga keladi. Bu inʼikosning shakli xilma-xildir. Nasr (hikoya, afsona, rivoyat, qissa, roman) shaklida, nazm koʻrinishida tasvirlanishidan tashqari satira va yumor koʻrinishida, felʼeton, ochert kabi xillar va janrlar orqali inʼikos ettiriladi. Hayot adabiyotning mazmunini, ham shaklini tayin etadi.

Badiiy ijod jarayoni hayotni oʻrganish, undan maʼlum xulosa va saboqlar chiqarish, hayotiy va jonli tushunchalardan dars olish, hayotni qayta qurish jarayonidir. Demak, hayot – adabiyot va sanʼatning tasvir obʼektidir. Uning tasvir markazida inson, insonning hayoti hatti-harakatlari, his-tuygʻulari, kurashi, sevgisi, rashki, quvonchi va dard-alamlari turadi. Shunga koʻra, inson sanʼat va adabiyotning bosh predmetidir.

V.Belinskiyning ta'kidlashicha, qadimgi hind poeziyasida tabiat ilohiylashtirilgan. Birinchi o'rinda o'simliklar, ilonlar, qushlar, hayvonlar ko'rsatilgan. Odam esa tabiatga esa tobiy, yordamchi ikkinchi darajali kuch sifatida berilgan. San'at taraqqiyotining navbatdagi bosqichida – Qadimgi Misr, mifologiyasida bahaybat hayvonlar va xudolar obrazlari orasida inson qiyofasi ham ko'rina boshlagan. Faqat qadimgi yunon san'atidan boshlab (Aristotel ham "Poetika" asarida guvohlik beradi) inson san'at asarining bosh predmeti bo'lib xizmat qilgan.

San'at ana shu vaqtdan boshlab Insonni o'rganishga, uni kashf etishga bor kuch-qudratini sarflab kelmoqda. "Inson tasviri yo'q joyda badiiy adabiyot yo'q" hukmiga amal qilmoqda. Ma'lumki, insondan tashqari, uni o'rab olgan tabiat jamiyat, hayvonot va o'simliklar dunyosi ham tasvirlanadi. Ammo ular faqat bir hart bilan tasvirlanadilar, ya'ni ular inson xarakteri va ruhiy holatining u yoki bu qirrasini ochishga xizmat qilishlari lozim. Inson va uning ruhiyati tasviri bo'lmasa, aytilgan narsalar bu tasvirni, insoniy xislatni ochmasa, uning adabiyotga daxli yo'qdir.

Insoniy anatomiya, kardiologiya, pedagogika, psixologiya kabi fanlar ham o'rganadi. Jumladan, psixologiya miyaning ob'ektiv voqelikni aks ettirish jarayonidagi ruhiy holatlarini o'rgansa, stomatologiya – inson jag'i va tishlari bilan shug'ullanadi. Ularning birortasi ijobiy yaxlit va jonli tarzda o'rganmaydi. Faqat adabiyotgina insonning tashqi va ichki hayotini, moddiy va ma'naviy dunyosini ma'naviyati va san'atini to'la va atroflicha, yaxlit va jonli tarzda o'rganadi, tahlil qiladi, tasvirlaydi.

Adabiyotning bosh predmeti inson hayotida ko'pchilikni qiziqtiradigan hodisalar bo'ladi. Ayni paytda adabiyotda tasvirlangan, qayta yaratilgan olam insonning ong-shuuriga qattiq ta'sir qiladi; uning fikr-tuyg'ularini insoniylik bilan boyitadi, kamol topishiga turtki va dars beradi.

Xullas, adabiyotning tasvir obyektini hayot, tasvir predmeti-inson, vazifasi – inson tuyg'ularini tarbiyalashdir.

### Savol va topshiriqlar:

1. Fan, san'at va adabiyotning bir-biriga bog'liq jihatlari nimada? Ularning farqli jihatlari haqida fikr yuriting.
2. San'at va uning turlarini sanang.
3. Tabiat, hayvonot olami, muhit va predmetlar san'at asarida qanday vazifa bajaradi? Biror asar misolida tushuntirib bering.

### III MAVZU. ADABIYOT – SO'Z SAN'ATI

3-mavzu	Adabiyot – so'z san'ati
	Ma'ruza mashg'uloti texnologiyasi
vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 50 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot ma'ruza, birgalikda o'qish usuli va "BBB" jadvali grafik organayzeridan foydalangan holda.
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Adabiyotning so'z san'ati ekanligi. 2. Adabiyot atamasining mazmuni. Adabiyotning uch xususiyati. 4. Xulosa.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> adabiyotning so'z san'ati ekanligi, adabiyot atamasining mazmuni va adabiyotning uch xususiyati haqida ma'lumot berish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i>
-Adabiyotning so'z san'ati ekanligi;	talaba:
-Adabiyot atamasining mazmuni;	- ta'riflarni yozib oladi, yod oladi, mazmun va shakl tushunchalariga mustaqil ravishda misollar keltiradi.
-Adabiyotning uch xususiyati tushunchalarini tushuntiradi	Axborot ma'ruzasi, insert, blits-so'rov, prezentasiya, grafik organayzer texnikalari, aniq holatlarni yechish, B.B.B.
O'qitish uslubi va texnikasi	Frontal ma'ruza, individual, guruh bilan ishlash
O'qitish shakli	Ma'ruza matni, proektor, qog'oz, marker, doska, bo'r
O'qitish vositalari	Namunadagi auditoriya
O'qitish hart-haroiti	



Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi  
Faoliyat mazmuni

Bosqichlar, vaqti	O'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzu va rejasini ma'lum qiladi. Erishadigan natijalar bilan tanishtiradi. Mazkur mashg'ulot muammoli tarzda o'tishini e'lon qiladi.	1.1. Eshitadi, yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborini rejadagi savollar va ulardagi tushunchalarga qaratadi. Blits-so'rov o'tkazadi. 2.2. Bilimlarni yanada aniqlashtirish maqsadida BBB jadvalini daftarga chizishni taklif etadi. Doskaga chiqaradi. 2.3. Muammoli savolni o'rtaga tashlaydi va ularni birgalikda o'qishga chorlaydi. 2.4. Muammoni hal qilish uchun savollarga aniqlik kiritadi.	2.1. Talabalar javob beradilar, daftarlarga chizadilar, jadvalning 1 va 2 ustunlarini to'ldiradilar. 2.2. Muammoga e'tiborni qaratadilar va yozib oladilar. 2.3. Yozib oladilar va o'z bilimlari bilan solishtiradilar. 2.4. Muammo yuzasidan o'z yechimlarini taklif qiladilar. Munozara qiladilar. Javob beradilar.
3-bosqich Yakuniy (10 min)	3.1. Mavzuga xulosa qiladi. 3.2. Rejadagi natijaga erishishda faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: "Badiiy obrazning badiiy asardagi o'rni" mavzusida esse yozishni topshiradi.	Eshitadi, yozib oladilar

1-ilova.

**BBB texnikasini qo'llash qoidalari**

№	Mavzu savoli	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim
1	2	3	4	5
1	So'z san'ati			
2	Adabiyot atamasining mazmuni			
3	Adabiyotning xususiyati	uch		

2-ilova

**ESSE**

**Esse** – taklif etilgan mavzuga 1000 dan 5000 gacha so'z hajmidagi insho.

**Esse** – bu muallifning shaxsiy nuqtai nazarini yozma ravishda erkin ifoda etish shakli; qandaydir predmet bo'yicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o'z ichiga oladi.

**Besh daqiqalik esse**

**Besh daqiqali esse** – o'rganilayotgan mavzu bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida o'quv mashg'ulotida oxirida 5 daqiqa oralig'ida olib boriladi.

3 – ilova.

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Har bir guruh boshqa guruhlar taqdimotini baholaydi, mezonlar bo'yicha ballarni jamlaydi

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	Maksimal ball	1 guruh	2 guruh	3 guruh	4 guruh
Yechimlar:	1,2				
- muammoni va quyi muammoni to'g'ri shakllantirish	0,4				
- yechimni muammo va quyi muammo shakliga mos kelishi	0,4				
- mantiqlik, aniqlik, xulosalarning qisqaligi	0,4				

Taqdimot:	1,4
- javoblarning aniqligi va tushunarligi	1,0
- har bir guruh ishtirokchisining faolligi (savollar, qo'shimchalar)	0,4
Reglament	0,4
Umumiy ballar yig'indisi	3,0

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. T., 2005.
2. N.Umurov. Adabiyot nazariyasi. T., 2002.

### O'QUV MATERIALI

Badiiy adabiyotning asosiy ish quroli so'zdir. O'zi ko'zga ham ko'rinmaydigan so'z yordamida nafaqat atrofdagi narsa-hodisalar, balki boshdagi o'ylar, ko'ngildagi sezimlargacha ifodalash mumkin. Shuning uchun ham san'at turlari orasida adabiyot alohida o'rin tutadi. Insonning o'y xayollari, istag-u armonlari badiiy adabiyotda to'laroq aks ettiriladi. Shuningdek, badiiy adabiyotda tasvirlangan hayot serqirra va ta'sirli bo'ladi. Tasavvur qilaylik, siz «Alpomish» dostonini o'qiyapsiz. Bilasizki, asardagi voqealar bundan minglarcha yillar oldin qayerdadir, kimlar bilandir ro'y bergan, ehtimol, hech qachon bo'lmagandir ham. Asar qahramonlari sizga qarindosh ham, yaqin ham emaslar. Lekin ularning taqdiri sizning taqdiringizga, ularning tuyg'ulari siznikiga qo'shilib ketadi, o'zingizni ulardan ayri tasavvur qilolmaysiz. Doston qahramonlari taqdirining, umuman, ba-diiy asarning tuyg'ularingizga bunchalar qattiq ta'sir ko'rsatishi, sizning sezimlaringizni bezovta qilishi sababi haqida beixtiyor o'ylab qolasiz.

Badiiy adabiyot, umuman, san'at asarlarining inson ruhiyati va ta-fakkuriga ta'siri sababi nimada ekan? Bu savolga beriladigan javob tushu-narliroq bo'lishi uchun badiiy va ilmiy adabiyotni solishtirib ko'rish kerak. Avvalgi sinflardan yaxshi bilasizki, "Tabiatshunoslik" va «Geografiya» o'quv fanlari orqali kecha-kunduzning eng go'zal va so'lim fursati bo'lmish tong to'g'risida, yer harini nurlari bilan yoritib, unga hayot baxsh etuv-chi Quyosh haqida bir talay ma'lumotlar beriladi. Quyosh bo'lmasa, yerda tiriklik bo'lishi mumkin emasligi va buning sabablari ilmiy yo'sinda tu-shuntiriladi. Bu maTumotlar sizning bilimingizni oshirgan. Ular yordamida siz tongga xos belgilarning namoyon bo'lish tarzi haqida ma'lum tushun-chaga ega bo'lgansiz. Bu xil bilimlar, shubhasiz, sizning tafakkuringizni o'stirgan-u, ammo hissiyotingizga, tuyg'ularingizga deyarli ta'sir qilmagan. Endi shoir Faxriyor tongning otishini qanday ifodalaganiga e'tibor qiling:

Tong o'rniga qayg'ular otar  
Kimni?

Shoir tong nimaligini, uning qanday otishini tasvirlash o'rniga sizni tong otishi hodisasidan tamoman uzoqqa adashtirib ketdi. E'tiboringizni tong o'rniga qayg'ular otishiga qaratdi va bildirmaygina savol qo'ydi: Kimni? Siz tongni esdan chiqardingiz va o'sha "kimni?" haqida xayolga cho'masiz. She'rning sehri, so'zning siri ayni shu yerda namoyon boiadi. Sizning ruhingiz bezovtalanib, o'ylay boshlaysiz. Ehtimol, shoir tuni bilan uxlamay azob-lanib chiqqandir? Balki otayotgan tong unga yangi tashvishlar keltirishidan xavotirdadir? Siz o'zingizning shunga o'xshabroq ketadigan holatlaringizni yodga tushirasiz, ularni taftish qilasiz. So'ng beixtiyor so'zlarning ma'nosiga e'tibor qaratasiz: qayg'ular kimni, nima bilan, qanday otarkin?

Adabiyot keng ma'noda **ilmiy** va **badiiy** singari ikki turga bo'linadi. Ilmiy adabiyot tushunchasi inson aqlining mahsuli bo'lmish ijtimoiy aha-miyatga ega har qanday yozma asarni o'z ichiga oladi. Texnikaviy, ilmiy, ma'rifiy, publitsistik, memuar, tarixiy, ensiklopedik, lug'atshunoslik va boshqa yo'nalishdagi adabiyotlar ilmiy adabiyot tushunchasiga kiradi. Ilmiy adabiyot kishining aqlini o'stirib, uning bilimlarini ko'paytirishga xizmat qiladi. Badiiy adabiyot tushunchasi esa o'z ichiga olamni obrazli ko'rish va timsollar asosida aks ettirish mahsuli bo'lmish badiiy asarlarni oladi. Bu xil asarlar nimanidir o'rganish, bilib olish uchun emas, balki inson qalbining tovlanishlarini, tuyg'ularining ranginligini his etish, uning quvonchu iztirob-larini tuyish uchun o'qiladi. Shu bois kishilar tomonidan o'qilib, hissiyotni boyitish, ruhiyatga singdirish ko'zda tutilib yaratilgan bitiklar badiiy adabiyot bo'ladi va adabiyot atamasi asosan shu ma'noda qo'llaniladi.

Badiiy adabiyotning qachon paydo bo'lganligini aniq aytish qiyin. Chunki ilmiy adabiyot atamasi yozma mahsulotlarnigina qamrab olsa, badiiy adabiyot tushunchasi og'zaki ijodni ham o'z ichiga oladi. Xalq og'zaki ijodi-ning qachon paydo bo'lganligini aniqlash deyarli mumkin emas. Har holda, odamzod paydo bo'lishi bilan uning badiiy ijodi ham dunyoga kelgan bo'lishi kerak. Qadimgi rivoyatlarda birinchi she'r Odam Ota tomonidan yaratilgan-ligi aytiladi va bunga ishonmaslikka haqqimiz yo'q.

Badiiy adabiyot san'atning muayyan shakl-shamoyil hamda ushlasa bo'ladigan moddiy materialga ega boshqa turlaridan imkoniyatining kengligi va aralash (sinkretik)ligi bilan ajralib turadi. Misol uchun

haykaltarosh tosh yoki ganch bilan, rassom bo‘yoq va mato bilan, musiqachi soz va uning torlari bilan, raqqos tana harakatlari bilan ish ko‘radi. Bu san‘at asarlari qayerdan vujudga kelganligini ko‘rish va ijrochini bevosita kuzatish mumkin. Adabiyot ulardan jiddiy farq qilib, badiiy asar yaratiladigan maxsus materialga ega emas. Badiiy asar xoh og‘zaki, xoh yozma bo‘lsin, so‘z yordamida yaratiladi. Ko‘z bilan ko‘rib, qoi bilan tutib boimaydigan so‘zdan istagan bir inson foydalanaveradi. Buning ustiga, san‘atning qolgan barcha turlarida inson hayotining muayyan bir holati, ya‘ni yo buguni, yo bolaligi, yoki quvonchi, yoxud xafaligi aks etadi. Adabiyot shunday san‘atki, unda odam hayotining hoziri qanday tasvirlansa, o‘tmishi ham, kelajagi ham shunday aks ettirilishi mumkin. Yozuvchi insonning eng yuksak fikrlarini, murakkab tuyg‘ularini ko‘z bilan ko‘rishning, quloq bilan eshitishning, biron-bir mucha bilan bilishning imkoni boimagan sezimlarini ham so‘z orqali ifoda etadi.

Ta‘kidlanganidek, badiiy asarda fikr aytish bilangina kifoyalani olmay, kishining tuyg‘u va hissiyotiga ham ta‘sir ko‘rsatishga e‘tibor beriladi. Bunga erishish uchun tasvirni muayyan ohangga bo‘ysundirish, ya‘ni kishi e‘tiborini tortadigan shaklga solish lozim bo‘ladi. Oddiy axborot berish yoki shunchaki aytib qo‘ya qolish bilan inson sezimlariga ta‘sir ko‘rsatib boimaydi. So‘zning obrazlilikini ta‘minlash uchun tilning imkoniyatlaridan ustalik bilan foy-dalanish lozim bo‘ladi. Chunonchi, hazrati Navoiy g‘azalidan olingan:

Azal ham sen, abad ham sen, na avval birla oxirkim,

Unda yo‘q ibtido paydo, bunda yo‘q intiho paydo

baytida Allohning azalligi, abadligi hamda avvallining boshi boimaganidek, oxirining adog‘i yo‘qligi so‘zlarning joylashtirilishi va muayyan tovushlar-ning takrori tufayli g‘oyat jozibali, kishi e‘tiborini tortadigan tarzda aks etgan. Shuningdek, bu misralar o‘qiyotgan kishidan bir qadar aqliy zo‘riqishni ham talab qiladi. Ehtimol, bu satrlarda ifodalangan fikrlar o‘zga kishilar tomoni-dan ham aytilishi mumkindir. Lekin Navoiy singari hissiyotni qo‘zg‘aydigan yo‘sinda aytish boshqa kishining qoidan kelmaydi va ayni shu jihat mis-ralarning ta‘sirchanligini ta‘min etadi.

#### IV MAVZU. SAN‘ATKOR IDEALI

4-mavzu

San‘atkor ideali

Ma‘ruza mashg‘uloti texnologiyasi

vaqti – 2 soat

Talabalar soni: 50 nafar

O‘quv mashg‘ulotining shakli

Vizual ma‘ruza, ikki tomonlama tahlil.

Ma‘ruza mashg‘ulotining rejasi

*O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:* san‘atkor, ideal, san‘atkor ideali to‘g‘risida nazariy ma‘lumot berish.

*Pedagogik vazifalar:*

*O‘quv faoliyatining natijalari:*

-san‘atkor tushunchasini ta‘riflash;

talaba:

-ideal va san‘atkor ideali tushunchalarini tushuntirish.

- ta‘riflarni yozib oladi, yod oladi, mazmun va shakl tushunchalariga mustaqil ravishda misollar keltiradi.

O‘qitish uslubi va texnikasi

Ma‘ruza, hikoya, axborot

O‘qitish shakli

Guruhiy

O‘qitish vositalari

Ma‘ruza matni, proyektor, grafik organayzerlar

O‘qitish hart-haroiti

Namunadagi auditoriya

Ma‘ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar,  
vaqti

Faoliyat mazmuni

O‘qituvchi

talaba

1-bosqich.

1.1. Ma‘ruza mavzusi va rejasi e‘lon qilinadi.

1.1. Eshitadi, yozadi, javob beradi.

Kirish (10 min.)

Avvalgi mavzuga savol-javob orqali bog‘lanadi.

2-bosqich.

2.1. Dars avvalida va so‘ngida “bilaman-bildim” jadvalini to‘ldirish uchun savollar tarqatadi.

2.1. Muammoli savollarga e‘tibor beradi: “bilaman-bildim” jadvalining 1-ustunini to‘ldiradi.

Asosiy (60 min.)

2.2. San‘atkor idealini tushuntirib beradi.

2.3. Ideal tushunchasini ta‘riflaydi.

2.4. BBB jadvalining 2-ustunini to‘ldirishni taklif etadi.

2.2. Eshitadi, yozadi.

2.3. BBB jadvalining 2-ustunini to‘ldiradi

3-bosqich

3.1. Mavzuga xulosa chiqaradi. Asosiy masala ustida to‘xtaladi. BBB. jadvalini to‘ldirishdagi savol-

3.1. Eshitadi, savollarini beradi, yozib oladi.

Yakuniy (10

- min) javoblarni tahlil qiladi va faol talabalarni baholaydi. 3.2. Topshiriqlarni yozib oladi.  
3.2. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beradi:  
muammoli savollarga tayyorgarlik ko'rish.

1-ilova.

### BBB metodi asosida tarqatma materiallar

№	Tushuncha	Bilaman "+", Bilmayman "-".	Bildim "+", Bilaolmadim "-".
1	San'at		
2	San'atkor		
3	Ideal		
4	San'atkor ideali		

2 – ilova.

### Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Har bir guruh boshqa guruhlar taqdimotini baholaydi, mezonlar bo'yicha ballarni jamlaydi

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	Maksimal ball	1 guruh	2 guruh	3 guruh	4 guruh
Yechimlar:	1,2				
- muammoni va quyi muammoni to'g'ri shakllantirish	0,4				
- yechimni muammo va quyi muammo shakliga mos kelishi	0,4				
- mantiqiylik, aniqlik, xulosalarning qisqaligi	0,4				
Taqdimot:	1,4				
- javoblarning aniqligi va tushunariligi	1,0				
- har bir guruh ishtirokchisining faolligi (savollar, qo'shimchalar)	0,4				
Reglament	0,4				
Umumiy ballar yig'indisi	3,0				

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. T., 2005.
2. H.Umirov. Adabiyot nazariyasi. T., 2002.
3. M.Qo'shjonov. Asar kompozitsiyasi. 1980 y. 2-jild.253-256-betlar.
4. J.Kamol. Lirik she'riyatda kompozitsiya. T. 1996.
5. B.Sarimsoqov. Badiiylik asoslari. T.2002.

### O'QUV MATERIALI

San'atkor ideali tushunchasini dunyo san'ati miqyosida tekshirib o'tamiz.

Yevropa, Osiyoning bir qismi hamda Shimoliy Afrikada yashagan xalq va qabilalar san'ati ham qisman antik san'atga aloqadordir. Greklar o'zlarini Ellinlar deb, o'z mamlakatlarini esa Ellada deb ataganlar. Ellada san'ati keyinchalik Iskandar Zulqarnayn bosib olgan juda katta imperiya san'atining rivojlanishiga ta'sir o'tkazdi. Elladaliklar san'ati Qadimgi Rim san'atiga ta'sir etdi. Rimliklar Grek san'atini e'zozladilar, o'rgandilar va uni yangi pog'onaga olib chiqdilar. Antik madaniyat va san'at tarixi 476 yili Rim imperiyasining qulashi bilan tugallanishini ham shu bilan izohlash mumkin.

Antik san'at asrlar mobaynida insoniyatni maftun etib, uni o'ziga jalb etib kelmoqda. Yevropa xalqlari shu san'at va madaniyatga, grek va rimliklar yaratgan ma'naviy boyliklarga murojaat qilib keldilar. Bugungi Yevropa san'ati va teatri, adabiyoti va falsafasi antik dunyoga suyanadi.

Uyg'onish davri, XVII asrda paydo bo'lgan klassitsizm badiiy oqimi namoyandalari ijodi ham antik dunyo san'atiga taqlid qilish asosida rivojlanadi.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan O'zbekiston xalqlari ham ellinlar madaniyati va san'atidan bahramand bo'ldilar. Buni O'zbekiston tuprog'idan topilgan va topilayotgan grek madaniyati va san'atiga oid juda ko'p namunalari yoki ular ta'sirida yaratilgan madaniyat yodgorliklari ham isbotladi.

Egey yoki Krit-Miken san'ati.

Antik madaniyati uzoq vaqt davomida rivojlanib bordi. Uning rivojlanishida Peloponiyes yarim oroli va Egey dengizidagi ko'pgina orollarda, Kichik Osiyoning g'arbiy sohillarida eramizdan avvalgi III-II minginchi yillarda yashagan qabilalar madaniyati muhim rol o'ynadi. Antik dunyoning eng qadimgi tarixi "egey" yoki "krit-miken" madaniyati bilan boshlanadi. Bu madaniyat yodgorliklarining dastlabki arxeologik kashfiyotlari Mikena va Kritda topilganligi va mo'lligi tufayli bu san'at adabiyotlarida ba'zan krit-miken san'ati, deb ham yuritiladi. Egeyo madaniyatining eng gullagan davri eramizdan avvalgi 2000 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda hashamatli me'morchilik kompozitsiyalari, podsho saroylari, tasviriy va amaliy-dekorativ san'at namunalari yaratilgan. Shunday nodir yodgorliklardan biri ingliz arxeologi A.Evans tomonidan Kritdan topilgan Knoss saroyining qoldiqlaridir.

Knoss saroyida ustunlardan keng foydalanilgan. Tosh tagkursiga o'rnatilgan yog'ochdan ishlangan ustunlar Knoss saroyining tepa tomonini ko'tarib turish uchun ishlatilgan. Bu ustunlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular pastga tomon torayib borgan. Saroy devorlariga suratlar ishlangan, pollari esa bejirim naqshlar bilan bezatilgan.

Knoss saroyida ayol tasviri yaxshi saqlangan. Arxeologlar uni "Parijlik ayol" deb nomlaganlar. U shaffof materiallardan to'qilgan libos kiyib olgan. Ayol boshi yon tomonidan ishlangan, ko'zi esa old tomondan tasvirlangan. Monumental haykaltaroshlik belgisi bu yerda uchramaydi. Lekin amaliy-dekorativ haykaltaroshlik va zargarlik san'ati borasida kritiklar nodir yodgorliklar qoldirganlar. Ular toshtaroshlikda juda mohir bo'lib, toshdan vazalar ishlaganlar, nafis bo'rtma tasvirlar yaratganlar. Ayniqsa, turli dengiz hayvonlarining bo'rtma tasviri diqqatni tortadi.

Odatda Qadimgi Gretsiya san'ati tarixi Mikenaning qulashi va Doriylar tomonidan Peloponnes, uning janubida joylashgan orollar, Kritning bosib olinishi bilan boshlanadi va eramizdan avvalgi XI asrdan I asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu tarixiy-badiiy davr to'rt bosqichdan iborat:

- 1). Gomer davri (er.av. XI-VIII asrlar);
- 2). Arxaika davri (er.av. VII-VI asrlar);
- 3). Klassika davri (er.av. V-IV asrlarning dastlabki uch choragi);
- 4). Ellinizm davri (er.av. IV-I asrlar).

Greklar birinchi bor badiiy ijodda insoniyatning asriy muammolarini yechishga urindilar. Ular botirlik, jasorat, Vatan mehri va hur insonning qudratini ulug'ladilar, uning jismoniy go'zalligi va ma'naviy barkamolligini ifodalab, ideal, garmonik kamol topgan inson obrazini yaratishga intildilar. Buyuk Sofoklning "Tabiatda insondan kuchli zot yo'q", - degan fikri davr estetikasi, dunyoqarashini o'zida mujassamlashtirgan. Qadimgi Gretsiyada faoliyatli, davlat manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yadigan insonni ulug'ladilar. Irodali, Vatanni sevadigan va uning uchun kurasha oladigan inson obrazini ideal inson, deb bildilar.

Har to'rt yilda o'tkaziladigan Olimpiya musobaqalari esa, erkin Ellinning jismoniy va ma'naviy shavkatini namoyon etuvchi bayramga aylandi, g'oliblarga haykallar o'rnatildi. Darhaqiqat, Grek san'ati insonning real his-tuyg'ularini badiiy ifoda etishi bilan hamon kishiga zavq-shavq baxsh etmoqda; inson aql-idroki, zakovatini tarannum etib, unga kuch bag'ishlamoqda. Grek san'atining shu jihati Yevropaliklar tomonidan ham, Sharq xalqlari tomonidan ham e'zozlanadi.

Mamlakatimiz san'atkorlari ham bu san'at namunalariга murojaat qilib, o'zlarining mahoratlarini oshirganlar.

Gomer davri san'ati.

Qadimgi Gretsiya tarixining eramizdan avvalgi XI-VIII asrlari Gomer davri deb ataladi. Bu davr san'ati va madaniyatini o'rganishda Gomerning "Iliada" va "Odiseya" dostonlari qimmatli manbaa hisoblanadi. Mikena yozuvlarining o'qilishi shu davrga oid ma'lumotlarning kengayishiga yordam berdi. Gomer davrida hunarmandchilik, ayniqsa, kulolchilik va u bilan bog'liq bo'lgan ko'zaga gul solish san'ati ravnaq topgan. Dastlabki ishlangan kulochilik buyumlari - ko'zalarda qadimgi Grek amaliy-dekorativ san'atining o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu ko'zalar yuzasiga geometrik naqshlar ishlangan bo'lib, ularning shakli ko'rkam naqshlar kompozitsiyasi aniq, siluettlari qat'iy. Bu xususiyatlar buyumga o'zgacha latofat kiritadi.

Diniy marosimlar bilan bog'liq bo'lgan katta hajmdagi Dipilok ko'zalari (Afrika yaqinidagi Dipilon darvozasi yaqinidan topilgani uchun shunday deb nomlangan) shunday xarakterda ishlangan. Gomer asri kulolchilik buyumlari, ko'zalarida geometrik naqshlardan tashqari o'simliklardan ishlangan naqshlar, hayotiy voqealarni sxematik talqin etuvchi tasvirlar uchraydi.

Arxaik Gretsiya san'ati. Eramizdan avvalgi VIII asr oxirlaridan boshlab, ilk sinfiy jamiyat tashkil topa boshlagan. Eramizdan oldingi VII-VI asrlarda arxaik, ya'ni qadimgi (grekcha "arxeyos" - qadimgi demakdir) davr deb nomlanadi. Arxaika davrida Gretsiyada ilmiy fikrlar rivojlanadi. Tibbiyot, astronomiya, tarix, geografiya, matematika taraqqiy qildi, poeziya, adabiyot, teatr kamol topdi, grek yozuvi paydo bo'ldi. Greklar o'zlaridan avvalgi xalqlar, Sharq mamlakatlari - Bobil, Misrning fan va madaniyat borasidagi yutuqlarini chuqur o'rganib, o'zlarining betakror san'at va madaniyatlarini yaratishga muvassar bo'ldilar.

Yuqori klassika. Eramizdan avvalgi V asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Gretsiya siyosiy, iqtisodiy va madaniy ravnaqining oltin davrini boshladi. San'atning hamma tur va janrlari rivojlanib, yuqori klassika davri kishilarining estetik ideal haqidagi tushunchalarini mukammal badiiy obrazlarda ko'rsatadi. Bu taraqqiyotda, so'zsiz, shu davrning yirik davlat arbobi Perikl muhim rol o'ynadi. Yuqori klassika davrida Afina akropoli o'zining tugal ko'rinishini egalladi. Perikl tashabbusi bilan Afinaning ichki qal'asi - Akropol qayta tiklandi. Bu qal'a Eron-Grek urushida vayron bo'lgan edi. Eramizdan avvalgi V asrning uchinchi choragida bu yerda oq marmardan yasalgan grek me'morchiligining nodir durdonalari bo'lgan Parfenon, katta darvozaxona - Propiley, qanotsiz g'alaba ma'budasi Nikaga atab qurilgan Niki Apteros qad ko'tardi. Bu binolar badiiy bezakka boy bo'lgan. Masalan, Propiley devorlari davlatning jangovor o'tmishini tasvirlovchi suratlar bilan bezatilgan. Akropolning ochiq maydonida Afina davlatining kuch-qudratini va ulug'ligini o'zida ifodalab, grek tarixida birinchi bor umumellin birligini namoyish etuvchi me'morchilik ansambli edi. Akropol tepaligining yon bag'irlarida qurilgan ibodatxona va tomoshaxonalar esa uni yanada mo'tabar, muqaddas dargoh darajasiga ko'targan. Grek klassikasi me'morchiligining beqiyos namunasi, yuksak aql-zakovat mevasi va afinaliklar homiysi bo'lgan Afina ma'budasiga bag'ishlangan Porfenon ibodatxonasi hisoblanadi. Eramizdan avvalgi 447-438 yillarda me'morchilik Iktin va Kallikrat tomonidan qurilgan bu ibodatxona afinaliklarning xazinasini saqlash uchun xizmat qilgan. Parfenon ibodatxonasining bezak va haykallari esa davrning buyuk haykaltaroshi, Periklning yaqin safdoshi Fidiy rahbarligida bajarilgan. Bu davrga kelib, haykaltaroshlik yuksak kamolot davriga qadam qo'ydi. O'aykaltaroshlar endilikda odam qomati va yuz tuzilishini to'g'ri tasvirlabgina qolmasdan, o'z asarlarida murakkab harakatlarni ham ifodashga, kompozitsiya yechimining hayotiy bo'lishiga alohida e'tibor bera boshladilar. Shunday masala bilan shug'ullangan yirik haykaltaroshlardan biri Miron hisoblanadi. Uning mashhur asarlaridan biri "Diskobal" (Disk otuvchi) haykalida jismoniy go'zal, ma'naviy kuchli ideal inson obrazi yaratiladi. So'nggi klassika davri haykaltaroshligi realistik tendensiyaning kuchayishi bilan xarakterlanadi. O'aykaltaroshlar o'z qobiliyati, dunyoqarashi, imkoniyatlaridan kelib chiqib, inson ma'naviy olamining turli qirralarini yorita boshlaydilar. Bu xususiyat so'nggi klassikaning buyuk haykaltarohlari Skopos, Praksitel, Lisipp ijodida sezilarli edi.

Davr ziddiyatlari, san'atda sodir bo'layotgan o'zgarishlar so'nggi klassika davrining yirik haykaltaroshi Skopos ijodida o'z ifodasini topdi. U yuqori klassika an'alarini davom ettirib, monumental, qahramonlik ruhi bilan sug'orilgan haykaltaroshlik kompozitsiyalarini ishladi, lekin asarlarida yuqori klassikaga xos xotirjamlik, ulug'vorlik, vazminlik emas, balki serg'ayrat, kuch-quvvatga to'lib-toshgan kishilarning ko'rinishi, ma'naviy ichki dunyosi ochib ko'rsatiladi. Skoposning mashhur asarlaridan biri "Menada" (Vakanka, Dionisning umr yo'ldoshi) haykalidir. Unda raqs dunyosiga cho'mgan, maftun bo'lgan Menada holati tasvirlanadi.

Menadaning berilib raqsga tushayotgan holati orqali tashlangan bosh harakati, spiralsimon buralgan gavda orqali ochib berilgan. Obrazning har tomonlama idrok etilishini hisobga olish ham Skopos ijodini avvalgi davr san'atidan farqlaydi.

Ellinizm davri san'ati katta yutuqlarga erishdi. Klassika davri portret san'atiga xos fazilatlar, umumlashma ideal obraz yaratish borasidagi prinsiplar bu davrda tasvirlanuvchining individual xislatlarini chuqurroq ochish, ma'naviy qiyofasini ishonarli talqin etish tendensiyasi bilan almashdi, bu xususiyatlar Ellinistik Gretsiya san'atida yaqqol seziladi. Ellinistik Misr Ptolemeylar podsholigi davrida gullab yashnadi, qudratli davlatga aylandi. Uning poytaxti Aleksandriya esa ellinistik dunyoning yirik madaniy-siyosiy markazi, yirik port shahri bo'ldi. Ellinistik Misrning oq marmardan ishlangan hashamatli binolari dunyoga mashhur bo'lgan. Yetti mo'jizaning biri, deb hisoblangan 120 metrli Faros mayog'i (mash'ali), Aleksandriyaning haykaltaroshlik bilan bezatilgan park-bog'lari ham olamga mashhur bo'lgan. Ellinistik Misr badiiy maktabida yuqori klassika traditsiyalari (ko'proq Praksitel) sezilarlidir. Tematikasida hayotiy, maishiy hamda intim-lirik mavzu yetakchi o'rinni egallaydi. Bu janrda ishlangan kompozitsiyalarda ko'proq oddiy xalq hayotidan olingan voqealar tasvirlanadi. Qariyalar, bolalar obrazi ko'proq uchraydi. "Keksa baliqchi", "o'oz bilan o'ynayotgan bola" haykallari bunga misol bo'la oladi. Afrodita haykali ko'p ishlangan. Ellinistik Misr san'atida allegorik talqin etilgan haykallar ham mavjud. Masalan, "Nil" kompozitsiyasi, tosh o'ymakorligining namunasi, "Gonzaga komeyasi" bo'rtma tasviri mashhurdir. Unda podsho Ptalemey va

malika Arsinoyaning boshlari yon tomondan tasvirlangan. Lekin klassika davridagidek yuksak g'oya bu yerda chegaralangan.

Bu asar yana bir bor Ellinizm davri so'ngida san'atdagi ideologik kuchning susayib borganini ko'rsatadi va ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan chuqur inqirozni ifoda etadi. Ellinizm davri san'ati katta yutuqlarga erishdi. Klassika davri portret san'atiga xos fazilatlar, umumlashma ideal obraz yaratish borasidagi prinsiplar bu davrda tasvirlanuvchining individual xislatlarini chuqurroq ochish, ma'naviy qiyofasini ishonarli talqin etish tendensiyasi bilan almashdi, bu xususiyatlar Ellinistik Gretsiya san'atida yaqqol seziladi. Ellinistik Misr Ptolemeylar podsholigi davrida gullab yashnadi, qudratli davlatga aylandi. Uning poytaxti Aleksandriya esa ellinistik dunyoning yirik madaniy-siyosiy markazi, yirik port shahri bo'ldi. Ellinistik Misrning oq marmardan ishlangan hashamatli binolari dunyoga mashhur bo'lgan. Yetti mo'jizaning biri, deb hisoblangan 120 metrli Farros mayog'i (mash'ali), Aleksandriyaning haykaltaroshlik bilan bezatilgan park-bog'lari ham olamga mashhur bo'lgan. Ellinistik Misr badiiy maktabida yuqori klassika traditsiyalari (ko'proq Praksitel) sezilarlidir. Tematikasida hayotiy, maishiy hamda intim-lirik mavzu yetakchi o'rinni egallaydi. Bu janrda ishlangan kompozitsiyalarda ko'proq oddiy xalq hayotidan olingan voqealar tasvirlanadi. Qariyalar, bolalar obrazi ko'proq uchraydi. "Keksa baliqchi", "o'oz bilan o'ynayotgan bola" haykallari bunga misol bo'la oladi. Afrodita haykali ko'p ishlangan. Ellinistik Misr san'atida allegorik talqin etilgan haykallar ham mavjud. Masalan, "Nil" kompozitsiyasi, tosh o'yakorligining namunasi, "Gonzaga komeyasi" bo'rtma tasviri mashhurdir. Unda podsho Ptoleme va malika Arsinoyaning boshlari yon tomondan tasvirlangan. Lekin klassika davridagidek yuksak g'oya bu yerda chegaralangan.

## V MAVZU SAN'ATDA MILLIYLIK

5-mavzu	San'atda milliylik
Ma'ruza mashg'uloti texnologiyasi	
vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 50 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza - konferensiya.
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> san'atning milliy hodisa ekanligi haqida nazariy tushuncha va amaliy ko'nikma berish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> -ta'riflar berish; -amaliy ko'nikma hosil qilish; -reja bo'yicha mavzuni tushuntirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> talaba: - ta'riflarni yozib oladi, yod oladi, mazmun va shakl tushunchalariga mustaqil ravishda misollar keltiradi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza - konferensiya, muammoli ma'ruza, aqliy hujum, munozara, taqdimot
O'qitish shakli	Frontal, individual, guruh bilan ishlash
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, poyektor, grafik organayzerlar
O'qitish hart-haroiti	Namunadagi auditoriya

### Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi va o'quv mashg'ulotidan ko'zlangan natijalarni, mashg'ulot ma'ruza konferensiya-munozara tarzida o'tishini e'lon qiladi: 1) mazkur mashg'ulotda hal etiladigan ma'ruza mavzularini taklif etadi. 2) ularning o'quv fanini o'zlashtirishdagi ahamiyatini, shuningdek, bo'lajak mutaxassislikni egallashdagi muhimligini tushuntiradi. 3) ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish uchun	1.1. Ma'ruzaga tayyorgarlik ko'radilar. Ma'ruzachilar prezentasiya tayyorlashlari va referat bo'yicha reja tuzishlari mumkin. Baholash mezonlari bilan tanishadi. Ma'ruza qilishga tayyorgarlik ko'radi.

	adabiyotlar, jurnallarga yo'naltiradi. 4) barcha talabalarga ma'ruza matni bo'yicha ma'ruzachilarga savol tayyorlashlari aytiladi. 5) baholash mezonlari bilan tanishtiradi. 6) tayyorlangan referatlar bilan tanishtiradi. Zarur holatlarda savollar tuzadi.	
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Ma'ruza va axborotlar yuzasidan chiqishlarni tashkil etadi: -mavzu mazmunining yoritilishida mantiqiylikka e'tibor beradi; -bayon qilinayotgan materialni muhokama qilish zarurati tug'ilganda, ma'ruzachini to'xtatib, kollektiv munozaraga imkon yaratadi. 2.2. Ma'ruzaning kollektiv tarzdagi muhokamasini tashkil etadi. Boshlovchi bilan birga: -savollar beradi; -asosiy ko'rsatmalarni aniqlashtiradi; -dokladga yangiliklar, statistik materialga e'tibor qaratishni so'raydi.	2.1. Ishtirokchilar ma'ruzalarini o'qib eshitiradilar yoki og'zaki bayon qiladilar. 2.2. Ishtirokchilar kollektiv tarzda mashg'ulotni muhokama qiladilar. 2.3. Ekspertlar har bir mavzu bo'yicha munozara natijalarini baholaydi. 2.4. Eng yaxshi doklad rag'bat sifatida universitet konferensiyasiga tavsiya etiladi.
3-bosqich Yakuniy (10 min)	3.1. Barcha ishtirokchilarning faoliyatini umumlashirib, mashg'ulotni yakunlaydi. 3.2. Ma'ruza – konferensiyadagi dokladchi, taqrizchi va opponetlarning faolligini baholaydi. 3.3. Olingan bilim va ilmiy izlanish ko'nikmalarining kelajakdagi faoliyatda ahamiyatini ta'kidlaydi. 3.4. Konferensiyada ishtirok etmagan talabalarga mavzu yuzasidan esse yozishni topshiradi. 3.5. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: tanlangan biror badiiy asarning tili haqida xulosa yozish.	3.1. Ekspertlar: 1) ma'ruzachi taqrizchi, opponetlarning tayyorgarligini belgilaydi; 2) baholash natijalarini e'lon qiladi. 3.2. Eshitadi, aniqlik kiritadilar, yozadilar. 3.3. Topshiriqni oladilar.

1-ilova.

### Ma'ruza mashg'uloti dokladlari mavzulari.

1. Milliylik tushunchasi.
2. Milliylik mezonlari.
3. Milliylikda umuminsoniylikning mujassamligi.

2-ilova.

### Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari (ballarda)	Munozara ishtirokchilari			
	Ma'ruzachilar (F.I.SH.)			
	1	2	3	4
<i>Ma'ruzaning mazmuni (2,5):</i>				
- mavzuga mos kelishi (1,5);				
- mantiqiylik, aniqlik (0,5);				
- xulosalarni qisqaligi (0,5);				
<i>Informasion texnologiyalardan foydalanganligi (ko'rgazmalilik) – (0,9).</i>				
<i>Reglament (0,6)</i>				
<b>Jami (4,0)</b>				
	Taqrizchilar (F.I.SH.)			



<i>Ma'ruzaning tavsifi (3,0)</i>				
- ma'ruzaning kuchli tomonlari aniqlash (1,2)				
- ma'ruzaning zaif tomonlari aniqlash (1,2)				
<i>Reglament (0,6)</i>				
Jami (3,0)				
	Opponentlar, ishtirokchilar (F.I.SH.)			
<i>Savollar:</i>				
- har biri uchun (0,3)				
<i>Qo'shimcha</i>				
- har biri uchun (0,3)				
- mohiyati bo'yicha (0,3)				
Jami (3,0)				

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. T., 2005.
2. N.Umurov. Adabiyot nazariyasi. T., 2002.

### O'QUV MATERIALI

San'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. San'at esa o'zining o'ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfning ideologiyasini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, oliyanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, hulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarini kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da'vat etdi.

Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Jahon san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmish odamlarning histuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz, kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi.

San'atning milliy va umuminsoniy mazmuni. Hozirgi zamon iqo'vchisi, qaysi millatga mansub bilishidan qat'iy nazar Gomer va Firdavsiyini, SHekspir va Nizomiyni, Navoiy va Gyoteni, Balzak va Pushkinni, Abay va Shamzani katta qiziqish bilan iqiya. Adabiyotning eng yaxshi namunalarini, qaysi mamlakatda va qaysi xalq tomonidan yaratilmasin, butun dunyoda sevib iqiladi. Bunga sabab ularning mazmunining milliylikidan tashqari, umuminsoniy va baynalmilal xarakterga sham ega bilganidir. Badiiy adabiyot shamma uchun qiziqarli va foydali bilgan juda kip muammolarni, ijtimoiy va axloqiy masalalarni qamrab oladi. Insoniyat psixologiyasi va intilishlarining mushtarakligi tufayli bir vakili (yozuvchi) tomonidan shu xalq hayotiga asoslanib yaratilgan asar, agar yetarli g'oyaviy va badiiy saviyada yozilgan bilsa, iz-izidan yer yuzining shamma joylaridagi kishilar uchun qiziqarli bilib qoladi.

O'zbek san'ati qadimiy tarixga ega. Hozirgi O'zbekiston hududida ibtidoiy jamoa davridayoq odamlar yashagan. Ular yashagan manzillardagi qoya suratlar, bronzadan yasalgan turli xildagi taqinchoq, mehnat va urush qurollari ibtidoiy jamoa davri kishisining hayotini bilishga yordam beradi. Bu surat birmuncha jo'n, sodda bo'lishiga qaramay ibtidoiy jamoa davri kishilari hayoti, ularning yovvoyi hayvonlarni ov qilayotgan vaqti ishonarli talqin etilgan. Chopib borayotgan yovvoyi qo'tos, shoxli buqalar va niqob ostiga yashirinib hujum qilayotgan odamlar tasviri orqali ibtidoiy jamoa davri rassomi shu ov manzarasidagi kuchli harakat va hayojonni ustalik bilan ko'rsata olgan. Suratda, ayniqsa, hayvonlar tasviri ifodali chiqqan. Ulardagi kuch, ephillik hayotiy talqin etilgan. o'or devorlariga ishlangan suratlar O'zbekistonda, jumladan Boysun va Termez tumanlari, Samarqand, Toshkent, Jizzax, Xorazm, Farg'ona tumanlaridan arxeologlar tomonidan ko'plab topilgan. Bu suratlarining nigatikasi juda chegaralangan. Asosan hayvonlar tasviri yoki ov manzaralari in'ikos etgan. Shu bilan birga uy hayvonlari ham tasvirlangan. Bu tasvirlar ibtidoiy jamoa tuzumidagi o'troq

holda hayot kechirayotgan odamlarning tevarak-atrofni o'ziga bo'ysundirish, ular tafakkurining taraqqiy etib borayotganini tushinishda muhim rol o'ynaydi. Eramizdan avvalgi asrning oxirlari va yangi eraning boshlarida O'zbekistonda kulolchilik borasida jiddiy rivojlanish sezildi. Turli shakldagi xum va ko'zachalar qo'lda bajarilgan. Ularning tashqi bezagiga e'tibor berilganligi seziladi. Keyinchalik xum yuzasi chiziqli naqshlar bilan bezatila boshlangan. Bu davrlarda oltindan, kumushdan bezak va amaliy buyumlar ishlash san'ati ham keng tarqala boshlagan. Tasviriy san'atda ham mavzu kengaya borgan. Bu o'rinda yuz manzaralarini aks ettiruvchi bo'rtma tasvirlar, jangchilar obrazi diqqatga sazovordir. Quldorlik davrida ham O'rta Osiyoda san'atga qiziqish kuchli bo'lgan. Boylarning uyi, ibodatxona devorlari suratlar, naqshlar bilan bezatilgan. Eramizning boshlariga kelib, iqtisodiy jihatdan bir muncha ilgari siljish yuz bera boshladi, shaharlar qurilishi jonlandi. Bu davr san'atida Grek san'atining ta'siri borligi seziladi. Haykaltaroshlik san'ati keng tarqaldi. Bunday haykalchalar So'g'd, Xorazmdagi shaharchalardan ko'plab topilgan. Shu bilan birga Budda va uning shogirdlari tasviri juda ko'p uchraydi.

Xorazmda topilgan yodgorliklar, ayniqsa Tuproqqal'adan (III-IV asr) qo'lga kiritilgan hayvon va devoriy rasmlar qadimgi o'zbek san'atini bilishda muhim dalil material bo'lib xizmat qiladi.

VI-VIII asrlar xalq san'ati, madaniyat tarixida ko'tarilish davri bo'ldi. Bu asrlarda ko'plab yirik monumental inshootlar, hashamatli binolar qurildi. Varaxsha (Buxoro vil.), Afrosiyob (Samarqand vil.)dagi saroy qoldiqlari, ularning devorlariga ishlangan suratlar yaratilgan haykallar yuksak mahorat bilan ishlanganligi hozir ham kishini hayratga soladi.

Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Al Farobiy yashagan vaqtlar ham bizga juda ko'p nodir yodgorliklar qoldirdi. Bu asrlarda me'morchilik yetakchi o'rinni egalladi. Shu davrning yodgorliklaridan biri bu Samoniylar maqbarasi o'z davrining estetik falsafiy qarashlarini mujassamlashtirgan.

Temur va Temuriylar davrida yaratilgan Bibixonim machiti, A.Temur maqbarasi. Ulug'bek madrasasi va rasadxonasi, Shoxi-Zinda ansambli - bularning hamasi xalq badiiy merosining yorqin sahifasini tashkil etibgina qolmay, balki jahon tasviriy san'ati tarixi sahifalarida o'zining faxrli o'rnini egallaydi. Bu davrda miniatyura san'ati borasida ham sezilarli jonlanish bo'ldi. Shu davrda yashab ijod etgan Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzaxhib, Muhammad Murod Samarqandiy va boshqa musavvirlar miniatyura san'atining nodir namunalarini yaratib qoldirdilar. Bular orasida ayniqsa, K.Behzodning faoliyati (1466-1535) diqqatga sazovordir. U Xirotda tug'ilib, keyinchalik O'usayn Bayqaro kutubxonasida ishlagan. 1507 yil Xuroson Shayboniyxon qo'lga o'tgach, Buxoroga ko'chib kelgan va shu yerda (1522 y) yashab ijod qilgan va o'zining mashhur Shayboniyxon portretini yaratgan. Bundan tashqari u bir nechta mashhur insonlarning portretini ishlaydi, shoirlar asarlariga ajoyib, nafis illyustratsiyalar yaratadi. Buyuk A.Navoiyning g'amho'rlikida kamol topgan Behzod Sa'diyning «Bo'ston», «Guliston», Nizomiyning «Xamsa», Xisrav Dehlaviyning «Xamsa», Sharofiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlariga ko'plab suratlar chizgan. U O'rta Osiyo miniatyura maktabining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning ijodiy rejalarini keyinchalik uning shogirdlari davom ettirdilar. Bular Mulla Yusuf, Qosim Ali va boshqalardir. XVII-XVIII asrlarda Buxoro, Xiva, Urganch, Toshkentda yaratilgan me'morchilik obidolari, dekorativ-amaliy san'at buyumlari xalqning go'zallikka bo'lgan intilishidan dalolat beradi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o'zbek san'ati tarixida yangi bosqich boshlandi. Bu davrda xalq dekorativ-amaliy san'ati yetakchi o'rinni egalladi. Bu san'at shu davr kishilari uchun voqelikni, tevarak-atrof go'zalligini yuksak poetik shakllarda aks ettiruvchi, ularning hayot, go'zallik tushunchalarini ifodalovchi birdan bir san'at turi bo'lib qoldi. Qo'li gul xalq ustalari yaratgan nafis zargarlik buyumlari, kulolning ajoyib sapol buyumlari, naqqoshning bezaklarida shu davr kishilarining voqelikka bo'lgan estetik munosabati, estetik ideali, hayot to'g'risidagi falsafiy qarashlari o'zining badiiy talqinini topdi. Ustalarining ijodida o'zbek xalqining бой ўтмиши аънаналари давом эттирилди.

Ҳар бир миллий адабиёт, из миллий замини асосида майдонга келади. Ҳар халқнинг унинг адабиётида из аксини топади. Ҳар бир ёзувчи биринчи навбатда из атрофидаги ҳаётни-ўз халқига мансуб кишиларнинг характерларини тасвир этади. Шунинг учун шам Гомер ва Фирдавсий, Навоий ва Шекспир, Абай ва Шамза асарларида тасвирланган ҳаёт ва қашрамонлар бир-бирларидан фарқ этадилар. Шу билан бирга, ёзувчи тасвирининг марказида турган нарса-одам билгани туфайли, асар мазмуни дунёдаги шамма кишиларни кизиқтирадиган умумий масалаларни қамраб олади. Шекспирнинг “Ромео ва Жулетта”, Навоийнинг “Фаршод ва Ширин” асарларининг конкрет тарихий ва миллий мазмуни бир-биридан жуда катта фарқ қилади, қашрамонларнинг ҳаёт ҳароити ва психологиясида шам ана шундай катта тафовут мавжуд. Аммо ҳар икки асар шам инсон эркини, соф ва покиза мушабатни улуғлаши, яқин кишиларни бадбахт қилувчи бидъатларни фош этишига кира

бир-бирига жуда яқин ва шу сабабли жашондаги ҳамма халқларнинг sevimli asarlari bilib qolgan.

## VI MAVZU BADIY ASARDA MAZMUN VA SHAKL BIRLIGI

6-mavzu	Badiiy asarda mazmun va shakl birligi	
	Ma'ruza mashg'uloti texnologiyasi	Talabalar soni: 50 nafar
vaqti – 2 soat		Axborot ma'ruza, birgalikda o'qish usuli va “BBB” jadvali grafik organayzeridan foydalangan holda.
O'quv mashg'ulotining shakli		1.Badiiy asar mazmuni tushunchasi.
		2.Badiiy asar shakli tushunchasi.
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi		3.Mazmun va shaklning uzviy birligi.
		4.Xulosa.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> badiiy asarning shakl va mazmuni haqida ma'lumot berish	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	talaba:	
- mazmun atamasiga ta'rif beradi;	- ta'riflarni yozib oladi, yod oladi, mazmun va shakl tushunchalariga mustaqil ravishda misollar keltiradi.	
-shakl atamasiga ta'rif beradi;		
- mazmun va shaklning uzviy tushunchalar ekanligini tushuntiradi		
O'qitish uslubi va texnikasi	Axborot ma'ruzasi, insert, blits-so'rov, prezentasiya, grafik organayzer texnikalari, aniq holatlarni yechish, B.B.B.	
	O'qitish shakli	Frontal ma'ruza, individual, guruh bilan ishlash
	O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, proektor, qog'oz, marker, doska, bo'r
	O'qitish hart-haroiti	Namunadagi auditoriya
	Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi	
Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzu va rejasini ma'lum qiladi. Erishadigan natijalar bilan tanishtiradi. Mazkur mashg'ulot muammoli tarzda o'tishini e'lon qiladi.	1.1. Eshitadi, yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborini rejadagi savollar va ulardagi tushunchalarga qaratadi. Blits-so'rov o'tkazadi. 2.2. Bilimlarni yanada aniqlashtirish maqsadida BBB jadvalini daftarga chizishni taklif etadi. Doskaga chiqaradi. 2.3. Muammoli savolni o'rtaga tashlaydi va ularni birgalikda o'qishga chorlaydi: Badiiy adabiyotda mazmun yetakchimi yoki shakl? 2.4. Muammoni hal qilish uchun quyidagi savollarga aniqlik kiritadi. 1. Mazmun tushunchasi qachondan fanda qo'llanila boshlangan? Shakl tushunchasi-chi? 2. Mazmun yoki shaklning yetakchiligiga aynan misollar keltira olasizmi? 2.5. “Badiiy asarda mazmun yo shaklning yetakchilik roli qanday hal qilingan?” degan savolni o'rtaga tashlaydi.	2.1. Talabalar javob beradilar, daftarlariga chizadilar, jadvalning 1 va 2 ustunlarini to'ldiradilar. 2.2. Muammoga e'tiborni qaratadilar va yozib oladilar. 2.3. Yozib oladilar va o'z bilimlari bilan solishtiradilar. 2.4. Muammo yuzasidan o'z yechimlarini taklif qiladilar. Munozara qiladilar. Javob beradilar. 2.5. Optimal yechimlar yuzasidan takliflar beradilar. BBBadvalining 5-ustunini to'ldiradilar.
3-bosqich Yakuniy (10 min)	3.1. Mavzuga xulosa qiladi. 3.2. Rejadagi natijaga erishishda faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: “Badiiy obrazning badiiy asardagi o'rni” mavzusida esse yozishni	Eshitadi, yozib oladilar

topshiradi.

1-ilova.

<b>BBB texnikasini qo'llash qoidalari</b>				
<b>№</b>	<b>Mavzu savoli</b>	<b>Bilaman</b>	<b>Bilishni xohlayman</b>	<b>Bildim</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
1	Badiiy adabiyotda mazmun yetakchimi yoki shakl?			
2	Mazmun tushunchasi qachondan fanda qo'llanila boshlangan? Shakl tushunchasi-chi?			
3	Mazmun yoki shaklning yetakchiligiga aynan misollar keltira olasizmi?			
4	Badiiy asarda mazmun yo shaklning yetakchilik roli qanday hal qilingan?			

2-ilova

### **ESSE**

**Esse** – taklif etilgan mavzuga 1000 dan 5000 gacha so'z hajmidagi insho.

**Esse** – bu muallifning shaxsiy nuqtai nazarini yozma ravishda erkin ifoda etish shakli; qandaydir predmet bo'yicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o'z ichiga oladi.

### **Besh daqiqalik esse**

**Besh daqiqali esse** – o'rganilayotgan mavzu bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida o'quv mashg'ulotida oxirida 5 daqiqa oralig'ida olib boriladi.

3 – ilova.

### **Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari**

Har bir guruh boshqa guruhlar taqdimotini baholaydi, mezonlar bo'yicha ballarni jamlaydi

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	Maksimal ball	1 guruh	2 guruh	3 guruh	4 guruh
Yechimlar:	1,2				
- muammoni va quyi muammoni to'g'ri shakllantirish	0,4				
- yechimni muammo va quyi muammo shakliga mos kelishi	0,4				
- mantiqiylik, aniqlik, xulosalarning qisqaligi	0,4				
Taqdimot:	1,4				
- javoblarning aniqligi va tushunariligi	1,0				
- har bir guruh ishtirokchisining faolligi (savollar, qo'shimchalar)	0,4				
Reglament	0,4				
Umumiy ballar yig'indisi	3,0				

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. T., 2005.
2. N.Umurov. Adabiyot nazariyasi. T., 2002.

### **O'QUV MATERIALI**

Mazmunning salmoqdorligi. Badiiy asar mazmunining o'ziga xos xususiyatlaridan biri unda inson uchun, million-million kishilar uchun muhim bo'lgan g'oyalarning mavjudligidir. Buni „mazmundagi salmoqdorlik" deb atash mumkin. Adabiyot bunyod bo'lgandan bed yozuvchilar o'z asarlarini insoniyat uchun juda muhim bo'lgan g'oyalar bilan to'ldirishga harakat etadilar.

Asarda yozuvchi tomonidan maxsus targ'ib etiladigan muhim g'oyalarning mavjudligi adabiyotshunoslikda „tamoyil“ deb ataladi, buyuk yozuvchilar ijodida ayniqsa yaqqol ko'rinadigan bu fazilatga juda baland baho beriladi.

Aslida yozuvchilik boshqalarning xayoliga kelmagan, ammo hamma uchun juda muhim bo'lgan g'oyalarning tug'ilishidan va shu g'oyalarni mumkin qadar ko'proq kishilar ongiga yetkazish ehtiyojini sezishdan, bu ehtiyojning talantga tinchlik bermasligidan boshlanadi.

Jahon adabiyoti tarixida ko'zga ko'ringan biror asar yo'qki, uning uchun mazmunning muhimligi, salmoqdorligi, xarakterli bo'lmagan, unda zamona hayotining eng muhim tomonlari, davrning eng ilg'or g'oyalari o'z aksini topmagan bo'lsin. Sayoz, mazmuni puch asar hech qachon o'quvchilarning ongi va qalbiga ta'sir ko'rsatmaydi, shu sababli zamonasi hamda keyingi avlod-larning ma'naviy hayotida sezilarli rol o'ynamaydi.

XVIII asrda buyuk Gyote tomonidan yaratilgan va haligacha o'z qimmatini saqlab kelayotgan ilk realistik durdonalardan biri - „Yosh Verterning iztiroblari“ nomli romanning qanday xusu-siyatlarga ega ekanini eslaylik. Bu asarning bosh qahramoni Verterning sarguzashtini bir necha satrda bayon qilib berish mumkin. Kamtarin amaldor Verterga o'z xizmatining behudaligi ham, atrofini o'ragan muhitning cheklanganligi ham juda malol kelar edi. Harlotta bilan uchrashuv uning hayotini birdaniga sermazmun va yorqin qilib yuboradi. Ammo Harlotta - boshqa kishiniki. Shu sababli Verter „yeryuzida yashashga arzimayman“, degan qarorga keladi. Gyote sarguzashtini shunday hikoya qilibgina qolmaydi. U o'z qahramonining ichki dunyosini ochadi. Verter hissiyotining boyligini ko'rsatadi. O'sha vaqtdagi jamiyatni - XVIII asr Germaniyasini hayotning noma'qul qurilganini chuqur tu-shungan nemis yigiti ko'zi bilan ko'rishga imkon beradi. Bu psixologik va sotsial roman bo'lib, unda Verterning sarguzashti tasodif yoki faqat bir kishiga oid voqea tariqasida emas, balki ijtimoiy haroit natijasida vujudga kelgan fojia tariqasida ko'rsatilgan.

O'zbek adabiyotining drama sohasidagi birinchi yirik yutuq-larining maydonga kelishi ham ma'lum darajada mazkur romanning bunyodga kelishiga o'xshab ketadi. Bu tabiiydir, chunki adabiy asarlarning yaratilish qonunlari hamma xalqlarda va davrlarda juda fco'p o'xshash xususiyatlarga ega.

Biz shu vaqtgacha epik va dramatik turlarga mansub asarlardagi mazmun salmoqdorligi haqida gapirdik. Link tur (poeziya, she'riyat)ga mansub asarlar mazmunining salmoqdorligi nimada namoyon bo'ladi? Lirik asarlarda shoir go'yo faqat o'zi haqida gapiradi. Tasvir etilayotgan ruhiy holatning muayyan shaxs qalbi bilan bog'liqligi lirik asarlarning umumlashtiruvchi kuchini yo'qqa chiqarmaydimi yoki susaytirmaydimi? Yo'q. Bunga ikki sabab bor. Birinchidan, haqqoniy tasvirlangan har qanday ruhiy holat (Navoiy va Pushkinning yuqorida keltirilgan she'rlaridagi sog'inish va muhabbat kechinmalari kabi) hamma uchun umumiydir, shu sababli uning badiiy tasviri doimo bizga tushunarli, bizning o'z holatimiz tasviri sifatida qadrlidir. Ikkinchidan, lirik turga mansub asarlarda ko'pincha bir shaxs (lirik qahramon)ning faqat o'ziga xos kechinmalarigina emas, balki barchaga aloqador bo'lgan ijtimoiy muammolar munosabati bilan boshidan kechirganlari, shodligi, g'ururi yoki tashvishi, amlari ifoda etiladi.

Shoir - davrning ko'zi, qulog'i ham vijdonidir. Shoir ijodi-ning qimmatini asarlari mazmunining jamiyat hayotidagi eng muhim muammolarga munosabati bilan belgilanadi. Bu muammolarni chetlab o'tgan shoir kishilarning ma'naviy hayotida sezilarli iz qoldirolmaydi. Hech bir shoir o'z-o'zidan — na o'z kechinmalari, na iztiroblari, na shaxsiy saodati orqali buyuk bo'lolmaydi. Har bir shoir, uning iztiroblari va saodati jamoatchilikning va tarixning zaminiga chuqur tomir yoygani, shoir, demak, jamiyatning, zamonning, insoniyatning tili va vakili bo'lgani uchungina buyukdir.

Yozuvchi hatto o'z zamonasidan uzoq o'tmish materialiga murojaat etganida ham o'z asarining mazmunini salmoqdor etishga uni zamondoshlar uchun muhim bo'lgan ijtimoiy muammolar bilan bog'lashgaintiladi.

„O'tgan kunlar“ romanini misolga olaylik.

Otabek va Kumush muhabbati tarixini ham ikki og'iz so'z bilan ifodalash mumkin: ota-ona orzusi bilan uylanish natijasida o'ir~birlaridan fojiali ravishda judo bo'lgan qiz va yigit sarguzashti Harq xalqlari hayotida har kuni takrorlanib turgan hodisa edi. Bu "odisa kishilar ongiga shunchalik o'rtnashib ketgan ediki, ko'pchilikning g'ayriinsoniy va odamlar uchun falokatli odat ekanini sezmas edi; bu hodisa maishiy va axloqiy qoida qatoriga kirib ketgan millionlab kishilar ota-ona orzusi bilan oila qurib, muhabbat nim^ ekanini, muhabbatsiz hayot hayot emasligini bilmay dunyocian o'tib keta berar edilar. Otabek taqdiri orqali yozuvchi muhabbatdek oliy va go'zal hisning kishilar hayotidagi ajoyib o'rtnini ko'rsatib berdi, millionlab kishilarni haqiqiy odamlardek yashashga o'rgatdi ularda shunday yashashga intilish tug'dirdi. Ammo Abdulla Qodiriy muhabbatning kishi hayotidagi o'rtnini ko'rsatish bilan chek-lanmadi, balki ikki yoshning otashin muhabbati mojarosini katta ijtimoiy g'oyani ifoda etishga - feodal tuzumni „tariximizning eng kir, qora kunlari“ sifatida fosh etish vazifasiga bo'ysundirdi. Abdulla Qodiriy XIX asr hayotining keng manzarasini chizib berdi.

Mazmunan salmoqdorlik adabiyotning katta va kichik asarlarida bab-baravar amalga oshiriladigan talabdir.

L. Tolstoy hamkasblaridan biriga bunday deb yozgan edi: „...Faqat xalqdan chiqqan o'quvchini ko'zda tutib turib, bir hikoya yozishga harakat etib ko'ring. Faqat mazmuni salmoqdorbo'lsin".

„Inson komediyasi" yoki Tolstoy ijodi kabi ulkan hodisalardan tortib, to eng kichik hikoya va she'riy parchagacha mazmunning salmoqdorligi qonuniyatiga bo'ysunadi.

Abdulla Qahhorning eng yaxshi hikoyalari kichik hajmdagi asarda katta, salmoqdor mazmunni ifoda eta bilish namunasidir. Masalan, „O'g'ri" hikoyasida juda ham kichkina bir maishiy hodisa - kambag'al dehqon ho'kizining o'g'irlanishi tasvirlanadi. Ammo epigraf tariqasida hikoyaning boshiga qo'yilgan „O'ning o'limi - itning bayrami" maqolidan boshlab, hikoyaning butun mazmuni bizni kichkina maishiy hodisa doirasidan katta g'oya tomon boshlaydi. Hayotining birdan-bir tiragidan ajralgan mehnatkashning qisqa va ishonarli qilib tasvir etilgan sarguzashti bizni „gap bitta dehqon bilan bo'lgan hodisa ustida emas, balki dehqon boshiga tushgan shu kulfatdan foydalanib, uni gadolik va qullik darajasiga atayin olib borib qo'ygan butun jamiyat to'g'risida, dahshatli g'ayriinsoniy qonunlar haqida borayotir" degan va kishini hayajonlantiradigan xulosaga olib keladi. Agar shu yirik g'oya ifodalansa, „O'g'ri" hikoyasida tasvir etilgan hodisa hech kimga qizig'i yo'q, bizni hayajonga solmaydigan bir tasodif bo'libgina qolar edi.

Mazmunning haqqoniyligi. Adabiyot mazmunining o'ziga xosligidan dalolat beradigan muhim xususiyatlardan biri realistik asarda mazmunning haqqoniyligidir. Adabiyot haqiqat sohasidir. Badiiy asaming mazmuni muallifga ma'qul tushgan va u ifoda etishga qasd etgan g'oyalar bilan cheklanmaydi, chunki adabiy asarning niyzmuni hayotdir. Badiiy adabiyotning asosiy vositasi bo'lmish obraz g'oyadan obyektivroq, ya'ni xolisroq, haqiqatga yaqinroqdir. gu hodisaning birinchi sababi shuki, muallif o'z g'oyalarining to'g'riligini isbot qilish uchun boshqa, bunga teskari g'oyalarni tashigan kishilarni ham tasvirlashga majbur. Shunday qilib, faqat muallifning o'z g'oyasi (maslagi)gina emas, bunga qarshi odam-larning maslagi ham asarga ma'lum darajada kiradi. Boshqacha aytganda, g'oya (maslak) asarda tasvirlanayotgan vaziyatdan va voqeadan o'z-o'zicha kelib chiqishi lozirn, degan talab san'atkor tomonidan ajoyib bir xolislik bilan amalga oshiriladi. Haqiqiy san'atkor ana shu badiiylik talabiga rioya qiladi. A. Qodiriyning fikricha, yozuvchi tasvir etilayotgan odamga uning o'ziga xos „so'z" va „ish"ini tasvirlash orqali tavsif berar ekan, „shu xarakteristika (tavsif) ichidan siz bermoqchi bo'lgan ma'no yoki ibratning o'z-o'zidan tomib turishi" hart.

Bu xolislikning kuchi shunchalikki, yozuvchida hatto o'zining g'oyaviy dushmanlariga g'ayriixtiyoriy ravishda xayrixohlik hisiyari paydo bo'lishi, ya'ni haqqoniylikka intilish yozuvchi maslagidan ustun chiqishi ham mumkin. Bu hodisa, masalan, O. Balzak ijodi misolida yaqqol ko'rinadi. Siyosiy qarashlari jihatidan podshohlik tarafdori O. Balzakning ashaddiy siyosiy dushmanlari bo'lgan respublikachilar - Sen-Merri monastirining qahramonlari to'g'risida, ya'ni o'sha davrda (1830-1836) haqiqatan ham xalq ornmasining vakillari bo'lgan kishilar to'g'risida hamisha ochiqdan-ochiq zavqlanib yozadi.

Bunga sabab bor. Yozuvchi hayotni xolislik bilan sinchiklab o'rganar ekan, o'zida avval tug'ilgan niyatning hayotiy haqiqatga, tasvir etilayotgan shaxsning ichki dunyosiga zid ekanini sezishi ham mumkin: bunday vaqtda u o'zining avvalgi niyatidan qaytadi.

Adabiyot - xarakterlar yaratish san'ati. Har qanday san'atning mazmuni - voqelikdir. Binobarin, u xuddi voqelikning o'zidek, bitmas-tuganmasdir. Bu bitmas-tuganmas mazmunni adabiyot alohida bir usulda ifoda etadi. Adabiyot „obrazli tafakkur"dir. Bu ta'rifni birinchi marotaba fanga olib kirgan Gegel adabiyotning obrazlilikini mana bunday tushuntirib bergan edi: „Poetik tasvirni biz obrazli tasvir deb belgilay olamiz, chunki, u bizning ko'z oldimizda mavhum mohiyat o'rniga uning muayyan realligini qo'yadi".

Mavhum mohiyatning muayyan reallikdan farqi nimada. Fanda keng o'rin olgan mashhur ta'rif bu savolga bunday javob beradi: faylasuf mantiqiy xulosalar bilan, shoir esa obrazlar, kartina (manzara)lar bilan gapiradi, ikkalasi ham bir narsani gapirad\* Biri isbot etadi, ikkinchisi ko'rsatadi va ikkalasi ham ishontiradi. Faqat biri mantiqiy dalillar bilan ishontiradi. ikkinchisi esa kartina (manzara)lar bilan ishontiradi. Yana ham soddarok qilib aytganda, xuddi olimdek, bizni biror narsaga ishontirmoqchi bo'lgan yozuvchi, o'sha olimdan farqli o'laroq, ko'zimiz oldidan hayotning aniq-tayin manzarasini o'tkazishi kerak, toki shu manzaradan biz o'zimiz yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrni fahmlab olaylik. Bu manzaraning ilmiy dalillardan katta farqi va afzalligi shundaki, bunday hayotiy manzara bevosita bizning hislarimizga (aqlimizgagina emas) ta'sir etadi, natijada biz tasvirlangan manzaraning ishtirokchisi bo'lib qolamiz. Hayotning bunday ravshan manzarasi obrazli tafakkurning bir sohasi bo'lgan adabiyotda o'ziga xos shaklda yaratiladi. Bu shaklning asosiy komponenti (tarkibiy qismi) xarakterlar (kishi-larning obrazlari)dir.

Xarakter adabiy asar mazmunining shaklidir. Chunki o'quvchi mazmunni dastavval va butunicha xarakterlar orqali biladi va „hazm etadi". Shu sababli ham xarakterlar o'quvchi yodida qoladi. Adabiy asarning boshqa komponentlari - tipik haroit tasviri, uning ifodasi bo'lgan sujet va adabiyotning „material"i hisoblangan til xarakter yaratishning vositasi vazifasini bajaradi. Xarakter mazmunga nisbatan shakl bo'lsa,

til xarakterga nisbatan shakldir. Xarakter tasviri asarning mazmunini „badiiy axborof“ga aylantiradi. Xarakterning bir xususiyati bunga xizmat etadi: xarakter hayotiy haqiqatni aniq hissiy shaklda aks ettiradi, ya'ni asar mazmuni xarakter tasviri tufayli hayotiy aniqlik kasb etadi va shu bilan birga bizning hislarimizga ta'sir etish xususiyatiga ega bo'ladi.

Xuddi shu gapni badiiy adabiyotning har bir asari haqida ham aytish mumkin. O'zbek adabiyotidagi Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Xolisxon, Otabek, Kumush, Anvar, Ra'no, Yo'lchi, Navoiy va boshqa ko'pgina obrazlar o'quvchilar yodida asar mazmunining ifodasi, shu bilan birga doimo qattiq hayajonga soladigan hodisa sifatida saqlanadi.

Xarakter yaratishda badiiy to'qimaning roli. Hayotning haqqoniy manzaralari va jonli xarakterlar yaratishda yozuvchi fantaziyasi (xayoli) katta rol o'ynaydi. Shu sababli, hayotiy faktdan tashqari, yozuvchi o'z fantaziyasi yordamida ixtiro etgan „to'qima“ ham badiiy ijodda muhim ahamiyatga ega. Estetik idealni mujassamlantiruvchi hayot manzaralari faqat to'qima orqaligina yaratilishi mumkin. „Badiiy to'qima“ deb biz adabiy asarning g'oyaviy mazmunini eng aniq va eng yorqin ifoda eta oladigan hayot manzarasini xayol yordami bilan maydonga keltirishni aytamiz. Birinchidan, hayotdagi zamon tushunchasi bilan san'at asaridagi zamon tushunchasi orasida katta farq bor. Masalan, hayotdagi zamon nuqtayi nazaridan olganda, Usmon Azimning Kunduzsiz kechalar" pyesasida bevosita o'n yil ichida bo'lib o'tgan voqealar tasvir etiladi, ammo san'at qoidalariga ko'ra, bu voqealar bizning ko'z oldimizdan bir soat-u 15 daqiqa mobaynida o'tib bo'lishi kerak. Demak, muallif tasvir etilayotgan shaxsla hayotining hamma voqealarini emas, balki eng muhimlarinigij tanlab olishi lozim. Bu holda tashlab ketilgan voqealarning o'rni bo'shaydi va yozuvchi bu bo'sh o'rinni to'ldirish uchun boshqi voqealarni o'ylab chiqarishga majbur.

Ikkinchidan, badiiy asarda tasvir etilgan shaxslar (hammasi bo'lmasa ham ko'pchiligi), albatta, bir-birlari bilan bog'langan bo'lishi kerak. Aristotel „Poetika“da, dramatik asarda personajlar qanchalik yaqin qarindoshlik munosabatlarida bo'lsa, uyar orasidagi to'qnashuvdan olingan taassurot shunchalik kuchli bo'lishini qayd etgan. Personajlarni mumkin qadar bir-biriga yaqin qilib qo'yishni L.Tolstoy ham boshqacharoq tarzda e'tirof etadi. U „Urush va tinchlik“ epopeyasida yosh ofitser Andreyning qanday qilib knyaz Balkonskiyga o'g'il bo'lib qolganini tushuntirib kelib, yozgan edi: „Menga Austerlis jangida faqat zodagon bir yigitning o'ldirilishi kerak edi, xolos; romanning bundan keyingi davomida menga faqat keksa Balkonskiy va uning qizigina kerak edi; ammo roman bilan hech qanday bog'lanmagan shaxslarni tasvirlash o'ng'aysiz bo'lgani uchun, men zodagon yigitni keksa Balkonskiyning o'g'li qilib qo'yishga qaror qildim“.

Badiiy asarda to'qimaning zarurligi va muqarrarligiga yana bir sabab shuki, kishilar hayotida kurash va harakat bilan to'lmagan soatlar, kunlar bo'lishi mumkin. Ammo badiiy ijod qoidalari tasvir etilgan xarakterlarning hayotida bo'sh, „sukunat“ davrlari bo'l-masligini taqozo etadi. San'at asarida hayot quyuqlashgan, tig'iz, tezlatilgan holda tasvirlanadi, unda qahramonlar harakatsiz turishi mumkin emas, chunki san'at asari kishini doimo fikriy rivojda ko'rsatadi. San'at asarida harakatning sustligi yoki yo'qligi mahoratsizlik, no'noqlik alomatidir.

Shu o'rinda adabiyot shaklining bir xususiyatiga e'tibor berish lozim. Bu muhim xususiyat shuki, adabiy asarning shakli (mazmuni ham, albatta) o'quvchi yoki tomoshabinning bevosita ishtiroki bilan maydonga keltirilgan, „kashf etilgan“ shakldir. Yozuvchi ko'z o'ngimizda ma'lum hayotiy hodisa (masaian, „Kunduzsiz kechalar“ dramasida Sezgirning sovet davlati mustam-lakachilik siyosatining maqsad-mohiyatini tushunishi)ni izma-iz batafsil tekshiradi. Biz tasvir etilgan xarakter shakllanish jara-yonining umumiy yo'nalishi yoki natijasi bilangina tanishmaymiz, shu xarakterning rivoji va uzil-kesil shakllanishining ham jslitirokchisi bo'lib qolamiz. Shunga ko'ra, yozuvchi kashf qilgan jiaqiqat biz. o'quvchilar tomonidan kashf etilgan haqiqat bo'lib qoladiki, adabiy asarning ishontimvchanligi va emotsional ta'sirida bu faktning ahamiyati juda ham zo'rdir Badiiy haqiqat ham yozuvchi, ham o'quvchi tomonidan kashf etilgan haqiqatdir.

Tipiklashtirish va uning uch muhim qirradi. „Tipiklashtirish“ atamasi yunoncha„tip“ so'zidan yasalgan bo'lib, „nishona, nusxa, tamg'a“ ma'nolarinibildiradi.

Tipik tasvirda ikki tomon bor: umumiylik(tipikhodisa o'ziga jinsdosh bo'lgan bir qancha hodisalarning xususiyat va mohiyatini ifoda etadi) va xususiylik (jinsdosh hodisalarning mohiyati ayrim konkret hodisada, uning o'ziga xos shaxsiy xususiyatlari orqali ifoda etiladi). Shu sababli asarda tasvirlangan xarakterlar bir-birlaridan qancha ko'p farqlanib tursalar, asarning badiiy tasviri shunchalik zo'r bo'ladi. Haqiqiy badiiy asarda xarakterlar tasviri ham umumlashgan, ham individuallashgan bo'lib, har bir shaxs - tip, lekin shu bilan birga u tamomila muayyan bir shaxsdir.

Bu aytilganlardan, yozuvchi faqat hayotdagi ijobiy hodisa-larniginatipiklashtirar ekan, degan xulosachiqmaydi. Yozuvchi hayotdagi salbiy hodisalarni tasvirlaganda ham yaratilgan obrazlarda ana shu

umumiylik bilan xususiylikning birligiga erishishga harakat qiladi. Shu tufayligina adabiy asarda salbiy hodisalar tasviri ham ishoniruvchanlik va hayajonga sola olish fazilatlariga ega bo'ladi.

Tipiklashtirish — har bir hayotiy hodisani (shu jumladan, odamni ham) uning eng muhim va xususiy alomatlarini saqlagan holda, yorqin vata'sirli qilib tasvir etish mahoratidir. Tipiklashtirish tasvir etilayotgan hodisaga muallifning aniq munosabatini, shu hodisaning yozuvchi estetik ideali nuqtayi nazaridan baholanishini ham ko'zda tutadi. Bu baho qisman shunda ko'rinadiki, yozuvchi qalamga olgan hodisada o'ziga ma'qul tushgan xususiyatlarni ham, ma'qul tushmaganlarini ham ma'lum darajada (hayotiy haqiqatni buzmaydigan me'yorda) atayin bo'rttirib ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, yozuvchi tasvirda mubolag'aga yo'l qo'yadi. (Masalan, A. Qodiriyning „Mehrobdan chayon" romanidagi Anvar, Solih Mahdum obrazlarida ham mubolag'alar mavjud.)

Tipiklashtirish adabiy asarning hamma komponentlari (tarkibiy qismlari)ga taalluqli universal tamoyil va badiiylikning asosiy hartlaridan biridir. Chunki u hayot hodisalarini jonsiz sxema shaklda emas, balki ishonarli, yorqin, esda qoladigan obrazlar orqali tasvir etishega imkon beradi.

Tipiklikning ikki turi, Agarda yozuvchi yigirmalab, elliklab; yuzlab do'kondorlar, amaldorlar, ishchilar ichidan eng xarakterli belgilar, odatlar, didlar, imo-ishoralar, harakatlar, e'tiqodlar nutq usullari va boshqa xususiyatlarni ajratib olib bilsa va ularni yakka bir do'kondor, amaldor, ishchi qiyofasiga birlashtira olsa shu usul bilan u tip yaratgan bo'ladi.

Haqiqatan ham, yozuvchilar tipik xarakterlarni yaratganda hayotda juda ko'p uchraydigan kishilar va hodisalarni ko'zda tuta-dilar, uisarga asoslanib ish ko'radilar. Natijada adabiyotda hayotiy asosga ega obraz va xarakterlar paydo bo'ladi. „Boy ila xizmatchi"da Solihboy, Hoji ona, Xonzoda, Jamila, Xolmat, „Navoiy"da Ma-jididdin, Sultonmurod, Zayniddin, To'g'onbek, Dildor, Arslon-qul, „O'tgan kunlar"da Yusufbek hoji, O'zbek oyim, Hasanali, Qutidor, Homid kabi obrazlar hayotda ko'p uchragan shaxslar-ning, hodisalarning tipiklashtirilgan tasviridir.

Yuqorida keltirilgan fikrda tipiklikning faqat bir turi tilga olingan. Adabiyotda boshqacha obrazlar va xarakterlar ham borki, ularni hayotda ko'p uchragan hodisalar va kishilar tasviri tariqasida emas, balki yakka hodisalar va kishilar tasviri deb tushunish to'g'riroq bo'ladi. Navoiy, Otabek va Kumush kabi kishilar ular yashagan tarixiy haroidta kamdan-kam uchragan edi. Shunday bo'lsa ham, bu obrazlar va xarakterlar adabiyotda hayotning haqqoniy tasviri namunasi bo'lib qoladi, ular hanuz o'quvchilar tomonidan realistlik, haqqoniy obrazlar va xarakterlar tarzida tushuniladi. Nima uchun bunday bo'ladi? Bu hoi tipiklik to'g'risidagi tasavvurimizga zid emasmi? Yo'q, zid emas. Chunki, hayotda kam uchragan hodisalarda ham hayotning qonuniyatlari o'z ifodasini topadi. Hatto aytish mumkinki, hayotning eng istiqbolli, eng mustahkam qonuniyatlari avval kam uchrovchi ayrim hodisalarda namoyon bo'ladi va bora-bora ommaviy hodisaga aylanadi.

Biz bu yerda ijobiy hodisalarning avval ayrim shaxslar qiyofasida paydo bo'lishi va keyin ommaviy tus olishi haqida gapirayotirmiz. O'z-o'zidan anglashiladiki, shunday jarayon salbiy hodisalarda ham bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, tipiklik degan so'z har safar ham ommaviylik degan so'z emas. Tipiklikda hodisaning qonuniy xususiyatlari ro'yobga chiqadi, uning eng muhim, hal etuvchi va doimiy alo-matlari o'z aksini topadi. Bu alomatlar yakka hodisada ham yorqin namoyon bo'lishi mumkin, shu sababli yakka hodisa adabiyot va san'atda, kelajakda keng quloch yozib, katta ko'lam kasb etadigan hodisaning namoyoni bo'lib ham maydonga chiqq oladi. Bunday hollarda yozuvchilar yakka hodisalami ongli ravishda va dadil umum-lashtiradilar, ya'ni tipiklashtiradilar. Masalan, I.S.Turgenevning iqror bo'lishicha, u hayotda kam uchragan, ammo keyin („O'talar vabolar" romani e'lon etilgandan so'ng) keng tarqalib, „nigilizm" deb nom olgan hodisaning ilk alomatlarini bir yosh yigitda ko'r-ganidan keyin o'sha alomatlarini bo'rttirish asosida Bazarov obrazini yaratgan. Yuqorida nomlari tilga olingan „Boy ila xizmatchi", „Navoiy", „O'tgan kunlar" asarlarining mualliflari ham bir qancha obrazlarni yaratishda ana shunday yo'ldan, ya'ni kam uchraydigan hodisalarni umumlashtirish, tipiklashtirish yo'lidan borganlar. Bu tipiklikning hayotda uchraydigan mana shu ikkinchi turi, ya'ni asar yozilgan paytda hayotda kam uchragan, ammo kelajakda keng rivoj topish imkoniyatiga ega hodisalar ham adabiyot va san'at asarida o'z in'ikosini topishi mumkinligini ko'rsatadi.

Adabiyotda hayot tasvirining o'ziga xosligi. Adabiy asarda mazmunning shakli va estetik idealning mujassami bo'lgan xarak-terni yaratish murakkab jarayondir. Yozuvchi estetik baholash, fantaziyava to'qima, tipiklashtirish va individuallashtirish natija-sida, Abdulla Qahhor ta'biri bilan aytganda, hayotiy materialni „qayta bichib, qayta tikadi". Yozuvchi xarakterlarni avvaldan o'zi tayyorlab qo'ygan andozalar asosida emas, balki hayotiy materialni o'rganish va uning qonuniyatlarini kashf etish natijasida yaratadi.

Yozuvchi (u bilan birgalikda o'quvchi ham) yangi mazmunni va uning shaklini kashf etgandan keyin maydonga keladigan hayotiy manzara turmushdagi manzaraga o'xshab ketsa ham, ammo undan keskin ravishda farq qiladi, bu tafovut adabiyot shakli va maz-munining juda muhim xususiyatini maydonga keltiradi.



Badiiy adabiyotning bu xususiyatini A. Qodiriy hayotiy materialni „adabiyot tarozusiga solib yozmoq“, deb atagan edi. Badiiy asarda bizning ko‘zimiz oldida namoyon bo‘layotgan obrazlar dunyosi hayotdagidan o‘zining musaffoligi va yorqinligi bilan yaqqol ajralib turadi. Aslini olganda, bu - hayotiy materialdan bunyod etilgan tamom yangi bir olamdir. Bu yangi olam jahon adabiyotshunosligida yaqindan beri haqli ravishda „badiiy shaxslar olami“ yoki „hayotning badiiy modeli“ deb atala boshladi.

## VII MAVZU BADIY ASARDA G‘OYA

7-mavzu	Badiiy asarda g‘oya
Ma’ruza mashg‘uloti texnologiyasi	
vaqti – 4 soat	Talabalar soni: 50 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Axborot vizual ma’ruza, aniq holatlarni yechish.
Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi	
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> badiiy asar g‘oyasi va uning ro‘yobga chiqish asoslari haqida ma’lumot berish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> -Badiiy asar g‘oyasi tushunchasini tushuntirish; -badiiy asar g‘oyasini yuzaga chiqaruvchi omillarni sanash.	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> talaba: - Badiiy asar g‘oyasi tushunchasini o‘rganadi, misollar topadi; -badiiy asar g‘oyasini yuzaga chiqaruvchi omillarni sanab, daftariga qayd etadi
O‘qitish uslubi va texnikasi	Ma’ruza, klaster, munozara, texnika: taqdimot, blits-so‘rov, grafik organayzerlar.
O‘qitish shakli	Frontal ma’ruza, guruh va juftliklarda ishlash
O‘qitish vositalari	Ma’ruza matni, proektor, doska, bo‘r
O‘qitish hart-haroiti	Namunadagi auditoriya

### Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Ma’ruzaning mavzusi, maqsadi va rejasini ma’lum qiladi, mashg‘ulotdan kutilayotgan o‘quv natijalari bilan tanishtiradi. 1.2. Mashg‘ulot davomida aniq holatlarni tahlil qilishga e’tibor qilishni eslatadi (talabalar qo‘llarida o‘tgan dars oxirida tarqatilgan ma’ruza matnlari mavjud).	1.1. Tinglaydi va yozadilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Avvalgi mavzuni esga solish va ma’ruza matnini o‘qish natijasida nimalarni o‘rganganligini aniqlash maqsadida blits-so‘rov o‘tkazadi. Vizual meteriallar asosida ma’ruza o‘qiydi.	2.1. Esldaydi, savollarga javob beradi. Yozib boradi. She’riy tizimlarga klaster tuzadi.
3-bosqich Yakuniy (10 min)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi, umumiy xulosalarni shakllantiradi, faol ishtirok etgan talabalarni rag‘batlantiradi. Olingan bilimlarning ahamiyatini ochib beradi. 3.2. Faollik ko‘rsatmagan talabalarga qo‘shimcha vazifa beradi. 3.3. Mustaqil ish uchun vazifa: vaznlarni aniqlash	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. Topshiriqlarni yozib oladi.

1-ilova.

### BBB metodi asosida tarqatma materiallar

№	Tushuncha	Bilaman “+”, Bilmayman “-”.	Bildim “+”, Bilaolmadim “-”.
1	Mavzu		
2	Adabiy mavzular		

3	Abadiy mavzular		
4	G'oya		

2 – ilova.

**Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari**  
Har bir guruh boshqa guruhlar taqdimotini baholaydi, mezonlar bo'yicha ballarni jamlaydi

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	Maksimal ball	1 guruh	2 guruh	3 guruh	4 guruh
Yechimlar:	1,2				
- muammoni va quyi muammoni to'g'ri shakllantirish	0,4				
- yechimni muammo va quyi muammo shakliga mos kelishi	0,4				
- mantiqiylik, aniqlik, xulosalarning qisqaligi	0,4				
Taqdimot:	1,4				
- javoblarning aniqligi va tushunariligi	1,0				
- har bir guruh ishtirokchisining faolligi (savollar, qo'shimchalar)	0,4				
Reglament	0,4				
Umumiy ballar yig'indisi	3,0				

#### Adabiyotlar ro'yxati:

3. I.Sulton. "Adabiyot nazariyasi". T., 1986.
4. X.Umirov. "Adabiyot nazariyasi". T., 2002.

#### O'QUV MATERIALI

Badiiy asarning shakl va mazmuni uning mavzu va g'oyasiga muayyan darajada bog'liq bo'ladi. Mavzu va g'oya ham badiiy asar qiyofasini, ta'sirchanligini belgilashda uning shakl va mazmuni singari muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzu, ya'ni tema yunoncha so'z bo'lib, «narsa - buyum» degan ma'noni bildiradi. Biroq badiiy asar mavzusi o'nda qalamga olingan voqea yoki narsa - buyumlar emas. Badiiy asar mavzusi ijodkor tanlagan hayotiy voqealar, u yoritgan asosiy muammolarning umumlashmasidir. Adabiy asar uchun asos qilib olingan fikr va maqsad uning mavzusidir. Adabiy asar mavzusi tanlangan biror bir moddiy narsa-buyum emas, balki fikr, qarashdir. Ya'ni, hayotning muayyan muammosi xususida fikr yuritish badiiy asarning mavzusidir. Albatta, mavzuga ham borliqdagi narsa-hodisalar asos bo'ladi. Badiiy asar uchun eng asosiy narsa - hodisa esa insondir. Inson hayoti, uning turli vaziyat - holatdagi kayfiyati, kechinmalari, maqsad, intilishlari, borliqqa qarashlari, kishilar bilan muomala va munosabatlari badiiy asarning vujudi va jonidir.

Ijodkorning mavzu tanlashi, avvalo, uning hayotiy tajribasiga bog'liq. O'zbek yozuvchilarining aksariyati qishloq kishilari hayotidagi turli - tuman voqealarni ishonarli yoritib beradilar. Chunki ular qishloqda tug'alib o'sishgan, u erdagi hayotni yaxshi bilishadi. Zavod - fabrika, shaxtadagi hayot haqida qiziqarli, ta'sirchan roman, qissa o'zbek adabiyotida hozirgacha yozilmaganining sababi, bizda u joylardagi turmushning o'ziga xos nozikliklarini chuqur biladigan ijodkorlarning yetishib chiqolmaganligidadir. Albatta, bu hodisa, avvalo, xalqimiz milliy turmush tarziga borib bog'lanadi.

Badiiy asarlar mavzulari ikki xil bo'ladi, deyish mumkin. Birinchisi - abadiy mavzular, ikkinchisi - davriy mavzular. Insonning ma'naviy - axloqlik turmush tarzi, sevgi - muhabbati, kishilarga, yurtiga munosabati, kishilararo muomala - munosabatlari, odamlarning baxt, baxtsizligi, quvonch, qayg'usi, mehr, qahri, saxiyligi, baxilligi va boshqalar adabiyotning abadiy - mavzularidir. Ayni choqda, har bir zamonning o'z muammolari bo'ladiki, ular davriy mavzular doirasiga kiradi. Masalan, 30 - yillarda kolhoz qurilishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi O'zbekistonda jiddiy muammo bo'lgan. Bu muammoni mavzu qilib, ko'plab she'riy, nasriy asarlar yozilgan. Albatta, adabiyot o'z davrining dolzarb muammolarini yoritib ko'rsatishi kerak. U bu bilan hayotning ijtimoiy taraqqiyotiga muayyan ta'sir ko'rsatadi. Kishilarning ongu fikrini ma'lum bir yangilikqa jalb etadi. Bundan ham muhimi - davr muammolarini akslantirish zamana kishilari qiyofasini gavdalanitirish, ularning o'z ajdodlaridan qiyasi jihatlari bilan farqanishini namoyon etish imkonini beradi. Biroq davrning dolzarb muammolarini mavzu qaoishning o'ziga asarning ta'sirchanligi, zamonaviylikiga asos bo'la olmaydi. Tarixiy voqealar qalamga olingan bo'lsa-da, ular zamonaviy mavzudagi asarlardagidan ta'sirchanroq, qiziqarliroq bo'lishini harhlash hart emas. Masalan, «Ulug'bek xazinasi»,

«Mirzo Ulugʻbek», «Yulduzli toʻnlar» singari asarlarda olis oʻtmish haqida hikoya qilinsa-da, ularda zamovdoshlarimiz ruhini ulgʻaytiradigan, qalbiga ezgu oʻylar olib kiradigan badiiy joziba mavjud. Ijodkor mavzoʻni muayyan maqsad bilan tanlaydi. Har qanday mavzuga bagʻishlangan asar muayyan haqiqatlarni ochib beradi, boshqalarning diqqatini qandaydir nomaʼlum yoki eʼtibordan chetda qolib kelayotgan narsalarga qaratadi. Albatta, barcha asarlarda ham ijodkorning maqsad - muddaosi ochiq - oshqora koʻrinib turmaydi. Bunday boʻlishi hart ham emas. Ijodkorning biror bir hodisani qay darajada koʻrsatishi, hodisaning qaysi jihatlariga koʻproq eʼtibor qilishining oʻziyoq uning maqsad - niyatini bildirib turadi. Yozuvchi voqelikni xolis turib gavdalandirganida ham nimanidir tasdiqlaydi, nimanidir inkor etadi. Umuman, hayotning muayyan parchasini taʼsirchan, jozibali qilib ifodalashning oʻziyoq maʼlum bir maqsad, niyat tufayli yuzaga chiqatsi. Xalq orasida «niyat - yarim davlat» degan gap bor. Bu bekorga emas. Ishning qay darajada bajarilishi niyatning qandayligiga bogʻliq. Agar niyat astoydil boʻlsa, har qanday mushkul ish ham koʻtilganidan ziyoda boʻlib ajoyib tarzda yakunlanadi. Mabodo, niyat yarim-yorti, dildan emas, tilda, shunchaki nomiga boʻlsa, eng oson ish ham chalkashib, chuvalashadi. Shunday ekan, ijodkorning asar yozishidan, biror bir mavzuni yoritishidan maqsadi boʻladi. U oʻzining bu niyatini toʻla tasavvur qilaolmasligi mumkin. Biroq u qandaydir tarzda xayolda jonlanib, ish jarayonini oʻziga xos tarzda boshqarib turadi. Ijodkor maqsadini boshqarib, uning qarashlari, hodisaga yondashishlarini maʼlum bir izga solib turadigan ana shu hodisa gʻoʻyadir. Adabiyotning gʻoyaviyligi masalasiga turlicha yondashiladi. Adabiyotning gʻoyaviyligini oqlovchilar ham, oʻni butoʻnlay qoralovchilar ham bor. Umuman esa, adabiyotning gʻoyaviyligiga bu tarzda taʼrif beriladi: «tasvirlanayotgan narsa yoki voqeaga ijodkorning munosabati, uning hayotga va insonga boʻlgan ideali». Mana shu mulohaza deyarli oʻzgarishsiz tarzda aksariyat tadqiqotlarda keltiriladi. Demak gʻoya ijodkorning qalamga olinayotgan voqelikka munosabatidir. Mavzu esa aks ettirilayotgan voqea-hodisalarning umumlashmasi, yigʻinhsi, yaʼni badiiy asar uchun tayanch boʻlgan asosiy fikr va maqsad obyektidir. Mavzu va gʻoya bir-biriga bogʻliq hodisa hisoblanadi. Chunki har qanday mavzuning oʻziga muvofiq gʻoyalari boʻladi. Biroq mavzu bitta, oʻndan anglashiladigan gʻoyalar esa turlicha boʻlishi mumkin. Gʻoya ijodkorning dunyoqarashiga, nuqtai nazariga bogʻlik. Har qanday sanʼat asarida maʼlum bir gʻoya ifodalangan boʻladi. Sodharoq aytganda, gʻoya fikrdir. SHoirning shamollar, yulduzlar, shaldirab oqayotgan suvlar taʼrif-tavsif qilingan sheʼrlarida ham, arxitektor chizmasiga muvofiq yaratilgan gulzor manzarasida ham, haykaltarosh yasagan ot, qush shaklida ham qandaydir fikr ifoda qilingan boʻladi. Soʻzlar, ranglar, ohanglar, manzaralar, shaklar gayriixtiyoriy tarzda ongu iguurimizga taʼsir etadi. Bizda fikr oʻygotadi. Adabiyotning gʻoyaviylik xususiyatlaridan shuro yovoʻzlarcha mustabidlik bilan foydalandi. Yaʼni oʻni tuligʻicha oʻz yoʻrigʻiga mosladi. «Gʻoyaviylik - adabiyotning bosh mezoni, SHuro adabiyotining gʻoyaviyligi shuro siyosatini haraflashdir» degan qarash oʻsha davrda hukmronlik qildi. Ana shuning oqibatida «gʻoya», «adabiyotning gʻoyaviyligi» degan istilohlarga XX asr adoqlarida norozilik bilan qarash kayfiyati paydo boʻldi. «Haqiqiy adabiyot asarlari gʻoyasiz boʻladi», degan aqada yoyildi. Bu oʻzok yillar davomida tushovlab qoʻyilgan fikrning zanjirlarni oʻzib, kishandan boʻshalishi oqibatida tugilgan oʻziga xos norozilik ifodasi edi. Uning mavjud tartiblarga nafрати shu darajada ediki, u barcha hodisalarni, jumladan, adabiyotning avvalgi xolatini ham shoshilinch tarzda inkor qilishga shoshma-shoharlik bilan kirishib ketdi. Aslida gʻoya barcha ijtimoiy hodisalarga, jumladan, sanʼatning hamma turlariga xos hodisadir. Gʻoyani maʼlum maʼnoda natija, hosila deyish mumkin. Shunday ekan, har qanday adabiy-badiiy asarning oʻziga muvofiq gʻoyasi boʻladi. Mavzu va gʻoya asarda hayotning muayyan parchasini gavdalandirishga asos boʻladigan, uvda taʼsirchan qahramonlar qiyofasini yaratishni taʼminlaydigan poydevordir. Mavzu va gʻoyaning yorokin namoyon boʻlishi esa asarning asosiy konflikti koʻlamiga bogʻliqair. Konflikt nima? Konflikt, avvalo, yon-verimizdagi mavjud hayotning aynan oʻzidir. Hayot esa misoli toʻxtovsiz oqib turgan haryodir. Haryoda suvlar toʻlqin otib okadi. Toʻlqinlar bir-birini quvadi. Kishilarning umri ham xuddi shunday manzaradan iborat. Hayot bir-birini inkor qiladigan va ayni choqaa taqazo etadigan hodisalar majmuasidir. Konflikt lotincha soʻz boʻlib, «toʻqnashish» degan maʼnoni bildiradi. Ziddiyat, toʻqnashuv hayot taraqqiyotini taʼminlovchi asos boʻlgani singari badiiy konflikt ham asarning qiziqarli boʻlishining yetakchi vositasidir. Badiiy konflikt roman, qissa, hikoya, doston qahramonlari oʻrtasidagi qarama-qarshilikair. Qahramonlar bir-birlaridan feʼl-atvori, tabiati, maqsad, intilishlariga koʻra farq qiladi va shunga koʻra, ular oʻrtasida ziddiyat vujudga keladi. Obrazlar oʻrtasidagi ziddiyat ham, qahramonlarning oʻz ichidagi toʻqnashuvlari ham biror-bir voqea tufayli namoyon boʻladi. Voqealarning qay tarzda kechishi asar mavzusi va gʻoyasining ahamiyatini namoyon etgani singari qahramonlarning qiyofasini ham aniq tasavvur etish imkonini beradi. Badiiy konflikt har bir adabiy tur va janrda oʻziga xos tarzda ifodalangan boʻladi. Sheʼriy (gʻazal, ruboiy, tuyuq kabi) asarlardagi konflikt koʻrinishi nasriy (roman, qissa, hikoya) asarlardagidan farq qilganidek, u drama (komediya, tragediya, pesa) asarlarida tamoman boshqacha holda koʻrinadi.

## VIII MAVZU TIL VA ADABIYOT

8-mavzu	Til va adabiyot
Ma'ruza mashg'uloti texnologiyasi	
vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 50 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza - konferensiya.
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1.Badiiy til tushunchasi. 2.Adabiy til elementlari. 3.Badiiy tasvir vositalari. 4.Poetik sintaksis
<p><i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> badiiy asar tili haqida nazariy ma'lumot berish, badiiy asar tilini adabiy tildan farqlash tamoyillari, poetik unsurlar haqida tushuncha shakllantirish</p> <p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p>	
<p>-Badiiy asar tili tushunchasini tushuntirish; -adabiy til elementlarini sanash; -badiiy tasvir vositalari haqida ma'lumot berish; -poetik til haqida nazariy ma'lumot berish.</p>	<p><i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> talaba: -Badiiy asar tili tushunchasini o'rganadi, misollar topadi; -adabiy til elementlarini sanab, daftariga qayd etadi; -badiiy tasvir vositalari haqida ma'lumot oladi, har biriga misollar topadi; -poetik til haqida nazariy ma'lumot oladi. Ma'ruza - konferensiya, muammoli ma'ruza, aqliy hujum, munozara, taqdimot Frontal, individual, guruh bilan ishlash Ma'ruza matni, poyektor, grafik organayzerlar Namunadagi auditoriya</p>
O'qitish uslubi va texnikasi	
O'qitish shakli	
O'qitish vositalari	
O'qitish hart-haroiti	
Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi	
Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni
1-bosqich. Kirish (10 min.)	talaba
O'qituvchi	
<p>1.1. Mavzu, uning maqsadi va o'quv mashg'ulotidan ko'zlangan natijalarni, mashg'ulot ma'ruza konferensiya-munozara tarzida o'tishini e'lon qiladi: 1) mazkur mashg'ulotda hal etiladigan ma'ruza mavzularini taklif etadi. 2) ularning o'quv fanini o'zlashtirishdagi ahamiyatini, shuningdek, bo'lajak mutaxassislikni egallashdagi muhimligini tushuntiradi. 3) ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish uchun adabiyotlar, jurnallarga yo'naltiradi. 4) barcha talabalarga ma'ruza matni bo'yicha ma'ruzachilarga savol tayyorlashlari aytiladi. 5) baholash mezonlari bilan tanishtiradi. 6) tayyorlangan referatlar bilan tanishtiradi. Zarur holatlarda savollar tuzadi.</p>	<p>1.1. Ma'ruzaga tayyorgarlik ko'radilar. Ma'ruzachilar prezentasiya tayyorlashlari va referat bo'yicha reja tuzishlari mumkin. Baholash mezonlari bilan tanishadi. Ma'ruza qilishga tayyorgarlik ko'radi.</p>
<p>2-bosqich. Asosiy (60 min.)</p>	<p>2.1. Ishtirokchilar ma'ruzalarini o'qib eshitiradilar yoki og'zaki bayon qiladilar. 2.2. Ishtirokchilar kollektiv tarzda mashg'ulotni muhokama qiladilar. 2.3. Ekspertlar har bir mavzu bo'yicha munozara natijalarini baholaydi.</p>
<p>2.1. Ma'ruza va axborotlar yuzasidan chiqishlarni tashkil etadi: -mavzu mazmunining yoritilishida mantiqiylikka e'tibor beradi; -bayon qilinayotgan materialni muhokama qilish zarurati tug'ilganda, ma'ruzachini</p>	

to'xtatib, kollektiv munozaraga imkon yaratadi. 2.4. Eng yaxshi doklad rag'bat sifatida universitet konferensiyasiga tavsiya etiladi.

2.2. Ma'ruzaning kollektiv tarzidagi muhokamasini tashkil etadi. Boshlovchi bilan birga:

-savollar beradi;  
-asosiy ko'rsatmalarni aniqlashtiradi;  
-dokladga yangiliklar, statistik materialga e'tibor qaratishni so'raydi.

3-bosqich  
Yakuniy (10 min)

3.1. Barcha ishtirokchilarning faoliyatini umumlashtirib, mashg'ulotni yakunlaydi.

3.2. Ma'ruza – konferensiyadagi dokladchi, taqrizchi va opponetlarning faolligini baholaydi.

3.3. Olingan bilim va ilmiy izlanish ko'nikmalarining kelajakdagi faoliyatda ahamiyatini ta'kidlaydi.

3.4. Konferensiyada ishtirok etmagan talabalarga mavzu yuzasidan esse yozishni topshiradi.

3.5. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: tanlangan biror badiiy asarning tili haqida xulosa yozish.

3.1. Ekspertlar:

1) ma'ruzachi taqrizchi, opponetlarni tayyorgarligini belgilaydi;

2) baholash natijalarini e'lon qiladi.

3.2. Eshitadi, aniqlik kiritadilar, yozadilar.

3.3. Topshiriqni oladilar.

1-ilova.

### **Ma'ruza mashg'uloti doklidlari mavzulari.**

1. Badiiy til tushunchasi.
2. Adabiy til elementlari.
3. Badiiy tasvir vositalari.
4. Poetik sintaksis

2-ilova.

### **Xulosani shakllantirish uchun savollar**

#### *I. Badiiy til tushunchasi.*

1. Badiiy asarning tili tushunchasi qanaqa tushuncha?
2. Tarixiy mavzudagi asarlar tili haqida qanday fikr bildira olasiz?

#### *II. Adabiy til elementlari.*

1. Adabiy til elementlarini muhimlik darajasiga ko'ra tasniflash imkoniyati bormi?
2. Badiiy asar tili bilan adabiy tilning farqlanish tamoyillari qanday?

#### *III. Badiiy tasvir vositalari.*

1. Nasriy va dramatik asarlarda badiiy tasvir vositalari qanday amal qiladi?
2. Badiiy tasvir vositalari bilan badiiy ko'chimlar orasida qanday farq bor?

#### *IV. Poetik sintaksis .*

1. Nasriy va dramatik asarlarda poetik sintaksis qanday amal qiladi?
2. Lirik chekinish nasriy va dramatik asarlarda ham amal qiladimi?

3-ilova.

### **Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari**

#### **Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari (ballarda)**

#### **Munozara ishtirokchilari**

Ma'ruzachilar (F.I.SH.)

1            2            3            4

*Ma'ruzaning mazmuni (2,5):*

- mavzuga mos kelishi (1,5);

- mantiqiylik, aniqlik (0,5);

- xulosalarni qisqaligi (0,5);

*Informasion texnologiyalardan foydalanganligi (ko'rgazmalilik) – (0,9).*

*Reglament (0,6)*

Jami (4,0)

Taqrizchilar (F.I.SH.)

*Ma'ruzaning tavsifi (3,0)*

- ma'ruzaning kuchli tomonlari aniqlash (1,2)

- ma'ruzaning zaif tomonlari aniqlash (1,2)

*Reglament (0,6)*

Jami (3,0)

Opponentlar, ishtirokchilar  
(F.I.SH.)

*Savollar:*

- har biri uchun (0,3)

*Qo'shimcha*

- har biri uchun (0,3)

- mohiyati bo'yicha (0,3)

Jami (3,0)

### ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik.-T.: «Fan», 1978-1979.
3. Arastu. Poetika. Ahloqi kabir.-T.: «Yangi asr avlodi», 2004
4. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi.-T.: «O'zbekiston»,1993.
5. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi.-T.: «O'qituvchi», 2002.
6. Fitrat. Adabiyot qoidalari.-T.: «O'qituvchi»,1995.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.-T.: «Xalq merosi» nashriyoti, 2004
8. Xotamov N. Xolmatov Sh. Mahmudov M. Adabiyotshunoslikka kirish. T., “O'qituvchi” 1984.
9. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T., “O'zbekiston” 2002.
10. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash.-T.: “Fan”, 2006
11. Ziyonet axborot tarmog'i-[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

### O'QUV MATERIALI

Tayanch tushunchalar: muallif tili, personajlar tili, dialog, monolog, arxaik so'zlar, shevaga, kasb-hunarga oid so'zlar, jargonlar, neologizmlar, antonim, sinonim, omonim, badiiy tasvir vositalari (metafora, istiora, metonimiya, sinekdoxa, allegoriya, jonlantirish, sifatlash, o'xshatish, mubolag'a, poetik sintaksis (intonatsiya, parallelizm, anafora, takrorlar, inversiya, antiteza, ritorik murojaat, ritorik so'roq), intonatsiya, parallelizm, takror, anafora, inversiya, antiteza, ritorik murojaat, ritorik so'roq

Adabiy - badiiy asar yaratish uchun faqatgina so'zdan foydalaniladi. Buning uchun birgina so'z zarur, xolos. Adabiy - badiiy asar yaratiga uchun o'ndan bo'lak boshqa biror bir xom ashyoga ehtiyoj, zarurat bo'lmaydi. So'z adabiy-badiiy asarning birinchi va yagona unsuri hisoblanadi. Yozuvchi, shoir asar yozish - hayotning muayyan parchasini badiiy gavdalandirish uchun birgina vosita - so'zdan foydalanadi. So'z uning uchun asar mazmunini ro'yobga chiqaruvchi birdan bir tayanch sanaladi. Chunki uning yorhamida asarning barcha unsurlari: qahramonlar obrazi, ular yatagan manzil-makon ko'rinishlari va hokazolar gavdalandiriladi. Asarning sujet, kompozitsiyasi, o'ndan bo'lak boshqa unsurlari ham aynan so'zning vositasida yaratiladi. Shuning uchun qadim Harq shoirlari asarlari asosiy mavzusi bayonini boshlanmasdan avval so'z harafiga maxsus kism bag'ishlaganlar. Alisher Navoiy ham barcha dostonlarida so'z harafiga alohida bob ajratgan. Jumladan, shoir «Saddi Iskanhariy» dostoni oltinchi bobida «So'z ta'rifida bir necha so'z kim...» deb, so'zga shunday ta'riflar beradi:

*Gar ul bo'lmasa kimsaga yo'q haraf,*

*Aningdekki, gavharsiz o'lg'ay sadaf.*

*...Bahar zotida javhari jon ham ul,*

*O'luk jismida obi hayvon ham ul.*

Ijodkor ana shunday sir-sinoatli hodisadan foydalanib, adabiy-badiiy asar yaratadi. U so'z vositasida hayot hodisalarini suratlantiradi. Adabiy-badiiy asarda so'z haqida mulohaza yuritilganda «badiiy asar tili» iborasi qo'llanadi. Julshadan, tadqiqotlarda «badiiy asar tili badiiy asar mazmunini ro'yobga chiqaruvchi birdan-bir vositadir», deyiladi.

Badiiy asar tili adabiy til me'yorlariga tayanadigan, umumxalq tiliga asoslangan, hamma uchun tushunarli ifodalarni qamrab olgan, ijodkorlar tomonidan jilolangan tildir. U mana shu xususiyatlariga ko'ra, g'oyaviy va hissiy (emosional) ta'sir ko'rsatishning eng samarali vositasidir. Ayni choqda, badiiy til kishilar o'rtasida barcha uchun tushunarli bo'lgan eng ommabop aloqa qurolidir. Yozuvchi, shoir badiiy asar yaratish - obraz va manzaralar chizish uchun so'z va iboralar tanlaydi, ularning asl va ko'chma ma'nolarini aniqlaydi, sinonim va antonimlarni topadi, umumxalq tilining gap ko'rilishi usullaridan, arxaizm va jargonlardan foydalanadi. Shuning uchun adabiyot hayotni so'z orqali tasvirlash san'ati deyiladi.

Badiiy asar tili ilmiy asarlar tilidan tasviriylik, emosionallik, obrazlilik, aforizm kabi xususiyatlari bilan farq qiladi. Fizika, kimyo, matematika, texnika, iqtisodiyot kabi ilmiy sohalaridagi asarlar tili umumlashgan, ixtisoslik yo'nalishidagi tushunchalarni ifoda etsa, badiiy asarlar tili tabiat manzaralari va inson qalbidagi kechinma, holatlarni mavjud qarama-qarshiliklari bilan aks ettiradi. Bu badiiy asar tilining tasviriylik xususiyatidir.

Ilmiy asarlar tilidagi dalil, raqamlar ko'proq kishilarning aql-tafakkuriga ta'sir ko'rsatadi. SHE'r, roman, qissa tili esa ko'proq ularning hissiyotiga, tuyg'ulariga - qalbiga ta'sir qiladi.

Badiiy asar tilining qahramonlar kalb holatini ifodapash orkali kitobxonlar tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatish uning hissiyligi(emosionalligi)ni belgilaydi.

Badiiy asar, avvalo, inson qiyofasini gavdalantrishi bilan ta'sirchan ekanligi ma'lum. Ijodkor inson obrazini yaratish uchun tilning turli shakl, ko'rinishlaridan foydalanadi. U shevaga xos so'zlarni, kasb-korga oid atamaparni, kishi no'tqaning o'ziga xos jihatlarni ko'rsatuvchi iboralarni (masalan, «Mehrobdan chayon» romanida Solih maxdumning «habba» deyishi singari) qo'llaydi.

Badiiy asar tili bilan adabiy til o'rtasida muayyan tafovut mavjud. Ular aynan bir hodisa emas. Avvalo, badiiy asar tili adabiy tilga nisbatan keng hodisadir. Chunki o'nda adabiy tilning o'zi ham, sheva, kasb-hunar, jargonga oid so'zlar ham, tasviriy ifodalar, turli iboralar ham mujassamlashgan bo'ladi. Adabiy til esa me'yoriy grammatika qoidalariga asoslangan, umumiy talaffuz qoidalariga ega bo'lgan va shu asosda xalq jonli tilidagi har xilliklarni bir xillashtirib olgan til sanaladi. SHu boisdan uquv-ta'lim ishlari, rasmiy ish qog'ozlari, ilm-fan, publitsistika, matbuot adabiy tilda olib boriladi. Adabiy til ham millat madaniyatining o'ziga xos bir ko'rinishidir.

Biroq badiiy asar tili ham, adabiy til ham umumxalq tiliga asoslanadi. Umumxalq tili har ikkalasining asosi sanaladi.

Badiiy asar tili muallif tili, personajlar tili, dialog, monolog, arxaik so'zlar, shevaga, kasb-hunarga oid so'zlar, jargonlar, neologizmlar, antonim, sinonim, omonim, badiiy tasvir vositalari (*metafora, istiora, metonimiya, sinekdoxa, allegoriya, jonlantirish, sifatlash, o'xshatish, mubolag'a, poetik sintaksis (intonatsiya, parallelizm, anafora, takrorlar, inversiya, antiteza, ritorik munosabat, ritorik so'roq)*) kabilardan tarkib topgan bo'ladi. Bu unsurlar badiiy asar tilining jozibali, ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

Odatda, badiiy asar matnining asosiy qismi muallif tilidan tarkib topgan bo'ladi. Chunki ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, yechimi kabi sujet qismlari, peyzaj, qahramonlarning ruhiy holatlari muallif so'zi orqali gavdalantriladi. Umuman, muallif o'z asarining hikoyachisi, naqlchisi bo'ladi. Ko'pgina asarlarning muallif so'zi bilan bopshanishi ham shundan dalolat beradi. Aslida ham asarning barcha qahramonlari muallif yorhami, aniqrogi, uning so'zlari bilan harakat qiladi. Muallif doimo ular bilan birga bo'ladi. Kitobxonga qahramonlarni ko'rsatib turadi. Personajlarning o'y-kechinmalari, yashirin-oshkora fikrlaridan xabardor qiladi. Ular turgan muhit manzarasini gavdalantradi.

Ayrim asarlarda voqealar qahramon tilidan hikoya qilinadi. Masalan, G'.G'ulomning «Yodgor» qissasi, «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasi shunday asarlar sirasiga kiradi. Biroq ularda ham qahramonlarni muallif so'zlatadi.

Muallif personajlarning tashqi qiyofasi, ichki kechinmalarini tasvirlash bilan ularni so'zlatadi. So'zlatganda ulardan har birining nutqiga alohida e'tibor beradi. Chunki personajlarning har biri o'ziga xos tarzda gavdalanishi, ularning gap-so'zlari ana shu xususiyati-ni yorqin namoyon etishi lozim. Qahramonning diqqatini jalb etadigan birinchi belgisi uning nutqidir. Misol uchun Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanida Otabek shunday deydi:

«Meni zo'rlagan va majbur qilgan edilar, dada! Sizning o'g'lingiz bo'lgan bir yigitning sha'niga, albatta, odam o'ldirish g'oyat va nomusdir... Siz o'zingizning orzu - havasingiz yo'lida meni majbur qildingiz va dushmanlarimga yo'lni katta qilib ochib berdingiz, men bu jondorlikni xoh, noxoh ishlashga majbur qoldim!.. Sizni gunohkor qilishga va go'nohingizni kechishga mening haqqim yo'q, dada! Lekin gunohsiz bo'la turib ham yana muvoxira ostiga turganim uchun o'zimni mudofaa qilishga majburman». Asar qahramonlari nutqi dialog va monolog shaklida ifoda etiladi. Dialog va monologlarda qahramonlarning ichki dunyosi, fe'l-atvori aks etadi. Ijodkorlar qahramonlar nutqida ular yashagan tarixiy davrga xos so'zlash

tarzini hamda ularning kasb-kori, ma'naviy sajiyasi (intellektuallik darajasi)ni gavdalandirishga harakat qilishadi. Chunki mantiq shuni taqazo etadi.

Dialog, monolog asarni ta'sirchan qiladigan vositalar sirasiga kiradi. Dialog yunoncha so'z bo'lib, «ikki kishi o'rtasidagi so'zlashuv» degan ma'noni anglatadi. Monolog ham yunoncha so'z bo'lib, u badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlarning o'z-o'ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi sanaladi.

Dialog va monologning asarni ta'sirchan etuvchi, o'ni yodda qoldiruvchi unsurlardan ekanligi she'riy, nasriy asarlardan ham ko'ra, drama janriga mansub asarlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Drama, komediya, tragediya matni to'laligicha dialog va monologlardan tarkib topadi. Sahna asarlarini ularsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Monologlar namoyon bo'lish tarziga ko'ra ikki xil bo'ladi: tashqi monolog va ichki monolog. Tashqi monolog qahramonning o'z nutqini ovoz chiqarib bayon etishi bo'lsa, ichki monolog uning ichki o'y-kechinmalaridir. Tashqi monolog shakli ko'proq drama, komediya, tragediyada qo'llansa, ichki monolog barcha janrlardagi asarlarda keng ishlatiladi. Masalan, hayotda har bir odam boshqa bir kishi haqida kunglida qandaydir xayollarga boradi. Ana shu hodisa badiiy asarlarga ham ko'chiriladi. Roman, qissa, doston personajlari bir-birlari haqida turli o'ylarga borishadi. Demak monolog personajlarning o'zi haqidagi o'ylaridangana iborat bo'lmaydi. U boshqalar to'g'risidagi, tevarak-atrofdagi hayot haqidagi orzu-o'y, mushohadalarni ham mujassam etadi.

Personajlarning dialog, monologlarida arxaik shevaga oid, kasb-korga tashtluqai so'zlar uchraydi. Ular zamonni, persoiyning mashg'uloti, tugilib usgan joyini o'ziga xos tarzda ayon etib turadi.

Avvallari qo'llangan bo'lsa-da, ayni paytda nutqda ishlatilmay qolgan so'zlar arxaik so'zlar sanaladi. SHEvaga xos so'zlar esa muayyan hudud kishilari nutqiga xos so'z va iboratdir. Arxaik so'zlar o'tmish manzarasini gavdalandirish maqsadida qo'llansa, shevaga xos so'zlar personajlar tilining o'ziga xosligini namoyon etish, uning manzil-makonini bildirish uchun lozim bo'ladi. Kasb-korga oid so'zlar esa qahramonlar mashg'uloti, ular turmush tarzini ko'rsatish vajidan asqotadi. Masalan, shaxtyorlarning ish tarzi bilan cho'ponlarning kundalik ishi bir-biridan farq qiladi. Shunday ekan, chorvadorlar, shaxtyor yoki baliqchilar haqidagi asar personajlar nutqidan ham aniq bilinib turishi lozim. Ana shu maqsadda yozuvchilar o'z asarlarida shevaga, kasb-korga oid so'z, iboraparni qo'llashadi. Bular mavjud voqelikni aniq aks ettirish imkoniyatini yaratadi.

Ba'zan kishilar o'zaro mulokotlarida faqat bir-birlari tushunadigan so'z, iboralarni qo'llashadi. Masalan, tibbiyot xodimlari bemor huzurida uning kasalligi haqida bir-birlari tushunadigan atamalarni qo'llab gaplashishadi. Ular davolash usullari, qanday dori-harmonlarni ishlatish lozimligi xususida o'zaro maslahatlashishadi. Biroq bu muloqotda nimalar deyilayotganini hamma bemor ham to'lik tushunavermaydi. Tibbiyot xodimlari nutqidagi boshqalar uchun tushunarsiz terminlar kasb-korga, aniqrug'i, sohaga oid so'zlar sanaladi. Biroq yana shunday so'z, iboralar ham borki, ular jargonlar deb ataladi. Jargon frantsuzcha so'z bo'lib, «buzilgan til» degan ma'noni bildiradi. Binobarin, jargon so'n'iy, yasama tildir. U muayyan guruh kishilari doirasidagina qo'llanadi. Jargon so'zlar ham barcha kishi-larning nutqida ishlatiladigan so'z, iboralardan tarkib topgan bo'ladi. Biroq guruh a'zolari muayyan so'z, iboralarni o'zlarigina tushunadigan ma'noda ishlatishadi. Ular nazarda tutgan ma'noni boshqalar bilmaydi. Badiiy asarlarda o'g'rilar, qimorbozlar obrazi gavdalandirilganda ularning no'tqada ishlatiladigan so'z, iboralar - jargonlar keltiriladi. CHunonchi, Tohir Malikning «SHaytanat», «Murdalar gapirmaydilar» asarlarida jargon so'zlar o'g'ri - jinoyatchilar qiyofasini ishonarli ko'rsatish uchun o'ziga xos vosita bo'lgan.

Neologizmlar asosan zamonaviy mavzudagi asarlarda ishlatiladi. Fan-texnika, ijtimoiy hayot taraqqiyoti tufayli paydo bo'lgan yangi so'z, atama, terminlar davr ruhini aks ettirish maqsadida badiiy asarlarda qo'llanadi. Masalan, «neyroxirurgiya», «kosmonavtika» kabi so'zlar. «Birja», «aksiya», «konsalting», «fuchers» singari iqtisodiyot terminlari ham hozirgi o'zbek tili uchun neologizm hisoblanadi.

Omonim, sinonimlar ham xuddi neologizm, jargon, kasb-kor, sheva, arxaik so'zlar singari badiiy asar tilining muhim o'zvlaridir. Omonim yunoncha bo'lib, badiiy asarda har xil ma'no anglatib keluvchi shakldosh so'zlardir. Ona tili harsliklarida ham omonimlarga shakli bir xil, ma'nosi har xil so'zlar, deb ta'rif beriladi. Omonimlardan Harq adabiyotida kadimdan keng foydalanib kelingan. Xususan, omonimlar asosida tuyuqhar yozish an'anaga aylangan. Tuyuq ijodkorlarning so'zni bilish, o'ni his qilish, anglash darajasini ko'rsatadigan o'ziga xos ulchov bo'lgan.

Sinonimlar tilning omonimlarga tamoman teskari hodisasidir. Sinonim yunoncha so'z bo'lib, «bir nomli» degan ma'noni bildiradi. Ona tili harsliklarida sinonimlarga shakli har xil, ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlar, deb ta'rif berilgan. Harq mumtoz adabiyotida bunday so'zlar mutashabix so'zlar deb yuritilgan. Sinonimlar ijodkorning so'z boyligini bildiradigan hodisa sanaladi. Aslida hyech bir tilda ma'nosi bir-biriga aynan teng so'zlar yo'q. Tildagi har bir so'z betakror ma'noni ifoda qiladi. Har bir so'zning o'z jilosi, qamrov doirasi, ko'lami bo'ladi. Masalan, yuz, bet, chehra, aft, turq so'zlari sinonim so'zlar hisoblanadi.



Biroq yuz, chehra soʻzlari ijobiylik sifatini bildirsa, aft, turq soʻzlari salbiy maʼnoni ifoda qiladi. Umuman, har bir soʻzning oʻz taʼsir koʻlami, maʼno yoʻnashishi boʻladi.

Antonimlar esa omonim, sinonimhardan yanada farq qiluvchi soʻzlar sanaladi. Antonim yunoncha soʻz boʻlib, «qarshi» degan maʼnoni bildiradi. Bir-biriga zid maʼnoli soʻz va iboralar antonimlar deb yuritiladi. Antonim soʻzlar hodisa mohiyatidagi qarama-qarshilikni anglatadi. Antonim hodisasi Harq adabiyotida tazod deb yuritiladi.

Badiiy asarlarda antonim, sinonimlardan tashqari, koʻchimlardan ham foydalaniladi. Koʻchim soʻz yoki soʻz birikmasining oʻz maʼnosidan boshqa maʼnoda qoʻllanishidir. Koʻchim trop deb ham yuritiladi. Koʻchimlar ham nutq taʼsirchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Koʻchimlar bir nycha turlarga boʻlinadi: metafora (istiora), metonimiya, sinekdoxa, allegoriya (majoz) kabilar.

Metafora yunoncha soʻz boʻlib, «koʻchirish» degan maʼnoni anglatadi. Metafora oʻxshashli koʻchimidir. U narsa-hodisalar oʻrtasidagi oʻxshashlikqa asoslangan boʻladi. Biroq metafora aynan oʻxshatish emas. Metafora bilan oʻxshatish bir-biridan birmuncha farq qiladi. Oʻxshatishda -dek -day singari qoʻshimchalar, kabi, singari, goʻyo soʻzlari qoʻllangan boʻladi. Metafora (istiora)da esa koʻchma maʼno tashuvchi bitta komponent qatnashadi. Metafora Harq adabiyotida istiora deb yuritiladi.

Metonimiya ikki tushuncha oʻrtasidagi yaqinlikka asoslangan oʻxshashsiz koʻchishdir. Metonimiya yunoncha soʻz boʻlib, «qayta nomlash» demakdir. Metafora(istiora)da bir-biriga oʻxshash narsa-buyum va ularning belgilari kuchiriladi. Metonimiyada esa tashqi koʻrinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga aloqador, biroq bir-biriga uxshamagan narsa-buyumlar belgilari chogʻishtiriladi. Metonimiya bir nycha xil boʻladi:

Muallif nomi uning asari oʻrnida qoʻllanadi:

*Fuzuliyini oldim qoʻlimga,*

*Majnun boʻlib yigʻlab qichqirdi.* (Hamid Olimjon)

Bu oʻrinda Fuzuliy asarlarini deyilmoqchi.

Biror narsa u yasalgan material bilan almashtirib ataladi:

*Pulat qush ham qanotin rostlab,*

*Burgutlarni etar tumtaroq,*(Hamid Olimjon)

Pulat qush deyilganda samolyot nazarda tutalgan.

Sinekdoxa ham metonimiyaning bir shaklidir. Sinekdoxa yunoncha soʻz boʻlib, oʻnda bir qism yoki boʻlak orqali yaxlit, butoʻn narsa bildiriladi va aksincha. Yaʼni, bir butoʻn hodisa orqali uning ayrim boʻlagi haqida mulohaza yuritiladi.

*Halol, pokizadir yegan oshimiz,*

*Ming karra tashakkur peshona terga.*(Gʻafur Gʻulom)

Peshona ter mehnatning bir boʻlagidir.

Allegoriya(majoz) koʻchim turlaridai biridir. U ertak va masallarda ayniqsa, keng qoʻllanadi. Masalan, tulki qiyofasida ayyor kishilar nazarda toʻtiladi. CHumoli mehnatkash, zahmatkash odaxhar timsoli sanaladi. Allegoriya fikrni pardalab, sal yashirib ifoda qilishning eng oʻngʻay shakli hisoblanadi. CHunonchi, Abdulla Oripovning «Tilla baliqcha» sheʼrida ham fikr birmuncha pardalab berilgan. Mustabid tuzum jamiyat aʼzolarini qobiqqa solib qoʻygani haqidagi fikr koʻlmak hovuzda qolgan baliq timsolida aytilgan.

Gulxaniyning «Zarbulmasal», Hamzaning «Toshbaqa va chayon» kabi asarlari allegorik, yaʼni majoziy asarlardir.

Jonlantirish ham badiiy asarlarda keng qoʻllanadigan badiiy tasvir vositalari sirasiga kiradi. Jonlantirish kishilarga xos xususiyatlarni jonsiz va mavxum narsa - hodisalarga kuchirishdir. Masalan, *xoʻmraygan bulutlar* deyiladi. Bunda kishilarga xos xoʻmrayish jonsiz bulutga kuchirilgan boʻladi. Asarlarda togʻ-tosh, shamol, daraxt, mevalar xuddi odamlarga oʻxshatib gapirtiriladi.

Sifatlash jonlantirishdan birmuncha farq qiladigan badiiy tasvir vositasi sanaladi. Sifatlash narsa - hohisaning biror bir belgi, xususiyatini aniq - ravshan alohida ajratib koʻrsatishdir. Sifatlash ikki xil boʻladi. Birinchisi oddiy sifatlash boʻlib, oʻnda narsa - hodisalarning oʻtkinchi belgilari taʼkidlanadi. Ikkinchisi, doimiy sifatlash boʻlib, bunda narsa-hodisalarning doimiy xususiyatlari aytiladi. *Pulat nayza, olmos qilich, uchqur ot* kabilar doimiy sifatlash sanaladi. Har ikkala sifatlash turi voqea-hodisani yorqin koʻrsatishga imkon beradi. Masalan, *ona zamin*.

Oʻxshatish badiiy adabiyotning barcha tasvir vositalari orasida eng koʻp qoʻllanadigan hodisadir. Oʻxshatish narsa-buyumning maʼlum bir belgisini boshqa narsa-buyumga solishtirishdir. Oʻxshatish fikrni yaqaol ifodalash imkoniyatini beradi. Oʻxshatish narsalarning bevosita oʻxshash tomonlarini koʻrsatish yoki -dek (-day) qushimchasi, *xuddi, oʻxshash, goʻyo, misli, misoli, singari, yangligʻ, bamisoli, kabi* koʻmakchilari yorhamida hosil qilinadi.

Badiiy asarlarda tasvir vositalari ayrim holda ham, bir nychasi birgalikda, o'zaro botiq holda ham ishlatiladi. Masalan, ayrim she'rlarning bir bandida o'xshatish ham, sifatlash ham, mubolag'a, jonlantirish ham qo'llangan bo'ladi. Ular ta'sirchan obraz va manzara yaratish bilan birgalikda, ijodkorning voqelikka munosabatini ham bildirib turadi.

Mubolag'a narsa-hodisalarning xususiyat, belgilarini kuchaytirib, orttirib tasvirlashdir. Mubolag'a muayyan narsa-hodisalarni boshqalaridan alohida ajratib ko'rsatish maqsadida qullanadi. Mubolag'a badiiy asarda aksariyat hollarda o'xshatish, jonlantirish, sifatlash, metafora kabi tasviriy vositalar bilan birgalikda qo'llanadi. Mubolag'a, ayniqsa, folklor asarlarida – ertak, dostonlarda ko'p qo'llanadi.

Badiiy asar tilining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uning o'ziga xos qurilishidir. U oddiy so'zlashuvdagi nutqdan gap tuzilishiga ko'ra jiddiy farq qiladi. Badiiy asar tili ba'zi o'rinlarda, hatto, grammatika qoidalariga ham mos kelmaydi. Ilmiy asarlar tilida esa grammatika qoidalariga to'la rioy qilingan bo'ladi. Badiiy asar tilida fikrning ta'sirchan bo'lishi asosiy maqsad qilib qo'yilsa, ilmiy asarlarda fikrning mantiqan ishonchli bo'lishiga e'tibor qaratiladi. SHE'riy, nasriy asarlarda fikrning hissiy ta'sirchan bo'lishiga erishish uchun gap ko'rilishining intonatsiya, parallelizm, takror, anafora, inversiya, antiteza, ritorik murojaat, ritorik so'roq kabi ifoda usullari qo'llaniladi.

Intonatsiya lotincha so'z bo'lib, «qattiq talaffuz etish» degan ma'noni bildiradi. U so'zlovchining, asar muallifining hodisaga munosabatini anglatuvchi ifoda vositasi sanaladi, Badiiy asarda intonatsiyani turli tinish belgilari, misralarning joylashish tarzi bildirib turadi.

Parallelizm ikki yoki undan ortiq narsa-hodisani yonma-yon qo'yish orqali mazmuni yorqinlashtirish uslubi sanaladi. Unda narsa-hodisalar bir-biri bilan muqoyasa qilinadi yoki zidlashtiriladi. Ushbu yo'l bilan fikr aniqlashtiriladi, uning ta'sirchanligi kuchaytiriladi. Parallelizm yunoncha so'z bo'lib, «yonma - yon boruvchi» degan ma'noni bildiradi. Parallelizmlar mazmunan teng yoki bir-biriga yaqin hodisalarning qiyoslanishi, o'xshatilishi, qarama - qarshi qo'yilishi, talaffuzda bir xil ohangdorlikqa asoslangan bo'lishi (intonatsion parallelizmlar) va boshqa ko'rinishda bo'lishi mumkin. Radiflar ham parallelizmning o'ziga xos ko'rinishi sifatida namoyon bo'lishi mumkin, Albatta, bunda misralarda fikr mazmuni o'xshash yoki bir-biriga yaqin hodisalarni ifoda qilish lozim.

Takror parallelizmga yaqin tasvir usuli hisoblanadi. Matnda u aniq ko'rinib turadi. Chunki takror ayrim so'z, iboralarning ma'lum bir tartib asosida qayta-qayta qo'llanilishidir. Takror muayyan maqsadga muvofiq qo'llaniladi. Takrorning anafora, epifora, misralar takrori singari ko'rinishlari bor.

Anafora yunoncha so'z bo'lib, «yuqoriga ko'tarilish» degan ma'noni bildiradi. Bunda bir xil so'z yoki so'z birikmasi she'r misralari boshida aynan bir xil tarzda takrorlanib keladi.

*Qaysi bir ozorin aytay jononima ag'yorning,*

*Qaysi bir og'ritqanin kunglimni dey dildorning.* (Bobur)

Takrorning ham barcha ko'rinishlari mazmuni kuchaytirish, fikrni ta'sirchan qilishga qaratilgan bo'ladi. Anafora, inversiya uning ana shunday ifoda usullari hisoblanadi. Inversiya lotincha so'z bo'lib, «o'rin almashtirish» degan ma'noni bildiradi. Bunda gap bo'laqiari grammatika me'yorlari tartibidan farqliroq tarzda qo'llanadi. Inversiya ta'kidlanmoqchi bo'lgan radif keng qo'llanadi. Jumladan, Alisher Navoiy g'azal, ruboiy, tuyuqlarida ham radiflar ko'p ishlatiladi. Masalan:

*Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,*

*Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.*

*Har neniki sevmak ondın ortuq bo'lmas,*

*Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.*

Ushbu ruboiyda «seni ko'p sevarmen, ey umri aziz» so'zlari radif sifatida misralar oxirida takrorlanib kelgan. Radiflar yakka bir so'z yoki yuqoridagi singari bir nycha so'zdan tashkil topgan ham bo'lishi mumkin.

Turoq bo'g'inlar guruhidan tashkil topadi. Turoqlar guruhidan misralar vujudga keladi. Misralar ham xuddi bo'g'in, turoqlar singari uyushib, muayyan musiqiylik hosil qiladi. Misralarning bunday birikuvi bandlarni vujudga keltiradi. Band misradan ko'ra kengroq, ko'lamliroq fikrni anglatadi. Banddagi fikr muayyan tugallikka ega bo'ladi. U yaxlit manzarani gavdalanitiradi.

**SHE'rshunoslik - maxsus soha. Unda juda ko'p istiloh (termin)lar mavjud. Ularning har birini atroflicha harxlab chiqish katta hajmli alohida ishni taqazo qiladi. Chunki har bir milliy adabiyotning o'ziga xos she'r shakllari bor. Negaki she'r milliy tillarga xos xususiyatlar asosida paydo bo'ladi. SHu boisdan she'r tizimlari, vaznlari har bir xalq tilining ichki qonun-qoidalariga mos holda vujudga keladi.**

## IX MAVZU XALQ IJODI (FOLKLOR) VA XALQ TILI

9-mavzu	Xalq ijodi (folklore) va xalq tili
Ma'ruza mashg'uloti texnologiyasi	
vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 50 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Talabalar bilan hamkorlikda binar ma'ruza.
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, 2 kishilik (binar) dialog, klaster, Insert
O'qitish shakli	Frontal, kollektiv, guruh
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, poyektor, grafik organayzerlar
O'qitish hart-haroiti	Namunadagi auditoriya

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi**

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, maqsad va rejalashtirilgan o'quv natijalarni ma'lum qiladi. 1.2. Reja va binar (2 kishilik) ma'ruzaning xususiyati bilan tanishtiradi. 1.3. Ma'ruzadagi asosiy kategoriya va tushunchalarni mustaqil ishlash uchun savollarni, qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatini keltiradi. 1.4. Mazkur mashg'ulotda o'quv faoliyatining ko'rsatkichlari va baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	Eshitadi. Yozib oladi. Aniqlik kiritadi.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Mavzusi bilan bog'liq tezkor savollarni beradi. 2.2. Mashg'ulot rejasiga asosan ijodiy metodning mazmunini aniqlashtiradi. 2.3. Ijodiy metodlarning turlarini sanab, ularga ta'rif beradi, misollar keltiradi.	Birin-ketin javob beradi. Konspekt qiladi. Yozib oladilar, esda olib qoladi. Eshitadi. Savol beradi. Fikrlaydi, savollar beradi.
3-bosqich Yakuniy (10 min)	3.1. Mavzu bo'yicha yakun yasaydi, talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Xalq og'zaki ijod bilan bog'liq klaster tuzish vazifasini topshiradi. 3.3. 2 ta eng yaxshi klasterni namoyish qiladi, baholaydi. 3.4. Mustaqil ish uchun nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida 3 ta masala beradi (4-ilova).	Klaster tuzadi. Namoyishga tayyorlanadi. Yozib oladi.

1 – ilova.

**Baholar mezonlari va ko'rsatkichlari jadvali**

Doklad qiluvchilar	Dokladdagi ma'lumotning to'liqligi 60%	Axborotning yangiligi 15%	Axborotni tasvirlashda vositalarning ishlatilishi 15%	Reglament 10%	Jami
<b>1</b>					
<b>2</b>					
<b>3</b>					
<b>4</b>					

Oponentlar	Dokladga qilingan qo'shimchalar 40%	Munozarada qatnashganligi 20%	Savollar		Jami
			Miqdori	Sifati	
1					
2					
3					
4					

Diskussiya qatnashchilari	Savollar (0,1 har biri uchun )	Maqsadlilik ( 0, 3 )	Qo'shimchalar (0,2 har biri uchun)	Jami
1				
2				
3				
4				

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. T., 2005.
2. N.Umurov. Adabiyot nazariyasi. T., 2002.

### O'QUV MATERIALI

#### X MAVZU BADIY IJOD TURLARI

10-mavzu	Badiiy ijod turlari
<p>Ma'ruza mashg'uloti texnologiyasi</p> <p>vaqti – 2 soat</p> <p>O'quv mashg'ulotining shakli</p> <p>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</p> <p><i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> adabiy turlar (poeziya, proza, drama) va janrlar tarkibi bilan tanishtirish</p> <p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <p>-adabiy turlar va adabiy janr tushunchalarini harhlash;</p> <p>-nasriy tur va unga xos janrlarni sanab ko'rsatish;</p> <p>-she'riy tur va unga xos janrlarni sanab ko'rsatish;</p> <p>-dramatik tur va unga xos janrlarni sanab ko'rsatish;</p> <p>-tur va janrlarning nazariy xususiyatlarini aniqlash.</p> <p>O'qitish uslubi va texnikasi</p> <p>O'qitish shakli</p> <p>O'qitish vositalari</p> <p>O'qitish hart-haroiti</p>	<p>Talabalar soni: 50 nafar</p> <p>Vizual, axborot ma'ruza</p> <p>1.Adabiy tur tushunchasi.</p> <p>2.Adabiy janr tushunchasi.</p> <p>3.Nasriy tur va unga xos janrlar.</p> <p>4.She'riy tur va unga xos janrlar.</p> <p>5.Dramatik tur va unga xos janrlar.</p> <p><i>O'quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p>talaba:</p> <p>-adabiy turlar va adabiy janr tushunchalari haqidagi nazariy ma'lumotlarni daftarga yozib oladi;</p> <p>-nasriy tur va unga xos janrlarni sanab ko'rsatadi, misollar topadi;</p> <p>-she'riy tur va unga xos janrlarni sanab ko'rsatadi, misollar topadi;</p> <p>-dramatik tur va unga xos janrlarni sanab ko'rsatadi, misollar topadi;</p> <p>Axborot-ma'ruza, insert, hamkorlikda o'qitish texnikasi, sinkveyn frontal, guruhlarda</p> <p>Ma'ruza matni, poyektor, grafik organayzerlar</p> <p>Namunadagi auditoriya</p>

#### Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar,  
vaqti

Faoliyat mazmuni

O'qituvchi

talaba

Tayyorgarlik bosqichi (5 min)	Avvalgi darsning so'ngida ma'ruza matni talabalarga berilgan. "Insert" texnikasini qo'llagan holda o'qib chiqish tayinlangan. Guruhlarda o'qitish uchun har bir guruh vazifasi ishlab chiqiladi.	Vazifani oladi va bajaradilar.
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu maqsad va rejadagi o'quv natijalari va uni o'tkazish natijasini ma'lum qiladi. Mashg'ulotning o'zaro aloqa usulida o'qitishni e'lon qiladi. 1.2. Talabalarga berilgan vazifani eslatadi. Mazkur mavzudan qanday yangi ma'lumot olganliklarini so'raydi. 1.3. Qanday savollar tug'ilganligini bilish uchun ularni doskaga yozib chiqadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladilar 1.2. Savollarni o'rta tashlaydilar.
2-bosqich. Asosiy (55 min.)	2.1. Talabalarni kichik guruhlariga ajratadi. Har bir guruh mavzuning ma'lum bir savoli bo'yicha "ekspert" bo'lishini va boshqalarni o'qitishni ma'lum qiladi. Ekspert varaqlari, oq qog'oz (A32) markerlarni tarqatadi. Savollarning mazmunini tushuntiradi. Qaysi materialdan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Ish reglamenti, baholash mezonlari bilan tanishtiradi va mashg'ulot boshlanganini e'lon qiladi. 2.2. Mavzu savollarining jamoa bo'lib muhokamasi va taqdimotini e'lon qiladi. 1) O'zi konsultant-arbitr vazifasini o'taydi; 2) qo'shimcha savollar beradi; 3) har bir savol muhokamasining so'ngida o'zaro baholashni tashkil etib, yakuniy xulosa qiladi va talabalar e'tiborini masalaning muhim tomonlariga qaratadi. 2.3. Talabalar bilimini tekshirish maqsadida mavzu savollariga javob berishni taklif qiladi. Tezkor savol-javob yoki test o'tkazadi.	2.1. Guruhlar vazifalarini oladi va muhokama qiladilar. Kichik guruhlarda ishlashni boshlaydi. 2.2. Guruhda javoblarni tayyorlaydi. Ko'rgazmali material tayyorlaydi. 2.3. Guruh yetakchilari yoki a'zolari o'zlarining savollari bo'yicha axborot beradi. Ko'rgazmali materialdan foydalanadi va qo'shimcha savollarga javob beradi. 2.4. Boshqa guruh javoblarini baholaydi, savollar beradi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min)	3.1. O'quv faoliyatiga yakun yasaydi. O'zaro o'qitish natijalarini e'lon qiladi. Faol ishtirokchilarni belgilaydi va olingan bilimlarning kelajakdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. 3.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: mavzu bo'yicha klaster tayyorlash	Vazifani yozib oladi.

1-ilova.

#### Reglament

1. Muammoni yechish va prezentatsiya varag'ini yozish uchun guruhda ishlashga – 20 min.
2. Muammo yechimini prezentatsiya qilish – 8 min.gacha.
3. Jamoa bo'lib muhokama qilish, xulosalarni shakllantirish – 10 min.gacha.
4. O'zaro baholash – 1 min.

2 – ilova.

#### Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Har bir guruh boshqa guruhlar taqdimotini baholaydi, mezonlar bo'yicha ballarni jamlaydi		Maksimal	1	2	3	4
Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari		ball	guruh	guruh	guruh	guruh
Yechimlar:		1,2				
- muammoni va quyi muammoni to'g'ri shakllantirish		0,4				
- yechimni muammo va quyi muammo shakliga mos kelishi		0,4				
- mantiqiylik, aniqlik, xulosalarning qisqaligi		0,4				
Taqdimot:		1,4				
- javoblarning aniqligi va tushunariligi		1,0				
- har bir guruh ishtirokchisining faolligi (savollar, qo'shimchalar)		0,4				
Reglament		0,4				
Umumiy ballar yig'indisi		3,0				

1-ekspert varag'i.

1. Prozaik turning asosiy nazariy belgilarini tushuntiring.  
(*T-sxema, klaster, insert texnikasidan foydalangan holda*)
- 2-ekspert varag'i.
2. Lirik turning asosiy nazariy belgilarini tushuntiring.  
(*T-sxema, klaster, insert texnikasidan foydalangan holda*)
- 3-ekspert varag'i.
3. Dramatik turning asosiy nazariy belgilarini tushuntiring.  
(*T-sxema, klaster, insert texnikasidan foydalangan holda*)
- 4-ekspert varag'i.
4. Adabiy tur va janrlarga ajratish tamoyillari haqida fikr yuriting  
(*T-sxema, klaster, insert texnikasidan foydalangan holda*)

### ADABIYOTLAR:

12. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
13. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik.-T.: «Fan», 1978-1979.
14. Arastu. Poetika. Ahloqi kabir.-T.: «Yangi asr avlodi», 2004
15. Valix'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi.-T.: «O'zbekiston»,1993.
16. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi.-T.: «O'qituvchi», 2002.
17. Fitrat. Adabiyot qoidalari.-T.: «O'qituvchi»,1995.
18. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.-T.: «Xalq merosi» nashriyoti, 2004
19. Xotamov N. Xolmatov Sh. Mahmudov M. Adabiyotshunoslikka kirish. T., «O'qituvchi» 1984.
20. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T., «O'zbekiston» 2002.
21. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash.-T.: «Fan», 2006
22. Ziyonet axborot tarmog'i-[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

### O'QUV MATERIALI

Tayanch tushunchalar: Adabiy tur tushunchasi, adabiy janr tushunchasi, nasriy tur va unga xos janrlar, she'riy tur va unga xos janrlar, dramatik tur va unga xos janrlar.

So'z san'atida uchta tur kashf etilgan. Bu uch tur ham inson aql-tafakkurining o'ziga xos yaratuvchanligiga maxsulidir. Ular inson dunyosini so'zda suratlantirish, namoyon etish borasida uzoq izlanishlar oqibatida erishilgan natijadir.

Inson tafakkurining bu kashfiyoti mustadkam zaminga asoslangani uchun ham Aristotel (er.av.384-322 yillar) «Poetika» asarida so'z san'ati asarlarini uch tur - epos, lirika, dramaga bo'lib harxlaydi.

«Epos» roman, qissa, hikoya, «lirika» g'azal, tuyuq, ruboiy, «drama» komediya, tragediya, drama janrlarini umumlantiradi. Ya'ni mazkur adabiy turlar ana shunday qismlardan tarkib topgan bo'ladi. Epos, lirika, dramani tashkil etuvchi ana shunday uzvlar «janr» deb yuritiladi.

Adabiy turlar bir-biridan, avvalo, voqelikni gavdalandirish tarziga ko'ra farqlanadi. Eposga mansub asarlar ko'pincha bo'lib o'tgan voqeaparni ko'rsatayotganday taassurot uyg'otsa, lirik turga oid asarlar ayni choqda bo'lib o'tgan voqealarni gavdalandirayotganday tasavvur yaratadi. Drama asarlarida esa voqealar xuddi hozir bo'lib o'tayotganday bo'lib ko'rinadi.

Biroq eposga xos xususiyatlar ma'lum darajada lirik asarda yoki komediya, drama, tragediyada ham mavjud bo'ladi. Yoki lirikaga xos xususiyatlar roman, qissa, hikoya yoki drama asarlarida namoyon bo'ladi. Dramaning xos belgilari esa epos, lirikada ham ko'rinadi. Chunki adabiy turlar bir-biri bilan mustaxkam aloqador, mushtarak hodisa sanaladi. Ularning tasvir obyektini ham, mavzusi ham yagona - insondir. Adabiy turlarga mansub janrlar ana shu ob'ektni har xil ko'rinishda gavdalandiradi, xolos.

Epos (roman, qissa, hikoya) voqeani, lirika insonning ruhiy holat, kechinmasini, drama kishining xarakterini gavdalandiradi, degan qarash keng yoyilgan. Biroq roman, qissa, hikoyada ham insonning ruhiy holat, kechinmalari ko'rsatiladi. She'riy asarlarda ma'lum voqealar bayon etkiadi. Drama asarlarida ham qahramonning kayfiyati, qalbidagi alg'ov-dalg'ovlar jarayoni akslanadi.

Albatta, epos, lirika, drama o'rtasida jiddiy farqlar mavjud. Epos so'zlashuv nutqiga yaqin bir tarzda ezilsa, lirika misra, qofiya, turoq singari unsurlarga asoslangan, drama dialog, monologlardan tarkib topgan bo'ladi.

«Janr» fransuzcha soz bo'lib, «tur», «jins» degan ma'noni anglatadi. Bu termin dastlab san'at va adabiyot atamasi sifatida XVI asrda Frantsiyada qo'llana boshlagan. Adabiy janr asarlarning kompo-zitsion ko'rilishi, tasvirlash Yo'llari, vositalari, baYon usullari, xo-hisalarni kamrash ko'lamiga ko'ra ko'rinyshidir. Janr o'zgaruvchan, boyib boradigan hodisadir. Ayni paytda u ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy taraqqiyot jaraYonida iste'moldan qapib ketishi mumkin bo'lgan o'ziga xoslikair.

«Epos» deganda xozir nasriy asarlar tushuniladi. Roman", qissa, hikoya, masal, ertak kabi janrlar epik turga mansub asarlar deyiladi. Epos yunoncha eroş so'z bo'lib, «so'z», «no'tk.», «hikoya» degan ma'noni anglatadi. Bu atama keng va tor ma'noda qo'llanadi. Epos keng ma'noda voqeaband asardir. Bundan ayonki, she'riy yo'lda yozilgan asar ham epos bo'lishi mumkin. Voqealarni hikoya qilish ustuvor bo'lgan eposda hodisalarni bayon etish shakli va usullari davr o'tishi bilan o'zgarib, boyib borgan. Qadimgi epik asarlarda voqealar o'tgan zamon shaklida ifodalangan bo'lsa, xozirgi roman, qissa, hikoyalarda xozirgi yoki o'tgan zamonda boshlanib, ayni paytda ham davom etayotganday yoki yana boshqacha tarzda naqa qilinadi. Epik asarlar voqealarni aks ettirish jihatidangiYa emas, balki inson ruhiy olamini chuqu tahlil qilishi bilan ham yangi imkoniyatlarni namoyon etmoqaa.

Epos tor ma'noda xalq ijodiyotiga mansub yirik hajmli asarlardir. O'zbek xalq dostonlari ham epik asardir. Xalq eposi mavzusi, voqealarni talqan qilishiga ko'ra bir nyecha xillarga bo'linadi. Masalan: qahramonlik eposi, tarixiy epos, romantik epos, jangnoma va boshqalar. Bu asarlar keng sujetli, dramatik voqealarga boy bo'ladi. Xalq eposida real voqelik badiiy to'qima, xayoliy tasavvur, mifologik qaraphar bilan qorishiq holda ko'rinadi.

Epik turga mansub janrlar orasida eng salmoqaori romandir. Roman janri XIX asr oxirlaridan boshgab, milliy adabiyotlarning mavqeini belgilaydigan adabiy mezonga aylandi. Roman asli frantsuzcha so'zdir. Roman tillarida yozilgan asarlar shunday deb yuritilgan. Keyinchalik ayni shu tillarda yaratilgan, yirik hajmli, katta sujetga asoslangan asarlar ham roman deb atala boshlagan. Masalan: «Tristan va Izolda», «Satirikon» singari asarlar roman deyilgan, Chunki bu asarlarda ko'plab qahramonlarning hayoti, sarguzashtlari bayon etilgan. Bokkachchoning «Dekameron» asarida o'nlab qahramonlarning kechmish-kechirmishlari naql qilingan. Hikoyalardan tashkil topgan ushbu asar ko'p tarmoqli sujetdan iborat bo'lgani uchun «roman» deb yuritilgan. XII - XIII asrlarda fransuz, italyan, portugal - umuman, roman tillarida yozilgan kichik hajmli hikoyalar ham «roman» deb atalgan.

Bu shundan dalolat beradiki, roman hikoya, naql asosida paydo bo'lgan janrdir. Hikoyaga xalq eposiga xos ko'p tarmoqli sujetlilikning kirib kelishi roman janri shaklanishiga asos bo'lgan. Chunki romanga xos keng qamrovlilik dastlab xalq dostonlarida mavjud bo'lgan. Ya'ni xalq dostonlarida qahramonlar sarguzashtlari batafsil, keng miqyosda bayon qilingan. Xalq eposiga xos ana shu xususiyat roman janri shaklanishiga asos bo'lgan. Roman deb yuritilgan dastlabki asarlarda qahramonlarning sargo'zashtlari, qahramoshshqiarini naql qilish asosiy o'rin tutgan. Masalan, Servantesning «Don Kixot», Daniyel Defoning «Robinzon Kruzo» asarlarida qahramonlarning sarguzasht, sayoxatlari bayon etilgan.

Dastlabki romanlarda xuddi xalq eposlarida bo'lgani singari qahramonlar kechmish - kechirmishlarini ma'lum qiyaish asosiy o'rin egallagan. Inson ruhiy dunyosini, kayfiyat, kechinmalarini ko'rsatishga intilish keyinchalik paydo bo'lgan. Bu dastlab Gyugo, Russo romanlarida ko'ringan.

Tarixiy mavzudagi romanlar uchun voqealarni naqa qilish barcha davrlarda ustuvor bo'lib kelgan. Valter Skott, Viktor Gyugo singari adiblarning tarixiy romanlarida ham shu xususiyat yaqqol seziladi.

XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab, Yevropa adabiyotida roman janri yuksala boshladi. Stendal, Balzak, Dikens kabi adiblarning romanlari madaniy hayotdagi katta hodisa bo'ldi. Flober, Mopassanlarning oilaviy-maishiy mavzudagi romanlari o'quvchilarning eng sevimli asarlariga aylandi. Roman janri keyinchalik rus adabiyotida chinakam yuksaqlikqa ko'tarildi. A. Pushkinning «Yevgeniy Onegin», M. Lermontovning «Zamonamiz qahramoni», I.Turgenevning «Otarlar va bolalar» singari romanlari inson tabiatini, kishilararo munosabatlar murakkabligini yorqin ko'rsatishi jihatidan e'tibor qozondi.

Roman janrining yuksak e'tibor topishida F. Dostoyevskiy asarlari alohida o'rin tutadi. Adibning «Aka-uka Karamazovlar», «Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar», «Jinoyat va jazo», «Telba» asarlari inson qalbining o'zgarishlarini butun murakkabliklari bilan nozik ko'rsatib berishi jihatidan adabiyotning insonshunoslik mohiyatitai yorqin namoyish etdi.

Rus adibi L.Tolstoyning «Urush va tinchlik», «Tirilish», «Anna Karenina» romanlarida ham hayot hodisalari keng ko'lamda ko'rsatilib, davr kishilarining turmush tarzi, dunyoqarashi haqqoniy yoritib berilgan.

Umuman olganda, XX asr jahon adabiyotidagi romanchilik rivojiga F. Dostoyevskiy, shuningdek L. Tolstoy asarlari, ayniqsa, kuchli ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, yapon adibi Kendzaburo Oe: «O'z yozuvchilik yo'lim haqida gapiradigan bo'lsam, e'tirof etishim lozimki, men hayotni ko'rsatishni, insonning ichki

dunyosini yoritishni Dostoyevskiy va Tolstoy asarlaridan o'rgandim. «Aka-uka Karamazovlar» romanini o'n ikki marta o'qib chiqdim. «Anna Karenina»ni bir nycha bor o'qidim», deydi

Yevropa adabiyotida shaklanib, e'tiborli adabiy hodisaga aylangan roman janriga intilish XX asrga kelib, barcha milliy adabiyotlarda kuchaygan. Arab, yapon, xind adabiyotida ham XIX asr oxirlarida dastlabki romanlar paydo bo'lgan. Mashhur ma'rifatparvar Ismoil Gaspirali (1851-1914) ham «Dorulrohat musulmonlari» nomli roman yozgan bo'lib, u 1887 yil 25 yanvardan «Tarjumon» gazetasida bosila boshlagan.

Roman janri, avvalo, hayotning keng manzarasini aks ettirish imkoni bilan barcha xalqar ijodkorlari e'tiborini o'ziga tortgan. Harqda arab adibi Jurji Zaydon, xind mutafakkiri Robindranat Txakur kabi yozuvchilarning romanlari, ayniqsa, mashhur bo'lgan. Ularning asarlarida kishilarning maishiy turmushi mavjud ijtimoiy voqelik bilan bog'liq xohisa gavdalanitirilgan. Robindranat Txakur romanlarida mustamlakachilar zulmi ostida ezilgan xalq. ahvolini ko'rsatish asosiy o'rin tutgan.

O'zbek romanchiligini boshlab bergan Abdulla Qodiriy, ayniqsa, Jurji Zaydon romanlari bilan yaxshi tanish bo'lgan. Hamza, Mirmuhsin SHermuhamedov singari o'zbek yozuvchilari ham roman yaratishga harakat qilishgan. Hamza «Faqirlik nimadan hosil bo'lur?» (1914) «Yangi saodat» (1915), Mirmuhsin SHermuhamedov «Befarزند Ochildiboy» (1914) asarlarini «roman» deb nomlagan. Aslida ular hajman yirik voqeaband nasriy asarlar bo'lgan.

XX asrda roman janrining mavqei g'oyat yuksaldi. Roman yaratish yozuvchilarning maqsad-muddaosiga aylandi. Jumladav, o'zbek adabiyotida ham Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar»idan keyin 90-yillargacha ikki yo'zdan ko'proq roman yozildi.

Romanlar mavzusi, qamrab olingan voqealar ko'lamiga ko'ra bir nycha xillarga bo'linadi. Jumladan: tarixiy roman, falsafiy roman, fantastik roman, sarguzasht roman, ijtimoiy-siyosiy roman, avtobiografik roman kabilar. Biroq tarixiy romanda faasafiy mushohadalar yoki avtobiografik romanda ijtimoiy-siyosiy voqealar tahliliga keng o'rin berilgan bo'lishi mumkin. SHu boisdan, romanlarni mavzusiga ko'ra guruhlarga ajratish nisbiy bo'ladi.

Romanlarniig yana bir xili borki, ular dilogiya, trilogiya, tetralogiya, pentalogiya deb yuritiladi. Qahramonlar hayoti ikki kitobda ko'rsatilgan asarlar dilogiya, uch kitobda ko'rsatilgan asarlar trilogiya, to'rt kitobdan iborat bo'lsa tetralogiya, besh kitobdan iborat bo'lsa pentalogiya deyiladi. Oybekning «Qutlug' qon», «Ulug' yo'l» romanlari dilogiya sanalsa, M. Gorkiyning «Bolalik», «Odamlar xizmatida», «Mening universitetlarim», Said Ahmadning «Qirq besh kun», «Hijron kunlarida», «Ufq bo'sag'asida» asarlari trilogiya, L. Tolstoyning «Urush va tinchlik», M. SHoloxovning «Tinch Don», M.Gorkiyning «Qiim Samginning hayoti» asarlari tetralogiyadir. A. Dyumaning «Uch mushketyor», «Yigirma yildan so'ng», ikki qismli «O'n yildan so'ng yoki Vikont de Brajelon», «Temir niqob» asarlari besh kitobdan iborat bo'lgani uchun pentalogiya deb yuritiladi. «Urush va tinchlik» (L.Tolstoy), «Tinch Don» (M.SHoloxov), o'n tomlik «Jan Kristof» (R.Rollan) asarlari roman-epopeya deb ham yuritiladi.

Povest romanga nisbatan qamrov doirasi torroq asardir. SHuning uchun V. Belinskiy «Povest ham romannig o'zginasidir, faqat kichik hajmdadir, asarning xajmi esa mazmunning hajmi va mohiyatiga qarab belgilapadi», deydi. Povest o'zbek adabiyotshunosligida «qissa» deb yuritiladi. Qissada bir-ikki qahramon hayotidagi eng muhim voqealar ko'rsatilgan, asosiy diqqat bosh qahramon xarakterini ochishga qaratilgan bo'ladi. Bosh qahramon sujetdagi barcha voqealarni yagona markaz sifatida birlashtirib turadi. Abdulla Qahhorning «Sinchalak» qissasidagi barcha voqealar bosh qahramon - Saida faoliyati bilan boglanib ketadi. Sadriddin Ayniyning «Sudxo'rning o'limi» qissasida Ismat Qori - Qori Ishkamba asardagi barcha voqealar markazidagi obraz sifatida namoyon bo'ladi. CHingiz Aytmatov «Jamila», «Alvido, Gulsari», «Oq kema» qissalarida Jamila, Tanaboy, Bolani asosiy qahramon sifatida ko'rsatib, hayotning yorqin manzarasini ko'rsatib beradi.

Qissa janri Harq adabiyotida qadimdan mavjud bo'lgan. Ularning aksariyati diniy mayzuga bag'ishlangan. «CHor darvesh», «Ibrohim Adham» qissalari, ayniqsa, mashhur bo'lgan Nosiriddin Rabg'o'ziyning «Qissasul anbiyo» asari ham payg'ambarlarning ilohiy kitoblarda zikr qilingan hayotiga asoslangan.

CHingiz Aytmatovning «Oq kema», «Alvido, Gulsari», Vasil Bikovning «Tonggacha omon bo'lsa», «Kulfat belgisi», Valentin Rasputinning «Yasha va esla» qissalari hayot hodisalari va kishilar dunyosini yorqin gavdalanitirishi bilan XX asr mashhur romanlari bilan bir qatorda turadi. Kolumbiyalik adib, Nobel mukofoti sovrindori Gabriyel Garsia Markesning «Oshkora qotillik qissasi», «Polkovnikka hyech kim maktub yozmaydi» qissalari ham uning «Tanholikning yuz yil» romani darajasida shuhrat qozongan. Negaki, bu qissalarda ham hayot aniq-tiniq gavdalanitirilgan. Ular xuddi yirik hajmli asarlar singari taassurot o'ygotadi.



Roman janrining shaklanishiga asos bo'lgan hikoya esa qissadagidan ko'ra kichik bir voqeani ma'lum qilishi, shu xhisa ichidagi bitta qahramonniig dunyosini ko'rsatishi bilan farq qiladi. Hikoya muayyan bir holat, hodisa orqali qahramonning ichki qiyofasini, fe'l - atvorini akslantiradi. Hikoya «novella» deb ham yuritiladi. «Novella» italyancha so'z bo'lib, «yangilik» degan ma'noni bildiradi. Hikoya alohida, novella alohida janr emas. Abdulla Qahhorning «Bemor», «O'g'ri», «Anor» asarlarini hikoya deb ham, novella deb ham hisoblash mumkin. Hikoyada qahramon hayotining ma'lum bir epizodi gavgdaptantirilgan bo'ladi. Uning avvalgi yoki keyingi taqdiri xususida ma'lumot berib o'tirilmaydi. Chunki hikoya qisqalikka asoslanadi. Abdulla Qahhorning «Bemor», «Anor» hikoyalaridagi jumla qurilishi lo'ndaligi ham janrning ana shu tabiatini ayon etib turadi.

Romanda ko'plab, qissada bir nyecha, hikoyada esa bir-ikki kishi asosiy qahramon sifatida ko'rinadi. Uning fe'l-atvori muayyan bir voqea sahnasida gavgdaltantirib beriladi. «O'g'ri», «Bemor», «Anor» nochor, ojiz kishilar ahvolini aniq va ta'sirchan ko'rsatuvchi asar sanaladi. Bu uch hikoya qahramonlarini kambag'allik, qashshoqik birlashtirib turadi. Kambag'allik Qobil boboni ham, Sotiboldini ham ezib, ojiz, majruh ahvolga solib qo'ygan. Kambag'allik zaminida paydo bo'lgan nochorlik «O'g'ri», «Bemor», «Anor» qahramonlari ongu dunyoqarashini toraytirib qo'ygan.

Qahramonlarining bu ahvolini yozuvchi birma-bir harxlab, bayon etmaydi. U xarakterli bir voqeaning aniq, lo'nda manzarasini gavgdaltantirish orqali keng xulosalar chiqarishga asos yaratadi. «Kalila va Dimna», SHayx Sa'diyning «Guliston», «Bo'ston» asarlari Harq adabiyotidagi hikoyachilikning yetuk namunalari hisoblanadi. Harq hikoyachiliga voqealarning ta'sirchanligi, ziddiyatlarning keskinligi, favqulodda falsafiy mulohazalarga boyligi bilan e'tiborni tortadi.

Gi de Mopassan (1850-1893), Stefan Siveyg (1881-1942), Anatol Frans (1844-1924), Ivan Turgenev (1818-1883), O. Genri (1862-1910) kabi Yevropa adiblari hikoyalari ham mashhur. Yapon adabiyotida yaratilgan hikoyalarda ham jahon adabiyotining eng ilg'or jihatlari mujassamlashgan. Ular avvalo kutilmagan, favqulodda hodisalarni naql qilishi, inson fe'l-atvorining nozik qirralarini ko'rsatishga butun e'tiborni tortadi.

O'zbek hikoyachiligida aksariyat asarlar maishiy turmush voqeligiga asoslangan. Ularda tevarak-atrofdada mavjud bo'lgan, kishilar guvoxi yoki bevosita ishtirokchisi bo'ladigan hodisalar ma'lum qilinadi. Abdulla Qahhor, Abdulla Qodiriy, CHO'lpon, G'afur G'ulom kabi adiblarning hikoyalarida ham, Said Ahmad, SHukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov, O'lmas Umarbekov, Uchqun Nazarov, Murod Muhamma Do'st, Erkin A'zamov, Xayriddin Sultonov kabi adiblarning kichik nasrdagi asarlarida ham real turmush voqealari qaziqarli naql qilinadi. Jahon adabiyotining e'tiborli namunalari, masalan, yapon yozuvchilariping hikoyalarida esa o'quvchining xayoli, tasavvuriga kelmagan, uning uchun yangilik bo'la oladigan hodisalar tasvirlanadi.

Ocherk ham xuddi hikoya, qissa, roman singari epik turga mansub janr hisoblanadi. Ocherk ruscha so'zdan olingan bo'lib, «tasvirlash» degan ma'noni bildiradi. Hikoyada badiiy to'qima asosiy o'rin to'tsa, ocherk hujjatlilikka asoslanishi bilan undan farq qiladi. Ocherkda muallif haqiqatan bo'lib o'tgan, o'zi kuzatgan, bilgan, eshitgan, aniq asosli hodisalarni ma'lum qiladi. Ocherk hikoya, qissa, romandan ko'ra hayotning muayyan muammolarini aniq ko'rsatib beradi. Barchaning e'tiborini mavjud holatga jalb etadi. Ocherqaa mavjud hodisalar haqida shunchaki xabar, ma'lumot berish bilan cheqanilmaydi. Bu janrdagi asarlarda ham voqealar, qahramonlar qiyofa, ko'rinishi, ularning holatlari, uning kechinmalari badiiy gavgdaltantiriladi. SHu boisdan, ocherk realistik badiiy nasr janri hisoblanadi.

Pamflet ham epik turga mansub janrlardan biri sanaladi. Pamflet inglizcha so'z bo'lib, «qo'ldagi varaq» degan ma'noni bildiradi. Bu janrdagi asarlar ko'proq muayyan ijtimoiy hodisani fosh etish, tanqid qilishga asoslanadi. SHuro hukmronligi davrida yozuvchilar xususiy mulkka asoslangan to'zum - kapitalizmni qoralab, pamfletlar yozishgan. Bundan maqsad, kapitalistik davlatlar ijtimoiy to'zumini yomon ko'rsatish bo'lgan. Xususiy mulk hukmron mamlakatlarda kishilar pul bandasiga aylanadi, odamgarchshtiq mehr - shafqat barham topadi, pul, boylik hamma narsani hal qiluvchi kuch sanaladi - bu insoniyat uchun g'oyat zararlidir, degan g'oyani kishilar ongiga singdirishga harakat qilingan. M. Gor'kiy «Sariq iblits shahri» pamfletida Amerika hayotidagi kamchilik - nuqsonlarni ko'rsatgan. U pul, boylik, oltinni «sariq; iblits» deb atagan.

Feleton ham xuddi pamflet singari ko'proq tanqid qilishga asoslangan epik turga mansub janr hisoblanadi. Feleton fransuzcha so'z bo'lib, «varaqa» demaqair. Bu so'z dastlab Fransiyada 1800 yilda qo'llana boshlagan. O'shanda gazetalarning modalar, teatr reqiamalari, e'lonlar chop qilingan qo'shimcha alohida varaqalari «feleton» deb yuritilgan. Keyinchalik reqiama va e'lonlar qo'ushimcha alohida varaqada emas, gazetalari saxifalarining bir burchida beriladigan bo'lgan va gazetaning o'sha rukni «feleton» deyilgan. Feleton pamfletdan aniq voqeaga bagishlangani, unda aniq kishilar faoliyati dalillar asosida yoritilishi bilan farq qiladi. Feletonlar ijobiy mazmunda ham, salbiy-hajviy, tanqidiy yo'nalishda ham bo'lishi mumkin.

Biroq odatda, salbiy-hajviy, tanqidiy yo‘nalishdagi feletonlar ko‘proq yoziladi. Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Said Ahmad kabi adiblar dolzarb mavzularda qaziqarli feletonlar yaratishgan.

Lirik turdagi asarlar ham xuddi nasriy va dramatik asarlar singari mavzu yo‘nalishi, ifoda uslubiga ko‘ra guruharga bo‘linadi: intim lirika, publitsistik lirika, hajviy lirika. Ularni harxdashdan avval «lirika» termini xususida to‘xtalish joiz. Lirika yunoncha so‘z bo‘lib, «lira jo‘rligida aytish» demakdir. Lira esa cholg‘u asbobidir.

Intim lirika shaxsiy kechinmalar izhoridir, Inson kechinmalarining aksariyat qismini vafodor yor, do‘st, hamhard izlash tashkil etadi. Har bir odam hamisha haqiqiy hamhardga extiyojmand bo‘ladi. Intim lirika ana shu holatni ifoda etadi. Kishi turli kayfiyatga tushishi mumkin. Uning bu holatdagi hard, iztirobi, sevinch - shodligi kimnidir qo‘msash, kimdandir ranjish bilan bog‘lanadi. Alisher Navoiyning «Kecha kelgumdir debon...», Bobo‘rning «CHarxning men ko‘rmagan...», G‘afur Gulomning «Sog‘inish», Abdulla Oripovning sevgi-muxabbat, ona haqidagi she‘rlari intim lirika namunalaridir,

Publitsistik lirika hayotning ijtimoiy - siyosiy hodisalariga munosabat bildirish asosida maydonga keladi. Turmushning dolzarb muammolariga kishilar e‘tiborini jalb etish publitsistik lirika mohiyatini tashkil etadi. G‘afur G‘ulomning «Sen yetim emassan», Hamid Olimjonning «Qo‘lingga ko‘rol ol», Zulfiyaning «O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush» she‘rlari publitsistik she‘r sanaladi. Bu xil she‘rlarda chaqiriq, da‘vat ohanglari asosiy o‘rin tutadi. Publitsistik she‘rlarda muayyan ijtimoiy - siyosiy holat, muammo alohida ta‘kidlanadi.

Hajviy lirik asarlarda turmushdagi, kishilar fe‘l-atvoridagi kamchilik, qusurlar ma‘lum qilinadi. Ularda illatlardan halos bo‘lishga chaqlrish asosiy maqsad bo‘ladi. Odamlar fe‘l -atvoridagi kamchiliklarni tankid qilish kadimdan adabiyotning asosiy - mavzularidan biri bo‘lib keladi. Alisher Navoiy, Turdi, Gulxaniy, Maxmur, Muqimiy kabi o‘zbek shoirlari ijodida riyokorlik ta‘magirlik kabi illatlarni keskin tankid qiluvchi she‘riy asarlar alohida o‘rin tutadi. Alisher Navoiy dinni niqob qilib olgan xudbin, manfaatparast shayxlarni, Turdi, Gulxaniy, Maxmur, Muqimiy ta‘magir, kambag‘allarni xo‘rlash, tahqirlashdan toymaydigan amaldortarning chirkin kirdikorlarini masxaralaydi.

«She‘r tuzilishi» bobida lirik turga mansub asarlar shakl, hajmi, ifoda tarziga ko‘ra janrlarga bo‘linishi xususida to‘xtalangan edi. Lirik turning g‘azal, ruboiy, tuyuq, oq, erkin, sarbast she‘rdan ham bo‘lak shakllari mavjud. Sonet, qo‘shiq marsiya, alla, tarji‘band, tarkibband, ballada kabilar ham lirik turga mansub janrlardir.

Yevropa adabiyotida keng tarqalgan sonet janri dastlab XIII asrda Italiyada shaklangan. Sonet italyanacha so‘z bo‘lib, «jaranglamoq» degan ma‘noni bildiradi. Sonet o‘n to‘rt misradan tarkib topgan bo‘ladi. Sonetlar asosan a-b-b-a - a-b-b-a - v-v-g - d-g-d tarzida qofiyalanadi. Boshqa ko‘rinishda qofiyalangan sonetlar ham uchraydi. Sonetning birinchi qismi ikki to‘rtlik (ya‘ni sakkiz misra), ikkinchi qismi ikki uchlik (ya‘ni olti misra) bo‘lishi lozim. Birinchi qism katren, ikkinchi qism terset deb ataladi. Sonetning dastlabki bandida fikr rivojlanib borishi, ikkinchi bandda esa bu fikr muayyan xulosa bilan yakunlanishi kerak. O‘n beshta sonetdan tarkib topgan she‘riy majmua «sonetlar gulchambari» deb yuritiladi. Bunda birinchi sonet oxirgi misrasidan ikkinchi, ikkinchi sonet so‘nggi misrasidan uchinchi sonet boshlanadi va hokazo tarzda davom etadi. Sonetlar guldastasining oxirgi - o‘n beshinchi soneti magistrat deb nomlanadi. U o‘n to‘rt sonetning birinchi misralaridan tashkil topgan bo‘ladi.

Italyan shoiri Dante Aligeri (1265-1321), Franchesko Petrarka (1304-1374), ingliz shoiri Vilyam Shekspir (1564-1616) kabi Yevropa xalqlari adabiyoti vakillari ijodida sonetlar alohida o‘rin tutadi. Harq shoirlari ijodida g‘azal qanchalik muhim o‘rin to‘tsa, Yevropa shoirlari ijodida sonet shunday O‘RIN tutadi, deyish mumkin. A. Pushkin, M. Lermontov, A. Fet. A. Blok V. Bryusov, A. Axmatova kabi rus shoirlari ko‘plab sonetlar yozishgani ham shundan dalolat beradi. Usmon Nosir, Maqsud SHayxzoda, Barot Boyqobilov singari o‘zbek shoirlari ham sonetlar bitishgan. Bu she‘riy shakl shoirlar uchun o‘z his - kechinmalarini jo‘shqinlik bilan izhor etishning o‘ziga xos yo‘llaridan biri bo‘lib kelgan. Usmon Nosirning «She‘rim, yana o‘zing yaxshisan...» soneti jo‘shqin hissiyotlar izhori ekani aniq bilinib turadi.

Qo‘shiq lirik turning eng qadimgi janrlaridan biridir. Ehtimol, xalq badiiy ijodi aynan qo‘shiqdan boshlanganidir. Chunki qo‘shiqda so‘z ham, musika ham, raqs harakatlari ham mavjud. Qo‘shiq azaldan kishilarning hamroxi bo‘lib kelgan. Chunki u to‘y, aza, bayramlarda ham, biror bir ish bilan shug‘ullanayotgan kezlarda ham ijro etilgan. Qo‘shiqlarda kishilarning quvonch - shodliklari, hard - hasratlari o‘z ifodasini topgan. Adabiyotning asosi bo‘lgan qo‘shiqhar mavzulariga ko‘ra, mehnat qo‘shiqlari, mavsum qo‘shiqlari, marosim qo‘shiqlari, alla, sevgi - muhabbat qo‘shiqlari, qahramonlik - vatanparvarlik qo‘shiqlari kabi turlarga bo‘linadi.

Termalar o‘zbek xalq qo‘shiqlarining keng tarqalgan turlaridan biri sanaladi. Lirik kayfiyat ustuvor bo‘lgan termalar ko‘prok to‘y marosimlarida ijro etiladi.

Marsiya - biror kishining vafoti munosabati bilan hamhardlik bildirib yoziladigan she'riy janr. Alisher Navoiy ham ustoz Abduraxmon Jomiy vafoti munosabati bilan o'z qayg'usini izhor qilib marsiya bitgan. Alisher Navoiy vafot etganida esa tarixchi Xonhamir va mavlono Soxib Dorolar marsiyalar yozishgan. Abdulla Oripovning G'afur Gulom xotirasiga bapshshangan «Alvido, ustoz» she'ri ham marsiyadir.

To'y marosimlarida ijro etiladigan yor – yor, lapar ham qo'nshq turlaridan biridir. Yor-yor qo'shiqlari nikoh to'ylarida, qizlarni kuyov xonadoniga kuzatish marosimlarida ijro etiladigan qadimiy qo'shiqdir. Bu qo'shiq xalqning milliy an'ana, urf - udumlarini o'ziga xos tarzda akslantiradi.

Laparlar asosan qiz va yigitning bir - biriga dil izhori tarzida aytadigan qo'shiqlaridir. Uning raqs harakatlari uyg'unligida ijro etiladigan ko'rinishi ham mavjud. Bu qo'shiq turi oxangdorligi va quvnoqligi bilan e'tiborni tortadi.

Alla onaning farzandiga tilaqa, pand - nasixatlari, orzu - umidlarining izhoridir. Allalar hardli, xazin oxanglarga yo'g'rilgani akslanib turadi. Alla tinglagan, alla aytgan kishilarning kungli muloyim, odamlarga mexribon bo'lishadi. Alla farzandlar qalbida mehr urug'ini ulg'aytiradi.

Harq xalqlari adabiyotida keng tarqalib kelgan qasida ham lirik turga mansub janr sanaladi. Bu she'riy janrga mansub asarlar ko'pincha mashhur shaxslarga atab yoziladi. Ularning fazilatlarini madh etiladi. O'zbek shoiri Sakkokiy Mirzo Ulug'bekni haraflab to'rtta qasida bitgan. U Arslon Xoja Tarxonga atab ham to'rtta qasida yozgan. Sakkokiy, shuningdek temuriyzoda Xalil Sultonga va Xoja Muhammad Porsoga ham bittadan qasida bag'ishlagan. Alisher Navoiyning «Hiloliya» asari uning Husayn Boyqaroga bag'ishlagan qasidasidir. Qasida tuzilishiga ko'ra o'ziga xos tartibga ega bo'ladi. U kirish (muqaddima) bilan boshlanadi. U «nasib» yoki «tag'abih» deb nomlanadi. Nasibdan so'ng shoir qahramonining sifatlarini ta'riflashga o'tadi. Bu asosan maqtov, haraflash ruhida bo'ladi. Mumtoz shoirlar yaratgan qasidalar xuddi g'azal singari kofiyalanish tartibiga asoslangan. Barcha milliy adabiyotlarda harq adabiyotidagi qasidaga muayyan jihatlari bilan yaqin turadigan janr mavjud.

Yevropa adabiyotida keng tarqilgan oda ham qasidaga o'xshaydi. Oda yunoncha oya so'z bo'lib, «qo'shiq» degan ma'noni bildiradi. Oda ham xuddi qasida singari biror kishini haraflashga yoki biror bir voqeani ulug'lashga bag'ishlanadi. Ularda ham vatanparvarlik, qahramonlik, saxovatpeshalik madx etiladi. Biroq maqtov ruhida odalar bilan bir qatorda yig'i va o'yin odalari ham bo'ladi.

Tarji'band Harq. she'riyatidagi yirik she'riy janrlar sirasiga kiradi. Tarji'band har bandi o'n to'rt-o'n olti misradan iborat, har biri nisbiy mustaqillikqa ega o'n-o'n bir banddan tashkil topgan bo'ladi. Tarji'band bandlari g'azal tarzida (a-a, b-a, v-a, g-a...) qofiyalanadi. Har bir bandning so'nggi ikki misrasi o'zaro tsofiyalanib, ana shu bayt barcha bandlar oxirida aynan bir xilda naqorat bo'lib takrorlanadi. Alisher Navoiy, Nodira kabi ijodkorlar devonida tarji'bandning go'zal namunalari mavjud.

Tarkibband ham yirik hajmli bo'lishi, qofiyalanish tarzining g'azalga o'xshashligi bilan tarji'bandga o'xshaydi. Biroq u tarji'banddan birinchi band so'nggi baytining har bir band oxirida takrorlanmasligi bilan farq qiladi. Xuddi tarji'band singari mustaqillik bandlardan tarkib topadigan tarkibbandning har bir bandi so'nggi bayti o'zaro qofiyadosh bo'ladi.

Tadqiqotlarda «liro - epik» termini qo'llaniladi. Doston, poema, ballada liro - enik turga mansub janrlar deyiladi. Chunki bu janrlardagi asarlarda hayot hodisalari g'azal, tuyuq, ruboiy kabilardan keng ko'rsatilgan, ularda ma'lum bir voqea bayon etilgan bo'ladi. Doston, poema, ballada ma'lum voqelikni xuddi roman, qissa, hikoyaga xos bayon qilish tarzi bilan enik asarga uxshasa, muallif kechinma, his - tuyg'ulari izhorining keng o'rin egallashi bilan xuddi lirik asarday taassurot qoldiradi. Doston, poema, balladaning bu xususiyati ham adabiy turlar yaxlit bir hodisa ekanligi, o'lar urtasiga Xitoy devori tiqiyab qarash nojoiz ekanligidan dalolat beradi.

«Doston» va «poema» terminlari o'zbek adabiyotshunosligida ko'pincha birbirining muqobili sifatida qo'llanadi. Bu unchalik to'g'ri emas. Chunki dostonlar masnaviyda yozilgan, ularda nasriy parchalar ham mavjud bo'ladi. Poema yunoncha so'z bo'lib, «ijod qilmoq» degan ma'noni bildiradi.

Ilk dostonlarda afsonaviy qahramonlarning jasorati hikoya qilingan. Yozma adabiyotdagi poemalarda ham ma'lum hodisalarni bayon etish asosiy o'rin egallagan. «Xamsa» dostonlarida ham, Hamid Olimjonning «Zaynab va Omon» asarida ham muayyan qahramonlarning sarguzasht, kechinmalari haqida so'z yuritilgan. XX asr yozma adabiyotidagi poemalar «Xamsa» dostonlaridan hajm jihatidan ancha kichkina. Xomerning «Iliada» va «Ohisseya», Dantening «Ilohiy komediya» asarlari ham poema deb yuritiladi. Ular ham A. Pushkinning «Lo'lilar», N. Nekrasovning «Rusiyada kim yaxshi yashaydi?» poemalaridan hajm jihatidan ancha katta. Bu farq barcha janrlar shakl, ko'rinish, hajm jihatidan o'zgarib turishi, bu obyektiv hodisa ekanligidan dalolat beradi.

Ballada italyanacha so'z bo'lib, «raqsga tushish» degan ma'noni bildiradi. Raqsga tushish chog'ida aytilgan o'zbekcha yallaga o'xshagan qo'shiqhar ballada deb atalgan. O'rta asrlarda jamoa bo'lib aytilgan

laparlar ham fransuz, ispan, italyan adabiyotida «ballada» deb yuritilgan. Bu ballada janrining dastlab xalq ogʻzaki ijodida paydo boʻlganidan dalolat beradi. Balladaning doston, poemadan farqli jihati, unda biror bir voqea boshidan oxirigacha batafsil maʼlum etilmasdan, qahramon hayotidagi eng dramatik holatning jushkin lirik kechinmalar uygʻunligida bayon qilinishidir. Hamid Olimjon «Roksananing koʻz yoshlari» balladasida qahramonining boshiga tushgan fojeali voqeani izchil tasvirlab bermaydi. SHoirning «Jangchi Tursun» balladasida ham uning jang maydonida qoʻrquv ichida turgan holati bayon qalinadi. SHoir har ikki balladasida qahramonlarining bir ruhiy holatdan ikkinchi ruhiy holatga oʻtishi, ularning harakat, faoliyatida keskin oʻzgarishlar roʻy berganini gavdalandiradi.

Drama turiga mansub barcha asarlar ham qahramonlar harakati va ruhiy holatini koʻrsatishga asoslangan boʻladi. Drama soʻzi yunoncha soʻz boʻlib, u «harakat» degan maʼnoni bildiradi. Drama turiga mansub asarlarda qahramonlar kayfiyati, qarashlarida oʻzgarishlar ularning dialog, monologida aks etadi. Bu dialog va monologlar muayyan hodisani keng gavdalandirishi bilan epik turga mansub asarlarga, voqealarni faqat qahramonlar nutqi orkali maʼlum qilish bilan esa lirik asarlarga uxshaydi. Hayotni badiiy aks ettirishning ikki turiga xos sifatlarni oʻzida mujassamlashtirgani bone drama turiga mansub asarlar soʻz sanʼatining yuksak choʻqqisi deb taʼriflanadi.

Epik va lirik turga oid asarlarda muallif bayoni alohida oʻrin tutadi. Ularda muallif lirik chekinishlar vositasida ham, qahramonlar holati tasviri orqali ham hodisaga oʻz munosabatini bildiradi. Drama turiga mansub asarlarda esa muallif nutqi, muallif bayoni boʻlmaydi. Hodisalar faqat personajlar nutqi - ularning dialoga va monologi orkali bilinadi. Hayotning muayyan koʻrinishi mana shu tarzda xolis gavdalandirilishiga koʻra ham drama soʻz sanʼatining oliy turi, sanʼatning toji deb taʼriflangan.

Drama asarlarining oʻziga xos xususiyatlaridan yana biri ularning sahnada ijro etilishidir. Bu turdagi asarlar sahnada ijro etilgandagina toʻlaqonli taʼsirchanlik kasb etadi. Dramaning sahna sanʼati sifatida dastlab qaysi xalq madaniyatida paydo boʻlgani aniq maʼlum emas. Chunki drama sanʼatning yuksak namuasi, eng ommabop tomosha turi sifatida barcha xalqlar madaniyatida azaldan mavjud boʻlgan. Biroq u har xil shakl, koʻrinishda boʻlgan. Harqadagi qiziqchilar, masxarabozlar tomoshalari ham aslida oʻziga xos drama asari sanaladi. Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romani «Qiziqqlar» bobida muqallid, yaʼni taqlid qiluvchilarning keng maydon, bozor joylarda qiziqchilik qilib, tomosha koʻrsatgani maʼlum qilinadi. Qiziqchilarning bu koʻrsatgan tomoshalari ham dramaning oʻziga xos koʻrinishidir.

Drama asarlari «sanʼatning gultoji» deyilsa-da, unda sunʼiylik, yasamalik borligi sezilib turadi. Masalan, aktyor sahnada rol ijro etadi, yaʼni muqallidlik qiladi. U oʻzini har xil odamlar qiyofasiga solib koʻrsatadi. Mana shu hodisaning oʻziyoq dramaning epos va lirikadan koʻra sintetik sanʼat ekanini koʻrsatadi. Albatta, sanʼat hayotni ramzlar orqali koʻrsatish, aslidagidan koʻra boʻrttirib, taʼsirchanroq qilib gavdalandirishi bilan qiziq. Sanʼatning mana shu jihati, ayniqsa, drama asarlarida aniqroq namoyon boʻladi.

Maxmudxoʻja Behbudiy (1875-1919)ning «Paharkush» asari oʻzbek adabiyotidagi ilk drama deyiladi. Bu drama 1911 yilda yozilgan boʻlsa-da, dastlab 1912 yilda «Turon» gazetasida bosilgan, 1913 yilda esa kitob holida chop etilgan. Dramaning eʼlon qilinishiga mustabid chor hukumati maʼmurlari qarshilik qilishgan. Muallif «Paharkush»ni chor senzurasidan oʻtkazish uchun kitob muqovasiga rus tilida «Rusiyaning fransuz istibdodidan qutulishi va mashhur Borodino muhorabasi xotiralari yubileyiga bagʻishlayman» deb yozishga majbur boʻlgan.

Drama asarlarida inson ichki dunyosida mavjud boʻlgan qarama - qarshiliklar kurashi epos va lirikadagidan koʻra ochiqroq namoyon boʻladi. Bunday boʻlishiga aktyorning sahnada rol ijro qapishi ham sabab boʻladi. Drama asarlarida ham xuddi roman, qissa, hikoya, doston, ballada kabilardagi singari kishilararo koʻrash va insonning oʻz ichki dunyosidagi ziddiyat koʻrsatiladi. Inson qalbidagi qarama - qarshilik tadqiqotlarda «ichki kolliziya» deb yuritiladi.

Drama turiga mansub asarlar ham tanlangan mavzusi va uni yoritilishiga qarab janrlarga boʻlinadi. Bular: drama, komediya, tragediya janrlaridir. Ular muayyan umumiyliklarga va maʼlum bir oʻziga xosliklarga ega. Masalan, fojeliqni koʻrsatish asosiy oʻrin tutgan tragediyada komediyaga xos kulgili holatlar boʻlishi yoki drama janridagi asarlarda ham qahramonlar oʻlishi, olishuvlar, qotilliklar namoyon qilinishi mumkin.

Drama turiga mansub janrlar pesa deb ham yuritiladi. Pesa fransuzcha soʻz boʻlib, «butun», «ulush» degan maʼnoni bildiradi. Pesa drama, komediya, tragediyaning umumiy atamasidir.

Drama yunoncha soʻz boʻlib, «harakat» demaqair. Bu janrga mansub ilk asarlar dastlab turli xalq marosimlarida ijro qilingan. Xalq marosimlari drama janri vujudga kelishiga poydevor boʻlgan. Hinhiston, Xitoy, Yunonistonda qadim - qadimdan marosimlarda sahna tomoshalari koʻrsatilgan. Xozirgi tasavvurdagi drama asarlarining ilk koʻrinishlari esa Yevropada shakllangan. Bu mamlakatlarda sahna sanʼati, ayniqsa, Uygʻonish davrida rivoj topgan. V. SHekspir (1564-1616), Lone de Vega (1562-1635) kabi adiblarning dramalari keng shuhrat qozongan.

Drama janridagi asarlarda komediya va tragediya xususiyatlari o'ziga xos tarzda umumlashadi. Chunki unda jiddiy konfliktga asoslangan voqealar qahramonlarning ham kulgili, ham fojeali holatlarini gavdalandirish orqali ko'rsatiladi. Umuman, drama asarlari ijobiy va salbiy kuchlar orasidagi kurashni namoyon etishga asoslanadi. Hamzaning «Paranji sirlari», Uyg'un va Izzat Sultonning «Alisher Navoiy» dramasida ham qahramonlar o'rtasidagi ziddiyat mavjud hayot haqiqatiga mos gavdalandiriladi.

Komediya yunoncha so'zdir. Bu janrga mansub asarlarda voqealar qahramonlarning kulgili fe'l - atvorlari, xatti - harakatlarida ko'rsatiladi. Hayotning muayyan hodisalarini kulgili tarzda namoyon etish komediyaning asosiy xususiyati sanaladi. Xalq tomoshalari komediyaning naydo bo'lishi uchun ham ilk asos hisoblanadi. Harq xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi marosimlarida qiziqchilar, muqallidlar turli kulgili tomoshalar namoyish etishgan. O'sha kulgili tomoshalar komediyaning o'ziga xos bir ko'rinishidir. Qodimgi yunonlar ham o'z marosimlarida turli kulgili tomoshalar ko'rsatishgan.

Eramizdan avvalgi V-IV asrlarda Yunonistonda yashab o'tgan Aristofanning «CHavan-do'zlar», «Bulutlar», «Qurbaqalar» kabi asarlari komediyaning ilk yuksak namunalari sanaladi. Lone de Veganing «Toledo kechasi», V. SHekspirning «Qiyiq qizning quyilishi», Karlo Gotsining «Turandot», Jan Batist Molyerning «Don Juan», Per Bomarshening «Sevilya sartaoshi», Fonfuzinning «Dumbul boyvachcha», A. Griboyedovning «Aqllilik balosi», N. Gogolning «Revizor», A. Ostrovskiyning «Qo'ynidan to'kilsa qo'njiga» kabi komediyalarida hayotning jiddiy muammolari qiziqarli va kulgili gavdalandiriladi. Hamzaning «Maysaraning ishi» asari ham mavjud hayot haqiqatini kulgili holatlarda ko'rsatishi bilan e'tiborni jalb qiladi.

Tragediyada keskin, murosasiz ziddiyatlarni ko'rsatish, qahramonlar taqdiridagi fojealarni akslantirish, hayotning muhim ijtimoiy - siyosiy, ma'naviy - axloqiy muammolarini falsafiy tahlil qilish asosiy o'rin tutadi. Ushbu janrning xuddi quvnoq tomoshaday «tragediya - echki qo'shig'i» deb nomlanishiga sabab esa bu xil asarlarning dastlab qadimgi Yunonistonda paydo bo'lishi bilan bog'liq. O'tmishda bu mamlakatda dala, bog'dorchilik va may xudosi Dionis harafiga echki qurbonlik qilinib, bayramlar o'tkazilgan. Bu bayramlarda ko'rsatilgan xalq tomoshasi «tragediya - echki qo'shig'i» deyilgan. Keyinchalik boshqa sayil, bayramlarda namoyish qilingan tomoshalarning birinchi ko'rinishida ham Dionis harafiga echki qurbonlik qilish sahnasi o'ynalgan. SHu tarzda hayotdagi fojealarni gavdalandirish asosiy o'rin tutgan sahna asari «tragediya» deb nomlangan. Qadim zamonning Esxil, Sofokl, Yevripid singari donishmand ijodkorlari tragediyaning yuksak namunalari yaratishgan. Ularning asarlarida inson qismati chigalliklari, kishilar fe'l - atvori murakkabliklari butun ziddiyatlari bilan ta'sirchan akslantirilgan.

Tragediya asarlarini qadimdan she'riy usulda yozish an'ana bo'lgan. Shuning uchun Sofokl asarlari ham, SHekspir tragediyalari ham qisman nasriy parcha aralashgan holda asosan she'riy yo'lda yozilgan. Tragediyalarda asosan yuqori tabaqa vakillari hayotini gavdalandirish taomilga aylangan. Bu bilan hukmron tabaqalarning nobop xatti - harakatlari millat, mamlakat uchun fojea keltirishi ta'kidlangan. Tragediyalar mana shu jihatiga ko'ra ham hamisha hammaning e'tiborini tortgan. Tragediya XIX asrgacha, ya'ni roman janri yuksak mavqega erishguniga qahar Yevropada adabiyot mavqeini belgilashning o'ziga xos mezon bo'lib kelgan. Ilk tragediyalarda xudolar, ilohiy kuchlar, mifologik qahramonlar o'rtasidagi murosasiz kurash ko'rsatilgan. Keyinchalik V. SHekspir (1564-1616), J. Rasin (1639-1699), Volter (1694-1778) asarlarida yuqori doira kishilari hayotidagi fojeliklar gavdalandirilgan. A. Pushkin (1799-1837)ning «Boris Godunov» asari rus adabiyotidagi dastlabki tragediyalardan sanaladi. Abdurauf Fitratning «Abulfayzxon» (1924) asari esa o'zbek adabiyotidagi ilk tragediya hisoblanadi. Maqsud SHayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» asarida davr fojeasi temuriy hukmdorlar o'rtasidagi murosasiz kurash manzarasi orqali ko'rsatilgan. Tragediyada fojealarni ko'rsatish asosiy o'rin tutsa-da, unda komediya xos kulgili sahnalar ham bo'lishi mumkin. Harof Boshbekovning «Temir xotin» asarida qishloq ayolining uqubatli hayoti kulgili voqealar orqali gavdalandiriladi. Butun turish - turmushi dala mehnati bilan bog'liq xotin - qizlarning zahmat - mashaqqatiga temir robot ham bardosh berolmasligi qiziqarli vaziyatlarda namoyon etiladi. SHu boisdan «Temir xotin» tragikomediya deyiladi. Fojelikni kulgili, qiziqarli akslantirish ustuvorligi nazarda tutilsa, uni shunday deyish mumkin bo'ladi. Tragikomediya mustaqil adabiy janr emas. U tragediyaning o'ziga xos ko'rinishi, xolos. Tragikomediya ijtimoiy hayotning juda jiddiy ma'naviy - axloqiy, siyosiy muammolari kulgili voqealar orqali ko'rsatiladi. Dramada tragediya xos fojelikning bo'lishi, tragediyada komediya kulgili voqealarning mavjudligi barcha adabiy janrlar mushtarak hodisa ekanidan dalolat beradi.

## IJODIY METOD VA USLUB

11-mavzu	Ijodiy metod va uslub
Ma'ruza mashg'uloti texnologiyasi	
vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 50 nafar

O'quv mashg'ulotining shakli	Talabalar bilan hamkorlikda binar ma'ruza.
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1.Ijodiy metodlar. 2.Ijodiy uslublar. 3.Zamonaviy metod va uslublar. Xulosa.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> ijodiy metodlar (klassisizm, sentimentalizm, naturalizm, romantizm, realism, modernism) va uslublar haqida nazariy bilim berish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> -klassisizm, sentimentalizm, naturaliz, realism, romantizm va modernistik (ratsionalizm, abstraksionizm, simionizm, syurealizm, futurizm, kubizm) metodlarining har biri to'g'risida nazariy ma'lumot berish; -ijodiy uslub tushunchasini harhlash.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> talaba: -ijodiy metod atamasi ta'rifini yozib oladi; -klassisizm, sentimentalizm, naturaliz, realism, romantizm va modernistik (ratsionalizm, abstraksionizm, simionizm, syurealizm, futurizm, kubizm) metodlarining har biri to'g'risida nazariy ma'lumot oladi, har bir metodda yaratilgan asarlar haqida xulosalar beradi; -ijodiy uslub atamasi ta'rifini yozib oladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, 2 kishilik (binar) dialog, klaster, Insert
O'qitish shakli	Frontal, kollektiv, guruh
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, poyektor, grafik organayzerlar
O'qitish hart-haroiti	Namunadagi auditoriya

#### Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, maqsad va rejalashtirilgan o'quv natijalarni ma'lum qiladi. 1.2. Reja va binar (2 kishilik) ma'ruzaning xususiyati bilan tanishtiradi. 1.3. Ma'ruzadagi asosiy kategoriya va tushunchalarni mustaqil ishlash uchun savollarni, qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatini keltiradi. 1.4. Mazkur mashg'ulotda o'quv faoliyatining ko'rsatkichlari va baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	Eshitadi. Yozib oladi. Aniqlik kiritadi.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Mavzusi bilan bog'liq tezkor savollarni beradi. 2.2. Mashg'ulot rejasiga asosan ijodiy metodning mazmunini aniqlashtiradi. 2.3. Ijodiy metodlarning turlarini sanab, ularga ta'rif beradi, misollar keltiradi.	Birin-ketin javob beradi. Konspekt qiladi. Yozib oladilar, esda olib qoladi. Eshitadi. Savol beradi. Fikrlaydi, savollar beradi.
3-bosqich Yakuniy (10 min)	3.1. Mavzu bo'yicha yakun yasaydi, talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Ijodiy metod tushunchasi bilan bog'liq klaster tuzish vazifasini topshiradi. 3.3. 2 ta eng yaxshi klasterni namoyish qiladi, baholaydi. 3.4. Mustaqil ish uchun nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida 3 ta masala beradi (4-ilova).	Klaster tuzadi. Namoyishga tayyorlanadi. Yozib oladi.

1 – ilova.

#### Baholar mezonlari va ko'rsatkichlari jadvali

Doklad	Dokladdagi	Axborotning	Axborotni	Reglament	Jami
--------	------------	-------------	-----------	-----------	------

qiluvchilar	ma'lumotning to'liqligi 60%	yangiligi 15%	tasvirlashda vositalarning ishlatilishi 15%	10%	
<b>1</b>					
<b>2</b>					
<b>3</b>					
<b>4</b>					

Oponentlar	Dokladga qilingan qo'shimchalar 40%	Munozarada qatnashganligi 20%	Savollar		Jami
			Miqdori	Sifati	
<b>1</b>					
<b>2</b>					
<b>3</b>					
<b>4</b>					

Diskussiya qatnashchilari	Savollar (0,1 har biri uchun )	Maqsadliliigi ( 0, 3 )	Qo'shimchalar (0,2 har biri uchun)	Jami
<b>1</b>				
<b>2</b>				
<b>3</b>				
<b>4</b>				

#### ADABIYOTLAR:

12. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
13. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik.-T.: «Fan», 1978-1979.
14. Arastu. Poetika. Ahloqi kabir.-T.: «Yangi asr avlodi», 2004
15. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi.-T.: «O'zbekiston»,1993.
16. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi.-T.: «O'qituvchi», 2002.
17. Fitrat. Adabiyot qoidalari.-T.: «O'qituvchi»,1995.
18. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.-T.: «Xalq merosi» nashriyoti, 2004
19. Xotamov N. Xolmatov Sh. Mahmudov M. Adabiyotshunoslikka kirish. T., “O'qituvchi” 1984.
20. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T., “O'zbekiston” 2002.
21. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash.-T.: “Fan”, 2006
22. Ziyonet axborot tarmog'i-[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

#### O'QUV MATERIALI

Tayanch tushunchalar: Ijodiy metod tushunchasi, Klassisizm, Sentimentalizm, Naturalizm, Realizm, Romantizm, Modernizm (ratsionalizm, abstraksionizm, simionizm, syurealizm, futurizm, kubizm).

San'at va adabiyotda hayot hodisalarini gavdalandirishning umumiy yo'llari ijodiy metod deb yuritiladi. Ijodiy metodga tadqiqotlarda «Yozuvchining hayotiy faktlarni tanlash, umumlashtirish, baholash va badiiy obrazlarda aks ettirishda qo'llagan asosiy prinsiplari», «san'atkorning anglanayotgan voqelikka ijodiy munosabatlarining umumiy ijodiy prinsipi, ya'ni badiiy asarda voqelikni qayta tikiash prinsipi»; «turmush hodisalarini tanlash, o'rganish, idrok etish va tasvirlashning asosiy vositasi» deb ta'rif beriladi.

San'at va adabiyotdagi ijodiy metodlar aslida inson dunyosini, uning ilgari anglanmagan jihatlarini ko'rsatish borasidagi izlanish yo'llaridir, Tadqiqotlarda so'z san'atida inson dunyosini badiiy gavdalandirishning ikki yo'li: romantizm va realizm yo'li bor, deyiladi. Bu ham aslida inson tabiati bilan bog'liq hodisa sanaladi. Chunki odam ham real hayot qo'ynida, ham orzu - havaslar dunyosida yashaydi.

Orzu insonning har jihatdan ulg'ayishi uchun yetakchi asos bo'ladi Ana shu omil odam avlodlarini iqtisodiy, madaniy taraqqiyotga yetaklaydi. Hozirgi turmush tarzimizga ham aslida ajdodlarimizning orzu - havasi ilk poydevor bo'lgan. Orzu - havas, intilish yuksak bo'lgan o'tmish zamonlar adabiyotida ham

romantizm metodi hukmronlik qilgan. Bu ijodiy metod, ayniqsa, Harq adabiyotida ustuvor bo'lib kelgan. XX asr boshlarigacha o'zbek adabiyotida ham romantizm metodi asosiy o'rin tutgan. Albatta, mavjud hayot hodisalariga munosabat sifatida real turmush hodisalarini akslantiruvchi asarlar ham yozilgan. Ularning aksariyati, asosan, tanqidiy, hajviy ruhda bo'lgan. Real hayotga tanqidiy yondashish esa uni o'zgartirish orzusidan tug'iladi. Orzu - havaslarni akslantirish esa romantizm metodining asosi sanaladi.

Romantizm metodi - hayot haqidagi, inson to'g'risidagi orzular ifodasidir. Bu metodda yaratilgan asarlarda xayoliy voqealar, orzulardagi obrazlar asosiy o'rin tutadi. SHoir, yozuvchi o'z a'moli (ideali)dagi insonni ko'rsatish uchun qahramonlarini real hayotdagidan ko'ra kuchliroq, fidoyiroq, jasurroq qilib gavdalantiradi. «Farhod va SHirin» dostonidagi Farhod obrazi Alisher Navoiyning chin inson haqidagi orzulari ifodasi sanaladi. Ideal obrazni, ideal hayotni ko'rsatish romantizm metodining xos xususiyati hisoblanadi. Shuning uchun bu xildagi asarlarda real hayotning o'zidagidan ko'ra boshqacha voqealar ko'rsatiladi. Fantastik sujetli, mifologiyaga asoslangan asarlar ham romantizm metodiga mansub sanaladi.

«Romantizm ijodiy metodi juda murakkab hodisa bo'lib, u XVIII asr oxiri, XIX asr boshida Yevropa, Amerika adabiyotida paydo bo'ldi hamda o'zidan avval adabiyot va estetikada hukmronlik qilgan klassisizmga qaram shaklida shaklandi va rivoj topdi», deyiladi. Biroq Harq adabiyotida azal - azaldan romantizm ustuvor bo'lgani aniq. Yoki qadimgi yunon dramaturglarining mavjud jamiyat hayotini o'zgartirish, adolatli shoh haqidagi orzu - istaklarini ifodalagan asarlari ham romantizm metodiga mansub. Adabiyotning dastlabki asosi bo'lgan xalq og'zaki ijodidagi ertak, dostonlar ham romantizm metodidagi asarlar sirasiga kiradi. Shuning uchun aytish mumkinki, XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Yevropa va Amerika adabiyotida yaratilgan, jamiyatdagi mavjud hayot tarzidan qanoatlanmaslikni bildiruvchi asarlar romantizm metodining o'ziga xos yangi bir ko'rinishi sanaladi. Ular romantizm metodidagi avvalgi asarlardan turmushni, inson dunyosini akslantirish borasidagi o'ziga xosliklari bilan alohida hodisa sifatida ajralib turadi. Viktor Gyugo (1802-1885), Jorj Sand (1804-1876), Bayron (1788-1824) kabi Yevropa adabiyoti peshqaham vakillari asarlarida xuddi Harq shoirlari dostonlaridagi singari asl inson, adolatli jamiyat haqidagi orzu - havaslar o'z ifodasini topgan. Faqat ular xuddi «Farhod va SHirin», «Saddi Iskanhariy» singari xayoliy voqealarga emas, balki real hayot voqealariga asoslangan.

Hayot hodisalari va inson dunyosi esa g'oyat servdrra. Har qanday ijodiy metod ularning ma'lum bir jihatlarinigina kamrab oladi, xolos. Klassisizm, romantizm, realizm, simvolizm, naturalizm, modernizm ijodiy metodlaridan hech biri hayot hodisalari va inson dunyosini to'la - to'kis akslantirilmaydi. Shuning uchun ijodiy metodlarni biridan birini baland yoki past qo'yib bo'lmaydi. Chunki ularning har biri hayotni va insonni ko'rsatishning o'ziga xos muayyan yo'llaridir. Realizm romantizmdan yuqori, romantizm klassisizmdan yuksak qo'yish nojoiz. Chunki «Xamsa», «Alpomish» romantizm metodiga mansub bo'lsa, «Sarob», «Ulug'bek xazinasini» esa realistlik asardir. «SHoh Edip» klassisizm davrida yaratilgan. Har biri adabiyot tarixining bebaho gavhari bo'lgan bu asarlarni esa biri - biridan past qo'yib bo'lmaydi.

Ana shu mezondan kelib chiqsak realizm ijodiy metodi ham klassisizm, romantizm, modernizm singari hayotni va inson dunyosini badiiy gavdalantirishning bir yo'lidir. Bundan ayon bo'ladiki, metodlar nisbiy tushuncha. CHunonchi, bitta asar bir necha metodga xos xususiyatlarni o'zida aks ettirishi mumkin. «SHoh Edip»da ham, «Alpomish»da ham yoki har qanday ertakda ham realizm ijodiy metodi unsurlari mavjudligi yoki «Ulug'bek xazinasini», «O'tgan kunlar»da romantizm ko'rinishlari (qahramonlar orzu - havaslari, o'y - xayollari berilgani) borligi shundan dalolat beradi. SHu boisdan, realizm yoki romantizmning dastlab qachon, qaysi adabiyotda paydo bo'lgani xususida hukm chiqarishga ehxtiyoj yo'q. Shunday bo'lsa-da, tadqiqotlarda «XIX asrda, ayniqsa, uning ikkinchi qismida Yevropa xalqlari adabiyotida ijodiy metod ma'nosidagi realizm shaklandi. Avvalgi davrlar adabiyotida rivojlangan xislatlar realizm adabiyotida yuksak darajaga ko'tarildi va adabiyotning asosiy prinsiplariga aylandi. Gumanizm, insonparvarlik realizmning bayrogi bo'lib qoldi.

«Romantizm ijodiy metodi ikki xil, ya'ni inqilobiy romantizm va reaksion romantizm ko'rinishida bo'ladi. Inqilobiy romantizmga mansub asarlar jamiyatni inqilobiy asosda o'zgartirishni targ'ib etadi. Reaksion romantizm guruhidagi asarlarda jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'layotgan hodisalar ideallashtirib ko'rsatiladi» degan qarashlar ilgari surib kelingani singari realizm metodi ham «tanqidiy realizm», «ma'rifiy realizm», «sotsialistik realizm» deb xillarga ajratildi. Ularning har biriga alohida - alohida tavsiflar berildi. Bu xil qarashlar, avvalo, adabiyotga mavjud ijtimoiy hayot ta'siridagi qarash, yondashishlardan kelib chiqdi. Agar romantizmga mansub asarlarda realizmga xos manzaralar mavjudligi, realistlik asarlarda romantizm ko'rinishlari bo'lishini e'tiborga oladigan bo'lsak, «inqilobiy romantizm», «reaksion romantizm», «tanqidiy realizm», «ma'rifiy realizm», «sotsialistik realizm» degan ajratishlar juda nisbiy hodisa ekani bilinadi. M. Gorkiyning «Lochin qo'shig'i», «Izergil kampir», «Bo'ron qushi qo'shig'i» hikoyalari inqilobiy romantizm namunalari deyildi. Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor, Ahmad Yassaviy asarlarida o'tmish ideallashtirilgan, deb aytili. Aslida M. Gorkiyning mazkur asarlarida mavjud turmushni inqilobiy



yangilashga ochiqcha da'vat, chaqiriq sezilmaydi. U asarlarda manzara publitsistik jo'shqinlik bilan badiiy gavdalanitirilgan, xolos. Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Sufi Olloyor ham kishilarni haqiqatga, halollikka, mehru oqibat ko'rsatishga chaqirgan. «Reaksiyon asarlar» deb kelingan ijod namunalari ham turmushdagi illatlar qoralangan. SHunday ekan, adabiyotni «diniy adabiyot», «dunyoviy adabiyot» deb ajratish asossiz. Chunki din va dunyo biri - birini inkor etadigan qarama - qarshi hodisa emas. Agar adabiyot «diniy» va «dunyoviy» deb ajratilsa, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab ijodi qaysi adabiyotga kiritiladi? Ahmad Yassaviy asarlarida dunyo, uning mavjudligi hodisalari inkor qilinganmi? Yoki Alisher Navoiy, Mashrab, Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor o'z asarlarida din boshk.a, dunyo alohida hodisa deganmi? Din va dunyo qarama - qarshi kuynalganmi? Avvalo, din - dunyoga xos hodisa sanaladi. U dunyo ishlari, kishilar hayotini to'g'ri yo'lga soluvchi yo'riq hisoblanadi. Bu yo'riqqa odamlar turlicha yondashadi, xolos. Din ahkomlarini anglash, idrok qilish, unga amal qalishning har xil bo'lishiga din aslo aybdor emas. Sho'ro siyosatdonhari singari «Din - afyun, reaksiyon» deyish gumrollikdir. Din insonparvarlikni ulug'lovchi, adolat bilan yashashga da'vatlovchi abadiy mo'jizadir.

Realizm lotincha so'z bo'lib, «bor, mavjud narsa, haqiqiy» dagan ma'noni bildiradi. Bundan anglashiladiki, realizm dunyoning moddiy jihatlarini qamrab oladigan umumiy tushuncha sanaladi. Realizm ijodiy metodinish asosiy xususiyati hayot hodisalarini bor bo'yi bilan ko'rsatish va undagi mavjud nukson, kamchiliklarni tanqid qilish, deyish unchalik to'g'ri emas. Chunki turmushdagi, kishilar fe'l - atvoridagi qusurlar xususida romantizm yoki klassisizmga oid deyilgan asarlarda ham so'z yuritilgan.

Ijodiy metodlarni muayyan tarixiy davr doirasida chegaralash ham o'rinsiz. Chunki tanqidiy realizm namunasi deyilgan Maxmurning «Hapalak», Muqimiyning «Tanobchilar» asarlariga o'xshash tanqidiy, hajviy ruhdagi asarlar qadimda ham yaratapgan. Ular hozir ham yozilmoqaa. SHuro siyosati hukmronligi davrida «Sotsialistik realizm metodi realizmning yuksak bosqichi» deb kelindi. «Sotsialistik realizm voqelikni haqqoniy, tarixan aniq va inqilobiy rivojda tasvir etish bilan xarakterlanadi» deyildi. Avvalo «voqelikni haqqoniy, tarixan aniq» ko'rsatishga intilish barcha davrlar adabiyotiga, har bir yozuvchi, shoir ijodiga xos hodisa sanaladi. Sofoklning «SHoh Edip»ida, «Alpomish»da ham, F. Dostoyevskiyning «Jinoyat va jazo»sida ham voqelikni o'ziga xos tarzda ishonarli, demak haqqoniy va ta'sirchan ko'rsatishga intilish mavjud. Sotsialistik realizmning «voqelikni inqilobiy rivojda tasvir etishi» esa juda mavhum, tushunarsiz gap. Avvalo, «inqilobiy rivoj» nima o'zi? Badiiy asar voqealarida qanday «inqilobiy rivoj» bo'lishi mumkin? Sujet rivojida, qahramonlar hayotida, ular o'rtasidagi munosabatlarda keskin o'zgarish bo'lishi mumkin, biroq «inqilobiy rivoj»ni qanday tushunsa bo'ladi? Avvalo, voqelik ayrim kishilar iznu ixtiyoridagi hodisa emas. Unda o'zgarishlar yuz berishi nihoyatda murakkab kechadigan, juda uzoq davom etadigan jarayon. Kishilar hayotida bo'lgani singari badiiy asar qahramoni turmushida ro'y beradigan o'zgarishlar ham, avvalo, davrning ijtimoiy - iqtisodiy, ma'naviy - axloqiy iqlimiga bog'liq bo'ladi.

«Harq xalqlari adabiyotida realizmning mustaqil badiiy hodisa sifatida rivoji va gullashi, butunicha olganda, XX asrga oiddir, ba'zi adabiyotlarda esa XIX asrga oiddir» degan qarash ilgari surib kelindi. Bu xil qarash aslida Yevropa adabiyoti bilan Harq adabiyoti orasidagi tafovutni, ularning har biri o'ziga xos hodisa ekanligini e'tiborga olmaslikdan kelib chiqqan. Qolaversa, romantizm adabiyot taraqqiyotining quyi, realizm yuqori bosqichi emas. Realizm romantizmi inkor etmaydi. Ularning har ikkisi bir maqsad - hayot hodisalari va inson dunyosini ko'rsatishning o'ziga xos yo'llaridir. SHuning uchun XX asr jaxon adabiyotining eng stuk namoyandalarida realizm va romantizm ijodiy metodi uyg'unlashib ketgan. Masalan, Mixail Bulgakovning «Usta va Margarita», CHingiz Aytmatovning «Asrni qaritgan kun», «Qiyomat», Gabriyel Garsia Markesning «Yolg'izlikda yuz yil» kabi romanlarida hayotning real hohisalari bilan rivoyat, afsonalar, qahramonlarning xayol, tushdagi voqealar yaxlit olam sifatida gavdalanitiriladi.

Romantizm va realizm ijodiy metodiga xos yyetakchi xususiyatlarning o'zaro birikib, yaxlit badiiy olamni namoyon etishi qadim Harq adabiyoti namunalari, xususan, Firdavsiyning «SHohnoma», Navoiyning «Xamsa» dostonlarida ham kuzatiladi. Masalan, SHirin mamlakatida tog'li joyda ajoyib saroy, ko'shklar barpo etilgani, kanal qazuvchilarning mashaqqat bilan mehnat qilgani real voqelikka muvofiq keladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshidagi adabiyotda mana shu tarixiy hohisa o'z aksini topdi. Shuning uchun mazkur davr adabiyotini «ma'rifatarparvarlik realizmi»; «demokratik realizm adabiyoti» deb atash keng tarqalgan. Ijtimoiy - iqtisodiy turmush tartiblari san'at va adabiyotga o'z ta'sirini o'tkazishi o'zbek adabiyotiga (umuman, sobiq shuro davlati tasarrufidagi millatlar adabiyotiga) sotsialistik realizm metodining joriy qilinishida ham aniq ko'rinadi.

«Sotsialistik realizm» termini ilk bora 1929 yilda rus matbuoti («Literaturnaya gazeta»)da paydo bo'lgan. Proletariat, ya'ni ishchilarni mavjud hayotni o'zgartiruvchi kuch sifatida ko'rsatish, ishchilar harakatini jamiyatdagi barcha qoloqliklarga barham beruvchi hodisa deya talkin qilish, yirik xususiy mulk egalari hayotdagi barcha fojealarning asosiy aybdori tarzida gavdalanitirishga asoslangan asarlar «sotsialistik realizm metodi»da yaratilgan deyiladi. Maksim Gorkiyning «Ona» romani mazkur metodda

bitilgan dastlabki asar sifatida ibrat timsoliga aylantirildi. «Sotsialistik realizm hayotni qayta ko'ruvchilar realizmi» deb ta'riflandi.

Har qanday hodisaga «sotsializm», «kapitalizm» iborasini tiqishtirish urfga aylangan bu davrda barcha ijtimoiy hodisalar keskin tarzda bir - biriga qarama - qarshi qo'yildi. Ana shu sun'iy mafkuraviy hodisa tufayli «sotsialistik realizm»dan o'zga barcha metodlardan kamchilik, nuqson izlash, «romantizm», «inqilobiy romantizm», «reaksion romantizm», «realizm: "ma'rifiy realizm", "tanqidiy realizm"» deb zidlashtirish taomili paydo bo'ldi. Hodisalarni bu tarzda qarama - qarshi qo'yishdan maksad sotsialistik realizm realizmning eng yuqori cho'qqisi ekanligiga ishonirish edi. SHu boisdan «realizm va tanqidiy realizm metodining ma'lum darajada o'jizligi, ayniqsa, XX asr boshlarida bir qancha ulkan realistlar ijodida yaqqol ko'rinib qoldi.

Alisher Navoiy yoki Aleksandr Pushkin romantizm, realizm ijodiy metodi mezonlarini o'ylab asar yozmagan. Metod va uning ko'rinishi haqidagi nazariy mulohazalar esa aslida asarlarni bir - biridan farqlash, adabiy davrlar o'rtasidagi tafovutlarni ko'rsatish, aniqlash va belgilashning o'ziga xrs mezoni sanachadi. Adabiyot qiyofasini hamisha badiiy asarlar belgilaydi. «Romantizm», «realizm», «sotsialisg'tik realizm» singari nazariy gaplar esa o'sha badiiy asarlar zaminida vujudga keladi. Demak nazariyalar badiiy asar uchun qolip, yo'riqqa aylantirilmaligi kerak. Mixail Bulgakov «Usta va Margarita»ni yaratayotganida shuro adabiyotida sotsrealizm avji hukmron bo'lgan. Biroq shu nazariya Bulgakovga ilhom berganmi? Umuman, qaysi bir nazariya shoh asarlar yaratilishiga asos bo'lgan? Mana shu hodisani 2x2q4 tarzida asoslash mumkinmi?

Klassisizm lotincha so'z bo'lib, «namuna», «ibrat» degan ma'noni anglatadi. Bu metod vakillari o'tmish adabiyoti namoyandalari asarlarini o'zlari uchun mezon, ibrat namunasi deb qaraganlar. Klassisizm nazariyotchilaridan biri fransuz adibi va adabiyotshunosi N. Bualo (1636-1711): «Adabiyot saroy va shahar uchun yaratilishi kerak» deydi. Klassisistlar ta'biricha, adabiyotda hamma narsa aniq va qat'iy qoida asosida ko'rsatilishi lozim. Klassisizm estetikasining talablaridan yana biri «uch birlik»dir. Ya'ni, dramada gavdalanitirilayotgan hodisa bitta yaxlit sujet tarzida gavdalanitirilishi («harakat birligi» talabi), voqea bir joyda bo'lib o'tishi zarur («joy birligi» talabi), voqea yigirma to'rt soat ichida yuz berishi («vaqt birligi» talabi) lozim. P. Kornel (1606-1684)ning «Sid» (ya'ni «Sayid»), «Goratsiy», J. Rasin (1639-1699)ning «Andromaxa», «Britanik» tragediyalarida, Molyer (1622-1673)ning «Xasis» komediyalarida klassisizmning ana shu qoidalariga amal qilingan. Ushbu asarlarda qahramonlar ruhiy olamining yorqin gavdalanitirilgani, tilning jimjimador sun'iylikaan xoli, sodda ekanligi, sujetning oddiyligi ham e'tiborni tortadi. Bu jihatiga ko'ra klassisizm realizm ijodiy metodi bilan mushtarak hodisa ekani ayonlashadi. Klassisizm va realizmning bu umumiyliigi ham ijodiy metod tushunchasining nisbiy hodisa ekanidan dalolat beradi. Rus adibi L. Tolstoy «Xasis» singari komediyalar yaratgan Molyerni «eng go'zal, xalqchil asarlar bitgan san'atkor» deb ulug'lagan. Yana bir rus shoiri A. Pushkin esa «Rasin kabi klassisistlar asarlarida xalq taqdiri va inson taqdiri o'z aniq in'ikosini topgan» deb e'tirof etgan. Kornel, Molyer, Rasin kabi ijodkorlar antik adabiyotni eng oliy, yuksak ya'ni ibrat namunasi deb qaraganlar. Ular biz o'zimizdan «Yozgan asarlarimizni Gomer yoki Vergiliy o'qiganida, komediya, tragediyalarimizni Sofokl tomosha qilganida nima degan bo'lar edi?» deb doimo so'rab turishimiz kerak degan aqidani o'zlari uchun shior qilib olishgan. Klassisizm vakillari antik adabiyotga yuksak hurmat - ehtirom bildirishgani uchun o'z asarlarida qadim zamon ijodkorlari dramalari sujetlarini qo'llashgan. Klassisistlar asarlarida haYot xrhisaaari va inson dunyosining bir qirrasini yoritilgan. Realistik roman, qissa, hikoyalarda esa turmush voqeligi va kishilar fe'l - atvori har tomonlama gavdalanitirilgan. Bu ham klassisizm va realizmning yaxlitligini bildiradi. Klassisizm vakillari janrlarni tabaqalarga bo'lishgan. Drama eng yuksak janr, komediya eng quyi janr deyishgan. Epik turga mansub roman, klssa, hikoya janridagi asarlarga ikkinchi darajali deb qarashgan. Bu ular estetikasining cheklangan, zaif jihatlari sanaladi, deyiladi. Klassisizm vakillarining bunday munosabati, avvalo, o'sha davr kishilari ma'naviyati, dunyoqarashi bilan bog'liq. Ma'lum bir davrlarda muayyan janrlarning e'tibori, mavqei baland bo'ladi. Bir paytlar adabiyot mezoni hisoblangan janrlar bir zamonlar kelib o'z mavqeidan tushib qoladi. Bu hodisa ayrim kishilarning xohish - istagi, iznu irodasiga bog'liq emas. Shuning uchun klassisizm vakillarining janrlarga munosabatini ularning kamchiligi deb emas, balki o'sha davrga xos estetik qarash deb baxolash lozim. «Klassisizm XVII asrda Frantsiya adabiyotida shaklanib, XIX asr boshlarigacha Yevropa mamlakatlari adabiyotida tarqalgan va hukmron bo'lib qolgan ijodiy metoddir» degan qarash ham nisbiydir. Chunki ayni shu davr asarlariga xos xususiyatlar avvalgi zamonlarda yaratilgan asarlarda ham u yoki bu tarzda mavjud bo'lgan. Qolaversa, klassisizm realizm metodining o'ziga xos bir ko'rinishi sanaladi. Klassisizm namoyandalari asarlarida ham real turmush voqeligi gavdalanitirilgan bo'ladi. «Sentimentalizm oqimi», «naturalizm oqimi», «modernizm oqimi» atamalari ham keng qo'llanadi. «Modernizm yo'nalishi ratsionalizm, abstraksionizm, simionizm, syurealizm, futurizm, kubizm kabi oqimlarga bo'linadi» deyiladi. SHuro siyosati hukmron davrda bitilgan aksariyat tadqiqotlarda modernizm yo'nalishi qoralanadi.

Ekzistentsiyachilik ta'limoti yirik namoyandalardan biri fransuz adibi, Nobel mukofoti sovrindori (u bu mukofotni olishdan o'z ixtiyori bilan voz kechgan) Jan Pol Sartr (1905-1980) bu xususda shunday deydi: «Ekzistentsiyachilikni umidsizlikka chaqiradi, deb ayblaydilar, insonning qabihligi, johilligi va shilqimligini ko'rsatib, tubanligini ta'kidlayverishda, ko'pgina yokimli, go'zal jihatlariga e'tibor bermaslikda, inson tabiatining yorug' tomonidan yuz o'girishda ayblaydilar, ular odamlarning hamjihatligini esdan chiqarib yuborishgan, insonga yakkalab tashlangan mavjudotga qaraganday munosabatda bo'ladi, inson hayotining yomon tomoniga alohida e'tibor bilan qaraydilar, deydi... Inson - bu xavotir... Garchand xavotirni yashirsalar-da, u mavjuddir... Ekzistentsiyachi ehtirosning qudratligiga ishonmaydi. U hech qachon ezgu ehtiros - insonni beshafqatlarcha muayyan qilmishlarga undaydigan, hammaoqni alg'ov - dalg'ov qiladigan oqim va shuning uchun o'z o'rniga o'tishi mumkin, deb da'vo qilmaydi. U inson o'z ehtirosi uchun javobgar deb biladi... Inson o'zini qay darajada amalga oshirsa, shu darajadagina mavjud bo'ladi... Prustning dahosi, bu - Prustning asarlaridir. Rasinning dahosi, bu uning bir qator fojealari. Ulardan boshqa hech narsa yo'q. Agar Rasin yana bir fojea yozmagan bo'lsa, Rasin yana bir fojea yozishi mumkin edi, deyishning nima keragi bor? Inson o'z hayoti bilan yashaydi, u o'z qiyofasini yaratadi, u qiyofadan tashqarida esa hech narsa yo'q... Biz faqat inson o'zining qilmishlaridan boshqa hech narsa emas, u mana shu qilmishlaridan tashkil topadigan munosabatlar majmuidan iborat, demoqchimiz, xalos... Ekzistentsiyachi qo'rquqni tasvirlar ekan, uni o'z qo'rquqligi uchun javobgar deb hisoblaydi. U yuragi, o'pkasi yoki miyasining qo'rquq bo'lgani uchun shunaqa emas, balki o'z qilmishlari bilan o'zini qo'rquq qilgan. Mijozning qo'rquq bo'lishi mumkin emas. Mijoz asabiy, zaif, chala yoxud to'laqonli bo'lishi mumkin, lekin zaif odam degani - albatta qo'rquq degani emas, chunki qo'rquqlik bosh tortish yoki yon bosish oqlbatida yuzaga keladi. Mijoz bu - hali harakat emas. Qo'rquq o'z qilmishi orqali aniqlanadi... Ekzistentsiyachi qo'rquqni qo'rquq qiladigan - o'zi, qahramonni qahramon qiladigan ham - o'zi, deydi... Ekzistentsiyachi insonning tushkun tasvirini bermaydi, uni qilgan ishiga qarab baxolaydi. U insonga bor umid faqat uning harakatida ekani va faqat yagona harakatgina insonning yashashi uchun imkon berishini aytadi... Biz o'zgaga ro'baru turib, o'zimizni anglaymiz va ayni paytda, o'zga ham biz uchun xuddi o'zimizday ishonchli bo'ladi... O'zim haqimdagi biror bir haqiqatni bilish uchun men o'zga orqali o'tishim kerak. O'zga kishi, deylik o'z - o'zimni anglashimda qanchalik zarur bo'lsa, mening mavjud bo'lishim uchun ham shunchalik zarur... Biz har bir alohida hodisada erkinlik erkinlik uchun bo'lishini istaymiz. Biroq, erkinlikqa intilar ekanmiz, u to'laligacha boshqa odamlar erkiga va boshqalarning erki bizning erkimizga bog'liq ekanini ko'ramiz... Ekzistentsiyachilik bu - hayotbaxshlik harakat haqidagi ta'limotdir». Hayot ziddiyatlarga, qarama - qarshiliklarga to'la bo'lgani uchun kishilarning tabiati, fe'l - atvori, dunyoqarashi murakkablashgan. Bu murakkablikning barcha jihatlarini hech bir nazariya to'la - to'kis ifoda qalib berolmaydi. Jumladan, hech bir adabiy metod, yo'nalish, oqim ham inson dunyosini batafsil akslantirmaydi. Romantizm, realizm metodining eng barkamol asarlarida ham inson dunyosining ma'lum bir qirralari gavdalandirilgan bo'ladi, xolos. Ekzistensializm yunalishining J. Sartr (1905-1980), M. Prust (1871-1922), J. Joys (1882-1941), A. Kamyu (1913-1960), F. Kafka (1883-1924) kabi namoyandalari asarlarida ham inson hayotining muayyan jihatlarini - xavotir, tahlika, umidsizlik, iztirob ko'rsatiladi. Ularning roman, qissa, hikoyalarda shuro adabiyotining romantizm, realizm ijodiy metodiga mansub asarlaridagi singari ijodiy - salbiy qahramonlar yo'q. Modernizm yo'nalishi vakillari asarlarida iztirob ichidagi inson qiyofasini ko'rsatish asosiy o'rin tutadi. Ularda insonning tubanliklari oshkora gavdalandiriladi. Tushkunlikka tushgan kishilarning xatti - harakatlari, o'y - kechinmalari keng akslantiriladi. Ekzistensializm namoyandalari diqqatini qaratgan xavotir, qo'rquv, iztirob, tubanlik va ular keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlar esa real hodisalardir. Ular inson hayotining ajralmas bo'laklaridir. Inson tabiati, fe'l - atvori, hayot tarzining ana shu mavjud jihatlarini yoritish esa adabiyotning insonshunoslik mohiyatiga zid kelmaydi.

Syurealizm fransuzcha so'z bo'lib, «Yuksak realizm», «realizmdan ham yuksak» degan ma'noni anglatadi. Bu oqim XX asr 10-20 - yillarida dastlab Fransiyada shakllangan. Ayni shu davrda ijod qilgan ayrim shoirlar, yozuvchilar, rassomlar, haykaltaroshlar, dramaturglar, rejissorlar asarlarida hayot va inson dunyosi mavjud an'analardan boshqacharoq talqin qilingan. Ular voqea - hodisacharning tashqi ko'rinishini tasvirlash bilan cheklanmasdan, ularning mohiyatidagi ma'nolarni, hodisalar ichki olamini ko'rsatgan obrazlarda, murakkab ramz va shakllarda ko'rsatishga intaiishgan. Pol Verlen (1844-1896), Pol Elyuar (1895-1952), Emil Verharn (1855-1916), Oskar Uayld (1854-1900), O. Mandelshtam (1891-1938), A. Axmatova (1889-1966), M. Sevetaeva (1892-1941), A. Blok (1880-1924), V. Bryusov (1873-1924), A. Beley (1880-1934) kabi shoir, yozuvchilarning asarlari ayni shu jihatlarini bilan avvalgi davr adabiyoti namunalardan ajralib turadi.

Abstraksionizm lotincha so'z bo'lib, «uzoqlashish», «mavhumlik» degan ma'noni anglatadi. Abstraksionistlar yaratgan asarlar kunikib kelingan asarlardan tamomila farq qiladi. Abstraksionizm nazariyasiga ko'ra, san'at borliqni aks ettirmaydi, balki ijodkorning his - tuyg'ularini ifodalaydi. Bu oqim

namoyandalari fikricha, har qanday shakl muayyan mazmunga ega bo'ladi. Abstraksionizm vakillarining bu qarashlarini ham inkor etib bo'lmaydi. Chunki har qanday san'at asarida ijodkorning his - tuyg'ulari o'z ifodasini topadi, har qanday shakl o'ziga xos mazmuni ifoda qiladi. Shaklni mazmundan ajratib bo'lmaydi. Mazmunsiz shakl yo'q.

Futurizm lotincha so'z bo'lib, «kelajak» demaqqdir. Bu yo'nalish nazariyasiga ko'ra, badiiy ijod borliqni akslantirish vositasi emas, balki uning bevosita davomi bo'lishi lozim. U shunda inson erkining ijodkorligiga tayanib, yangi dunyoni yaratadi. Futurizm namoyandalari adabiy - badiiy asarlari ifoda uslubining g'alatiligi, murakkab kompozitsion qurilishi, jumllarining odatdagidan tamomila boshqachaligi, fojia va kulgili holatlarni yonma - yon gavdalandirishi kabi xususiyatlari bilan o'ziga xoslik kasb etadi. V. Xlebnikov (1885-1922), B. Pasternak (1890-1960), N. Aseyev (1889-1963), V. Mayakovskiy (1893-1930) kabi ijodkorlarning asarlarida Futurizm ko'rinadi. Emil Zolya (1840-1902), Flober (1821-1880), Mopassan (1850-1893) kabi adiblar naturalizm oqami namoyandayari deyiladi. Ularning asarlarida qahramonlar hayot tarzi barcha tafsilotlari bilan bayon etiladi. Naturalizm oklmi vakillari asarlari davr kishilari hayoti haqida aniq ma'lumotnoma bo'la oladi. Mazkur yo'nalish nazariyasiga ko'ra, badiiy asar -inson haqida ma'lumot beruvchi dujrat singari aniq tafsilotli bo'lishi lozim. Naturalizm asli lotincha so'z bo'lib, «tabiat» degan ma'noni bildiradi. Shunday asarlar borki, ularning qadramoni qismati kishini achintirib yuboradi. Xo'rlangan, haqoratlangan kishilarning achinarli ahvoli gavdalandirilgan bu asarlarni o'qigan o'quvchi o'z - o'zidan mahzun bo'lib qoladi. Uning qalbini byechora qahramonga achinish his - tuyg'ulari qamrab oladi. Inson qismati fojeliklari gavdalandirilgan bu xil asarlar sentimental asarlar deyiladi. F. Dostoyevskiy (1821-1881)ning «Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar», A. Chexov (1860-1904)ning «Kashtanka», «Uyqu istagi», I. Karamzin (1766-1826)ning «Byechora Liza» asarlari qahramonlari qismati o'quvchi hissiyotlariga qattiq ta'sir qilib, kuchli achinish, iztirob o'ygotadi. Sentimentalizm fransuzcha so'z bo'lib, «his, his qilish» degan ma'noni bildiradi. Insonga achinish uni ardoqlash, e'zozlash, qadrlash, sevishga olib keladi. Qahramonlar qismati, fojeasiga achinish o'yg'otadigan asarlar kishilar qalbida insonparvarlik, insonga muxabbat tuyg'ularini ulg'aytiradi. Ular mana shu xususiyati bilan adabiyotning insonparvarlik mohiyatini yorqin namoyon etadi. Umuman, ijodiy metod, ijodiy yo'nalish, ijodiy oqim tushunchalari o'rtasida qarama - qarshilik jiddiy tafovut yo'q. Ijodiy metod o'rnida «badiiy metod» iborasi ham qo'llanilishi mumkin. Ijodiy metodlar bir - biridan o'z xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Biroq ular bir - biriga tamoman teskari hodisa hisoblanmaydi. Barcha metod, yo'nalish, oqimlar yagona bir maqsad - hayot hodisalari va inson dunyosini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Ijodkorlar asarlarining o'ziga xos bo'lishi, avvalo, borliqning betakror yaratilishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, shoir, yozuvchi, dramaturgning hayotiy tajribasi, turmushni kuzatishi, bilim darajasi, didi, saviyasi, dunyoqarashiga asoslanadi. Uchinchidan, bu «xat»da shoir, yozuvchining qiziqishi, fe'l - atvori, ichki dunyosi akslanadi. Har bir odam o'ziga xos olam bo'lgani singari ijodkorlar ham betakror dunyodir. Ana shu betakror dunyo mavzu tanlashda, hodisalarga yondashishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun «uslub - odamdir» deyiladi. Ijodiy uslub deganda asarning tilinigina nazarda tutmaslik kerak. Til, avvalo, so'z san'atining asosiy quroli, yagona tasvir vositasi sanaladi. Ana shu vosita, ayni shu choqda, ijodkor «xat»ini namoyon etadigan muhim unsurlardan biri ham hisoblanadi.

Ijodiy uslubni «bayon tarzi», «fikrni ifoda etish mahorati» deb qarash ham uni tor tushunish bo'ladi. Chunki uslub juda keng tushuncha. U muayyan bir yozuvchi ijodida ham turli ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Har bir asar ma'lum bir uslubni o'zida ifoda qiladi. Masalan, Alisher Navoiyning «Farhod va SHirin» dostoni «xat»i uning g'azallari «xat»idan farq qiladi. Turkiy «Xamsa» muallifi g'azallaridan Bobur bitgan g'azallar ham uslubining turlichaligi bilan ajralib turadi.

Ijodkor uslubi shaklanishiga tashqi omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, har bir yozuvchi, shoir boshqa ijodkorlarni asarlaridan nimalarnidir o'qib o'rganadi, ularni ijodiy o'zlashtiradi. Bu o'rganish uning hayot hodisalarini akslantirishi, inson obrazini gavdalandirishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Uslub - ijodkor xayolotining namoyon bo'lish tarzi ham sanaladi. Yozuvchi, shoir voqealarni, qahramonlarni, ular yashaydigan manzil manzaralarini qanday tasavvur qilsa, shunday ifodalaydi. Oybek qahramonlari harakatlanadigan joylarni jamiki ko'rinishlari bilan keng bayon etadi. Personajlar holatini batafsil suratlantiradi. Abdulla Qahhor esa qahramonlari turgan joyni ham, ularning holati, ahvolini ham ixcham, lo'nda, eng muhim jihatlariga e'tiborni qaratgan holda tasvirlaydi. «San'atkor voqelikaan tanlab olgan unsurlarni badiiy til yordamida xayoloti bilan uyg'unlashtiruvchi va u yaratgan •badiiy dunyoning tugal bo'lishini ta'minlovchi vosita - uslub deb ataladi» deydi Nobel muqofoti sovrindori, fransuz adibi Alber Kamyu. Demak ijodkorning o'ziga xos uslubi uning hayot hodisalarini tanlashi, uni xayolidagi olam bilan o'yo'g'ulashtirib, badiiy til vosi-tasida akslantirishidir. Hayot voqeligi hududsizdir. U rang - barang qirralarga ega. Har bir ijodkorning nigohi uning ma'lum bir jihatlarinigana qamrab oladi. Bir hodisa.ning o'zi har bir shoir, yozuvchi uchun turli xil tasavvur o'yg'otishi, ularda har xil taassurot hosil qilishi mumkin. Ana shu

turli darajadagi taassurot va tasavvur ijodiy uslub namoyon bo'lishiga zamin bo'ladi. Ijodkorning xayol - tasavvuri qanchalik teran bo'lsa, u tanlagan hodisalari mohiyatini shu qadar chuqur yoritib beradi. Odil Yoqubov Ulug'bekning qalbidagi iztirobli o'ylarni bu tarzda gavdalandiradi: «Hayhot! Agar foniy olam yumushlari Ali Qushchi o'ylaganday oson bo'lganida Mirzo Ulug'bek bu bevafo xokimiyatni allaqachonlar tark etib, o'zini suyuqli ishiga bag'ishlamas edimi? Boshidagi toj, tagidagi taxt ilmu funun uchun darkor ekanini tushunmaganida bu sovuq koshonani, gunohi azimga botib qolgan bu haram, shon - shuhrat va mansab ishqida hech bir razolatdan toymaydigan bu amirlar, sarkoru saroybonlar, xurofot va taassub botqog'iga botgan din peshvolaridan yuz o'girib, suyuqli talabalari orasiga, ma'rifat dargohiga ketmas edimi? Lekin ne chora? Bu manxus toju taxt, bu saltanat, insonlar ustidan hokimlik qilmoq istagi shunday shirin ekanki, uning niyati pokligiga kim ishonadi? Kim uning samimiyatiga, o'z ixtiyori bilan saltanatdan qo'l yuvganiga ishonib tinch qo'yadi?». Qahramonlar ruhiyati, kechinmalari maromini ta'sirchan ko'rsata olish ham ijodkor uslubiga bog'liq bo'ladi. Masalan, Pirmqul Qodirovning «Ona lochin vidosi» romanida bunday o'rinlar bor: «Gavharshod begam Sohibqiron Amir Temur xonadoniga kelin bo'lib tushgandan beri o'nlab yillar davomida betashvish va bexavotir o'tgan kunlari juda kam bo'lgan. Mudom tog'lar atrofida o'ralashgan bulutlarning shamol – bo'ronlarini eslatuvchi urush - yurishlar, ichki - tashqi nizolarning girdobini ko'rgan. To'g'ri, begimning toleiga SHoxruh mirzo faqat qilich chopadigan baxodir yigit emas, balki madrasa ko'rgan, kitobni sevadigan, oilasiga astoydil mehr qo'ygan fozil inson bo'lib yetshdi. U bilan birga bo'lgan kunlarida Gavharshod begim o'zini baxtiyor his qiladi». Boshqa bir adib Gavharshod begimning bu kechinmalarini yana o'zgacha tarzda ifodalashi mumkin. Umuman, uslub Ijodkorning o'ziga xosligini - uning xayol, tasavvuri ko'lami, inson qalbini his qilish darajasi, hayot hodisalari va kishilararo munosabatlar murakkabligani tahlil qilish layokati, so'z boyligini namoyon etuvchi hodisadir.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
Adabiyotshunoslik kafedrası**

***ADABIYOT NAZARIYASI  
fanidan***

***AMALIY VA SEMINAR  
MASHG‘ULOTLARI ISHLANMASI***

**Amaliy mashg'ulotida o'qitish texnologiyasi**  
**1-mavzu: San'atning kelib chiqishi haqidagi nazariyalar**

<p>vaqti-4 soat</p> <p>O'quv mashg'ulotining shakli</p> <p>O'quv mashg'ulotining rejasi</p> <p><i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> badiiy adabiyotning pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;</li> <li>- bilimlarni taqqoslashni, umumlashtirishni, tahlilni tizimlashtirish ko'nikmasini hosil qilish;</li> <li>- o'z fikrni shakllantirish va bildirish jarayonini tashkil qilish;</li> <li>- guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.</li> </ul> <p>O'qitish usullari va taxnikasi</p> <p>O'qitish vositalari</p> <p>O'qitish shakllari</p> <p>O'qitish haroirlari</p>	<p>Talabalar soni: 25 nafar</p> <p style="text-align: center;">Amaliy ish</p> <p>1. Ilk nazariy qarashlar. 2. Harqda paydo bo'lgan nazariyalar. 3. G'arb nazariy qarashlari. nazariy masalalari bilan tanishtiradi.</p> <p>Talaba ilk nazariy qarashlar, Harqda paydo bo'lgan nazariyalar, G'arb nazariy qarashlari haqida ma'lumot oladi</p> <p>Hamkorlikda o'qitish, munozara, taqdimot, blits-so'rov, "Davra suhbat", insert</p> <p>O'quv qo'llanma, proyektor, marker, skotch, A32 bichimdagi qog'oz varaqlari</p> <p>individual, frontal, guruhlar/juftlikdagi ishlash</p> <p>Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya</p>
--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

**Amaliy mashg'ulotining texnologik xaritasi**

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	Talaba
	O'qituvchi	
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi.	1.1. Diqqat bilan tinglaydi va yozib oladi
2-bosqich. Asosiy (45 min.)	1.2. Mavzuni munozara tarzda o'tishini ma'lum qiladi. 2.1. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda blits-so'rov o'tkazadi. Mavzu mohiyati va maqsadini ifodalab berishni topshiradi. 2.2. ish guruhlarda/juftliklarda o'quv vazifani bajarilgandan so'ng "Davra suhbat" sifatida davom ettirilishini e'lon qiladi. "Davra suhbat" qoidalari bilan tanishtiradi (ilova 1). Guruhlarda ishlash qoidalarini ealatadi.	2.1. Asosiy tushunchalarga ta'rif beradi. 2.2. Esse yozadilar va o'qib beradi. 2.3. Tinglaydi, savollar beradi.
3-bosqich guruhlarda juftliklarda ishlash (20 min)	3.1. Talabalarni guruhlariga / juftliklarga ajratadi. Davra suhbatida muhokama qilish uchun savol va vazifalarni tarqatma va guruhlar/juftliklarga taqsimlaydi. (ilova 2). Vazifani bajarishda qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkin emasligini tushuntiradi. Natijalarni baholash varaqlarini tarqatadi. 3.2. O'quv vazifasi, yo'riqnoma va natijalar kartochkasi bilan tanishtiradi. 3.3. Guruhlarda ish boshlanganligini e'lon qiladi, maslahatlar beradi.	3.1. Vazifani bajaradi, taqdimot varaqlarini rasmiylashtiradi.
4-bosqich. Yakuniy (5 min.)	4.1. Ishga yakun yasaydi, baholar qo'yadi. 4.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi.	4.1. Tinglaydi, vazifani yozib oladi.

**1-ilova.**

**Munozara qatnashchilariga eslatma**

1. Munozara munosabatlar yig'indisi emas, balki muammo yechimi uslubiyatidan iborat.
2. Ko'p gapirmasdan boshqalarning so'zlashiga imkon ber.
3. Maqsadga erishish yo'lida hissiyotni jilovlab, batafsil o'ylagan holda so'zla.

4. Raqiblarning vaziyatini o'rganib, ularga hurmat bilan murojaat qil.
5. Raqiblarning tomonidan aytilgan fikrlarga tanqidiy va mulohazali yondash.
6. Munozara predmeti bo'yicha chetga chiqmagan holda to'g'ri yondashib gapir.

#### Muammoli mashg'ulotning boshqaruv dastaklari

*Boshlovchi barcha vazifalarni o'ziga oladi – munozara bosqichlarini boshqatish, javoblarning asoslanishi va to'g'riligini tasdiqlash, qo'llangan termin va tushunchalarni aniqlash, munosabatlarni to'g'ri qo'llash va boshqalar. Taqdimotlarning taqsimotini to'g'ri boshqarish.*

*Taqrizchi – tomonlarning ma'ruzalarini yo'nalishlar bo'yicha belgilash va to'liq xarakterda baholash: dolzarbligi, ilmiy jihati, mantiqiyliigi va masalalarning aniq qo'yilganligi, xulosalarning aniq ko'rsatilishi.*

**Raqib** – qabul qilingan tadqiqot o'rtasida raqobatchilik jarayonini shakllantiradi. U faqatgina ma'ruzachining asosiy holatini tanqid qilish emas, shu bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki xato tomonlarini topish hamda o'zining hal qiluvchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin.

**Ekspert** – barcha munozaralarning, jumladan, munozara qatnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va gipotezalarning mahsuldorligini baholaydi.

#### Munozara reglamentini o'tkazish tartibi

1. Boshlovchi ma'ruza mavzusi va ma'ruzachilarning taqdimotlarini e'lon qiladi.
2. Ma'ruza 5 minut davom etadi.
3. Taqrizchi – 2 minut.
4. Raqib – ma'ruza mavzusi bo'yicha fikrlarini 1-3 minut taqdim etadi.
5. Jamoaviy muhokama – 5-10 minut.

#### Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

##### Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari (ballarda)

##### Munozara ishtirokchilari

Ma'ruzachilar (F.I.SH.)

**1                      2            3            4**

*Ma'ruzaning mazmuni (2,5):*

- mavzuga mos kelishi (1,5);
- mantiqiylik, aniqlik (0,5);
- xulosalarni qisqaligi (0,5);

*Informasion texnologiyalardan foydalanganligi*

*(ko'rgazmalilik) – (0,9).*

*Reglament (0,6)*

*Jami (4,0)*

Taqrizchilar (F.I.SH.)

*Ma'ruzaning tavsifi (3,0)*

- ma'ruzaning kuchli tomonlari aniqlash (1,2)
- ma'ruzaning zaif tomonlari aniqlash (1,2)

*Reglament (0,6)*

*Jami (3,0)*

Opponentlar, ishtirokchilar (F.I.SH.)

*Savollar:*

- har biri uchun (0,3)

*Qo'shimcha*

- har biri uchun (0,3)
- mohiyati bo'yicha (0,3)

*Jami (3,0)*

#### Amaliy mashg'ulotida o'qitish texnologiyasi

##### 2-mavzu: Adabiyotshunoslik metodlari haqida tushuncha

vaqti-2 soat

Talabalar soni: 25 nafar

O'quv mashg'ulotining shakli

Amaliy ish

O'quv mashg'ulotining rejasi

**1. Adabiyot atamasining mazmuni va tarixi; 2. Adabiyotshunoslik atamasining asosiy xususiyatlari; 3. Adabiy – nazariy fikrlarning**



*O'quv mashg'ulotining maqsadi:* adabiyotshunoslik ma'lumot berish.

*pedagogik vazifalar:*

- mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;
- bilimlarni taqqoslashni, umumlashtirishni, tahlilni tizimlashtirish ko'nikmasini hosil qilish;
- o'z fikrni shakllantirish va bildirish jarayonini tashkil qilish;
- guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'qitish usullari va taxnikasi

O'qitish vositalari

O'qitish shakllari

O'qitish haroitlari

**paydo bo'lishi 4. Adabiyotshunoslik metodlari** fani va uning tarkibiy tuzilishi to'g'risida nazariy

**Talaba adabiyot atamasining mazmuni va tarixi, fanning asosiy xususiyatlari hamda adabiy – nazariy fikrlarning paydo bo'lishi tarixi haqida nazariy ma'lumotlarga egaligini namoyon qiladi.**

Hamkorlikda o'qitish, munozara, taqdimot, blits-so'rov, "Davra suhbat", insert

O'quv qo'llanma, proyektor, marker, skotch, A32 bichimdagi qog'oz varaqlari

individual, frontal, guruhlar/juftlikdagi ishlash

Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya

#### Amaliy mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti

Faoliyat mazmuni

O'qituvchi

talaba

1-bosqich. kirish(10 min.)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi.	1.1. Diqqat bilan tinglaydi va yozib oladi
2-bosqich. Asosiy (45 min.)	1.2. Mavzuni munozara tarzda o'tishini ma'lum qiladi. 2.1. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda blits-so'rov o'tkazadi. Mavzu mohiyati va maqsadini ifodalab berishni topshiradi. 2.2. ish guruhlarda/juftliklarda o'quv vazifani bajarilgandan so'ng "Davra suhbat" sifatida davom ettirilishini e'lon qiladi. "Davra suhbat" qoidalari bilan tanishtiradi. Guruhlarda ishlash qoidalari eslatadi.	2.1.Asosiy tushunchalarga ta'rif beradi. 2.2. Esse yozadi va o'qib beradi. 2.3. Tinglaydi, savollar beradi.
3-bosqich guruhlarda juftliklarda ishlash (20 min)	3.1. Talabalarni guruhlariga / juftliklarga ajratadi. Davra suhbatida muhokama qilish uchun savol va vazifalarni tarqatma va guruhlar/juftliklarga taqsimlaydi. Vazifani bajarishda qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkin emasligini tushuntiradi. Natijalarni baholash varaqlarini tarqatadi. 3.2. O'quv vazifasi, yo'riqnoma va natijalar kartochkasi bilan tanishtiradi. 3.3. Guruhlarda ish boshlanganligini e'lon qiladi, maslahatlar beradi.	3.1. Vazifani bajaradi, taqdimot varaqlarini rasmiylashtiradi.
4-bosqich. Yakuniy (5 min.)	4.1. Ishga yakun yasaydi, baholar qo'yadi. 4.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi.	4.1. Tinglaydi, vazifani yozib oladi.

1- ilova.

#### Guruh bilan ishlash qoidalari

Har bir guruh a'zosi:

- o'z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'rganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- "biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz yoki birga qutilamiz" qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

## Guruhlar uchun vazifalar

## 1. Guruh.

1. Adabiyotshunoslik – jamiyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi fanmi(?) degan savol mohiyatini izohlang.

## 2. Guruh.

1. Adabiyotshunoslikning adabiyot tarixi bilan bevosita shug‘ullanuvchi sohasi haqida fikr yuriting.

## 3. Guruh.

1. Adabiyotshunoslikning badiiy asar tuzilishi bilan bevosita shug‘ullanuvchi sohasi haqida fikr yuriting.

Baholash ko‘rsatkichlari (ballda)

Guruh	Mavzuning yechimi	Tushuntirish (aniqlik, mantiq)	Guruh faolligi (qo‘shimcha, savollar)	Jami ballar	Baho
1	1.2	1.2	0.6	3.0	
2					
3					

## “Insert usuli”

73. Xorazmiyning "Muxabbatnoma" dostonidan olingan qo'yidagi baytda qanday badiiy tasvir vositasi qo'llangan? Tabassum qilsangiz makkor uyolur, Tilning injusidan gavxar uyolur.
- Istiora
  - Tashbex
  - mubolag'a
  - Jonlantirish

74. Maxmurning “Xapalak” she’ridan olingan? “Yo’rgagida onasi ul o’ragan lattalari, To xanuz ustidadur, uch mingu yuz etti bo’lak” misralarida qanday tasvir vositasi qo’llangan?
- Mubolag’a
  - O’xshatish
  - jonlantirish
  - Sifatlash
76. Inkorning bir ko’rinishi bo’lib tasvir obekti ustidan kesatish qochiriq yo’li bilan yashirin kulish, piching...
- Simvol
  - Kinoya
  - Sarkazm
  - Alligoriya
77. Mumtoz she’riyatda “Talmeh” san’atining ma’nosi nima?
- O’zga shoir she’ridan bir bayt olib, shu mazmunga muvofiq g’azal bitish
  - She’rda mashhur tarixiy shaxslar, mashxur qissa, mashxur bayt yoxut maqolga ishora qilish usuli
  - Jonlantirish san’ati
  - Bir g’azal misralarini ikki tilda bitish
78. Quyidagi baytda qanday badiiy san’at qo’llanilgan. “Ko’z birla qoshing yaxshi, qobog’ing yaxshi, Yuz birla so’zing yaxshi, dudog’ing yaxshi”.
- Tajnis
  - Tarse’
  - Tashbex
  - Talmex
79. Mumtoz she’riyatda keng qo’llanilgan muammo san’atining ta’rifini toping?
- Bir-biriga qarama-qarshi so’zlar
  - Fikrda burilish yasash san’ati
  - Mazkur misralar zamirida ko’pincha biror nom yoki so’z yashiringan bo’ladi. She’rda shunga ma’lum ishoralar qilinadi
  - She’r misralarida muayyan bir so’z yoxut so’zlar birikmasini ikki yoki undan ortiq ma’nolarda qo’llash usuli.
80. “Tanosib” qaysi badiiy san’at turlariga kiradi?
- Lafziy san’atlar
  - Ma’naviy san’atlar
  - Ma’naviy lafziy san’atlar
  - bir-biriga qarama-qarshi san’atlar
81. Intonatsiya nima?
- Urg’u, ritorik so’roq, anofaro va boshqa san’atlar
  - Tasvir obekti ichidagi ziddiyatni ochishga xizmat qiladigan san’atlar
  - Bayon qurilishini o’zgartiradigan tasvir usullari
  - Tovushning baland va past oxangi, gapirish tarzi, so’zlarni talafuz etish usullaridir
82. She’riy nutq haqidagi ta’rifni toping.
- Sintaksis pop ko’rilishi, gapda so’zlarning tartibi haqida
  - Tasvir ob’ektining dastlabki obrazli ifodasi
  - She’r misralari baytlari va bandlaridagi jumla qurilishi va ularda gap bo’laklarining tartibini tadqiq qiladi
  - So’zdagi hinso yoki gaplardagi so’zlarni ovozni kuchaytirish, tovushni baland qilish yo’li bilan ta’kidlab o’qish
83. Poetik figuralar tasnifi va tavsifi.
- Kuchaytiruv figuralari, pasaytiruv figuralari, ohangdagi figuralar, zidlov figuralari, o’zgartiruv figuralari
  - O’zgartiruv figuralari, poetik sintaksis, ritorik ayroq, poetik ko’chim
  - Inversiya kuchaytiruv figuralari, zidlov figuralari, ohangdosh figuralar, o’zgartiruv figuralari
  - Kuchaytiruv pasaytiruv, ohangdosh, zidlov, inversiya, poetik, sintaksis, ritorik so’roq, poetik ko’chim
84. Ritorik so’roq, ritorik murojaat, ritorik xitob qaysi poetik figuralar tasnifiga kiradi?
- Pasaytiruv
  - kuchaytiruv
  - ohangdosh
  - o’zgartiruv
85. Epik tur va uning janrlari to’g’ri ko’rsatilgan qatorni toping.
- Masal, she’riy qissa, lirik tur, xikoya, ertak

- B. Gʻazal, qasida, ruboi, tupoq, fard  
 C. Roman, poes, xikoya  
 D. Dramatik, lirik, tos, ipopiya-romanlar
86. Bobur lirikasining eng xarakterli janrlari qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?  
 A. Gʻazal, tajnislil qitʻa, ruboiy masnuʻ, qitʻa  
 B. Gʻazal, ruboiy, tuyuq, muolimo, fard  
 C. Ruboiy, tupoq, gʻazal mujsajjaʻ  
 D. Gʻazal, ruboiy, fard
87. Lof janirining askil va latifadan farqlanib turuvchi xususiyati nima?  
 A. Uxshatish  
 B. Kinoya  
 C. Mubolagʻa  
 D. Sifatlash
88. Xalq ogzaki ijodining qaysi janirida kuy muhim ahamiyat kasb etadi?  
 A. Maqol  
 B. Ertak  
 C. Doston  
 D. Tez aytish.
89. Romanning taʻrifi toʻgʻri koʻrsatilgan qatorni toring.  
 A. Bosh qahramon taqdiri vositasida hayotning uyoti bu qirralarining oʻrta meʼyorda rivoyaviy usul bilan aks ettiruvchi asar  
 B. Inson hayotidagi u yohud bu yorqin hodisani xarakter bilan uzviy bogʻliq xolda rivoyaviy usulda tasvirlovchi etik asar  
 C. Muayyan, shaxs taqdiri, xarakterining tashkil topishi, shaxslar taqdiri, vositasida ijtimoiy xayotning u yoxud bu jixatlari keng qamrab olingan yirik epik janr  
 D. Badiiy asarning asosiy janrlaridan boʻlib biror xayotiy voqea xodisa taʻsirida inson qalbida tugʻilgan ruxiy kechinma
90. Komik va tragek xususiyatlarning qoʻshiluvidan xosil boʻlgan janr-bu...  
 A. Komediya  
 B. Drama  
 C. Trogediya  
 D. Satira
91. Xayotdagi juzʻiy illatlar engil kulgu ostiga olinadi...  
 A. Komediya  
 B. Satira  
 C. Yumor  
 D. Drama.
92. Ijodiy metod-bu...  
 A. Adabiy asarlarning yaratilish usullari  
 B. Poetik belgilariga koʻra kichik guruxlarga boʻlinishi  
 C. Ijodkorlarning xayot xodisalarini tanlash tipiklashtirish va baxolash usuli  
 D. Adabiy jarayonning muayyan bosqichida bir gurux yozuvchilarning estetik dasturi mushtarak ekanligi
93. Voqeylikni haqqoniy va uni xuddi oʻziga oʻzshatib ifodalanishi-bu...  
 A. Reolizm  
 B. Roman turi  
 C. Tanqidiy realizm  
 D. Romantizim, realizm
94. Qaysi metodda afsona va miflarga tez-tez murojaat qilinadi yoki hayot koʻtaringki ruhda boʻyoqlarga boy ravishda tasvirlanadi?  
 A. Tanqidiy realizm  
 B. Realizm  
 C. Romantizm  
 D. Romantizm-realizm.
95. Oʻzbek adabiyoti tarixidagi oqimlar...  
 A. Tanqidiy realizm, naturalizm, realizm, jadidizim. B. Romantizm, modernizm, klassitsizm, naturalizm, didaktik adabiyot C. Realizm, klassitsizm, didaktik adabiyot, tasavvuf adabiyoti. D. Didaktik adabiyot, tasavvuf adabiyoti, dunyoviy adabiyot, jadidizm adabiyoti.

96. Jaxon adabiyotidagi mashxur adabiy oqimlar...
- A. Jadidizm, klassitsizm, sentimentalizm, naturalizm, modernizm
  - B. Klassitsizm, sintamintalizm, didaktik adabiyot, modernizm, naturalizm
  - C. Klassitsizm, sintamintalizm, modernizm, naturalizm
  - D. Klassitsizm, jadidizm sintamintalizm, realizm, romantizm, tanqidiy realizm
97. Adabiy asar mazmuniga monand bo'lgan shakldagi obrazli detallarni badiiy tasvir vositalarining qo'llanishida namoyon bo'ladigan yozuvchining o'ziga xosligi bu...
- A. Adabiy yo'nalish (Oqim)
  - B. Adabiy metod
  - C. Tur va janrlar
  - D. Uslub
98. Yozuvining individual uslubini aniqlash va tushinish uchun...
- A. Ularning xarakter xususiyatlarini aloxida o'rganish kerak
  - B. Xalq og'zaki ijodidan qanday foydalanganligini ko'rib chiqish kerak
  - C. Yozuvchining ijodini bir-biriga qiyoslash usulidan foydalanish kerak
  - D. Badiiy tasvir vositalaridan qanday foydalanganlarini o'rganishi kerak
99. Qanday nutq nasriy nutqdan tuzilishi qoidalariga amal qilinib yaratilganligi bilan farq qiladi?
- A. Qahramon nutqi
  - B. Avtor nutqi
  - C. Nasriy nutq
  - D. She'riy nutq
100. Qaysi she'riy vazn misralaridagi hijolarning miqdoriga asoslanadi?
- A. Oq she'r
  - B. Barmoq
  - C. Erkin she'r
  - D. Aruz



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIJ VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
Adabiyotshunoslik kafedrası**

***ADABIYOT NAZARIYASI***  
*fanidan*

***GLOSSARIY***

**Qarshi 2016yil**

**ABJAD HISOBI** – arab alifbosidagi harflarning har biri ma’lum songa tengligi asosida yuritiluvchi hisob. Ya’ni arab harflarining har biri alifbo tartibida ma’lum sonni ifodalaydi. Oson eslab qolinishi uchun sonlarni ifodalayotgan harflarni qat’iy alifbo tartibida birlashtirish orqali sakkizta sun’iy soʻz hosil qilingan boʻlib, ular hech qanday lugʻaviy ma’noga ega emas: abjad (????), havvaz(???), hutti (???), kalaman (????), sa’fas (????), qarashat (????), saxxaz (???), zazagʻ (???). A.h. atamasi mazkur soʻzlarning birinchisi nomidan kelib chiqqan. Shu sakkiz soʻz tarkibidagi qisqa unlilar istisno qilinsa, qolgan harflar 1 dan 1000 gacha boʻlgan sonlarni bildiradi (bu oʻrinda oʻzbek alifbosidagi “t”, “s”, “h”, “z” harflarining arab alifbosida turli koʻrinishlari mavjudligini hisobga olish kerak):

Sharq mumtoz sheʼriyatida A.h.dan u yoki bu voqea-hodisaning yuz berish vaqtini qayd etish (q. taʼrix), sheʼrda turli soʻz oʻyinlarini yuzaga keltirish kabi maqsadlarda samarali foydalanilgan. Shuningdek, A.h. imkoniyatlari chiston (q.), muammo (q.) kabi sheʼriy boshqotirma janrlarida ham keng istifoda etilgan.

**AVANGARDIZM** (fr. avant-garde – oldingi otryad, ilgʻor) – 1) shartli ravishda modernistik adabiyotning bir qator oqimlariga xos boʻlgan xususiyatning umumiy nomi sifatida qoʻllanuvchi termin. Ya’ni A. adabiy jarayondagi muayyan bir yoʻnalish yoki oqim emas, balki bir qator oqimlarga xos xususiyat, yana ham aniqrogʻi, modernizmning keskin, radikal qanotidir. A. adabiyotning reallik bilan aloqasini inkor qilish, adabiyot va sanʼatni ijtimoiy hayot bilan bogʻliq boʻlmagan alohida soha deb bilish, adabiy anʼanalarni inkor qilish va badiiy shaklda mutlaq yangilik yaratish daʼvosini olgʻa surish kabilarda namoyon boʻladi (q. futurizm, dadaizm, syurrealizm); 2) modernizmning bosqichlaridan biri, oʻz ichiga Birinchi jahon urushi arafalaridan boshlab Ikkinchi jahon urushi oxirigacha boʻlgan davrni qamrab oladi. Modernizmi bu tarzda davrlashtiruvchi mutaxassislar uning yana neoavangardizm (XX asning 50–60-yillari) va postmodernizm (70-yillardan boshlab) bosqichlarini ham ajratadilar. Lekin bu mavjud qarashlardan birigina boʻlib, umumeʼtirof etilgan emas; 3) Gʻarb adabiyotshunosligida modernizmning bir qator oqimlariga xos xususiyat yoki uning bir bosqichi sifatida emas, balki umuman modernizm maʼnosida ham qoʻllanadi.

**AVTOBIOGRAFIK ASAR** (yun. autos – oʻzim, bios – hayot, grapho - yozaman) – muallifning oʻz hayoti haqida izchil hikoya qilishiga asoslangan adabiy janr. A.a.ni yozuvchining turli munosabat bilan yozilgan avtobiografiyasi (tarjimai hol)dan farqlash lozim. A.a. muallifi oʻz hayotini qaytadan yashab koʻradi, uni bir butun sifatida idrok etishga intiladi. Yashab oʻtilgan hayotni bir butunlikda idrok etish ehtiyoji tufayli A.a. muallifi baʼzan badiiy toʻqimalarga ham yoʻl qoʻyishi tabiiy, chunki u hayotini yaxlit estetik mushohada qilarkan, uni ijodiy qayta yaratadi. Shuning uchun ham A.a.lar aksar hollarda mualliflarning ijodiy yetuklik pallalarida, umrlari nihoyasida yoziladi (mas., Oybekning “Bolalik” qissasi). Mutaxassislar A.a.ni chegaradagi, yaʼni boshqa janrlar bilan kesishuvchi janr deb hisoblaydilar. Haqiqatan ham, A.a.ning memuarlar, kundaliklar, ayrim sayohatnomalar bilan oʻxshash tomonlari bor. A.a.ning memuarlardan farqi shuki, memuar asarda muallifni voqelik (oʻzi uchratgan kishilar, guvohi boʻlgan yoki qatnashgan voqealar) qiziqtirsa, A.a. muallifi diqqat markazida oʻzining voqelik bilan uzviy aloqadagi shakllanish tarixi, qalb va ongi tarixi turadi. Yoki kundaliklarda ham A.a.dagi kabi muallifning boshdan oʻtkazgan va koʻngildan kechirganlari aks etadi. Farq shuki, kundaliklarda tasvirlanayotgan voqealarning yuz berish vaqti bilan ular haqida yozish vaqti orasida davriy masofa yoʻq, bu esa oʻz hayotini bir butunlikda koʻrishga xalal beradi, yaʼni muallif bosib oʻtgan hayot yoʻli uning oʻzi uchun estetik idrok obʼektiga aylanmaydi. A.a. bilan avtobiografik xarakterdagi asarlarni farqlash kerak. Avvalo, shuni aytish kerakki, har qanday adabiy asarda avtobiografiklik unsurlari mavjud, chunki asar muallifning hayotiy tajribasi asosida dunyoga keladi: ijodkor hayotida yuz bergan ayrim voqealar, u guvoh boʻlgan holatlar, shular taʼsirida yuzaga kelgan oʻy-kechinmalar matnga singib ketishi tabiiy. Avtobiografik xarakterdagi asarda biografik unsurlar salmoqli oʻrin tutgani holda, badiiy toʻqima hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi (mas., Gʻ.Gʻulomning “Shum bola” qissasi). Boshqacha aytganda, xuddi real prototipga ega asarlardagi kabi, avtobiografik xarakterdagi asar uchun muallif – prototip, xolos, uning asosida boshqa bir shaxs obrazi yaratiladi.

**AVTOGRAF** (yun. autos – oʻzim, grapho – yozaman) – 1) muallif qoʻlyozmasi; adabiy asarning muallif qoʻli bilan yozilgan matni. A. matnshunoslik uchun muhim manba boʻlib, asarning asl (kanonik) matnini belgilashda, yozuvchi ijodiy laboratoriyasini tadqiq etishda juda katta ahamiyatga ega. A.lar, odatda, yozuvchi-shoirlarning xonadonlarida (ularning merosxoʻrlari qoʻlida), uy-muzeylarida, turli arxiv, kutubxona, ilmiy-tadqiqot muassasalari fondlarida saqlanadi. Ilm-fan va texnika taraqqiyoti A. tushunchasiga maʼlum oʻzgartirishlar kiritdi. XIX asr oxirlaridan boshlab yozuvchilar orasida oʻz asarlarini yozuv mashinkasida, XX asr oxirlaridan esa kompyuterda yozish rasm boʻldi. Shunga koʻra, endilikda asarning muallif tomonidan yozuv mashinkasi yoki kompyuterda terilgan matni ham A. sanaladi; 2) kitobni biror

shaxs (tashkilot, muassasa va sh.k.)ga taqdim etish chog'ida uning titul varag'iga muallif qo'li bilan bitiladigan mo'jaz yozuv, dastxat. Unda, odatda, muallifning kitob taqdim etilayotgan kishiga samimiy tilaklari, minnatdorligi va sh.k.lar izhor etiladi.

AVTOINTYeRPRYeTASIYa (yun. autos – o'zim, lot. interpretation – tushuntirmoq) – muallifning o'quvchiga o'z asarini tushuntirish, unga o'zi nazarda tutgan ma'noni anglatishga qaratilgan harakati. A. turli shakllarda (so'z boshi, sarlavha, epigraf, bag'ishlov, so'ngso'z, satr osti izohlari va sh.k.) amalga oshishi mumkin. Mas., Faxriyorning "Arafa" she'rida sarlavha mazmunning anglanishida juda muhim:

Devorda osig'liq qilich

zanglarini to'ka boshladi,

yaraqlay boshladi to'satdan

yarim oy shaklida...

Devor esa qizil edi.

She'r 1989 yilda yozilgani e'tiborga olinsa, shoir uni nima uchun "Arafa" deb nomlagani ham, she'rdagi ramziy obrazlar mazmuni ham anglashiladi. Yoki X.Davron "Dunyo go'zal, – dedi..." deb boshlanuvchi she'riga Rudakiydan "Ko'zlarimdan ayrilib ko'rdim butun dunyoni" misrasini epigraf qilib oladi, shu epigraf tufayligina o'quvchi matnda "keksa shoir" deb atalgan lirik personaj Rudakiy ekanini anglaydi, she'rdagi o'tkir dramatismni his qiladi, uning falsafiy mazmunini tushunadi. "O'tgan kunlar"ning bir o'rnida A.Qodiriy satr osti izohi shaklida Musulmonqulning qatl etilishi epizodini beradi, bu esa Musulmonqul Otabek bilan to'qnashgan holat mohiyatini, muallifning inson kontseptsiyasini to'g'ri tushunish uchun bir kalitdir. Ko'pincha A.ning mazkur shakllarida quvlik, tagdor ma'noga ishora mavjudligi kuzatiladi. Mas., Cho'lpon "Kecha" romaniga M.Gorkiyning: "Ma'rifat chog'ishtirib ko'rish orqali hosil bo'ladi, bizning yoshlar esa o'z ko'rganlarini hech nima bilan chog'ishtirilmaydilar, ular kechmishni bilmaydilar va shu uchun hozirgi zamonning nimaligini yetarli darajada ochiq anglayolmaydilar",– degan so'zlarini epigraf qilib oladi. Bu o'rinda epigraf ma'nosini ikki yoqlama tushunish imkoniyati bor: Cho'lpon kechmishni yoshlar hozirgi zamonning qadriga yetsinlar, degan maqsadda tasvirlayotganini "sovet yozuvchisi" mavqeidan turib ta'kidlaydi, ayni chog'da, soxta tarix miyasiga singdirilib, manqurtga aylantirilayotgan yoshlar "hozirgi zamonning nimaligini yetarli darajada ochiq anglasinlar" uchun asarni yaratganini millatning ko'zi ochiq bir vakili mavqeida turib aytadi. Ya'ni epigraf tanlashdayoq Cho'lpon romanning mazmun strukturasi modelini shakllantiradi: o'zi aytmoqchi bo'lgan fikr tubda, yuzadagisi esa faqatgina "niqob" – vosita, xolos. Shuningdek, muallif o'z asari (ayniqsa, asar bahs-munozaralarga sabab bo'lsa) haqida matbuot orqali bildirgan fikrlar (suhbat, maqola, ochiq xat va sh.k.) ham A.ning ko'rinishlaridan sanaladi.

AVTOPSIXOLOGIK LIRIKA – lirikaning sub'ektiv tashkillanishiga ko'ra ko'rinishi, ijroviy lirikaga (q.) zidlagan holda farqlanuvchi lirik kechinma bevosita shoir tilidan ifoda etilgan she'r. Mutaxassislar lirika aksar hollarda avtopsixologik bo'lishi, ayni chog'da, lirik qahramon bilan biografik shoir doim ham bir-biriga teng emasligini ta'kidlaydilar (q. lirik qahramon).

AVTOR (lot. autor – asoschi, ijodkor) – qarang: muallif

AVTOR NUTQI – qarang: muallif nutqi

AVTOR OBRAZI – qarang: muallif obrazi

ADABIYOt (ar. ??? adab – go'zal xulq) – keng ma'noda, inson tafakkurining mahsuli o'laroq dunyoga kelgan, o'qish uchun mo'ljallab yozilgan asarlar jami. Tor ma'noda – so'z san'ati, badiiy adabiyot. Mumtoz adabiyotshunosligimizda so'z san'atini umumlashtirib, A. deb atash odati kuzatilmaydi, terminning bu ma'noda ishlatilishi ko'proq keyingi davrlarda, xususan, XX asrda ommalashgan. G'arbda antik davrlardan boshlab to XVII – XVIII asrlarga qadar badiiy adabiyotni "poeziya" deb atab, unga "proza"ni (q. proza) qarshi qo'yishgan. Shunga o'xshash, Sharqda, mumtoz adabiyotshunoslikda ham ko'proq "she'r" va "nasr" atamaları ishlatilgan. Hozirgi davrga kelib so'zlashuv amaliyotida ham, ilmiy muomalada ham A.

termining tor ma'nosi faolroq qo'llaniladi, u badiiy adabiyot ma'nosida ishlatiladi. Holbuki, tor ma'noda qo'llanganida ham termining qamrovi juda keng, chunki u adabiy badiiy asarlarnigina emas, adabiy asarlarni ham to'la qamrab oladi. Ya'ni A.ni so'z san'ati deb bilgan holda, unga san'at hodisasi bo'lmagan asarlar (mas.: memuarlar, kundaliklar, safarnomalar, esselar, aforizmlar va b.) ham mansub etiladi. Mazkur hol muayyan chigalliklarni keltirib chiqaradi, ilmiy aniqlik talabi bilan ba'zan "badiiy adabiyot", "adabiy badiiy asar" tarzidagi aniqlovchili birikmalarni ishlatishni taqozo etadi. A. termini ostida umumlashtirilgan ikki turli hodisani farqlash uchun birini badiiy adabiyot, ikkinchisini belletristika deb yuritish hollari ham mavjud. Rus tilidagi manbalarda qo'llanuvchi "slovesnost" termini shu jihatdan ancha qulay va aniq: u so'z vositasida yaratilgan ma'naviy qadriyatlarining barini jam etsa, uning tarkibidagi badiiy asarlarni "xudojestvennaya slovesnost" deb farqlashadi. Terminologik aniqlikka erishish uchun so'z vositasida yaratilgan ma'naviy qadriyatlarining jamini A., uning tarkibidagi so'z san'atiga daxldor hodisalarni esa badiiy adabiyot deb yuritish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYO'TSHUNOSLIK (ar.??? – adab, fors. ???– tanish, o'rganish) – badiiy adabiyotning kelib chiqishi, mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari, ijtimoiy aloqalarini o'rganuvchi fan. A.ning ob'ekti bo'lmish badiiy adabiyotga taalluqli ilmiy muammolar ko'lami – predmeti juda keng. Ularning bir qismi umumestetik (ya'ni badiiy san'at sohalarining barchasiga taalluqli, mas.: badiiy obraz va obrazlilik, badiiy obraz va reallik munosabatlari, dunyoqarash va badiiy ijod, badiiy ijod jarayoni xususiyatlari, badiiy asarni qabul qilish jarayoni xususiyatlari va b.) muammolar sirasiga kirsam, boshqa bir qismi sof A. muammolari sanaladi. San'atning barcha turlariga oid muammolarni A. badiiy adabiyot nuqtai nazaridan, badiiy adabiyot bilan bog'lagan holda va uning misolida o'rganadi. Badiiy adabiyotning mohiyati, uning rivojlanish omillari va qonuniyatlari, badiiy (adabiy) asar tabiati, uning tuzilishi, badiiy (poetik) til xususiyatlari, adabiy tur va janrlar kabi qator masalalar borki, ular sof A. muammolaridir. Zamonaviy A. fani uchta asosiy sohadan tashkil topadi: adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid. Mazkur sohalarning har biri badiiy adabiyot bilan bog'liq muayyan masalalar majmuini o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda o'rganadi. Ayni chog'da, bu sohalar o'zaro mustahkam aloqada bo'lib, bir-birini to'ldiradi, bir-biriga manba yaratadi, asos bo'lib xizmat qiladi va shu tarzda yagona bir tizimga birikadi. Bulardan tashqari, A.ning matnshunoslik, manbashunoslik, bibliografiya singari yordamchi sohalari ham mavjud.

O'zining ob'ekti, predmeti va tadqiq usullariga ega bo'lgan mustaqil fan sifatida A.ning fanlar tizimida muqim o'rin olishi XVIII asr oxiri – XIX asr boshlariga to'g'ri keladi. Antik davrlarda fanlar o'zaro ajralmagan, xususan, A. ham falsafa ichidagi bir bo'lim edi. Kishilik jamiyatining taraqqiyoti, inson tafakkurining rivoji davomida boshqa fanlar qatori A. ham alohida fan sifatida ajralib chiqdi va rivoj topdi. Biroq buni mahdudlashish deb tushunmaslik lozim, chunki A. boshqa fanlar bilan, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan mustahkam aloqada yashaydi. Jumladan, ayrim fanlar (falsafa, estetika, germenevtika) A. uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilsa, boshqalari (folklorshunoslik, madaniyatshunoslik, san'atshunoslik) bilan u vazifalari va tadqiq predmetining ko'p jihatdan yaqinligi tufayli aloqadordir. A.ning predmeti badiiy adabiyot, badiiy adabiyotning predmeti esa borliqda, turfa ijtimoiy munosabatlar ichida yashayotgan insondir. Shu jihatdan A. inson va jamiyatni umumiy yo'nalishda o'rganuvchi fanlar (tarix, sotsiologiya, psixologiya kabi) bilan tabiiy aloqada bo'ladi. Filologik fan sifatida A.ning tilshunoslik bilan aloqasi, ayniqsa, samarali va muhimdir. Badiiy adabiyotning materiali so'z, adabiy asar so'zlardan tarkib topuvchi matndir. Badiiy matn til qonuniyatlari asosida tarkib topadi. Shunday ekan, til qonuniyatlarini bilish matn qurilishi, uning tagma'nolari, ishlatilgan stilistik figuralarning estetik qimmatini, funktsiyalari kabi qator masalalarni o'rganishda juda muhim. Odatda, badiiy matn tilini o'rganishga qaratilgan ishlarga A. va tilshunoslik chegarasidagi ishlar sifatida qaraladi. Biroq bunda chegarani aniq olish lozim. Gap shundaki, A. tilshunoslik yutuqlariga tayangan holda tasvir vositalarining, umuman, matnning estetik tomonlarini o'rgansa, tilshunoslik til qonuniyatlarini o'rganishni maqsad qiladi. Ya'ni tilshunos uchun badiiy matn material bo'lsa, adabiyotshunos uchun u asosiy ob'ekt sanaladi. Tilshunoslik bilan A. aloqalari shu bilangina cheklanmaydi. Tilshunoslik kishilar orasidagi muloqot vositasi bo'lgan tilni o'rgansa, A. ijodkor va o'quvchi orasidagi badiiy muloqot vositasi bo'lgan badiiy asarni o'rganadi. Muloqot qonuniyatlarining mushtarakligi esa A.ning qator muammolarini til qonuniyatlari bilan qiyosan o'rganish imkoniyatini beradi. A. faoliyatida badiiy nutq shakllari, ritmi, intonatsiya, she'r sintaksisi, ekspressivlikni oshiruvchi vositalar kabi qator tushunchalarga duch kelinadiki, bularning tilshunoslikdagi talqinini bilgan adabiyotshunosning izlanishlari, albatta, samaraliroq bo'ladi. Keyingi davr A.ida paydo bo'lgan "psixologik maktab", "struktural A.", "generativ poetika", yangi kirib kelayotgan "kognitiv A." kabi yo'nalishlar bevosita tilshunoslik yutuqlari asosida yuzaga kelgan.

ADABIYOT NAZARIYASI – adabiyotshunoslik fanining asosiy sohalaridan biri. A.n. badiiy adabiyotning mohiyati, rivojlanish omillari, jamiyat hayotidagi o‘rni va vazifalari, badiiy asar tabiati hamda uning tuzilishi, badiiy til xususiyatlari, adabiy tur va janrlar kabi masalalarni umumiy tarzda o‘rganadi va shu asosda umumiy qonuniyatlarni ochib beradi. Shuningdek, A.n. badiiy obraz va obrazlilik, badiiy obraz va reallik munosabatlari, dunyoqarash va badiiy ijod, badiiy ijod jarayoni xususiyatlari, badiiy asarni qabul qilish jarayoni xususiyatlari kabi qator umumestetik masalalarni ham so‘z san‘atiga tatbiqan o‘rganadi. A.n. badiiy asarlarni tahlil qilish tamoyillari, baholash mezonlari, tahlil metodlarini ishlab chiqadi, adabiy-nazariy tushunchalar tizimini yaratadi. A.n. adabiyotshunoslikning yadrosini tashkil qiladi: A.n. adabiyot tarixi va adabiy tanqid materiallarini umumlashtirsa, bu ikkisi o‘z faoliyatida A.n. ochgan qonuniyatlarni, u ishlab chiqqan ilmiy tushunchalar tizimiga tayanadi. Shu tariqa adabiyotshunoslikning har uchala asosiy sohalarini bir-biri bilan bog‘lanadi, yaxlit bir tizim – adabiyotshunoslik ilmini tashkil qiladi.

Sharq mumtoz adabiyotshunosligida, jumladan, o‘zbek adabiyotshunosligida A.n.ning bir qator masalalari ancha keng o‘rganilgan. Bunday masalalar sirasiga ilmi aruz (Navoiy, Bobur), ilmi qofiya, ilmi badi‘ (A.Husayniy, Taroziy) kabilarni kiritish mumkin. Mazkur masalalar adabiyotshunoslikning bir qismi – poetika doirasini bilan cheklangan edi. Sharqda "muallimi soniy" deya ulug‘lanuvchi Forobiy esa yunon faylasufi Arastu ta‘sirida va bevosita uning asarlarini sharhlash jarayonida badiiy adabiyot spetsifikasi (mohiyati), tur va janrlar kabi masalalarga e‘tibor qaratgan. Biroq mumtoz adabiyotshunoslikda A.n. muayyan bir tizim holiga kelmagan, tatbiqiy xarakterdagi hodisa edi. O‘zbek adabiyotshunosligida A.n.ning alohida tarmoq sifatida shakllanishi XX asrning dastlabki choragiga to‘g‘ri keladi, sohaning qaldirg‘ochlari sifatida Fitrat, Abdurahmon Sa‘diylarni ko‘rsatish mumkin. Adabiyotshunosligimizning keyingi taraqqiyoti davomida I.Sulton, N.Shukurov, B.Sarimsoqov, B.Nazarov, T.Bobojev kabi qator olimlarning tadqiqotlari adabiy-nazariy tafakkur rivojiga sezilarli hissa bo‘lib qo‘shildi.

ADABIY AN‘ANA – o‘tmish adabiyoti to‘plagan ijodiy tajribalar qaymog‘i, davrlar o‘tishi bilan ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotmagan, boqiy qadriyatga aylanib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan qismi. Demak, A.a. doirasiga o‘tmish adabiyoti erishgan yutuqlar, to‘plagan tajribalarning hammasi ham emas, balki uning muayyan davr ijodkorlari tomonidan dolzarb deb topilgan, boqiy qadriyat sifatida baholangan va o‘z ijodiy faoliyatlarida namuna deb hisoblagan qismigina kiradi. Har bir avlod o‘tmish adabiyotiga saylab munosabatda bo‘ladi, unga faol ijodiy yondashadi, salaflar tajribasini o‘z davri qo‘ygan badiiy-estetik vazifalarni bajarishga xizmat qildiradi. Shunga ko‘ra, A.a. va yangilik (q. novatorlik) hamqadamligi qonuniy hodisa bo‘lib, bu ikkisi dialektik aloqadagi birlikni tashkil etadi va adabiyot taraqqiyotining muhim ichki omiliga aylanadi. Har bir davr o‘zidan oldingi davr adabiyotida mavjud eng yaxshi jihatlarni o‘ziga singdiradi va unga nimadir qo‘shishga intiladi, shu asosda taraqqiyot jarayonining uzluksizligi ta‘minlanadi. Adabiyotdagi vorislik, A.a.larga sodiqlik milliy adabiyotdagi o‘ziga xoslik, milliy qiyofani yo‘qotmaslik kafolatidir. Tabiiyki, boy A.a.ga tayangan adabiyotning rivojlanish imkoniyatlari boshqalarga nisbatan yuqori bo‘ladi. Mas., xalqimizning boy adabiy-madaniy an‘analari XX asr boshlarida kuzatilgan yangi o‘zbek adabiyotining shakllanish jarayoni tez kechishini ta‘minladi: adabiyotimiz juda qisqa fursat ichida jahon adabiyotidagi yutuqlarning ko‘pini ijodiy o‘zlashtirdi, o‘zining badiiy arsenalini boyitdi. Aytaylik, roman G‘arb adabiyotiga xos janr ekanligi, uning o‘zbek adabiyotida o‘zlashishi 20-yillarga to‘g‘ri kelishi ma‘lum. Biroq g‘arbona shakl milliy adabiyotimizni boyitdigina emas, balki adabiy an‘analimiz zaminida uning o‘zi ham boyidi – o‘zbek romanchiligi dunyoga keldi. Milliy romanchiligimizning ilk namunasi bo‘lmish “O‘tgan kunlar”dan boshlab “Otamdan qolgan dalalar”gacha bo‘lgan namunalarida ming yilliklar bilan o‘lchanadigan adabiy-madaniy an‘analimiz izlari bor, shu tufayli ham u o‘zining qiyofasiga ega “o‘zbek romani”dir.

ADABIY YO‘NALISH (ruschadan kalka: “literaturnoe napravlenie”, “literaturnoe techenie”) – adabiy jarayon bilan bog‘liq kategoriya. A.y. tushunchasi hayotni badiiy aks ettirish printsiplari, metod va uslub tushunchalari bilan bevosita bog‘liq, u badiiy tafakkur tarzi, metod va uslub kesishgan nuqtada yuzaga keladi. Muayyan davrda yashagan bir qator ijodkorlar yaratgan ko‘plab asarlarda tipologik umumiylik mavjud. Tipologik umumiylik hayot materialini tanlash, uni badiiy idrok qilish va baholash printsiplarida, asarlarning badiiy shakl xususiyatlari, uslubiy jihatlari o‘zini namoyon etadi. Uzluksiz adabiy jarayonning muayyan bosqichlarida kuzatiluvchi badiiy ijodning g‘oyaviy-estetik tamoyillari asosidagi umumiylik A.y. haqida gapirish imkonini beradi. A.y. adabiy jarayonning, badiiy tafakkur taraqqiyotining ma‘lum bir bosqichini nazariy jihatdan umumlashtirish orqali uning mohiyatini anglash imkonini beradi. Ayni paytda, adabiyot taraqqiyoti, badiiy tafakkurning rivojlanish tamoyillari A.y.lar almashinuvi, ular orasidagi kurashda ochiq namoyon bo‘ladiki, shu jihatdan A.y. adabiy jarayonni o‘rganishdagi muhim adabiy-estetik kategoriya sanaladi. Mas., Yevropa adabiyotida klassitsizm yo‘nalishining g‘oyaviy-estetik printsiplari bilan ziddiyat,

bir tomondan, barokko, ikkinchi tomondan, ma'rifatparvarlik realizmini maydonga chiqardi, o'z navbatida, keyincha xuddi shunday ziddiyatlar asosida romantizm va tanqidiy realizm yo'nalishlari yuzaga keldi. Adabiyot taraqqiyotidagi vorisiylik qonuniyatiga ko'ra, har bir A.y. kurtaklari avvalgilari bag'rida yetiladi. Deylik, klassitsizm bag'rida ham ma'rifatparvarlik realizmiga, ham sentimentalizmga xos unsurlar mavjud edi, keyingi yo'nalishga mansub ijodkorlar ulardan ma'qulini olib, ma'qul kelmaganini inkor qilgan holda o'z g'oyaviy-estetik printsiplarini qaror toptirishga intildilarki, bu badiiy tafakkur rivojiga (undagi siljish, o'zgarishga) asos bo'ldi.

Adabiyotshunoslikda A.y. istilohini qo'llashda turlichalik kuzatiladi: ba'zan u adabiy oqim atamasiga, ba'zan esa metod tushunchasiga sinonim sifatida ishlatiladi. Mas., klassitsizmni metod, barokko yoki sentimentalizmni oqim, romantizmni esa adabiyot taraqqiyotidagi bosqich deb qarash hollari borki, mohiyatan bir xil adabiy hodisalarning turli atamalar bilan nomlanishi chalkashliklar keltirib chiqaradi.

ADABIY MAKTAB (ruschadan kalka: "literaturnaya shkola") – adabiy yo'nalish ichidagi hodisa, muayyan g'oyaviy-estetik qarashlar, ijodiy printsiplarni dasturiy tarzda qabul qilgan ijodkorlar guruhi. Mas., frantsuz romantizm adabiyotidagi "Parnas" guruhi shunday ijodkorlarni birlashtirgan bo'lib, "parnas"chilarning g'oyaviy-estetik qarashlari, ijod namunalari "Yangi Parnas" nomi bilan chop etilgan to'plamlarda o'z aksini topgan. XX asr boshlarida rus adabiyotida maydonga chiqqan modernistik yo'nalish ichida simvolizm, akmeizm, futurizm kabi oqimlar, futurizm oqimi ichida esa, mas., kubofuturizm deb yuritiluvchi adabiy maktab bo'lgan. V.Xlebnikov, V.Mayakovskiy singari iste'dodli ijodkorlarni birlashtirgan kubofuturistlarning "Gileya" guruhi o'z adabiy-estetik qarashlari, ijodiy printsiplarini "Jamiyat didiga tarsaki" nomli manifestda e'lon qilgan.

ADABIY OQIM (ruschadan kalka: "literaturnoe techenie") – adabiy jarayon bilan bog'liq kategoriya, muayyan davr adabiyotidagi adabiy yo'nalishning bir ko'rinishi, o'ziga xos bir varianti. Tipologik umumiylik bir yo'nalishga mansub ijodkorlarning ham g'oyaviy yoki estetik jihatdan o'ziga xos tomonlari bo'lishini inkor qilmaydi. Ya'ni bir yo'nalish doirasidagi asarlarda turlicha ideallar, dunyoqarash aks etishi, badiiy-estetik printsiplarda muayyan farqlar kuzatilishi tabiiy hodisadir. Bu narsa bir yo'nalish ichida alohida guruhni tashkil etayotgan ijodkorlarga xos tipologik umumiylik haqida, adabiy yo'nalishning varianti sifatida bo'y ko'rsatuvchi A.o. haqida gapirishga imkon beradi. Mas., barokko yo'nalishining varianti sifatida ispan adabiyotidagi gongorizm, italyan adabiyotidagi marinizm yoki frantsuzlarning pretsioz adabiyotini ko'rsatish mumkin. Deylik, gongorizm g'oyaviy-estetik printsiplari (Uyg'onish davri ideallariga ziddlik, uslubning jimjimadorligi, obrazlarning metaforikligi) jihatidan barokkoga mansub etiladi, ayni chog'da, unda arab she'riyati ta'sirida bu xususiyatlar (majoziylikning o'ta kuchayishi, uslubning murakkablashuvi, fikrni yashirin ifodalash, fikrni zakilylik bilan aytishga intilish va b.) o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

ADABIYO'T TARIXI – adabiyotshunoslik fanining asosiy sohalaridan biri. A.t.ning predmeti – o'tmish adabiyoti bo'lib, uni jarayon yoki shu jarayonning bir bo'lagi (bosqichi) sifatida tadqiq etadi. A.t.ning asosida tarixiylik printsipti yotadi. Tarixiylik printsipti adabiy jarayonni konkret ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan bog'liq hodisa sifatida o'rganishni taqozo etadi. Ya'ni A.t. o'tmishdagi adabiy hodisalarni, yaratilgan asarlarning g'oyaviy-mazmuniy xususiyatlarini belgilagan, badiiy tafakkur rivoji, poetik usul va vositalarning o'zgarishi va sh.k.larga asos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy omillarni ochib beradi. A.t. nuqtai nazaridan konkret badiiy asar tahlil qilinganida ham, o'sha asar yaratilgan davr sharoiti, davr adabiy jarayoni xususiyatlarini nazarda tutish shart qilinadi. A.t.ni qiziqtiradigan masalalardan yana biri konkret ijodkor faoliyatini o'rganishdir. Ijodkor faoliyatini o'rganganda, uning ijodiy o'sish jarayonini kuzatganda ham asosga qo'yilgan printsipti tarixiylik bo'lishi lozim. A.t. o'tmish adabiyoti xususiyatlarini ochib berarkan, birinchidan, o'tmish adabiyoti tajribalarini bugungi adabiyot xizmatiga safarbar etadi, ikkinchidan, keng ko'lamlil nazariy xulosalar chiqarish uchun zarur material hozirlaydi. Shunga ko'ra, A.t. badiiy tafakkur taraqqiyotida ham, adabiy-nazariy tafakkur rivojida ham katta ahamiyat kasb etadi.

PORTRYeT (fr. *portrait* – tasvirlamoq) – 1) personajning so'z vositasida tasvirlangan tashqi ko'rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko'z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o'quvchi tasavvurida jonlanadigan to'laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. P. epik asarning kompozitsion unsuri bo'lmish tavsifning bir ko'rinishidir. Shartli ravishda statik va dinamik P. turlari farqlanadi. Statik deyilishiga sabab shuki, P.ning bu navida personajning tashqi qiyofasi syujet voqeasi to'xtatilgan holda ancha mufassal, detallashtirib chiziladi. Odatda, bunday P.lar personaj asar voqeligiga ilk bor kirib kelgan pallada (mas., "Kecha"dagi Razzoq so'fi P.i) beriladi. Dinamik P. deganda esa mufassal

tasvir emas, balki voqea va dialoglar tasvirida, ya'ni harakat davomida berib boriluvchi personaj tashqi ko'inishiga xos ayrim detallar nazarda tutiladi. Bunday P. detallari (yuz-ko'z ifodalari, tana holati va harakati, qiliqlari) ko'proq remarkalardan joy oladi va personajning ayni paytdagi ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi. Adabiy asar muallifi personaj P. ini mufassal chizishi (A. Qodiriy yaratgan Kumush, Ra'no P. lari) yoki uning qiyofasiga xos ayrim detallarni berish bilan kifoyalanishi mumkin. Chunki P. – vosita, demak, uning qanday bo'lishi muallif badiiy niyati, uning o'ziga xos tasvir uslubi, personajning asarda tutgan mavqei kabi qator omillar bilan bog'liqdir. Mas., Cho'lpon sevimli qahramoni Zebi P. ini chizmagan, u personajning siyratini chizadi, xatti-harakatlarini jonli tasvirlaydi, gap-so'zlaridagi jonli ohangni ifodalashga intiladi, xullas, har bir o'quvchining o'z Zebisini tasavvur etib olishiga imkon yaratadi. Natijada qahramon qiyofasini chizmaslikning o'zi o'ziga xos badiiy usulga aylanadiki, uning yordamida adib o'quvchini qahramoniga "yaqinlashtiradi". Demak, P. ning qanday va qay darajada chizilishi belgisi emas, bunda asosiy mezon – P. (yoki P. detallari) ning inson obrazini o'quvchi tasavvur eta oladigan darajada to'laqonli yaratish uchun yetarli bo'lishidir; 2) biron bir shaxs hayoti va faoliyatini atroflicha yorituvchi hujjatli yoki memuar ocherk tipidagi asarlar ham analogiya asosida ba'zan P. deb ataladi (mas., Ajoyib kishilar hayoti nashr turkumidagi asarlar). Shuningdek, tanqidchilikda keng tarqalgan yozuvchi hayoti va ijodini yorituvchi adabiy tanqidiy asarlar janri adabiy portret deb belgilanib, muomala amaliyotida, ko'pincha, P. deb yuritiladi.

POSTMODYERNIZM (fr. postmodernisme – modernizmdan keyingi) – o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab adabiyot va san'atda, umuman, ijtimoiy-gumanitar sohalarida kuzatila boshlagan oqim, ijodiy metod. Frantsuz poststrukturalizmining dekonstruktsiya (J. Derrida), postfreudizmning "shizoanaliz" va "ongsizlik tili" (Lakan, J. Delyoz, F. Gattari) ta'limotlari hamda semiotikadagi kinoyaviylik kontseptsiyasi (U. Eko) P. ning falsafiy asosini tashkil qiladi. P. ning yuzaga kelish vaqti, o'ziga xosligi masalasida turlicha fikrlar mavjud. Ayrim mutaxassislar P. 40-yillarda, J. Joysning "Finnegan ma'rakasi" (1939) asari bilan boshlangan desa, boshqalari o'tgan asrning o'rtalarini, yana bir xillari 70 – 80-yillarini ko'rsatadilar. Holbuki, P. termini ancha avval paydo bo'lgan: ilk bor P. Vinnitsning "Yevropa madaniyati inqirozi" (1917) asarida ishlatilgan bo'lsa, Toynbining "Tarixni o'rganish" (1947) asarida termin kulturologik ma'noda, jahon madaniyatida yevropotsentriзмning barham topishi ma'nosida qo'llanadi. Adabiyotshunoslikda ham P. termini XX asrning 20-yillardanoq ishlatilgan bo'lib, u adabiy jarayondagi modernizmga aks ta'sir hodisalarini, 60 – 70-yillar amerika adabiy tanqidchiligida esa ultramodernistik ijodiy tajribalarni anglatgan. Terminning keng ommalashishi Ch. Jenks nomi bilan bog'liq: u o'zining "Postmodernistik me'morlik tili" (1977) asarida P. ni neoavangardga xos ekstremizm va nigilizmdan chekinish, qisman an'analarga qaytish ma'nosida qo'llaydi. Aslida, P. terminiga turli vaqtlarda berilgan ta'riflarning har biri o'zida hodisaning bir qirrasini mujassam etadiki, bu ma'no o'zgarishlari, ma'lum darajada, P. ning shakllanish jarayonini aks ettiradi. Avvalo shuni qayd etish lozimki, modernizm bilan P. munosabati masalasida ham fikrlar turlicha: P. ga modernizm taraqqiyotidagi bir bosqich sifatida qarash ham, uni modernizmga aks ta'sir sifatida maydonga chiqqan yangi hodisa deb bilish ham, eskirgan badiiy shakllardan yangilariga o'tish davri hodisasi deb hisoblash ham bor. Shunga qaramay, o'tgan asrning so'nggi choragidan P. ning modernizmdan jiddiy farqlanuvchi hodisa ekanligi tobora oshkor ko'zga tashlanib, tabiiyki, u haqdagi shunga mos qarashlar ham ustuvorlik kasb etib bordi. Hozirgi adabiyotshunoslikda bu ikki hodisaning jiddiy farqlanishi e'tirof etiladiki, farqlardan ayrimlarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq:

Modernizm Postmodernizm

Yangi adabiyot va san'atni yaratish da'vosi, an'analarni inkor qilish An'analarni o'ziga singdirish va ularga kinoyaviy munosabatda bo'lish

Olamni xaos deb bilish, undan qochish Xaos deb bilingan olamni qabul qilish, uni o'yin tariqasida o'zlashtirish

Go'zallikni reallikdan tashqaridan izlash Go'zallikni reallikdan izlash

Antropotsentrik gumanizm: insonga muhabbat Universal gumanizm, uning ob'ekti jami tirik mavjudot, tabiat, koinot – butun OLAM

Madaniyatda yevropotsentrizm, Yevropa xalqlari madaniyatini umumbashariy madaniyat asosi deb bilish Sharq, Lotin Amerikasi, Afrika, Okeaniya xalqlari madaniyatiga kuchli qiziqish, barcha madaniyatlarni qimmat jihatidan teng bilish

Elitar san'at Elitar va ommaviy san'at orasida chegaraning yo'qolishi, asarda elita va ommaga mo'ljallangan qatlamlar mavjud bo'lishi – ikkiyoqlama kodlashtirish

Semantika, mazmun muhim Ritorika, mazmunni yetkazish shakli muhim

Janrlar, ular orasida aniq chegaralar mavjud Janrlar mutatsiyasi

Ijodiy jarayonning natijasi – tugal asar muhim Ijodiy jarayonning o'zi muhim

Ijodni individual hodisa deb bilish, ijodkor faolligini va uning mazmunni shakllantiruvchi markaz ekanini e'tirof etish Ijodda individ rolini inkor qilish, "muallif o'limi" kontseptsiyasi va boshqalar.

P. nazariyotchilariga ko'ra, "P. asri" hisoblanmish 70 – 80-yillardan olam manzarasi tamom o'zgargan, avvalgilardan farqli shart-sharoitlar yuzaga kelgan. Jumladan, elektron axborot vositalari, xususan, televidenie va Internet tarmog'ining rivojlanishi madaniyatlarning ajib qorishuviga olib keldiki, turmush tarzi va madaniyatdagi eklektiklik san'at va adabiyotda ham shunga mos eklektiklikni keltirib chiqaradi. Xususan, adabiyot va san'atda yevropotsentrizm, etnotsentrizmning yemirilishi, turli san'at "til"larining qorishib ketishi ayni shu hol natijasi deb qaraladi. Mazkur holning yana bir omili sifatida ommaviy didsizlashish ko'rsatiladi. Ya'ni badiiy did o'tmaslashgan, badiiy asar qimmatini uning qancha foyda keltirgani bilan o'lchanadigan sharoit adabiyot va san'atdagi turli, hatto bir-biriga zid tamoyilu uslublarning qorishuviga izn beradi. Bu esa an'anaviy badiiyat mezonlarini yemiradi, haqiqiy san'at bilan ommaviy san'at orasidagi farqni yo'qotib, san'atning dizaynlashuviga olib keladiki, bunday san'atning o'zi badiiy didni o'tmaslashtiradi. P. nazariyotchilari nafaqat realizm, balki umuman an'anaviy san'at olamni tushunish va tushuntirishga intilgan, shu maqsadga qaratilgan "metarivoyatlar"ni yaratgan deb biladilar. Bundan farqli o'laroq, P. olamni tushuntirish, u haqda yaxlit tasavvur hosil qilish, insonning olam va undagi o'z o'rnini anglashga qaratilgan har qanday harakatni bekor hisoblaydi va "metarivoyatlar" o'rniga "kichik hikoyatlar"ni, ya'ni olam haqida umumiy emas, balki fragmentlar tarzidagi uzuq-yuluq "rivoya"ni taqdim etadi. Zero, P.ga ko'ra, olamning mavjud qiyofatida faqat fragmentlargagina ishonish mumkin. Ayrim mutaxassislar ayni shu jihatni P.ni modernizmdan farqlovchi muhim xususiyat sifatida ko'rsatishadi. Ularning fikricha, voqelikni badiiy idrok etish mumkinligini inkor qilgani holda, modernizm uning badiiy modelini yaratadiki, haqiqatda bu model an'anaviy san'at yaratuvchi "metarivoyat"ning muqobilidir. Ya'ni modernist san'atkor baribir o'zi anglagan haqiqatni ifoda etishga intiladi, demak, uning asari muayyan ijodiy niyat asosida shakllantirilgan kontseptsiyadir. Aksincha, P. uchun badiiy asar ijodiy niyat ijrosining natijasi, ya'ni oldindan belgilangan niyat asosidagi ijodiy jarayon mahsuli emas, balki uning o'zi jarayondir. Natijada mazmun endi asardan tashqaridagi voqelik bilan bog'liq "ob'ektiv mif" emas, balki parokanda olamda ihotalanib yashayotgan individning shaxsiy taassurotlarigina bo'lib qoladi. Shu tariqa P. an'anaviy madaniyat asosida yotuvchi "logotsentrizm"ni inkor qiladi. Modomiki, asosda ma'ni (logos) turmas ekan, demak, uni shakllantirayotgan sub'ekt – muallifning faol mazmunni shakllantiruvchilik roli ham ahamiyatini yo'qotadi. P.ga ko'ra, mualliflik masalasining aktuallashuvi yangi davr – XVIII asrdan boshlangan bo'lib, bu shaxs maqomining o'zgarishi, ratsionalizmga xos inson dunyoni o'zgartira oladi degan ishonch natijasi edi. Endilikda, bu ishonchga putur yetgan bir sharoitda, betartib va parokanda olamda inson o'z o'rnini yo'qotgani kabi, adabiyotda sub'ektning roli ham yo'qolishi muqarrardir. Bunday qarash, birinchidan, "muallif o'limi" kontseptsiyasini keltirib chiqaradi, ikkinchidan, ijodni shaxsning maqsadli yo'naltirilgan yaratuvchilik faoliyati emas, mohiyatan kollektiv ijod bo'lgan "intertekstual o'yin" sifatida tushunishga olib keladi.

P. o'ta murakkab, serqirra va ziddiyatli, muhimi, faol harakatdagi hodisadirki, u haqdagi mavjud fikrlar to'liqlik va tugallik da'vosini qilolmaydi. Yuqoridagilar P. haqida mutaxassislar bildirgan turlicha fikrlarni umumlashtirib, muxtasar ifodalashga bir urinish xolos. Hozirgi o'zbek adabiyotida P.ga xos ayrim belgilar (mas., kinoyaviy modus, intertekstual o'yin) modernizmga xos xususiyatlar bilan qorishiq holda zuhur qilayotgani ham bor gap. Biroq o'zbek adabiyotshunosligida xali bu masalani tadqiq etish deyarli boshlanmadi, uni atroflicha o'rganish hanuz ertaning vazifasi bo'lib qolmoqda.



**POSTSTRUKTURALIZM** (fr. poststructuralisme – strukturalizmdan keyingi) – ijtimoiy-gumanitar bilim sohalarida o‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab shakllangan ilmiy yondashuvlarning umumiy nomi. P. strukturalizm bag‘rida yetishgan, uning davomi va qisman ziddi sifatida maydonga chiqqan bo‘lib, ba‘zan neostrukturalizm deb ham yuritiladi. P. uchun dasturiy sanaluvchi ayrim asarlar (mas., J.Derrida. “Grammatologiya haqida”) 60-yillarning oxiridayoq chop etilgan bo‘lsa ham, 70-yillarda unga strukturalizmdan bir qanoti deb qaralgan, 80-yillardan boshlab kontseptual mustaqillikka erishgan. P.ning vatani – Frantsiya, uning yirik namoyandalari sifatida J.Derrida, K.Kastoriadis, J.-F.Liotar, J.Delez, Yu.Kristeva singari olimlar e‘tirof etiladi; AQShdagi “dekonstruktsiya” yo‘nalishidagi adabiyotshunoslar (X.Blum, D.Miller, P.de Man va b.) ham P.ga mansub etiladi. Mutaxassislar frantsuz strukturalizmining yirik namoyandasi R.Bart faoliyatining so‘nggi bosqichida P. mavqeida turganini ta‘kidlaydilar, bu ham strukturalizm va P. orasidagi genetik aloqani yaqqol namoyon etadi. Strukturalizm kabi P. ham madaniyatga lisoniy faoliyat, matn deb qaraydi, lekin ularning matnga munosabati keskin farqlanadi. Agar strukturalizm matnga immanent holda yondashib, uning ichki qurilishini o‘rganish bilan cheklansa, P. asosiy e‘tiborni matnning ortidagi kontekstga qaratadi. Strukturalizm matnga turg‘un hodisa sifatida qarab, uning unsurlarini ajratish va tasniflash orqali universal qonuniyatlarni ochishga intilsa, P. matnni harakatdagi va o‘zgaruvchan hodisa deb biladi, bu bilan strukturalistlar intilgan “universal struktura” – “matritsa”ni topib borish mumkinligini inkor qiladi. Ya‘ni strukturalistlar matnlararo o‘xshashliklarni matn qurilishining universal qonuniyatlari natijasi deb bilsa, P. ularni matnlarning o‘zaro aloqasi (intertekstuallik) natijasi deb hisoblaydi. Kontekstga e‘tibor qaratishi bilan P. germenetikaga yaqinlashadi, lekin matnni tushunish masalasida undan farqlidir. P.ga ko‘ra, matnni tushunish “dekonstruktsiya” orqali amalga oshadi: avvaliga matn elementar uzvlarga ajratiladi (“destruktsiya”), keyin qayta yig‘iladi (“rekonstruktsiya”) va shu asno matnga ijod onlari kontekstida muallif ixtiyoridan tashqari, anglanmagan tarzda yoki o‘zi yashirishni xohlaganiga zid o‘laroq kirib qolgan ma‘nolarni ochishga intiladi. Ya‘ni P. matnda kontekst qoldirgan “iz”larni qidiradiki, bu izlar g‘ayriushuriy (ongsizlik) tarzda aks etgani uchun ularni intuitiv tarzda farqlash mumkin. Yana bir jihati, P.ga ko‘ra, konkret matnda faqat ijod onlari kontekstininggina emas, balki unga qadar mavjud bo‘lgan boshqa matnlar “iz”i bor, aniqrog‘i, matn o‘sha izlarning yig‘indisi (“tekst – qo‘shirnoqsiz tsitata”. R.Bart), matnlararo o‘xshashliklar (g‘oya, motiv, obraz) esa intertekstual o‘yin, turli allyuziyalar, anglanmagan tsitatsiyalar natijasidir. Shunga ko‘ra, ijodkor voqelikka emas, balki o‘zigacha mavjud bo‘lgan matnlarga taqlid qiladi. Bu qarash esa ijodda individuallik rolini pasaytirish (avtor o‘limi), asardagi obrazlarning voqelik bilan aloqasini inkor etishga (ya‘ni belgi voqelikka ishora qilmaydi, u o‘zining ifodalaydi) olib keladi. Modomiki, matn “iz”lar yig‘indisi ekan, talqin ham matndan tashqarida qoladigan narsalarni tushunishdir, demak, tushunish natija emas, balki jarayondir. Ayni chog‘da, P. uchun muhimi tushunish emas, balki matn konstruktsiyasi, uning qanday yasalgani, matn yaratish texnologiyasini o‘rganish bo‘lib qoladi.

P.ning asoschilari, ayni chog‘da, postmodernizm klassiklari ham sanaladi. Xuddi postmodernizm kabi, P. ham hozirda faoliyatda bo‘lgan, demak, o‘zgarib, shakllanib, takomillashib borayotgan g‘oyat serqirra hodisadir. Shu ma‘noda, yuqoridagilarni uning ayrim jihatlarigina deb tushunish, u haqda to‘la ma‘lumot olish uchun ko‘plab maxsus adabiyotlarni o‘rganish lozim.

**POEZIYA** (yun. poieo, poiesis – ijod qilmoq co‘zidan) – 1) hozirda keng qo‘llanuvchi ma‘noda badiiy nutqni tashkil qilishning ikki asosiy tipidan biri, ritmik jihatdan o‘lchov asosida tartibga solingan nutq, nazm. Shu bilan bog‘liq holda, umuman she‘riy yo‘lda yozilgan asarlarni – she‘riyatni bildiradi: o‘zbek poeziyasi, 20-yillar poeziyasi va h.; 2) termin qariyb XVIII asrga qadar san‘at turi, badiiyat hodisasi sifatidagi adabiyot, badiiy adabiyot ma‘nosida ishlatilgan va prozaga qarshi qo‘yilgan. Bunda P. turga mansubligidan qat‘i nazar, barcha adabiy-badiiy (ya‘ni badiiy obraz vositasida ish ko‘rilgan) asarlar jamini, proza esa adabiy asarlar (kundaliklar, xotiralar, sayohatnomalar, tarixiy hikoyalar, falsafiy risolalar va h.) jamini anglatgan.

**POEMA** (yun. poieo, poiema – ijod qilmoq, ijod qilingan) – qarang: doston

**POETIKA** (yun. poietike techne – ijod san‘ati) – keng ma‘noda adabiyot nazariyasi, tor va hozirda ko‘proq qo‘llanilayotgan ma‘noda adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi, adabiy asar haqidagi ta‘limot. P.ni umuman adabiyot, so‘z san‘ati haqidagi fan – adabiyot nazariyasi ma‘nosida tushunish antik davrlardan an‘anaga aylangan. P.ni tor ma‘noda – adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi sifatida tushunish XX asrning ilk choragidan boshlab qaror topgan bo‘lib, bunda rus adabiyotshunosligidagi formal maktab vakillarining xizmati katta. Ular adabiy asarning shakliy tomonlariga, uning qurilishi masalalariga asosiy

e'tiborni qaratdilar. Garchi bu maktabning ilk bosqichida shaklni ustun qo'yish, badiiy asar "priyomlar yig'indisi" (V.Shklovskiy) qabilidagi da'volar bo'lsa ham, keyincha badiiy shakl va mazmunni uyg'un birlikda olib o'rganish tomon burilish kuzatiladi. Formal maktab vakillari va unga yaqin ilmiy mavqeda turgan olimlar til va nutqning uslubiy ko'rinishlari (V.V.Vinogradov), badiiy asar tili (G.O.Vinokur), she'r kompozitsiyasi, ritm va metrika (V.M.Jirmunskiy), she'riy sintaksis va poetik intonatsiya (B.M.Eyxenbaum), syujet qurilishi (V.Shklovskiy), sehrli ertaklar strukturasi (V.Ya.Propp) kabi qator masalalarni atroflicha chuqur tadqiq etdilar. Bu ilmiy izlanishlar adabiy asar mohiyatiga kirib borish, unga badiiy joziba baxsh etgan unsurlarni ochib berishga qaratilgan bo'lib, ular adabiy asar qurilishi bilan bog'liq o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar ko'lami benihoya kengligi va muhimligini ko'rsatdi. B.V.Tomashevskiy o'tgan asrning 20-yillarida: "P.ning (boshqacha aytsak – adabiyot yoki so'z san'ati nazariyasining) vazifasi adabiy asar qurilishi usullarini o'rganishdan iboratdir. P.ning ob'ekti – badiiy adabiyot",– deb yozarkan, P.ni adabiyot nazariyasiga sinonim tarzida ishlatib, uning vazifasi "adabiy asar qurilishi usullarini o'rganish", deb ta'kidlaydi. Shuning o'zidayoq P.ni adabiyot nazariyasining maxsus sohasi sifatida tushunishga moyillik kuzatiladi. Xuddi shu yillarda V.M.Jirmunskiy P.ni "adabiyotni san'at sifatida o'rganuvchi fan", deya ta'riflaydi. Uning fikricha, estetik ob'ekt va estetik kechinma xususiyatlarini belgilash alohida fan bo'lmish P. doirasidan tashqarida, P.ning vazifasi estetik ob'ekt – adabiy asar strukturasi o'rganishdir. Formal maktabga qarshi turgan M.M.Baxtin sotsiologik P. haqida so'z yuritadi va uning vazifasi "Adabiy asar nima? Uning strukturasi qanday? Bu strukturaning elementlari qaysilar, ularning funktsiyalari nimalardan iborat? Janr, uslub, syujet, mavzu, motiv, qahramon, metr, ritm, melodika va h. – nima?" kabi masalalarni o'rganish", deb ta'kidlaydi. M.M.Baxtin nazarda tutgan sotsiologik P.ning predmeti formal maktab tushunchasidagi P. predmetiga, asosan, mos keladi. Bahslashuvchi tomonlar qarashlaridagi bu mushtaraklik o'tgan asrning 20-yillaridayoq P. adabiyotshunoslikning o'z predmeti, vazifalariga ega bo'lgan maxsus tarmog'i sifatida keng e'tirof etila boshlanganini ko'rsatadi. XX asr o'rtalariga kelib P.ni adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi sifatida tushunish to'la qaror topdi, deyish mumkin. Ayni shunday talqin, odatda, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan qarashlarni aks ettiradigan entsiklopedik lug'atlar, o'quv adabiyotlaridan joy olgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Jumladan, V.M.Jirmunskiy o'quv qo'llanmasida: "So'z san'atining umumfalsafiy, estetik asoslarini adabiyot nazariyasi o'rganadi. P. esa adabiyot nazariyasining asosiy xulosalariga tayangan holda poeziya foydalanadigan ifoda vositalari sistemasini o'rganadi", – deb yozdi, adabiyot nazariyasi va P.ning vazifalar doirasini aniq chegaralab, ularning bir-biriga bog'liqligini ta'kidlaydi. O'tgan asr o'rtalarida chop etilgan 6 jildlik "Qisqacha adabiyot entsiklopediyasi"da esa P.ga "adabiy asarlarning qurilishi va ularda foydalaniladigan estetik vositalar sistemasi haqidagi fan", deya ta'rif berilgan.

Tadqiq ob'ektini qaysi jihatdan o'rganishi, masalalari doirasi, o'z oldiga qo'ygan maqsadi va shularga mos ilmiy yondashuvdan kelib chiqqan holda, P. doirasida umumiy (yoki nazariy) P., xususiy P. va tarixiy P. sohalari farqlanadi. Umumiy P., ko'pincha, nazariy P., ba'zan esa "makropoetika" deb ham yuritiladi. Umumiy P. asarning ichki qurilishi (fonika, ritmika, strofika, stilistika, obrazlar tizimi, syujet-kompozitsiya sathlari) bilan bog'liq umumiy qonuniyatlarni ochish, badiiy vositalar va usullar tizimini ishlab chiqishni maqsad qiladi. Nazariy P.dan farqli o'laroq, xususiy P. xuddi shu ishni konkret asar doirasida amalga oshiradi, o'sha asarning badiiy o'ziga xosligini ochib berish, tavsiflash maqsadini ko'zlaydi. Tarixiy P. esa alohida badiiy usul va vositalarning tarixiy tadrijini qiyosiy va tipologik aspektlarda o'rganadi. Ta'kidlash joizki, adabiyotshunoslikda tez-tez uchraydigan "romantizm P.si", "Chexov P.si", "struktural P." kabi birikmalar ma'nosi ham bevosita atamaning asosiy ma'nosidan o'sib chiqadi. Mas., "romantizm P.si" deyilganda, romantizm yo'nalishiga mansub asarlarning qurilishiga xos umumiy xususiyatlar, badiiy usul va vositalar tizimi nazarda tutiladi.

POETIK TIL – qarang: badiiy til

PROZA (lot. prosa – to'g'ri, odatiy) – 1) hozirda keng qo'llanuvchi ma'noda badiiy nutqning ikki asosiy tipidan biri, ritmik jihatdan o'lchovli tartibga solinmagan nutq, nasr. Shu asosda umuman nasrda yozilgan asarlarni – epik turga mansub asarlarni bildiradi: hozirgi o'zbek prozasi, zamonaviy proza va h.; 2) XVIII asrga qadar poeziya bilan qarshi qo'yilgan holda san'atga mansub bo'lmagan, ya'ni badiiy obraz vositasida fikrlamaydigan adabiy asarlarni bildirgan.

PROZAIZM – badiiy matn tarkibida begona, o'rinsiz ko'rinadigan so'z, so'z shakllari, sintaktik birliklar P.lar deb yuritiladi. Adabiyotda an'analar, xususan, badiiy til an'anaviyligi kuchli bo'lgan davrlarda badiiy matnga odatiy muloqotga xos nutq birliklarining kiritilishiga jiddiy kamchilik deb qaralgan. Bunday

munosabat nasr badiiy nutqning nazm bilan teng huquqli shakli sifatida kechroq (G'arbda XVIII asrdan keyin) tan olingani, poeziya bilan proza bir-biriga keskin qarshi qo'yilgani bilan izohlanadi. O'zbek she'riyatiga badiiy til an'alariga xilof so'z va sintaktik konstruksiyalar – P.larning ko'plab kirib kelishi XX asr boshlariga to'g'ri keladi va bu hol adabiyotning tematik doirasi kengaygani, uning hayotga yaqinlashuvi bilan izohlanadi. Mas.:

Nonvoyda yo'qdur insof, andin o'tadur allof,

Ko'r, chaksa un xamiri qirq ikki non bo'lubdur.

Alhol muhtasib yo'q, bir-ikki qilsa ul do'q

Ichkuga xalq rog'ib, doim fiyon bo'lubdur.

Ko'b qozixonalarda ushbu zamonalarda

Ishdin zakunchilar ko'b, emdi yamon bo'lubdur.

Yoki:

Bir kunda o'n desyat yer haydab qilurga tayyor,

Gar haydar ersa bir bor, obod etib traktur.

Yana:

Bir necha yillar ichinda shahrimiz jannat bo'lar,

Bul tariqa boshchilar qilsa tashabbuslar agar.

Ibrat g'azallaridan keltirilgan bu parchalarda faqat o'z davri uchun yangi so'zlarning kiritilishi emas, ifodaning o'zi ham P.lar sanalishi mumkinki, ular oddiy gaplar vaznga solib aytilgandek taassurot qoldiradi. Adabiyotda realistik tendentsiyalarning kuchayib borishi barobaridadadada P.larga munosabat ham yumshadiki, bu so'z estetik qimmatining qayta ko'rib chiqilishi bilan bog'liq. Ayni chog'da, bu badiiy til an'alarini to'la inkor qilish degani emas, ya'ni badiiy tilni, ayniqsa, she'riy nutqni so'zlashuv tiliga yaqinlashtirishda muayyan me'yorni saqlash zarur.

PROLOG (yun. pro – oldidagi, logos – so'z) – adabiy asarning kirish qismi, muqaddima. P.lar mazmun mundarijasiga ko'ra turlicha bo'ladi: asarning yozilish sababini izohlash, asosiy mazmunini muxtasar bayon etish, asar vaqtigacha yuz bergan voqealarning qisqa bayoni va h. Shunga ko'ra, P.lar turli badiiy-estetik maqsadlarga xizmat qiladi: o'quvchini asar voqeligiga olib kirish, tasvirlanajak voqealarning yuz berish omillari haqida umumiy tasavvur berish, muayyan emotsional-hissiy holat hosil qilish va h. Har qanday muqaddima emas, faqat badiiy muqaddimagina P. sanalishi mumkin. Ya'ni P. sanalishi uchun muqaddima badiiy matnning uzviy qismi bo'lib qolishi zarur, asosiy matndan yaqqol ajralib (o'zaro asosiy matn – yondosh matn munosabatidagi) turgan so'z boshilarni P. sanash to'g'ri emas. Mas., "O'tgan kunlar"ning "Yozuvchidan" deb nomlangan kirish qismi asosiy matnning uzviy qismi bo'lmay, balki yondosh matndir. Cho'lponning "Kecha" romani boshlanishidagi mo'jazzgina bahor tasviri esa matnning uzviy bo'lagi. Shu ma'noda, "O'tgan kunlar"da muallif ijodiy niyatlari izhor etilgan alohida so'z boshi, "Kecha"da esa o'quvchini tasvirlanajak voqealarni qabul qilishga emotsional jihatdan tayyorlashga qaratilgan lirik xarakterdagi P. mavjuddir.

PROTOTIP (yun. prototypon – obraz asosi) – adabiy asardagi obrazning yaratilishiga asos bo'lgan real shaxs. P. badiiy obraz uchun material bo'lib, uning yozuvchi badiiy niyatiga muvofiq qayta ishlanishi asosida badiiy personaj – badiiy obraz yaratiladi. Ya'ni badiiy personaj hech vaqt P.ning aynan o'zi emas, balki uning yozuvchi ijodiy tafakkuri mahsuli o'laroq dunyoga kelgan "badiiy egizagi"dir: ular orasida o'xshashlik bor, aynan moslik emas. Shuning uchun ham hujjatli asarlardagi personajlardan farqli ravishda, badiiy asarlardagi P. asosida yaratilgan personajlar, ko'proq, o'zga nom bilan harakatlantiriladi.

Mas., “Oy va sariq chaqa” (S.Moem) romanidagi Charlz Striklend obrazining P.i mashhur rassom Pol Gogen bo’lsa, “Qaldirg’och” (T.Malik) qissasidagi Asadulla Mira’lam obrazining P.i ulug’ ma’rifatparvar Abdulla Avloniydir. Zamonaviy mavzularda yozilgan asarlarda harakatlanuvchi personajlar o’quvchiga u yoki bu real shaxsni eslatadi, o’sha real shaxs qanchalik mashhur bo’lsa, personajda uni tanib oluvchilar doirasi shunchalik keng bo’ladi. Mas., o’tgan asrning 80-yillari oxirlari – 90-yillari boshlarida M.M.Do’stning “Lolazor” romanidagi Oshno, Nazar Yaxshiboev, Katta paxtakor, Qurbonoy yoki S.Ahmadning “Jimjitlik” romanidagi Mirvali obrazlarining P.larini aksariyat o’quvchilar tanib olganlar. Umuman, keng ma’noda qaralsa, obrazning materiali voqelik ekan, har qanday obrazning ham hayotda ma’lum asosi, ya’ni yozuvchi hayotida duch kelgan, kuzatgan, muloqotda bo’lgan shaxslar borligi, o’sha shaxslarning ma’lum jihatlari obrazda aks etishi tabiiydir. Biroq P. haqida, odatda, u bilan obraz orasidagi o’xshashliklar yaqqol sezilsa yoki P. yozuvchi ijodiy laboratoriyasini o’rganishda ahamiyatli bo’lsagina gapiriladi.

**PSIXOLOGIK MAKTAB – XIX asrning oxirgi choragida Yevropa va rus adabiyotshunosligida maydonga kelgan ilmiy yo’nalish.** P.m. madaniy-tarixiy maktab va biografik metod qarashlarini qayta idrok etib, ularni rivojlantirish asosida shakllangan. Xuddi madaniy-tarixiy maktab kabi, P.m. ijodkor shaxsning shakllanishida oila, ijtimoiy muhit, davr singari omillarning muhimligini e’tirof etadi, biografik metod kabi badiiy asarda ijodkor shaxsi aks etadi deb biladi. P.m. mazkur qarashlarni birlashtiradi, ya’ni bu omillarning bari ijodkor ruhiyati orqali namoyon bo’ladi deb hisoblaydi va shundan kelib chiqib, ijodkor ruhiy biografiyasi, badiiy ijodning ruhiy tomonlarini o’rganishni diqqat markaziga qo’yadi. P.m.ga ko’ra, badiiy obraz inson ko’nglida dunyo bilan aloqa ta’sirida paydo bo’lgan kechinmalarning tashqariga chiqishi, moddiylashuvi natijasidir. Ijodkor, avvalo, o’zi uchun yozadi: u asarda o’zini qiynayotgan dardlar, o’y-hislarni ifodalaydi va shu orqali ulardan forig’ bo’ladi, asar ijodkor qalbi modelidan o’zga narsa emas. Shunga asosan, P.m. konkret asarga xos jami xususiyatlar ildizini ijodkor shaxsiyati, uning ruhiy o’ziga xosligidan qidiradi, asarlar bir-biridan farqli bo’lishining sababini esa turli kechinmalar va turli ijodkor psixologik tiplari mavjudligi bilan izohlaydi. Ya’ni asarning qanday bo’lishi ko’p jihatdan ijodkor psixologik tipi bilan bog’liq. Mas., D.N.Ovsyaniko-Kulikovskiye’ga ko’ra, ob’ektiv ijodkor tabiatan o’ziga yot bo’lgan qahramonlarni, sub’ektiv ijodkor esa o’ziga ruhan yaqin bo’lgan qahramonlarni tasvirlaydi; egotsentrik bo’lmagan ijodkor (mas., Pushkin, Chexov) hayotni kuzatish orqali o’z xulosalarini xotirjam ifoda etishga, egotsentrik ijodkor (mas., Gogol, Dostoevskiy) esa voqelik ustida turli tajribalar o’tkazishga moyil bo’ladi va sh.k. Albatta, ijodkor tiplarini bu tarzda farqlashni ham, asarga xos ayrim xususiyatlarni tushuntirishda ularning ahamiyatini ham inkor etib bo’lmaydi, biroq P.m.ning qarashlarida bularni mutlaqlashtirish kuzatiladi va oqibatda adabiyot (badiiy tafakkur) taraqqiyoti qonuniyatlari, uning ijtimoiy hayot bilan bog’liqligi deyarli chetga surilib qoladi. Mutlaqlashtirish badiiy asar mazmuni masalasida ham yaqqol ko’zga tashlanadi, bunda ham sub’ektiv ibtido ustuvorlik kasb etadi. P.m. badiiy mazmunni oniy hodisa hisoblaydi, ya’ni badiiy asar mazmuni o’quvchi ongida shakllanadi, har bir o’quvchi o’zining betakror hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda mazmunni shakllantiradi. Bunday qarash adabiyotshunoslik masalalarini falsafiy asosda, til va lisoniy muloqot qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda tushuntirgan A.Potebnya fikrlariga asoslanadi. A.Potebnyaga ko’ra, lisoniy muloqotda fikr emas, balki fikrning modeligina (“tashqi shakl”) yetkaziladi: tinglovchi uni “ichki shakl” (tashqi shakl ongda uyg’otgan tasavvur) bilan bog’lagan holda fikrni (mazmunni) anglaydi. Ya’ni so’zlovchi fikrni bevosita yetkazayotgani yo’q, uni modelga tayangan holda tinglovchining o’zi qayta hosil qilmoqda. Olimning fikricha, adabiy asarning o’qilishida ham xuddi shu qonuniyat amal qiladi. Tabiiyki, bunday yondashuv dialogiklik qonuniyatiga zid bo’lib, adabiyot mohiyatini toraytirishga olib keladi. Jumladan, A.Potebnya san’atkorning vazifasi asarni yaratayotgan vaqti unga muayyan mazmun minimumini yuklash emas, balki obrazni o’quvchi ongida turli mazmunlarni shakllantirishga asos bo’la oladigan darajada serqirra qilib yaratishdan iborat deb hisoblaydi.

P.m.ning alohida ilmiy maktab, yo’nalish sifatidagi faoliyati XX asr boshlarida barham topib, uning o’rnini intuitivizm va psixoanaliz egalladi. Shunga qaramay, P.m. adabiyotshunoslik rivojida sezilarli iz qoldirdi, unga xos tahlil tamoyillari qator ilmiy muammolarni yangicha yoritishga imkoniyat yaratdi va bu bilan so’z san’atini ilmiy bilish doirasini kengaytirdi. Hozirgi adabiyotshunoslikdagi ko’plab yo’nalishlar P.m. ishlab chiqqan tahlil usullarini ijodiy o’zlashtirib, ulardan o’z adabiy-estetik sistemalari doirasida samarali foydalanmoqda.

**PYeSA** (fr. piece – parcha, qism) – dramatik turga mansub har qanday asar. Termin XX asrdan boshlab shu ma’noda qo’llanadi, dramatik asar, janridan qat’i nazar – u tragediya, komediya yo drama bo’ladimi, P. deb ham yuritilaveradi.

RAVIY (ar. ??? – yukni tuyaga bog‘laydigan arqon) – qofiyalanib kelayotgan so‘z o‘zagi yoki negizi oxirida aynan takrorlanib keluvchi cho‘ziq unli yoki undosh. Mumtoz poetikada qofiyalanayotgan so‘zlarda R.ning aynan takrorlanishi shart hisoblangan. Navoiy “Majolis un-nafois”da Atoyining mashhur:

Ul sanamkim suv yaqosinda paritek o‘lturur,  
G‘oyati nozukligidin suv bila yutsa bo‘lur, –

bayti haqida “qofiyasinda aybg‘inasi bor”, deganida, aynan R.ning yo‘qligini nazarda tutgan (bo‘lur – o‘lturur). Ya‘ni birinchi misradagi “o‘lturur” so‘zining o‘zagi “r” bilan, “bo‘lur” so‘zining o‘zagi esa “l” bilan tugamoqda.

RADD (ar. ?? – qaytarmoq) – mumtoz adabiyotdagi she‘riy san‘at, bir so‘zni baytning turli o‘rinlarida takrorlash. So‘z baytning qaysi o‘rinlarida takrorlanayotganiga qarab, R.ning bir necha turlari farqlanadi va ularning har biri takrorlanish o‘rnini ifoda etuvchi alohida nomga ega. Mas.: raddul ‘ajz ‘ala sadr (q.) kabi. Bundan tashqari, she‘rda qofiya, matla’ kabi unsurlarning turli ko‘rinishlarda takrorlanib kelishi ham mana shu istiloh bilan yuritiladi: radd ul-qofiya (q.), radd ul-matla’ (q.) kabi.

RADD UL-MATLA’ (ar. ???????? – matla’ning qaytarilishi, takrorlanishi) – mumtoz adabiyotdagi she‘riy san‘at. Nomlanishi “matla’ni takrorlash” ma‘nosini bersa ham, amalda g‘azal matla’si yoki qasidaning birinchi bayti tarkibidagi misralardan birining so‘nggi baytda (ba‘zan oraliqdagi baytlardan birida) takrorlanishi ham R.m. deb yuritilaveradi. Misraning takrorlanishi shunchaki takror bo‘lmay, balki ma‘lum bir poetik maqsadni ko‘zlaydi. G‘azal matla’si yoki qasidaning birinchi baytida ilgari surilgan fikr-g‘oyani shoir keyingi baytlarda rivojlantirib boradi, she‘r nihoyasida esa bayt (misra)ni takrorlash orqali o‘sha fikr-g‘oyani ta‘kidlaydi. Natijada matla’ (yoki uning bir misrasi)da ifodalangan fikr-g‘oya, his-kechinma to‘lishadi, yorqinroq ifodasini topadi. Zero, takrorlanayotgan matla’ (misra) go‘yo o‘zidan avval kelgan baytlardagi mazmuni singdirib oladi va umumlashtirib ifoda etadi. O‘zbek mumtoz she‘riyatida Navoiydan boshlab keng qo‘llana boshlagan ushbu san‘atning go‘zal namunalari deyarli barcha shoirlar ijodida uchratish mumkin. Xususan, E.Vohidov she‘riyatida R.m. san‘atidan juda samarali foydalanilgan. Mas., shoirning:

Tushda ko‘rdim dilbarimni, ey sabo, uyg‘otmagil,  
Olma bir dam vasl shavqin, qo‘y, meni qo‘zg‘otmagil, –  
matla’si bilan boshlanuvchi g‘azali maqta’sida matla’ning ilk misrasi takrorlanadi:  
Gar yo‘qotsam bu kecha men qayga borgum axtarib,  
Tushda ko‘rdim dilbarimni, ey sabo, uyg‘otmagil.

RADD UL-QOFIYA (ar. ???????? – qofiyaning qaytishi, takror kelishi) – mumtoz adabiyotdagi she‘riy san‘at, g‘azal yoki qasidaning birinchi bayti misralaridagi qofiya hosil qilayotgan so‘zlardan biri yoki har ikkisining keyingi baytlarda, ba‘zan esa maqta’da aynan takrorlanishi. Mas., Lutfiyning:

Qon bo‘ldi ko‘ngul firoqingizdin,  
Jon kuydi ham ishtiyolingizdin, –

matla’si bilan boshlanuvchi g‘azali birinchi misrasidagi qofiya maqta’da yana takrorlanib kelgan:

Bu Lutfiyi hastani so‘rungskim,  
Bechora o‘lar firoqingizdin.

RADD UL-‘AJZ MIN AS-SADR (ar. ??????? ?? ????? – sadrdan ajzga qaytish) – mumtoz adabiyotdagi she‘riy san‘at, bir so‘zning baytning turli o‘rinlari (sadr, hashv, aruz, ibtido, zarb)da takrorlanishi. Bunda takrorlanayotgan so‘zlar bir xil ma‘noli bo‘lishi, o‘zaro tajnis (omonimik munosabat) yoki ishtiqoq (o‘zakdosh) hosil qilishi, shuningdek, shibhi ishtiqoq, ya‘ni asli o‘zakdosh bo‘lmasa-da, yozilishi (omograf) yoki talaffuzi (omofon)ga ko‘ra yaqin bo‘lishi mumkin. Shulardan kelib chiqqan holda, R.a.m.s. tarzida umumiy nom bilan yuritiluvchi mazkur san‘atning turli ko‘rinishlari farqlanadi. Mas., quyidagi baytlarda bir xil ma‘noli so‘zlar baytning turli o‘rinlarida takrorlanadi:

Ishq o‘ti tushgan ko‘ngulga o‘zga o‘t begonadir,

Men bo‘libman, voh ajab, dardmandi she‘r, bemori ishq.  
Oy jamolining aksi ko‘zgu bag‘riga tushdi,  
Rashk o‘tida bag‘rimni o‘rtar-u yoqar ko‘zgu.

Navoiyning:

Gar Navoiy xo‘blar saydidur, ammo qilmamish  
Sendin o‘zga kimsa ul oshuftai rasvoni sayd, –

baytida takrorlanayotgan so‘zlar o‘zaro omonimik munosabatda (birinchi misradaga sayd so‘zi “o‘lja” ma‘nosida, ikkinchi misrada “ov jarayoni” ma‘nosida kelgan) bo‘lib, tajnis hosil qilsa, Atoyining:

Nomurode bo‘l Atoyi, dilbarung yo‘lindakim,

Dilbar o‘qtur, oshiqi sodiqqa dilbardin murod, –

baytida esa o‘zakdosh so‘zlar takrorlanib, ishtiyoq hosil qiladi.

RADDUL ‘AJZ ‘ALA SADR (ar. ?????????? ?????? – ajzdan sadrga borish) – mumtoz adabiyotdagi she‘riy san‘at, bayt oxiri (ajz yoki aruz)da kelgan so‘zni keyingi bayt boshi (sadr)da takrorlash. Ushbu san‘at ilmi badi‘ga oid manbalarda mutobiq, muqaddar istilohlari bilan ham yuritiladi. Mas.:

Kecha-kunduz qilma gulbongingni bas, ey andalib,

Kim sanga besh kun bu gulshan ichra mehmon bo‘ldi gul.

Gul chog‘i yori safar aylab, Navoiy jonig‘a

Har biri bir toza qonlig‘ dog‘i hijron bo‘ldi gul.

RADIF (ar. ????) – otning orqasiga ergashib, mingashib keluvchi, izma-iz boruvchi) – mumtoz lirikadagi she‘r unsurlaridan biri, she‘r davomida barcha bayt (yoki misra)lar oxirida qofiyadan so‘ng aynan takrorlanib keluvchi so‘z, so‘z birikmasi. Ya‘ni, mohiyatan, R. ham so‘z takrorining xususiy ko‘rinishi bo‘lib, faqat uning takrorlanish o‘rni qat‘iy belgilangan. Ikkinchi tomondan, she‘r unsuri sifatida R. ritmni ta‘kidlab kuchaytirish funksiyasini o‘taydiki, bu so‘z takrorining hamma ko‘rinishlariga ham xos emas. Nihoyat, R. so‘z yoki so‘z birikmasining shunchaki takrori emas, u bayt (yoki misra) bilan ajralmas mazmuniy aloqada bo‘lib, fikr-tuyg‘ularni ta‘kidlash, kuchaytirish kabi vazifalarni ham bajaradi. Mas., Ogahiyning:

Do‘stlar, bu kun ajab bir sarv qomat ko‘rmisham,

Surati boshtin oyoq g‘arqi latofat ko‘rmisham, –

matla‘tida “qomat” va “latofat” juftligi qofiyani hosil qilsa, ulardan keyin takrorlanib kelayotgan “ko‘rmisham” so‘zi R. bo‘lib, u g‘azaldagi keyingi barcha baytlarning ikkinchi misrasida “qomat-latofat” juftligi bilan qofiyadosh so‘zlardan keyin takrorlanadi. Mashrabning quyidagi baytida R. bir necha so‘zdan iborat:

Murodingga yetay desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l,

Sitam ahlin yutay desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l.

Ayrim hollarda R. bundan ham ko‘proq so‘zlardan tarkiblanib, misraning asosiy qismini egallashi ham mumkin. Mas., Navoiyning “Jondin seni ko‘p sevarmen ey umri aziz”, Boburning “Tuz oh, Zahiriddini Muhammad Bobur” misrasi bilan boshlanuvchi ruboiylarida o‘zaro qofiyalanayotgan misralar faqat qofiya

va R.dangina iboratdir. Mumtoz she'riyatimizda R. g'azallarda, ayniqsa, keng qo'llanadi. Shu bois ham g'azalni yo matla', yo R. bilan atash ko'proq rasm bo'lgan: "Navoiyning "Topmadim" R.li g'azali", Boburning "Qoldimu" R.li g'azali" va sh.k.

RAJAZ (ar. ??? – tuya holdan toyganda paydo bo'ladigan qaltiroq kasali) – aruz bahrlaridan biri, mustaf'ilun aslining (– v –) takroridan hosil bo'ladi. Mazkur bahr iztirobli ohangga egaligi uchun shunday nomlangan. R. o'zbek she'riyatida ancha faol qo'llanadigan bahrlardan hisoblanadi. Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon"ida R.ning o'n uch vazni, Boburning "Muxtasar" asarida esa oltmish uch vazni misollar bilan sanab o'tilgan. O'zbek she'riyatida R. bahrlarining sakkiz ruknli, to'rt ruknli vaznlaridan keng foydalanilgan. R. bahrida yozilgan she'rlarning o'zbek she'riyatidagi dastlabki namunalari "Qissasi Rabg'uziy"da uchraydi. Navoiyning jami yigirma to'rt she'ri (jumladan, yigirma ikki g'azal, bir qit'a, bir muammo) R. bahrida yozilgan. Bundan tashqari, Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy, Gadoiy, Ogahiy kabi mumtoz shoirlar bilan birga, zamonaviy shoirlar ijodida ham R. bahridan keng foydalaniladi. Mas., Ogahiyning "Ustina" radifli mashhur g'azali rajazi musammani solim vaznida bo'lib, uning chizmasi: – v – / – v – / – v – / – v – / – v – / – v – ko'rinishidadir:

Qilg'il tamosho qomati zebosi birla orazin,

Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin payvandi shamshod ustina.

RAMAL (ar. ??? – tuyaning lo'killashi, kuy nomi) – aruz bahrlaridan biri, foilotun asli (– v –) takroridan hosil bo'ladi. Bahrlarining ohangi tuyaning lo'killashiga o'xshagani uchun shunday nomlangan. Foilotun ruknida bir vatad ikki sabab orasiga bo'yra to'qilganga o'xshash holatda joylashgani uchun ramala, ya'ni to'qish ma'nosini bildiruvchi so'zdan olingan, degan fikrlar ham bor. R. bahri o'zbek mumtoz she'riyatida eng ko'p ishlatilgani uchun uni turkiy bahr deb ham yuritiladi. A.Navoiyning "Mezon ul-avzon"ida R.ning o'n uch vazni, Boburning "Muxtasar" asarida esa ellik to'qqiz vazni misollar bilan sanab o'tilgan. Husayniy (Husayn Boyqaro) qalamiga mansub g'azallarining bari shu bahrda yozilgan bo'lib, bu R.ning juda faol qo'llanganiga yorqin dalildir. She'riyatimizda R.ning 8 va 6 ruknli jami yigirma to'rt vaznidan keng foydalanib kelingan. R. bahrida yozilgan she'rlarning dastlabki namunalari "Qissasi Rabg'uziy"da uchraydi. Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" devonidagi 1827 ta (yarmidan ko'pi) she'r R. bahrida yozilgan. Mas.:

Dilbaro, sendin bu g'amkim, menda bordur, kimda bor?

Furqatingdin bu alamkim, menda bordur, kimda bor? –

matla'li g'azali ramali musammani mahzuf vaznidadir. Manbalarda foilotun ruknining bayt tarkibida hech qanday zihofga uchramagan holda takrorlanishidan hosil bo'ladigan vazn (ramali musammani solim: – v – – / – v – – / – v – – / – v – –) she'riyatimizda Navoiygacha ham, undan keyin ham mutlaqo qo'llanmagani, faqat Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida birgina g'azal mana shu vaznda yaratilgani aytiladi. Uning matla'si:

Ey jamolu rahmatingdin gar zalilu gar muazzaz,

Safhai kavnayn o'lub oting tarozidin mutarraz.

"Mezon ul-avzon"da esa ushbu vaznga misol sifatida quyidagi bayt keltirilgan:

Kelki, ishqingdin ko'ngulda yo'qturur sabru qarorim,

Boshima yetkur qadamkim, haddin oshti intizorim.

RAMZ (ar. ??? – imo, ishora, imlash) – simvol; ko'chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi; obrazlilik turi. R. mohiyatan

allegoriyaga yaqin, undan farqi shuki, R. kontekst doirasida ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llanadi. R.ning ma'nosi kontekst doirasida va shartdan xabardorlik bo'lganda reallashadi. Mas., Cho'lpon she'riyatidagi "yulduz", "bulut", "bahor", "qish" obrazlari R.ning yorqin misoli bo'la oladi. Jumladan, mashhur "Qalandar ishq" she'rini ishqiy mavzudagi she'r sifatida tushunaverish mumkin. Biroq undagi R.lar qatida boshqa ma'no ham mustaqil holda mavjud bo'lib, uni o'z vaqtida shoirga ruhan yaqin kishilar yaxshi tushunishgan. Sababi, ular ramzlarning ma'nosi anglashiladigan kontekstdan – shoirning hayot yo'li, orzu-intilishlari, she'r yozilgan paytdagi ruhiy holati va h. omillardan xabardor bo'lganlar. Demak, R. ma'nosi hozirda ham Cho'lponning hayot yo'li va ijodiy merosi kontekstidagina anglanishi mumkin. R.ning tabiatini R.Parfi she'ridan olingan quyidagi parcha misolida ko'rish mumkin:

Yana keldim mahzun go'shaga,

Bunda bir nay yotibdi sinib.

Qo'y, sig'inma ortiq o'shanga,

Qo'y, sig'inma unga, sevgilim...

Parchadagi "singan nay" ramzdir. Mazkur ramzni o'z ma'nosida ham (ya'ni garchi notabiiy ko'rinsa-da, o'sha go'shada chindanam singan nay yotibdi, ma'nosida), lirik qahramonning yo'qotilgan hislari, armonga aylangan orzulari ma'nosida ham tushunish mumkin. Keyingi holda "singan nay"ni R. sifatida qabul qilgan bo'lamiz. Muhim tomoni shuki, "singan nay" bilan "yo'qotilgan hislar, armonga aylangan orzular" orasida metaforadagi kabi o'xshashlik yoki metonimiyadagi kabi aloqadorlik asosidagi munosabat yo'q. Ya'ni "singan nay" faqat shu kontekst doirasidagina shartli ravishda o'sha mazmuni ifodalaydi. Xuddi shu gap Cho'lponning "Qalandar ishq" she'ridagi "yor", "muhabbat", "dengiz", "yulduz", "quyosh" R.lariga ham taalluqli. Zero, ular ham o'zlari ifodalayotgan ramziy ma'no bilan o'xshashlik yoki aloqadorlik munosabatida emas, faqat shartli ravishdagina (shartdan, kontekstdan boxabar kishilarga) ramziy ma'noni ifodalaydilar. Shartdan, kontekstdan bexabar o'quvchi uchun esa she'rning faqat bevosita mazmuni, yuzadagi mazmunigina mavjuddir.

RYeALIZM (lot. realis – mavjud, haqiqiy) – adabiyotshunoslikda R. termini tor va keng ma'nolarda qo'llanadi. Keng ma'noda R. terminining ma'nosi badiiy asar (unda tasvirlangan badiiy voqelik) bilan real voqelik munosabatidan kelib chiqadi. Ya'ni bu holda R. umumestetik tushuncha bo'lib, hayotni haqiqatga (reallikka) muvofiq tasvirlashni, hayot haqiqatini bildiradi. Har qanday badiiy asarda voqelik u yoki bu tarzda aks etishi, voqelikni hayotga monand tarzda aks ettirish esa qadimdan mavjudligi e'tiborga olinsa, bu ma'nodagi R.ning ildizlari juda qadim zamonlarga taqalishi tabiiydir. Shu bois ham adabiyotshunoslikda antik R. (yoki mifologik R.), uyg'onish davri R.i, ma'rifatchilik R.i kabi atamalar ishlatiladi, tabiiyki, bu ma'nodagi R. klassitsizm, sentimentalizm kabi yo'nalishlarga ham xosdir. Demak, bu ma'noda R. termini hayotni badiiy aks ettirish printsiplari, badiiy tafakkur tipini anglatadi.

Tor ma'noda R. hayotni haqiqatda mavjud narsa-hodisalar mohiyatiga muvofiq tarzda, voqelikda mavjud faktlarini tipiklashtirish (q.) asosida yaratilgan badiiy obrazlar orqali aks ettirishga asoslanuvchi ijodiy metod va ongli ravishda shu metodga tayangan adabiy yo'nalishni bildiradi. Ushbu metod (yo'nalish)ning maydonga chiqishi XIX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. R. metodida adabiyotning bilish funksiyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi, realist ijodkorlar adabiyotni olam va odamni (jumladan, o'zini) idrok etishning muhim va samarali vositasi deb biladilar. Shunga ko'ra, R. hayotni butun murakkabligi bilan keng ko'lamda aks ettirishga intiladi. Bilish maqsadining ustuvorligi bois R. insonni ijtimoiy muhit bilan uzviy aloqada tasvirlaydi, ijtimoiy-tarixiy sharoitning inson taqdiri va fe'l-atvoriga ta'sirini teran badiiy tadqiq etadi. Zero, realist san'atkor inson taqdiri, uning amallari, orzu-intilishlari ijtimoiy asosga ega deb biladi, bularning barini ijtimoiy-psixologik jihatdan asoslashga intiladi. Ayni chog'da, yetuk R. adabiyotida inson ijtimoiy sharoitga bog'labgina qo'yilmaydi, inson o'z iroda kuchi bilan undan yuqori ko'tarila oladigan, unga qarshi tura biladigan kuch sifatida ham ko'rsatiladi. Xuddi shu jihati bilan R. naturalizmdan farqlanadi, hayotni unga qaraganda teranroq va haqqoniyroq aks ettira oladi. Insonni murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida tasvirlarkan, R. hayotni keng ko'lamda tasvirlashga erishadi, jamiyatning joriy holati, undagi taraqqiyot yoki tanazzul tendentsiyalarini badiiy idrok etadi, u haqda o'zining badiiy hukmini ifodalab, adabiyotning kontseptual funksiyasini amalga oshiradi. Ayni chog'da, R.ni hayotdan oddiygina nusxa ko'chirish (q. naturalizm) deb tushunmaslik kerak. Zero, ijodiy metod sifatida R. ham voqelikni ijodiy



aks ettiradi, ijodiy qayta yaratadi. R. adabiyotidagi ijodiy qayta yaratish tipiklashtirish, ya'ni voqelikning muayyan davr va muhit uchun eng xarakterli jihatlarini umumlashtirish orqali amalga oshadi. Biroq bu hol ijodiylikka zid deb tushunilmasligi kerak, zero, R.dagi tipiklashtirish badiiy to'qimani aslo inkor qilmaydi, faqat uning ham voqelik mohiyatiga muvofiq bo'lishini taqozo etadi. Shu bilan birga, R. taraqqiyoti davomida, xususan, XX asr R.ida badiiy shartlilik (ramziy obrazlar, rivoyatlar, fantastika elementlari va sh.k.)ning turli ko'rinishlari ham keng qo'llanila boshladi. Mazkur holga realistik tasvir printsiplaridan chekinish deb qaramaslik kerak. Aksincha, bu R. adabiyotining hayotni teranroq idrok etish, o'z badiiy imkoniyatlarini boyitish yo'lidagi harakati, uning adabiy jarayondagi badiiy-estetik hodisalar (turli adabiy yo'nalishlar, oqimlar; yangi uslubiy oqimlar, tasvir printsiplari va b.) bilan ijodiy raqobat-muloqoti natijasidir.

XIX asr o'rtalaridan maydonga chiqqan R. metod (yo'nalish)ni sho'ro adabiyotshunosligida tanqidiy R. deb, sho'ro adabiyotining metodi esa sotsialistik R. deb yuritilgan. Har ikki terminning ilmiy muomalaga kirishi ham M. Gorkiy nomi bilan bog'liqdir. Bulardan birinchisini tanqidiy R. deb atarkan, M.Gorkiy bu davr realistik adabiyoti namunalari aksariyati mavjud burjua tuzumidagi ijtimoiy munosabatlarni teran tahlil etishi va uning insoniylikka zid mohiyatini ochib berishi hamda g'oyaviy-badiiy inkor qilishidan kelib chiqadi. Ikkinchisi, ya'ni sotsialistik R. ham xuddi shu kabi g'oyaviy-mafkuraviy asosda ta'riflangan, u voqelikni markscha-lenincha dunyoqarash asosida baholashi bilangina farqlanadi. Holbuki, birinchidan, ijodiy metod sifatida R. mohiyatan bitta hodisa bo'lib, uning doirasida turlicha dunyoqarashlar ifoda etilishi mumkin; ikkinchidan, u o'z taraqqiyoti davomida sifat jihatidan o'zgarib-takomillashib, o'zining tasvir va ifoda imkoniyatlarini muttasil boyitib borgan.

**RYeALIYa** (lot. realis – ashyoviy) – muayyan xalqning turmush tarzi, madaniyati, tarixi bilan bog'liq betakror, o'zga xalqlarda uchramaydigan narsa-hodisa, tushuncha; shunday narsa va tushunchalarni anglatuvchi so'z. Adabiy asarda muayyan davr, joy koloritini berishda, milliy turmush tarzi, milliy ruhni ifodalashda R.lar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni tarjimada adekvat ifodalash katta qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun ham tarjima amaliyotida R.lar, ko'pincha, aynan berilib, izoh bilan ta'minlanadi. Muayyan xalq turmushida ishlatiluvchi narsa-buyumlar (mas., kanoe, tamogavk, mokasin va sh.k. – hindularda; isiriq, obrez, taxmon va sh.k. – o'zbeklarda), hududiy-ma'muriy bo'linish nomlari (abbatlik, guberniya; ulus, tuman, muzofot), diniy unvon va darajalar (abbat, pop, yepiskop; shayxulislom, muftiy, qozi), mansab nomlari (graf, baron, dyak; bek, amir, tunqotor, xudaychi, hokim), shuningdek, geografik yoki madaniy-etnografik tushunchalarni anglatuvchi so'zlar ham R.lar sirasiga kiritiladi.

**RYeMARKA** (fr. remarque – izoh) – dramatik asarlarda muallif tomonidan sahna voqesining boshlanishi oldidan beriluvchi yoki uning kechishi davomida qavs ichida berib boriluvchi izohlar. R. parda yoki ko'rinish oldidan berilgan hollarda voqea kechayotgan joy, vaqt, ishtirok etuvchilar va sh.k.lar haqidagi zarur ma'lumotlardan iborat bo'ladi. Voqea davomida berilayotgan R.lar esa nutq jarayoniga (ovoz toni, ohangi, tempi, pauzalar; personajning tana holati, yuz-ko'z ifodasi, imo-ishoralari, qiliqlari) yoki sahnadagi harakatga (personajlarning sahna bo'ylab harakatlari, yangi personajning sahnaga chiqib kelishi yo ketishi va b.) oid tafsilotlarni o'z ichiga oladi. R.lar dramatik asarni sahnalashtirishda va, ayniqsa, uni o'qish jarayonida voqealarni tasavvurda jonlantirishda juda muhim. Chunki R.lar muallifning o'zi asar voqealarini qanday “ko'rgani”, personajlarning gap-so'zlarini qanday “eshitgani”ni ifoda etadi.

An'anaga ko'ra, R. termini dramatik asarlarga nisbatan qo'llanib kelingan bo'lsa, epik asarlarda dialogning (sahnaviylik xususiyatiga egalikning) keng o'rin olib borishi barobaridadada termin epik asarlarga nisbatan ham qo'llanila boshladi. Hozirda epik asarlardagi dialoglar davomida muallif tomonidan berib boriluvchi (ovoz toni, ohang, temp, pauzalar; mimika, imo-ishoralar, personajning harakati va sh.k.larga oid) izohlar ham, ko'pincha, R. deb yuritilmoqda.

**RYeMINISSYeNSIYa** (lot. reminiscencia – xotirlash, eslash) – 1) adabiy hodisalarning dialogik munosabatda bo'lishi natijasi o'laroq yuzaga keluvchi hodisa, adabiy asardagi ilgari mavjud bo'lgan asarlarni yodga soluvchi nuqtalar. Bunday R.lar anglangan yoki anglanmagan (asarda ijodkor xotirasida muhrlanib qolgan o'zga asardagi nuqtalarning g'ayriixtiyoriy tarzda aks etishi) ravishda voqe bo'ladi; ular ochiq-oshkor emas, shu bois ilg'ab olinishi ham birmuncha qiyin va shu jihati bilan o'zlashtirish va taqliddan farqlanadi. Mas., Sh.Rahmonning she'rida Torobiy tilidan aytilgan quyidagi so'zlar Cho'lpon she'rlarini yodga soladi:

Jonim-jigarimsan

sen-da odamsan,

loaqal ko'zingda bir yosh ko'rsaydim,

loaqal qovushib qolgan qo'lingda

yovlarga atalgan bir tosh ko'rsaydim.

Hozirgi kitobxon uchun parchadagi R.lar aniq ko'rinar, lekin she'r yozilgan 1983 yilda ko'pchilik uchun o'xshashlikni ilg'ab olish qiyin bo'lgani ham aniq. Yoki shoirning "Men sevgan daryolar shundoq qolurmu, meni o'ylatgan yo'l qolurmi shundoq? Men suyangan tog'lar shundoq qolurmi, shundoq qolarmikan yuraklarda dog'?" satrlari jadid she'riyatidagi ohanglarni yodga soladi. Shunga o'xshash, H.Olimjonning "Muqanna"sida Muqanna tilidan aytilgan quyidagi gaplar ham Cho'lponning "Buzilgan o'lka"ga she'ridagi ohanglarni eslatadi:

Nima uchun yurt chiqmaydi olovdan?

Nima uchun el qutulmas talovdan?

Nima uchun elni bosgan hasharot?

Din, hiroj deb o'z-o'ziga qo'ydi ot?

Nega qildi elni buncha gadoy, xor?

Nega bo'ldi hamma senga otboqar?

Qiz onadan, xotin erdan ajraldi,

Kosib uydan, dehqon yerdan ajraldi?

Nima uchun?

Keyingi misollardagi R.lar ritmik xotira tufayli vujudga kelgan bo'lib, R.ning bu turi deyarli barcha shoirlar ijodida ko'plab kuzatiladi; 2) adabiy asardagi o'zidan ilgari adabiy hodisalarni eslatuvchi, ongli ravishda yoki anglanmagan tarzda yuzaga kelgan nuqtalarning bari, adabiyotdagi adabiyot obrazi. Mazkur ma'noda terminning qamrov ko'lami kengayadi va u, tabiiyki, birinchi ma'noni ham o'z ichiga oladi. Bunda asardagi (qo'shtirnoqda yoki qo'shtirnoqsiz berilgan) tsitatalar, she'riy misralar (jumladan, nazira, taxmis), obrazlar (mas., talmeh san'ati), g'oyaviy-tematik va emotsional motivlar (mas., A.S.Pushkinning "Kuz" – A.Oripovning "Kuz xayollari" she'rlari) bilan birga, boshqa ijodkorlarning asarlarini eslatish (mas., A.Qodiriy romanlarida Fuzuliy va Sa'diy; Cho'lpon romanida M.Artsibashev, L.Andreev asarlari tilga olinadi), ular haqida bildirilgan mulohazalar ham R.lar hissoblanadi. Shuningdek, bu ma'noda adabiy asarda boshqa san'at turlariga mansub asarlarning eslatilishi, muhokama etilishi yoki sharhlanishi (mas., A.Oripovning "Munojotni tinglab", U.Azimning "Teatr" turkumi, X.Davronning "Gulliver liliputlar diyorida" she'rlari) ham R.larga kiritiladi.

RYeTARDASIYa (lot. retardation – sekinlashtirish, tutib turish) – epik asarlarga xos syujet-kompozitsion usul, voqealar haqida hikoya qilishni, syujet rivojini sekinlatish. R. asarga syujetdan tashqari elementlar ( lirik chekinishlar, mufassal portret, peyzaj tasviri, personaj xarakteristikasini berish, personajning o'tmishi haqida hikoya qilish, kiritma hikoyalar, rivoyat va sh.k.lar)ni kiritish orqali amalga oshadi. Mas., "Mehrobdan chayon"ning boshlanishida shu usulda har bir personaj haqida tafsilotlar beriladi, natijada Solih mahdum asarning boshida buyurgan manti 17-bobga borib yeyiladi, ya'ni asosiy voqeaning hikoya qilinishi sekinlashtiriladi.

**RYePLIKA** (fr. *replique* – javob, e'tiroz) – dialogning nutq sub'ekti almashishi bilan chegaralanuvchi qismi, bitta nutq sub'ekti tomonidan aytilgan nutq bo'lagi. Hajm jihatidan R. chegaralangan emas: u birgina tovush, so'z, so'z birikmasi, bitta gap yoki bir-biriga bog'liq bir necha gapdan iborat bo'lishi mumkin. Shuningdek, dialog ishtirokchilaridan birining boshqasiga javoban jim qolishi (bu yozuvda ko'p nuqta bilan ifodalanadi) ham R.dir, chunki u shaklan nolga teng bo'lsa-da, hamisha mazmunga ega bo'ladi.

**RYeFRYeN** (fr. *refrain* – naqorat) – 1) naqorat, qo'shiqning har bir bandidan so'ng aynan qaytariladigan band, yarim band yoki misra. R. yozma adabiyotga folklordan o'tgan bo'lib, u xalq qo'shiqlarida keng qo'llangan; 2) she'rdagi har bir band oxirida takrorlanib keluvchi misra. Bu ma'noda R. mumtoz she'riyatimizdagi tarje' san'atiga to'g'ri keladi. G'arb she'riyatida R. asosiga qurilgan rondo, rondel, triolet, ballada kabi, o'zbek mumtoz she'riyatida esa tarje'band kabi qat'iy she'r shakllari mavjud.

**RIVOYa** (ar. ????? – hikoya qilish) – voqelikni ob'ektiv-voqeaband tarzda aks ettiruvchi epik asarlarning o'zagi, epik asar qurilishining asosiy shakli, undagi muallif yoki personaj-hikoyachi nutqi, ya'ni asar matnining personajlar nutqidan tashqari qismi. R.ning asosi zamon va makonda kechuvchi voqealar haqidagi hikoya bo'lib, o'sha voqealar kechayotgan zamon va makon, ularning ishtirokchilari bo'lgan personajlarga oid turli tafsilotlar (peyzaj, narsa-buyumlar, portret, muallif xarakteristikasi), muallifning falsafiy, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy va sh.k. mazmundagi mushohadalari, muallif tilidan berilgan personaj o'y-fikrlari (o'ziniki bo'lmagan muallif nutqi) ham bevosita uning tarkibiy qismidir. Epik asardagi R. muallif, roviy yoki personaj hikoyachi tilidan, ya'ni turli mavqe, “nuqtai nazar”dan turib olib borilishi mumkin. Shunga ko'ra, R. kompozitsiyasi “nuqtai nazar”larning muayyan g'oyaviy-badiiy maqsadlar bilan o'zaro almashib turishi, parallel berilishi, birlashtirilishi, zidlanishi kabilar bilan belgilanadi. Epik asarda R.ning ob'ektiv va sub'ektiv ko'rinishlari kuzatiladi. Birinchi holda R. “xolis kuzatuvchi” mavqedan turib olib boriladi, ya'ni roviy voqealarga aralashmaydi, tasvir predmetiga munosabat ochiq ifodalanmaydi; ikkinchisida esa, aksincha, voqelik “ichdan o'tkazib” beriladi, tasvir predmetiga munosabat ham oshkor ifodalanadi (qiyoslang: A.Qahhor. “O'g'ri” – G'.G'ulom. “Mening o'g'rigina bolam”). Yana bir farq R. sub'ektivning tasvirlanayotgan voqeadan xabardorlik darajasida ham kuzatiladi. An'anaviy eposda R. sub'ektiv voqeaning barcha ikir-chikirlaridan voqif shaxs sifatida namoyon bo'ladi (mas., ertaklarda), u asarning har nuqtasida hoziru nozir, voqelik, asosan, uning nigohi orqali beriladi. Zamonaviy eposda keng ommalashgan ob'ektiv R. go'yo ayni damda o'z holicha kechayotgan voqea-hodisalarni tasvirlayotganlik illyuziyasini hosil qila oladi (bu jihat kichik epik shakllarda to'la, yirik epik shakllarda esa ko'proq epizodik tarzda namoyon bo'ladi), bu esa o'quvchida R. sub'ektiv ham voqealarni shu vaqtda kuzatayotgandek (ya'ni voqealarning yuz berish va hikoya qilinish vaqti orasida tafovut yo'qdek) taassurot qoldiradi. Shuningdek, hozirgi eposda yetakchilik qilayotgan bu nav R. asar davomida nuqtai nazarning o'zgarishi, voqelikning goh muallif, goh hikoyachi-personaj, goh esa boshqa bir personaj nigohi bilan ko'rilishi va baholanishiga imkon beradi. Bu esa tasvirning dinamikligini ta'minlaydi, unga jonlilik va hayotiylik baxsh etib, estetik ta'sir kuchining oshishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tasvir predmetiga baho berayotgan sub'ektivlarning ko'payishi R.ning polifoniklik kasb etishi, ya'ni muallif, hikoyachi-personaj va qahramon g'oyaviy mavqelarining turlicha bo'lishiga imkon yaratadi (q. polifoniya). Zamonaviy epik asarlarda R.ning turli ko'rinishlari mavjud ekanligi, ular konkret asarda sintezlashgan holda voqe bo'layotganini ta'kidlash lozim.

**RIDF** (ar. ????) – izma-iz keltirish) – qarang: muqayyad qofiya

**RITM** (yun. *rhythmos* – teng o'lchovlilik) – keng ma'noda R. muayyan bo'laklarning ma'lum vaqt oralig'ida tartibli takrorlanib turishidir. Bu ma'nodagi R. borliqdagi juda ko'p narsa-hodisalarda bor. Mas., tarnovdan tomchilab turgan tomchilar chiqarayotgan tovushda, ariq suvining maromli shildirab oqishida, yil fasllarining, kun bilan tunning almashinuvida; insonning yurak urishi, nafas olishi, ma'lum bir harakatni bajarishi – bularning barida R. kuzatiladi. R. tabiiy ravishda inson nutqiga ham xos. Har bir individ nutqining o'ziga xos R.i bo'lib, bu ritm uning fiziologik imkoniyatlari (mas., har bir odamning nafas olishi o'ziga xos, nutq ritmi esa ko'p jihatdan shunga bog'liq) bilan belgilanadi. Kundalik muloqot nutqidagi ritmga turli omillar (mas., kasallik, ruhiy holat, biror narsadan ta'sirlanish, harakat maromi va b.) ta'sir qilishi hamda uni o'zgartirishi mumkin. Og'zaki nutqqa xos R. tabiiy ravishda yozma nutqqa ham ko'chadi, zero, yozuv og'zaki nutqning harflar vositasida moddiylashuvi: odam yozganida “miya”da gapiradi, o'qiganda “tasavvurda” eshitadi. Demak, nutq hodisasi bo'lmish har qanday adabiy asarda R. bo'lishi

qonuniy va tabiiy hol ekan. Ritmiklik adabiy asarning turli sathlari (nutq, rivoya, kompozitsiya)da namoyon bo'lsa-da, nutqiy qurilishida, ayniqsa, aniq ko'zga tashlanadi, shuning uchun R. haqida ko'proq badiiy nutq bilan bog'liq holda gapiriladi. Badiiy nutqning nasriy va she'riy shakllari R. jihatidan farqlanadi. Nasriy nutq R.i umuman inson nutqining ritmikligidan kelib chiqadi, undagi o'zgarishu tovlanishlar esa matnning konkret bo'lagidagi tasvir predmetining mazmun-mohiyati, unga muallif munosabati bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Nasrdagidan farqli o'laroq, she'riy nutq R.i maxsus hosil qilingan, muayyan o'lchov asosida tartibga solingan. She'riy R.ning o'lchov birliklari o'zaro qism-butun aloqasidagi nutqiy bo'laklar (bo'g'in, turoq, misra, band) bo'lib, ular ritmik bo'laklar yoki ritmik birliklar deb yuritiladi. R.ning his etilishi uchun she'rni o'qiganda (talaffuzda) ritmik birliklar bir-biridan ajralib turganini his qilish kerak, bunda ritmik vositalar muhim ahamiyatga ega. Ritmik vositalar she'r R.ining ta'kidlanishi, kuchaytirilishiga xizmat qiladi, ularning asosiylari sifatida ritmik pauza, qofiya va qofiyalanish sistemasini ko'rsatish mumkin. Har bir ritmik bo'lak boshqalaridan ritmik pauza bilan ajratiladi, shu ajratilish hisobiga ular talaffuzda o'lchov birligi sifatida namoyon bo'ladi. Deylik, bo'g'in bir tovush zarbi bilan aytiladi va juda ham qisqa, sezilar-sezilmas pauza (aslida bu pauza emas, ikki tovush zarbining bir-biridan farqlanib turishi hisobiga "pauza"dek taassurot qoldiradi, xolos) bilan ajraladi. Turoqlardan keyingi pauza biroz sezilarliroq bo'lsa, misralar nihoyasidagi pauza yaqqol seziladi, band yakunidagi katta pauza unga ritmik-intonatsion tugallik baxsh etadi. Ritmik pauza bilan mantiqiy pauza doim ham bir-biriga mos kelavermasligi mumkin, ya'ni she'riy nutqda vergul qo'yilmagan o'rinlarda ham to'xtalib o'tish va, aksincha, vergulli o'rinlarda to'xtalishni sezilmaslik darajasiga keltirish zarurati yuzaga kelishi odatiy holdir. Misra yakunida keluvchi qofiyalar ritmik jihatdan misrani ta'kidlab ko'rsatishga, she'rning ohangdorligi, musiqiyiligi, ta'sirdorligini oshirishga xizmat qiladi. She'rni o'qish davomida qofiya misraning tugaganidan darak beradi, pauza bajarayotgan ajratish funksiyasini ta'kidlaydi. Shunga o'xshash, qofiyalanish tartibi bandning shakllanib bo'lgani, tugaganini ta'kidlaydi. Mas., to'rt misrali a-b-a-b tarzida qofiyalangan she'r o'qilayotgan bo'lsa, o'quvchi keyingi bandlarda ham shu xil tartibni kutadi, tartib nihoyalanganida, banddagi tugallanganlikni his qiladi. Ya'ni qofiyalanish tartibi, bir tarafdin, she'r ritmining his etilishiga, ikkinchi tarafdin, mazmun va ritmning uyg'unlashuviga, ularning o'quvchi tasavvurida yaxlit birlik hosil qilishiga yordam beradi. Xullas, R. she'riy nutqning emotsionalligi, musiqiyiligining asosi, poydevoridir.

**RITORIKA** (yun. rhetorike – notiqlik) – 1) notiqlik san'ati haqidagi fan. Antik Yunonistonda mil. av. V asrlarda paydo bo'lgan. Mil. av. II – I asrlarga kelib tizim holini olgan, antik Rimda ham izchil rivojlangan. R.ning nazariy asoslari faylasuflar, amaliyotchi notiqalar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bunda Arastu, Sitseron, Kvintilianlarning xizmatlari, ayniqsa, katta. Antik Yunoniston va Rim ijtimoiy tuzumida notiqlikning katta o'rin tutgani R.ning gurrak rivojlanishiga asos bo'lgan. Shunga ko'ra, R.ning predmeti nutq bo'lib, u bilan bog'liq barcha masalalarni (material tanlash, joylashtirish, jumla tuzish, fikrni dalillash va inkor qilish, so'z tanlash, uslub, uslubiy figuralardan foydalanish, nutqni o'qish va h.) o'rgangan. Shu bilan birga, qadimdayoq R.ning o'rganish ob'ektiga proza ham kirgan bo'lib, bu jihatdan u poetikaga qarshi qo'yilgan. Ya'ni poetika badiiy to'qima bilan ish ko'ruvchi poeziya – badiiy adabiyotni, R. esa real material bilan ish ko'ruvchi proza – nutqlar, falsafiy va tarixiy asarlarni o'rgangan; 2) hozirda R. adabiyotshunoslikning badiiy matnni, uning tashkillanish qonuniyatlarini o'rganuvchi sohasi sifatida ham ta'riflanadi va shu ma'noni ta'kidlash uchun ba'zan neoritorika termini bilan ham yuritiladi. Bu qarashga ko'ra, R. badiiy matnning tashkillanishini, poetika esa badiiy voqelikning tashkillanishini o'rganadi, ya'ni ular badiiy asarning turli sathlarida ish yuritadi.

**RITORIKA MUROJAAT** – badiiy undalma. Jonli so'zlashuvda undalma nutq qaratilgan shaxsning muayyan javob harakatini (diqqatini jalb etish, gapiruvchiga qarash, yaqinlashish va b.) talab qiladi. Ya'ni xuddi ritorik savol javob talab qilmagani kabi, R.m. ham mos reaksiyani talab qilmaydi, nutqni bezash, muayyan kayfiyat yo hissiy munosabatni ifodalash vositasi bo'libgina xizmat qiladi. R.m. she'riy nutqda, ayniqsa, keng qo'llanilib, ko'proq narsa-hodisa, joy kabilarga qaratiladi: "Qayda o'sding, qayda yashnading, Yaproq, yaproq, aytib ber menga..." (R.Parfi), "Yurtim, senga she'r bitdim bugun..."(A.Oripov), "Gul bo'ylarini bog'dan keltirgan, ey shaboda..."(E.Vohidov), "Ay, qaldirg'och, o'qi "Val-layli..."(Z.Mirzo) . Shuningdek, o'zi hozir bo'lmagan odamga shu yerda kabi murojaat qilish ham R.m.ning bir ko'rinishidir: "Eshitdim, onajon, xafa emishsan, Kechir, oylab senga yozolmadim xat..." (R.Parfi). Bulardan R.m. apostrofa (q.) termini bilan sinonimik munosabatda ekani ayon bo'ladi.

**RITORIKA SO'ROQ** – javob berilishini talab qilmaydigan savol, fikrning so'roq shaklida tasdiqlanishi. Xuddi ritorik murojaat kabi, R.s. ham nutq bezagi, emotsional munosabatni kuchaytirish, fikrni ta'kidlab ifodalash singari maqsadlarga xizmat qiladi. Mas., A.Oripovning "Axir u emasmi, do'stni g'animu,

G'animni do'st qilib qo'yguvchi odam?" tarzidagi R.s.i "ha, aynan o'sha – uchinchi odam", degan fikrni ta'kidlab ifodalaydi. R.Parfining "Yaproq, yaproq, so'zlab bersang-chi, O'z sevgingdan bo'zlab bersang-chi, Nechun tushding, nechun oyoqqa?.." tarzidagi R.s. esa lirik qahramonni o'ylatayotgan muammo, qiynayotgan dardga ishora qiladi. Yoki "Seni, ohang, ey g'amli ohang, Tanimasdim, bilmasdim oldin. Tomirimda xun talashur jang, Shuncha g'amni qaerdan olding?" misralarini olsak, R.s. dastlabki uch misradagi o'y-hislarni xulosalab, bir zarb kabi kuchaytirib ifodalayotgani ko'rinadi. Keltirilgan misollardan R.s. lirik asarda turlicha badiiy-estetik maqsadlarda ishlatilishi, uning polifunksional tabiati ma'lum bo'ladi. Mumtoz she'riyatimizdagi tajohuli orif san'ati R.s.ning ayrim ko'rinishlariga o'xshash, biroq yuqoridagilardan kelib chiqilsa, R.s. mazkur san'atga nisbatan ancha keng hodisa ekani ayon bo'ladi.

**RITUAL-MIFOLOGIK TANQID** – G'arb madaniyatshunosligi va adabiyotshunosligidagi metod, XX asrning 30-yillarida, ko'hna madaniyatlarni o'rganishdagi ritual-mifologik yo'nalish (J.Freyzer) va K.Yung analitik psixologiyasining sintezi sifatida maydonga chiqqan. Agar mifologik maktab vakillari adabiyotning paydo bo'lishini miflar bilan bog'lagan bo'lsalar, R.-m.t. miflarning o'zi rituallardan kelib chiqqan, deb hisoblaydi. Ularga ko'ra, nafaqat antik teatr, balki qahramonlik eposi ham, qadim Sharqning muqaddas manbalariyu antik falsafa, o'rta asrlar eposiyu roman – xullas, adabiyot to'lasicha rituallardan kelib chiqqan. Muhim jihati shuki, R.-m.t. ritual-mifologik modellarni ijodiy tasavvurga qanot beruvchi manba emas, balki uning strukturasi belgilovchi bosh omil deb biladi. Shuning uchun ham K.Yungning arxetiplar (q.) haqidagi ta'limoti ularning qarashlarida muhim o'rin tutadi. Albatta, eng qadimgi davrlarda yaratilgan ko'plab asarlarga, arxaik janrlarga bunday yondashuv asosli. Lekin R.-m.t. bunday yondashuvni adabiyot tarixining eng qadimgi davrlaridan to hozirgi kuniga qadar tatbiq etadi, zamonaviy adabiyot namunalari ham ritual-mifologik ildizlarni ochish va ularni shu asosda tushuntirishga intiladi. To'g'ri, XX asr jahon adabiyotida miflarga murojaat etishning kuchayishi bunga ma'lum darajada asos ham berar, lekin bu holatni insoniyat xotirasida "kollektiv ongsizlik" sifatida yashayotgan arxetiplarning o'zini namoyon etishi sifatidagina tushunish, arxetipning badiiy tafakkurdagi rolini mutlaqlashtirish to'g'ri bo'lmaydi. Zero, xuddi shu hol R.-m.t.ni badiiy ijodda kollektiv rolini individ rolidan ustuvor deb bilishga, undagi biografik faktorni butkul inkor qilishga olib keladi. Shu kabi biryozlamaliklarga qaramay, R.-m.t.ga xos yondashuv arxaik janrlarni, haqiqatan ham ritual-mifologik asosi kuchli bo'lgan o'rta asrlar va qisman Uyg'onish davri (umumlashtirib aytganda, ijodda traditsionalizm yetakchilik qilgan davrlar) adabiyotini o'rganishda samarali natijalar berganini ham qayd etish lozim. Jumladan, unga xos yondashuv rus olimi M.Baxtinning "Fransua Rable ijodi va o'rta asrlar hamda renessans davri xalq madaniyati" asarida qo'llangan, bu esa muhim nazariy umumlashmalar chiqarishga asos bo'lgan.

**RISARLIK ROMANI** (fr. roman chevaleresque – kavalerlik romani, nem. Ritterroman – ritsarlik romani) – o'rta asrlar kurtuaz adabiyotining asosiy janrlaridan biri, dastlab XII asr o'rtalarida, ritsarlik harakati gullab-yashnagan Frantsiyada paydo bo'lib, keyin butun Yevropaga tarqalgan. Janr genezisi qahramonlik eposiga borib taqalsa-da, R.r. qator xususiyatlari bilan majusiylilik davri miflari, qadimgi keltlar va germanlarning rivoyatlari, xalq ertaklari, shuningdek, Sharq adabiyoti namunalari ham yaqin turadi. R.r. markazidagi qahramon – ritsar o'zining beqiyos jasorati, olijanoblighi bilan ajralib turadi. Ayni shu narsa, qahramon shaxsining oldingi planga chiqarilishi, uni alohida shaxs sifatida (ham ruhiyatidagi jarayonlarni, ham o'zi va suyakli yori shon-sharafi yo'lidagi kurashi, bu yo'ldagi jonbozlik va beqiyos qahramonliklarini) tasvirlashga urg'u berilgani R.r.ni roman janri taraqqiyotidagi muhim bosqichga aylantiradi. R.r.lari avvaliga she'riy shaklda yaratilgan bo'lsa, XIII asr o'rtalaridan uning nasriy bayonlari ham paydo bo'la boshlagan. Ko'plab R.r.lari tematik jihatdan turkumlarga birlashgan bo'lib, o'z davrida ulardan Tristan va Izolda muhabbati, "yumaloq stol" ritsarlari, qirol Artur, Lanselot haqidagi turkumlar mashhur bo'lgan. Garchi R.r. Yevropa adabiyoti hodisasi bo'lsa-da, Uzoq, O'rta va Yaqin Sharq adabiyotlarida ham uning o'xshashlari (analoglari) mavjud bo'lganki, bu milliy adabiyotlar taraqqiyotidagi stadial umumiylikning yorqin dalilidir. Jumladan, o'zbek xalq og'zaki ijodi (mas., Go'ro'g'li turkumi) yoki yozma adabiyotimizdagi qator dostonlar (mas., "Farhod va Shirin") mohiyat e'tibori bilan R.r.lariga yaqin turadi.

**ROVIY** (ar. ??? – hikoyachi, qissa aytuvchi, xabar, ma'lumot beruvchi) – epik asarlardagi rivoya sub'ekti, voqealarni hikoya qilayotgan, ular kechayotgan makon va zamon, ularda ishtirok etayotgan personajlarga oid tafsilotlarni yetkazib, tasvir predmetiga u yoki bu tarzda munosabat bildirayotgan shaxs. Epik asarda rivoya, ko'proq, muallif (konkretlashtirilmagan "uchinchi shaxs" ham aksar muallif sifatida tushuniladi), ba'zan esa personaj (mas., G'.G'ulom. "Shum bola") tilidan olib boriladi. Shuningdek, ba'zan asarda bir necha R.ning ishtirok etishi ham kuzatiladi (mas., O'.Hoshimov. "Ikki eshik orasi"; M.Muhammad Do'st. "Lolazor"). Shunga qaramay, R.larning ko'payishi rivoyaning butunligiga putur yetkazmaydi, chunki

bu holda ham matndan muallif (yoki asosiy R. vazifasidagi personaj)ning tinglovchi maqomida turgani anglashilaveradi.

ROMAN (fr. roman – “lotin tilida emas, roman tillaridan birida yozilgan” ma’nosida) – zamonaviy adabiyotda epik turning yirik hajmli janri. R.ga ta’rif berilganda, odatda, uning hajman kattaligi, hayotni keng ko’lamda tasvirlashi, qahramon hayotidan katta davrni olib, turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog’lab talqin qilishi, ko’plab va turfa kishilar taqdirleri orqali jamiyatning joriy holatini aks ettira olishi; murakkab ko’p chiziqli syujetga ega bo’lishi kabi janr xususiyatlari qayd etiladi. Darhaqiqat, bu xususiyatlar aksariyat R.larga xos, lekin janr xususiyatlarini shularning o’zi bilangina belgilash kamlik qiladi: amalda hajman qissadan farq qilmaydigan yoki qisqagina davr mobaynida kechgan voqealar tasviri bilan cheklangan R.lar ham, markazida birgina shaxs taqdiri (boshqa personajlar uning xarakterini ochishga xizmat qiladi) turgan yoki birgina syujet chizig’iga ega R.lar ham uchraydi. Shuning uchun mutaxassislar R.ning janr sifatida belgilovchi muhim xususiyatlari deb yana romaniy problema, romaniy qahramon va romaniy tafakkurni ko’rsatishadi. Tabiiyki, bu uchala tushuncha bir-biriga uzviy bog’liq, biri ikkinchisini taqozo etadi. Romaniy problemaning mohiyati shundaki, u inson taqdiri, uning jamiyat (kengroq qaralsa – olam) bilan o’zaro munosabati badiiy tadqiqi orqali olamu odam mohiyatini anglashga intiladi. G.Lukach fikriga ko’ra, dunyoning yaxlitligiyu butunligini, mavjudlikning tub mohiyatini anglash R.ning bosh muammosi bo’lsa, qahramonning dunyo bilan ziddiyati o’sha muammoni hal qilish vositasidir. M.M.Baxtin esa qahramon taqdiri va egallagan mavqeining uning o’ziga nomuvofiqligi R. janrining markaziy mavzu-muammolaridan biri, deb hisoblaydi. Demak, R.da qo’yilgan problemani badiiy idrok etish uchun qahramon ham shunga mos bo’lishi talab qilinadiki, buning uchun romaniy qahramon jamiyatda yashagani holda, o’zining individlignini teran idrok etadigan, muhit bilan ziddiyatga kirishgan shaxs bo’lishi lozim. Zero, R.ning klassik tushunchadagi – “burjua eposi” (Gegel), “yangi davr eposi” (Belinskiy) sifatidagi ko’rinishi shaxsning jamiyatdagi maqomi o’zgargan, u o’zini o’z holicha butun bir olam sifatida idrok eta boshlagan bir sharoitda shakllandi. O’zini alohida olam sifatida idrok etgan shaxsning jamiyat bilan, olam bilan ziddiyatlarini badiiy talqin qilishu yo’qotilgan epik butunlikni tiklash klassik R.ning bosh muammosi bo’lib qoldiki, shu ma’noda u “yangi davr eposi” sanaladi. Shu bois ham R. markazida shaxsning hayoti, uning ziddiyatlariyu to’qnashuvleri turadi. Nemis faylasufi Shelling R. voqeani eposdan, taqdirni dramadan oladi, deganida ayni shu narsani nazarda tutgan. Epik butunlikni tiklashga intilayotgan shaxs deganimiz, avvalo, ijodkorning o’zi, R. markazida turgan qahramonning tashqi olam bilan to’qnashuvleri (keng ma’noda shaxs dramasi) o’sha butunlikni tiklash vositasi ekanligi e’tiborga olinsa, R.ni o’z hayot yo’lida chigal muammolarga duch kelgan ijodkorning “ziddiyatli holatni adabiy yo’l bilan yechishga urinishi”(A.Prieto), deyish mumkin bo’ladi. Qo’yilgan problemani shunga mos qahramon vositasida idrok etish jarayonida jamiyatning joriy holati, olamu odam haqidagi yaxlit bir kontseptsiya, R. badiiy falsafasi shakllanadiki, bu romaniy tafakkur mahsulidir. Albatta, R. janrining bir necha asrlik taraqqiyoti davomida uning turli xil va ko’rinishlari yaratilgani, janrning hozirda ham takomillashib borayotgani e’tiborga olinsa, yuqorida sanalgan xususiyatlarni barcha R.lardan izlash, ularni qat’iy qoida deb tushunish to’g’ri bo’lmaydi. Bu o’rinda har bir davrning badiiy-estetik talab-ehtiyojlari R.ga ma’lum o’zgarishlar kiritishi, o’tgan davr mobaynida R.ning turfa (tarbiyaviy, maishiy, ishqiy, sarguzasht-detektiv, ijtimoiy-psixologik, tarixiy-biografik, satirik va h.) xillari yaratilgani, nihoyat, R. hozirda ham takomillashib borayotgan janr ekanligini hamisha yodda tutish lozim.

ROMANTIZM (fr. romantique, ingl. romantic) – Yevropa adabiyotida XVIII asr oxiri – XIX asrning birinchi yarmida yetakchilik qilgan adabiy yo’nalish. Etimologik jihatdan termin ispancha “romance” so’zi bilan bog’liq bo’lib, XVIII asrda kitoblardagina uchratish mumkin bo’lgan g’ayritabiiy, ajabtovur, fantastik narsalarning bari shu so’z bilan yuritilgan. Darhaqiqat, R. adabiyoti yaratgan badiiy olamni shunday so’z bilan nomlashga yetarli asos bor edi. Zero, R. mavjud voqelikdan qoniqmaslik tufayli, ma’rifatchilikka xos olam (odam va jamiyat)ni aql bilan raso holga keltirish g’oyasiga ishonchning barbod bo’lishi natijasi o’laroq yuzaga kelgan bo’lib, “reallikdan qochish”ga, real olamdan ko’ra mukammalroq olam yaratishga intiladi. R. klassitsizmga xos “tabiatga taqlid” va undan kelib chiquvchi haqiqatga monandlik talablarini inkor qiladi, uning uchun badiiy reallik mavjud reallikdan haqqoniyroqdir. Mavjud voqelikdagi tussizlikdan bezgan R. vakillari, ko’pincha, ko’hna o’tmishdan ma’ni izlashadi (mas., V.Skott, V.Gyugo, A.Dyuma romanlari), ular tasvirlagan voqea-hodisalar aksar uzoq, ekzotikaga boy yurtlarda kechadi va sh.k.

R. adabiyotining umumlashtirish printsipi – ideallashtirish, u voqelikka boqiy va mutlaq ideallar asosida yondashadi, shuning uchun ham R.da voqelik bilan ideal orasidagi nomutanosiblik yaqqol ko’rinadi,

ularning ziddiyati o'ta keskin namoyon bo'ladi. Natijada R. adabiyotida olam ikkiga ajraladi, ikkisi – ideal olam bilan mavjud olam alohida yashaydi. R. adabiyotining bosh ziddiyati – ezgulik va yovuzlik kurashi, unga ko'ra, yovuzlik ham, unga qarshi kurash ham birdek boqiydir. Ya'ni bu kurash yovuzlikni ildizi bilan yo'qotishu olamni tubdan o'zgartirishga ojiz, qo'lidan keladigani – yovuzlikning olamda mutlaq hokim bo'lishiga yo'l bermaslik, xolos. Yovuzlikka qarshi kurashayotgan betakror shaxs – R. adabiyotining bosh qahramoni. R. adabiyotga o'zining yangicha shaxs kontsepsiyasi bilan kirib keldi. Uning uchun shaxs – alohida olam. Shaxsning sirli va adadsiz ichki olami R. adabiyotining markaziy muammosiga aylanadi. R. shaxsdagi betakror individual xususiyatlarga urg'u beradi, asosiy e'tiborni uning ichki olamidagi ziddiyatlar, qalbiy ongidagi izohlash mushkul harakatlar, g'ayrushuriy holatlarga qaratadi. Mavjud voqelikdagi maishat quliga aylanib borayotgan odamlarga zid o'laroq, R. adabiyoti muhabbatiyu nafrati, mehriyu qahri cheksiz, yuksak tuyg'ularga, izzatli o'yovlari o'zini beshafqat taftish qilishga qobil qahramonni yaratadi. Bu qahramon olam sir-sinoatini anglashga ojizligidan izzat chekadi, mavjud voqelik sog'lom aqlga nomuvofiq ekani, o'zining shaxsiy erkiga daxl qilayotganidan izzat tushadi. R. adabiyotining qahramoni shaxsiy erkini, insonlik sha'nini yuksak qadrlaydi, ularga qarshi har qanday harakatga butun vujudi bilan qarshi turadi.

Shaxsga bu xil qarash R.ning ijodkor shaxsga munosabatida ham o'z aksini topadi. Ijodkorni muayyan qoidalar bilan cheklagan klassitsizmdan farqli o'laroq, R. tom ma'nodagi ijodiy erkinlik tarafdori, u har qanday cheklovlarni inkor qiladi. Shuning uchun R. nazariyotchilari adabiy tur va janrlar orasiga qat'iy chegara qo'yamaydilar, adabiyotning boshqa san'at turlari bilan sintezlashuvi yoki konkret badiiy asarda turli estetik belgilar (tragizm va komizm, tuban va yuksak va b.)ning qorishiq holda namoyon bo'lishini tabiiy hol deb biladilar. Ular badiiy asarni tirik organizmga qiyos qiladilar, badiiy shakl mazmundan tabiiy ravishda o'sib chiqadi va u bilan uzviy bog'liq holda yashaydi deb tushunadilar. Ya'ni bunda ham normativ xarakterdagi poetikaga oid qo'llanmalarda qat'iy belgilangan me'yorlarni inkor qilish, ijodkorning yaratuvchilik huquqini e'tirof etish kuzatiladi. R. adabiyotni tarixiy roman, fantastik qissa, liro-epik poema kabi janrlar bilan boyitdi; ifodada metaforiklik, yuksak darajadagi assotsiativlik va shu asosda ko'p ma'nolilikka intilgani sabab badiiy tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytira bildi. R. badiiy tafakkur rivojida sezilarli iz qoldirdi, uning an'analari simvolizm, ekspressionizm, syurrealizm singari oqimlar tomonidan ijodiy o'zlashtirildi, romantik pafos adabiyot va san'atga xos estetik belgilardan biri bo'lib qoldi.

RUBOIY (ar. ????? – to'rtlik) – Sharq mumtoz she'riyatida keng tarqalgan lirik janr, hazaj bahrining axrab va axram shajaralarida yozilib, ko'proq a-a-b-a tarzida qofiyalanuvchi to'rt misrali mustaqil lirik asar. Arabcha nomlanishiga qaramay, R. dastlab forsiy adabiyotda paydo bo'lib, keyin arab va turkiy adabiyotlarga o'tgan. R.ning kelib chiqishi masalasida ixtiloflar mavjud: ayrim mutaxassislar janr genezisini turkiy xalqlar og'zaki ijodidagi to'rtliklar bilan bog'lasa, boshqalari uni fors she'riyatiga xos va janr asoschisi Abu Abdullo Rudakiy deb hisoblashadi. O'zbek xalq og'zaki ijodida, shuningdek, yozma adabiyotimizning Navoiygacha bo'lgan davrida dubaytiy (dubaytiy – ikki bayt yoki to'rt misradan iborat she'r, ya'ni to'rtlik) vazniga (hazaji musaddasi mahzuf yoki maqsur) tushadigan to'rtliklar ko'plab yaratilgan bo'lsa-da, R. vazniga tushadigan to'rtliklar uchramaydi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asaridagi to'rtliklar mutaqorib, Nasimiy va Lutfiy to'rtliklari esa ramal bahrida yaratilgan. Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog'a” asarida R. sifatida keltirilgan fors tilidagi misollar hazaj bahrida, turkiydagilari esa ramali musaddasi maqsur (yoki mahzuf) vaznidadir. Bundan o'sha davr (XV asr boshlari) o'zbek adabiyotida R. janri vazn jihatdan hali qat'iy tartibga solinmagani ko'rinadi. Navoiydan boshlab o'zbek adabiyotida ham R.ning hazaj bahri tarmoqlarida yozilishi qat'iy qoida tusini oldiki, shu bois Navoiyni haqli ravishda o'zbek adabiyotida R. janri asoschisi deyish mumkin. Darhaqiqat, barcha manbalarda R.ni janr sifatida belgilovchi muhim xususiyatlardan biri sifatida uning vazni, ya'ni hazaj bahrining axrab va axrab shajaralarida yozilishi e'tirof etiladi. Ya'ni bundan boshqa vaznga tushuvchi har qanday to'rt misrali she'r R. emas, balki qit'a, dubaytiy yoki to'rtlikdir: “Biror to'rtlikni R. deb atash uchun unda tugal mazmun, R. shakli bo'lishidan tashqari, R. vazni ham bo'lishi kerak. To'rtlik qanchalik chuqur ma'no va go'zal shaklga ega bo'lmasin, agar u R.ning maxsus vazniga tushmasa, R. bo'la olmaydi” (Yo.Ishoqov). Mumtoz poetikaga oid asarlarda R.ning nega aynan hazaj bahrida yozilishi va bu vaznning nega qat'iyiligi haqida aniq fikr yo'q. O'tmish adabiyotshunoslari faqat falsafiy fikrlar, hayotiy kechinmalarni ifodalash uchun mazkur vaznlarning qulayligi xususida gapirish bilan kifoyalanadilar.

R. ikki xil qofiyalanish tartibiga ega: birinchi, ikkinchi va to'rtinchi misralari o'zaro qofiyalanib, uchinchi misrasi ochiq qoladigan (a-a-b-a) turi xosiy R. yoki R.i xosa deyiladi. Mas.:

Hijronda sog'inib meni shod etgaysen,  
Men hastani muxlis e'tiqod etgaysen,  
Bu xatni aning uchun bitidim munda,  
Ko'rgach bu xatimni meni yod etgaysen (Bobur).

To'rtala misrasi o'zaro qofiyalanadigan (a-a-a-a) R., ko'proq, tarona yoki R.i tarona, ayrim manbalarda esa musarra' deb yuritiladi. Shuningdek, A.Navoiy R.ning bu xilini ruboiya deb atagan. Mas.:

Ko'nglumni g'amu dard ila qon ayladi ishq,  
Ko'z yo'lidin ul qonni ravon ayladi ishq.  
Har qatrani bilmadim qayon ayladi ishq,  
Bedil ekanim buyla ayon ayladi ishq (Navoiy).

Qayd etish kerakki, xosiy R. bilan taronai R.ning turli davrlardagi faollik darajasi, ularga ijodkorlarning munosabati bir xil bo'lmagan. Xususan, Navoiy merosida taronai R. salmoqli (o'zbekcha R.larining 95 foizi, forsiy R.larining hammasi) bo'lsa, Bobur xosiy R.ni ma'qul ko'rgan (uning 211 ta R.sidan 181 tasida uch misra o'zaro qofiyalangan); X – XI asrlarda taronai R. yozish urf bo'lsa, Navoiydan keyingi davrda xosiy R.lar salmog'i ortib borgan.

Ruboiyning kompozitsion qurilishi ma'lum bir masala yuzasidan fikrni izchil rivojlantirib, ixcham va tugal ifodalashga mos: dastlabki ikki misrada g'oya va maqsad, keyingi ikki misrada dalil va xulosa o'z aksini topadi. Shundan kelib chiqib, hozirgi adabiyotshunoslikda R.ning birinchi misrasi tezis, ikkinchisi antitezis, uchinchisi moddai ruboiya (yoki xulosa uchun asos bo'ladigan ko'prik), to'rtinchi misra esa sintez deyiladi. Ya'ni R.ning birinchi misrasida juda muhim bir fikr tezis qilib qo'yiladi-da, keyingi uch misra shu fikr talqiniga bag'ishlanadi; yoki birinchi va ikkinchi misradagi fikriy tezisga uchinchi misrada antitezis qo'yilib, to'rtinchi misrada sintez (xulosa) beriladi.

RUJU' (ar. ??? – qaytish) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, avval aytilgan fikr (biror narsa-tushuncha, holat haqida aytilgan gap, unga qilingan qiyos, tashbeh, tamsil va sh.k.)dan qaytib, so'ng uni yanada kuchliroq, ta'sirliroq, go'zalroq tarzda ifodalash. Ya'ni R. san'atida shoir she'rda o'zi keltirgan chiroyli o'xshatish va sifatlashlarni go'yo bilmasdan aytib qo'ygandek yoki ulardan qanoatlanmaganday bo'lib, fikridan qaytadi va avvalgilardan ko'ra go'zalroq tashbehu sifatlashlarni keltiradi. Atoullloh Husayniy ta'rifiga ko'ra, R.da lirik qahramon ma'shuqa go'zalligi yoki boshqa biror sabab tufayli hushini yo'qotar holatga keladi va shu holatida beixtiyor fikr aytib qo'yib, keyin, hushiga kelgach, "aslida mana bundoq edi" tarzida "gapini to'g'rilab oladi". Mas., Munis:

Sabo tahrکیدin, yo'q, balki og'zing sharmidin boshin  
Quyi solmoqqa moyil bo'lg'usidur har zamon g'uncha, –

baytida g'unchaning bosh egib turishini avval shamol harakati ("sabo tahrکیدin") tufayli deb aytadi, so'ng fikridan qaytib, buning sababi g'unchaning yor "og'zi sharmi", ya'ni yor og'zi go'zalligi oldida bosh egib turishi deb izohlaydi. Bu o'rinda R. san'ati husni ta'lil (q.) san'ati bilan qorishiq holda namoyon bo'ladi, bu esa ifodaning yanada go'zal va ta'sirli chiqishini ta'minlaydi. Ilmi badi'ga oid manbalarda R. istidrok (q.) deb ham yuritiladi, biroq bu masalada yakdillik yo'q, istidrokka berilgan ta'riflar R.dan birmuncha farqlidir.

RUKN (ar. ??? – ustun) – aruzda juzv (turkiy aruzda hijo)larning muayyan tartibda birikishidan hosil bo'luvchi ritmik bo'lak, juzv bilan bahr orasidagi ritmik birlik. Hozirgi adabiyotshunoslikda R. termini,



ko‘proq, mazkur ma‘noda qo‘llansa-da, mumtoz aruzshunoslikda u juzv (q.) ma‘nosida ham faol ishlatilgan. Aksincha, hozirda R. termini bilan yuritiluvchi tushuncha mumtoz aruzshunoslikda afoyl, tafoyil, ajzo, vazn, arkon (R.ning ko‘pligi) kabi istilohlar bilan ham ifodalangan. Aruzda juzvlarning ma‘lum tartibda qo‘shilishidan sakkizta afoyl yoki asllar, ya‘ni asl R.lar yuzaga keladi:

Fauvlun = vatadi majmu‘ + sababi hafif

Foilun = sababi hafif + vatadi majmu‘

Mafoiylun = vatadi majmu‘ + sababi hafif + sababi hafif

Foilotun = sababi hafif + vatadi majmu‘ + sababi hafif

Mustaf‘ilun = sababi hafif + sababi hafif + vatadi majmu‘

Maf‘ulotu = sababi hafif + sababi hafif + vatadi mafruq

Mafoilatun = vatadi majmu‘ + fosilai sug‘ro

Mutafoilun = fosilai sug‘ro + vatadi majmu‘

Mazkur sakkiz asl R.ning takroridan bahrlar (q.) hosil bo‘ladi. Asllarning zihofga (q.) uchrashidan tarmoq (yoki far‘iy, furu‘) R.lar hosil bo‘ladi.

**RUHIY-TARIXIY MAKTAB** – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida romantizm estetikasi va nemis faylasufi V.Dilteyning “hayot falsafasi” ta‘limoti asosida madaniy-tarixiy maktabga zid o‘laroq vujudga kelgan adabiyotshunoslik maktabi. Diltey ta‘limotiga ko‘ra, tarixiy ruh – millat va davrning uyg‘un birligi bo‘lib, mazkur birlik, avvalo, san‘atkor dahosi tufayli voqe bo‘ladi. Ya‘ni tarix va ruhiyat san‘atkor qalbida yagona kechinmaga aylanadi va xuddi shu kechinma badiiy shaklda moddiylashib, yaxlit ma‘naviy-ruhiy reallikka aylanadiki, bu ma‘naviy-ruhiy reallik nafaqat o‘quvchi, balki san‘atkorning o‘ziga ham ilk bor namoyon bo‘layotgan haqiqatning o‘zidir. Diltey san‘at voqelikni boshqa gumanitar fanlarga qaraganda adekvat aks ettirishga ko‘proq qodir, san‘at turlari orasida esa adabiyot ruhiy-tarixiy mavjudlik mohiyatini hammadan ko‘ra teranroq idrok eta oladi deb biladi. Chunki adabiyot til bilan ish ko‘radi, ruh esa tilda o‘zining butun teranligi bilan to‘la va ob‘ektiv ifodasini topadi. Shulardan kelib chiqib, R.-t.m. badiiy asar talqinida ruhiy-tarixiy va psixologik yondashuvlarni sintezlashtirishga intiladi. U madaniy-tarixiy maktabga xos adabiyotga pozitivistik yondashuvni qabul qilmaydi, adabiyotshunoslikning vazifasi tabiiy fanlardagi kabi ratsional tushuntirib berish emas, balki badiiy butunlikni ko‘proq intuitiv tarzda (“hamdardlik”, “asar ruhiga kirish” asosida) bevosita tushunish va talqin qilishdan iborat deb biladi. R.-t.m. badiiy asar tahlilida “kechinma”ni markaziy o‘ringa qo‘yadi, unga sub‘ekt (ijodkor) va ob‘ekt (davr) birligi sifatida qaraydi, har bir ijodkor betakror, “ruh tarixi”dagi o‘ziga xos va avtonom hodisa deb biladi. Biroq bu biografik yondashuvdan mutlaqo farqlanadi. Zero, badiiy asarda tarixiy ruh aks etadi deb bilgan R.-t.m. ijodkor shaxsi, dunyoqarashi masalalariga jiddiy e‘tibor bergani holda, asarda akslangan tarixiy ruh ildizini biografik faktlardan emas, davrning umummadaniy konteksti (davrning umumiy ruhi, yetakchi falsafiy qarashlar, shularga bevosita bog‘liq ijodkor dunyoqarashi)dan qidiradi. R.-t.m. o‘tgan asrning 20-yillarida gullab-yashnagan bo‘lsa, 30-yillarda uning alohida adabiy maktab sifatidagi faoliyati tugadi: uning bir qism tarafdorlari o‘z faoliyatini fenomenologik maktab, boshqa bir qismi yangi gegelchilar qatorida davom ettirdi.

**SABAB** (ar. ??? – chodirning arqoni) – sokin va mutaharrik harflarning muayyan tartibda birikishidan hosil bo‘luvchi ritmik birlik, juzv (q.). Harflarning qay tartibda birikishidan kelib chiqib, S.ning ikki turi farqlanadi: S.i hafif (yoki yengil S.) va S.i saqiyl (yoki og‘ir S.). Bitta mutaharrikka bir sokin harfning qo‘shilishidan S.i hafif hosil bo‘ladi: “gul”, “ko‘z”, “qad” kabi so‘zlar shu vaznga mos. Mas., “gul”: mutaharrik (gu) + sokin (l). Ikkita mutaharrik harfning qo‘shilishidan S.i saqiyl (talaffuzi S.i hafifga nisbatan qiyinroq ekani uchun shunday nomlanadi) hosil bo‘ladi: “gala”, “sana”, “bila” kabi so‘zlar shu vaznga mos. Mas., “bila”: mutaharrik (bi) + mutaharrik (la).

SAVOLU JAVOB (ar. ????? ? ??? – savol-javob) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, baytni ikki shaxsning o'zaro savol-javobi tarzida shakllantirish. S.j. san'ati, shuningdek, bayt doirasidan chiqishi, ya'ni bir bayt savol, ikkinchisi esa javob tarzida shakllantirilishi ham mumkin. Rashiddin Votvot ushbu san'atni forsiy-zabon shoirlar g'oyat qadrlashi, fors she'riyatida boshdan-oyoq shu san'at asosida yozilgan qasidalar mavjudligini qayd etgan. S.j. san'ati o'zbek she'riyatida ham juda faol qo'llangan, u she'rga jonlilik, hayotiylik baxsh etishi bilan deyarli barcha mumtoz shoirlarimiz e'tiborini tortgan. Mas.:

So'rsa malakulmavt: "Sanga hur kerak?" deb,

"Yo'q-yo'q, manga dilxoh!" degumdur, dag'i o'lgum (Atoyi).

Dedim: ko'nglumga har yondin hadangning nedurur yora?

Muhabbat o'tig'a, dedi, o'tindurkim qalaydurman (A.Navoiy).

Hajrda qaddimni dol etting, desam, bergay javob:

Kim qo'yibdur sevgini qaddi bukilgan chol uchun (E.Vohidov).

SADR (ar. ??? – ko'krak) – qarang: taqti'

SAYOHATNOMA – adabiy janr, yo'lchining safar davomida ko'rgan-kechirganlari, o'zga yurtlarning tabiati, ijtimoiy-maishiy turmushi, xalqi, urf-odatlar va boshqa sh.k. muallif mansub millat o'quvchilari uchun qiziqarli va foydali bo'lishi mumkin ma'lumotlar beruvchi asar. Aksar hollarda S.lar o'z oldiga o'zga yurtlar haqida ma'lumot berish, ya'ni ma'rifiy maqsad bilan bir qatorda, publitsistik, badiiy-estetik, falsafiy, siyosiy maqsadlarni ham qo'yadi. Janrning genezisi folklor va yozma adabiyot an'alarining sintezlashuvi natijasi bo'lib, markazida sayyoh-hikoyachi turgan asarlar folklor (mas., ertaklar) va yozma adabiyotda (mas., antik sayohatnomalar) juda qadimdayoq yaratilgan. S.larning janr-kompozitsion xususiyatlari sifatida markazida sayyoh-hikoyachi obrazining turishi va safar (muayyan yo'nalishdagi makon va zamonda o'zgaruvchi harakat) faktining mavjudligi, sayyoh-hikoyachining kuzatuvchi maqomida turishi va o'zga yurtda ko'rganlarini o'z yurtidagi holat bilan qiyoslab borishi kabilarni ko'rsatish mumkin. Janrning ushbu asosiy xususiyatlari saqlab qolingani holda, adabiyot rivoji davomida S.ning bir qator boshqa ko'rinishlari ham paydo bo'ldi. Jumladan, ko'proq publitsistik xarakterdagi va ijtimoiy-ma'rifiy maqsadlarni ko'zlovchi "o'z yurti bo'ylab safar"lar (A.Radishchev. "Peterburgdan Moskvaga sayohat"; Muqimiy. "Sayohatnoma"; Cho'lpon. "Vayronalar orasidan"); o'z yurtidagi holatni shartli ravishda tahlil qilish, muayyan ijtimoiy-siyosiy qarashlarni ifodalash maqsadlariga qaratilgan va ko'proq satirik xarakterdagi asli mavjud bo'lmagan "fantastik yurtlar"ga sayohatlar (J.Swift. "Gulliverning sayohatlari"); xorijliklarning muallif yurtidagi sayohati (Monteske. "Fors xatlari"; Fitrat. "Sayyoh hindi") va b. Shuningdek, adabiyot tarixida janrga xos shakliy xususiyatlar (sayyoh, safar fakti) olingani holda, S.lardan o'zgacha maqsadlarni ko'zlovchi asarlar ham ko'plab uchraydi. Mas., Cho'lponning "Yo'l esdaligi"da S.ga xos shakl asosida sayyoh-muallif ruhiyati, dunyoqarashidagi o'zgarish jarayonlari ifodalangan, uni ramziy lirik-publitsistik asar hisoblash mumkin.

SAJ' (ar. ???– bulbul, to'ti, qumri kabi qushlar ovozining uyg'unlashib kelishi, o'lchovli) – mumtoz adabiyotdagi lafziy san'at, bir yoki bir necha gaplardagi ayrim bo'laklarning yo'vaznda, yo'qofiyada, yo'har ikkalasida mos kelishi. Ilmi badi'ga oid ayrim manbalarda S. nasrga xos deyilsa, boshqalarida ham nasrga, ham nazmgaga xosligi e'tirof etiladi. Shunga qaramay, S.ni nasrgaga xos deb bilish, uni qofiyali nasr sifatida tushunish kengroq ommalashgan va bu ilmiy jihatdan to'g'riroqdir. Chunki nazmdagi S. va uning turlariga berilgan ta'riflar tarse', muvozanaga, zulqofiyatayn, zulqavofi', izdivoj kabi qator she'riy san'atlarni qamrab oladi. Ya'ni bu holda bir hodisa turli nomlar bilan yuritiladi, xolos, S.ni bunday keng ma'noda tushunish terminologik chalkashliklarni yanada kuchaytiradi. Shuning uchun ham S.ni nasr bilan bog'liq hodisa deb bilish maqsadga muvofiqdir. S.ning ildizlari turkiy xalqlar folkloriga borib taqaladi. Agar xalq og'zaki ijodi janrlarining, asosan, ijroga mo'ljallangani, ijroning musiqa jo'rligida amalga oshgani e'tiborga olinsa, S.ning folklorida keng ommalashish sababi (o'ziga xos ohang, musiqiylik hosil qilishi, estetik ta'sir kuchining oshishi kabi) ayon bo'ladi. Mas.: "Shuytib hut kirib, mushuklar miyov bo'lib,

qozonlar sutga to'lib, bitta-yarim erta qochgan qo'ylar qo'zilab, qorlar qoshoq bo'lib erib, qo'zigullar ochilib, odamzot bahriga olamga bir ajoyib erta ko'klam isi sochilibdi" ("Yunus bilan Misqol").

S. yozma adabiyotda ham ancha keng tarqalgan san'atlardan biridir. Jumladan, mumtoz adabiyotimizda doston boblariga qo'yilgan nasriy sarlavhalarda (mas., Navoiy "Xamsa"si), devonlarga yozilgan debochalarda, nasriy munajatlarda S. san'ati keng qo'llangan. Hozirgi nasrda ham matnning ayrim o'rinlarida, xususan, tasvir predmetiga emotsional munosabat quyuq ifodalanuvchi lirik chekinishlarda, voqea rivojidadagi hayajonli nuqtalar yoki personajlar ruhiyatida junbushga kelgan kechinmalar tasvirida S.ga xos xususiyatlarni ko'rish mumkin.

SAYYoR SYuJYeTLAR NAZARIYA SI, migratsiyalar nazariyasi – XIX ning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan nazariya. Unga ko'ra, turli xalqlar og'zaki ijodida bir-biriga o'xshash syujetlar mavjudligi adabiy asarlar bir madaniy-tarixiy hududdan boshqa madaniy-tarixiy hududlarga ko'chib yurishi bilan izohlanadi. Mutaxassislar S.s.n.ning vujudga kelishini xalqaro madaniy aloqalarning kuchayishi bilan bog'laydilar, uning asoschisi sifatida esa nemis olimi T.Benfey e'tirof etiladi. 1859 yilda T.Benfey hind folklori namunasi bo'lmish "Panchatatra"ni nashr ettiradi, unga olimning bu nodir asar yuzasidan olib borgan tadqiqotlari ham qo'shilgan edi. Bu tadqiqotida T.Benfey aksariyat hikoyat va ertaklar Hindistonda paydo bo'lgan, keyin butun dunyoga tarqalgan, degan xulosa chiqaradi. Mazkur xulosa mifologik maktab (q.) qarashlariga zid bo'lib, ikki yo'nalish orasidagi bahs-munozaralar natijasida ularning tadqiq predmeti chegaralanadi: mifologik maktab vakillari asosiy e'tiborni folklor genezisiga, migratsiyalar nazariyasi esa uning keyingi hayotiga qaratdi. S.s.n. folklorini muayyan bir elat yoki xalq mulki tarzida tushunishni chekladi, unga turli yurt, davrlar poetik madaniyatlaridan o'zlashtirish natijasi deb qaradi. Albatta, bunday qarashda muayyan biryozlamalik bor. Zero, turli xalqlar folkloridagi o'xshashliklar faqat adabiy aloqa, o'zlashtirish bilangina izohlanmaydi, bunda tipologik o'xshashliklarni ham nazarga olmoq zarur. Biroq S.s.n. qiyosni, ko'proq, formal-sxematik asosda amalga oshirdiki, bu tipologik o'xshashliklarning ham aksar o'zlashtirish sifatida tushunilishiga olib keldi. Shularga qaramay, S.s.n. folklorshunoslik va adabiyotshunoslik rivojida sezilarli iz qoldirdi: faoliyati turli xalqlar folklorini qiyosiy o'rganish bilan bog'liq bo'lgani uchun ham, u ilmiy muomalaga juda katta hajm va ko'lamdagi materialni jalb etdi, qiyosiy adabiyotshunoslik rivojiga xizmat qildi, tarixiy poetika sohasining shakllanishiga ham ma'lum darajada asos soldi.

SANOYI' (ar. ????? – san'atning ko'pligi) – nutqni go'zal qiluvchi badiiy vositalarning jami. Nutqni bezovchi vositalar, nutq go'zalliklari dastlab ikki turga bo'linadi. Birinchisi, nutqning ataylab ishlov berilmagan, til hodisasiga aylanib ulgurgan tabiiy go'zalligi bo'lib, ular zotiy go'zalliklar deyiladi. Nutqqa bezak berish uchun atayin yaratiladigan vositalar oriziy go'zalliklar deyiladi. Atoulloh Husayniy ta'biri bilan aytganda: "Birinci nav'i ... dilbarlarning tabiiy husni yanglig'dur va ikkinchi nav'i ... bezaklar singlaridur". Ilmi badi'da S.ni nutqning ko'proq qaysi jihatiga bezak berishi jihatidan lafziy, ma'naviy hamda lafziy ma'naviy san'atlar ko'rinishida tasniflash an'anasi shakllangan. Nutqning ma'no tomoni bilan bog'liq bo'lib, uning ma'no go'zalligini ta'minlashga xizmat qiluvchi she'riy san'atlar ma'naviy san'atlar deb yuritiladi. Adabiyotlarda iyhom, tavjih, tajohuli orif, talmeh, irsol ul-masal, husni ta'lil, laffu nashr, mubolag'a, tashbeh, tamsil, istiora kabi o'nlab san'atlar ma'naviy san'atlar sirasiga kiritiladi. She'rning ko'proq shakl tomoniga e'tibor qaratgan holda uning uslubiga bezak beruvchi san'atlar esa lafziy san'atlar deyiladi. Ayni paytda, bu o'rinda ma'no ham e'tibordan chetda qolmaydi, aksincha, "alfozni ma'nog'a tobi' qilmoq" (A.Husayniy) talabi qo'yiladi. Ilmi badi'ga oid asarlarda tarse', tajnis, saj', qalb, tajziya, zulqofiyatayn kabilar lafziy san'atlar sifatida tavsiflanadi. Nutqni go'zal qiluvchi bir guruh vositalar ham shaklga, ham ma'noga aloqador bo'lgani bois lafziy ma'naviy yoki mushtarak san'atlar deb yuritilib, unga taqobul, muqobala, ta'dil, tansiq us-sifot, iqtibos, tazmin, husni ibtido, husni taxallus, husni matla', husni maqta' kabilar kiritiladi. San'atlarni bunday guruhlashda birmuncha shartlilik bor. Chunki shaklning ma'nodan, ma'noning esa shakldan ayri holda san'at hosil qilishi mumkin bo'lmagan holdir. Bu haqda yana Atoulloh Husayniy yozadi: "borcha go'zalliklarning asosi uldurkim, nutq ul tarzda ado etilgaykim, ma'noni anglashg'a, aning latofati, tarkibi va sog'lamlig'ig'a hech bir xalal yetmagay. Asos ul emaskim alfozg'a husni ziyat bermakka say' qilg'aylar-u, ma'nog'a xalal yetur holdin ko'z yumg'aylar yoxud aksincha xolis ma'no bayon etib, husn-i ado tariqig'a yo'lomag'aylar".

SARBAST, verlibr – o'zbek adabiyotida XX asrdan boshlab ommalasha boshlagan she'r shakli. S.da yozilgan she'r misralaridagi bo'g'inlar soni ham, ularning cho'ziq-qisqaligi ham, turoqlanish yoxud qofiyalanish tartibi ham mutlaqo erkindir. Shuning uchun o'zbek adabiyotshunosligida S. va erkin she'r terminlari, ko'pincha, sinonim tarzida ishlatiladi, biroq bu terminlar boshqa-boshqa tushunchalarni anglatadi (q. erkin she'r). S. she'r nasriy nutqdan avvalboshdan nutqiy bo'lak (misra)larga bo'linishi bilan farq qilib,

bu narsa grafik (har bir misrani alohida satrga yozish) va intonatsion (ritmik pauza va ritmik aktsentlar hisobiga) jihatdan ta'kidlanadi. X.Davronning "Eng kuchli baqiriq..." nomli she'ri S.ga misol bo'la oladi:

Eng kuchli baqiriq –

Soqovning baqirig'i.

O', qanday kuch bilan baqirar

Qabrtoshlar...

Eng kuchli sukunat – na ko'z sukuti,

na soqov sukuti, na tosh sukuti.

Eng dahshatli sukunat – Shoir jim yursa... 6

7

9

3

11

11

12

Keltirilgan she'rdagi misralardagi bo'g'inlar soni turlicha, misralarning o'zaro qofiyalanishi kuzatilmaydi, lekin grafik ko'rinishi uning she'r ekanini, emotsional to'yintirilgan nutq ekanligini ta'kidlab turadiki, uni mos ohang bilan o'qiymiz. Prozaik nutqdan farqli o'laroq, bunda nutqning musiqiy bo'lishiga ham e'tibor beriladi, lekin uning musiqiyliigi teng o'lchovlilik yoki tartibli qofiyalanish asosida emas, balki so'z va tovush takrorlari, ritmik urg'ular hisobiga ta'minlanmoqda, S.da yozilgan she'rning an'anaviy barmoq yoki aruzdagi she'rdan farqli tomoni shuki, undagi ohangdorlik avvalboshdan ma'lum maromga solinmaydi, muayyan maromga mos kechinmalar ifodalanmaydi. Aksincha, bunda fikr-tuyg'uga mos ohang so'zning ma'nosi asosida yuzaga keladi, ya'ni bu o'rinda ma'no asosida o'qiladi va so'zlar shunga mos ohanglarga o'raladi.

SARGUZASHT ADABIYO'I – haqiqatda yuz bergan yoki to'qib chiqarilgan voqealarni qiziqarli tarzda hikoya qiluvchi voqeaband asarlarning umumiy nomi. S.a. namunalariga xos umumiy xususiyatlar sifatida syujet voqealarining shiddat bilan rivojlanishi, sirli va ajabto'vor voqealarning yuz berishi, o'tkir intrigalarga boyligi, syujet situatsiyalarining keskin o'zgarishi va personajlar taqdirida ters burilishlar yuz berishi (omad – omadsizlik, baxtiyorlik – baxtsizlik), qahramonlarning turli sinovlarga duch kelishi va ularni yengib o'tishi va sh.k.larni ko'rsatish mumkin. Bu jihatlari bilan S.a. fantastika, ilmiy fantastika va detektiv adabiyotga yaqin turadi, aniqrog'i, sarguzashtlilik bu turdagi asarlarning barchasiga xos xususiyatdir. Shunga ko'ra, ko'plab asarlarda sarguzashtlilik, detektiv va fantastika elementlarining qorishiq holda namoyon bo'lishi tabiiydir. Ayni chog'da, sarguzashtlilikka yengil-elpi hodisa sifatidagina qarash ham unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Chunki jahon adabiyoti sarguzashtlilik asosida yaratilgan jiddiy asarlarni, so'z san'atining nodir namunalarini ham biladi. Jumladan, Servantesning "Don Kixot", F.Rablening "Gargantua va Pantagryuel", J.Sviftning "Gulliverning sayohatlari" kabi asarlari ham sarguzasht syujet asosiga qurilgan. Umuman olganda esa, ko'proq, ommaviy kitobxoniga mo'ljallangani, kitobxonni o'ziga jalb etishni asosiy maqsad

qilishidan kelib chiqib, S.a. belletristikaga mansub deyiladi. Ayrimlar esa bolalar va o'smirlar tomonidan sevib o'qilgani uchun S.a.ning ko'plab namunalari, jumladan, A.Dyuma, F.Kuper, M.Rid, R.Stivenson, R.Xaggard kabi adiblarning dunyoga mashhur asarlarini bolalar adabiyoti sirasiga kiritadilar. O'zbek adabiyotida sarguzasht syujet asosida yaratilgan asarlar (A.Navoiy. "Farhod va Shirin"; G'.G'ulom. "Shum bola" va b.) ham, S.a.ning yaxshi namunalari ham (X.To'xtaboev. "Sariq devni minib") mavjud.

SARI' (ar. – tez) – aruz bahrlaridan biri, tez aytiladigan bahr bo'lgani uchun shunday nomlangan. 2 ta mustaf'ilun (– – V– / – – V–) va 1 ta maf'ulotu (– – – V) asllarining ketma-ket takrorlanishidan hosil bo'ladi. Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida S. bahrining besh vazni, Boburning "Muxtasar"ida o'n yetti vazni misollar bilan keltirilgan. S. bahrining bir necha vaznlari bo'lsa ham, she'riyatimizda, asosan, ikki vaznidan keng foydalaniladi. O'zbek mumtoz she'riyatida ilk bor Alisher Navoiy o'zining ikki g'azali va bir fardini hamda "Xamsa" tarkibidagi "Hayrat ul-abror" dostonini S. bahrida yaratgan. Navoiydan so'ng Ogahiy, Muqimiy, Habibiy kabi shoirlar ham ushbu bahrda she'rlar yozganlar. Mas., Navoiyning:

Sendin yiroq ko'zning erur hayronlig'i,

Hajring aro har lahza sargardonlig'i, –

bayti shu bahrda bo'lib, u sari'i musaddasi solim (– – V– \ – – V– / – – – V) vaznidadir.

SARKAZM (yun. sarkaso – etini yulmoq) – 1) komiklikning turi, tasvirlanayotgan narsaga qaratilgan zaharli kulgi. Antik davrlardan keluvchi an'anaga ko'ra, S.ga kinoyaning bir turi, uning keskin va yuqori darajada namoyon bo'lishi sifatida qaraladi. S. bilan kinoya orasida o'xshashlik kattaligiga qaramay, ularni jiddiy farqlovchi jihatlari ham bor. Jumladan, kinoyada hamisha ko'chma ma'nolilik xususiyati saqlanadi va ob'ekt bilan ifoda aloqasi pardalanadi, S.da esa ko'chma ma'nolilik, pardalanganlik xususiyati yemiriladi – nazarda tutilgan ob'ekt bilan ifodaning aloqasi ancha ochiq bo'ladi. Agar kinoyada baho kontekstda reallashsa, S.da salbiy baho matnning o'zidanoq anglashiladi – u go'yo harir mato bilan pardalangan (yuzadagi maqtov yoki normal munosabat zamiridagi kulgi shundoq sezilib turadi). Ma'lum darajada pardalanganlik S.ni inektivadan, oshkora fosh etuvchi g'azabli nutqdan farqlaydi. Ayni chog'da, S. sub'ektiv munosabatning namoyon bo'lishi jihatidan ham kinoya bilan inektiva oralig'ida turadi: kinoyada ob'ektga nisbatan yashirib, xotirjam turgan holda kulinsa, S.da sub'ekt munosabati yashirilmaydi, lekin uning ifodasi inektiva darajasida keskin bo'lmaydi; 2) badiiylik modusi. S. badiiylik modusi sifatida yumor bilan birga bir guruhni tashkil qiladi. Agar yumorda niqob ostida individuallik bo'lsa, S. niqob ostida individuallikning yo'qligi bilan xarakterlanadi. S. badiiylik modusi qahramoni uchun niqob olamda mavjudlikning yagona shakli, uning boru yo'g'i niqob, shuning uchun undan ayrilib qolmaslikka harakat qiladi. Ya'ni S.dagi "men" – nol, yo'q darajadagi "men", u olamda niqobsiz mavjud bo'lolmaydi. Mas., "Parvona"dagi O'tkuriy turli niqoblar (shoir, oshiq, ulfat va h.)ni ketma-ket almashtiraveradi, biroq bu niqoblar ortida uning o'ziga xos shaxsiyati ko'rinmaydi. Yoki M.Muhammad Do'stning "Iste'fo" qissasidagi boshqa qahramonlarga kinoyaviy munosabat kuzatilgani holda, Binafshaxonga munosabat S. darajasiga chiqadiki, unda hurmat qilishga, qadrlashga arziydigan shaxsiyatning o'zi yo'q. Binafshaxon faqat rol o'ynaydi, uning turgan-bitgani niqobdan ("elga taniqli shoir", "katta arbobning xotini") iborat, xolos. "Binafshaxon she'r yozganda taqadigan taqinchoqlarini taqib... farangi atirning anvoyi bo'ylarini har yon taratib" kabi jumalardan uning barcha xatti-harakatlari niqobga mos qiyofani o'xshatishga qaratilganini anglash mumkin. Xuddi yumorda bo'lgani kabi, S. badiiylik modusi uchun ham eng oliy qadriyat – individuallik. Farqi shuki, yumor niqob ostidagi haqiqiy individuallikni ochishga qaratilsa, S. qahramon niqob qilib olgan soxta individuallikni inkor qilishga qaratiladi.

SATIRA (lot. satura – aralash, qurama) – 1) komiklikning asosiy turlaridan biri. S.ning yumordan farqi shundaki, u o'z ob'ektida ayrim nuqsonlar, tuzatsa bo'ladigan kamchiliklarni emas, balki butunlay tanqid va inkor etiladigan mohiyatni – jamiyat va uning taraqqiyoti uchun jiddiy zarar keltiradigan, ijtimoiy xavfli illatlarni ko'radi. Shunga ko'ra, S. tuzatishni emas, butunlay yo'qotish maqsadini qo'yadi. S.dagi kulgi yumordagi kabi do'stona, beg'araz kulgi emas, balki fosh qiluvchi beshafqat kulgidir (mas., A.Qahhor. "Og'riq tishlar", "Tobutdan tovush"); 2) badiiylik modusi. S., odatda, qahramonlikka teskari modus sifatida talqin etiladi. Satirik modus qahramoni jamiyat hayoti uchun muhim va dolzarb maqomga da'vo qilgani holda, shaxs sifatida bunday maqomga munosib bo'lolmaydi. Uning barcha intilishlari, muhim va noyob

shaxs ekaniga o'zini va boshqalarni ishonirishga urinishlari, o'zi egallab turgan maqomni saqlab qolish uchun xatti-harakatlari – barchasi o'z-o'zini tasdiqlash shaklida bo'lishiga qaramay, mohiyatan o'z-o'zini inkor qilishgacha olib keladi. Satiraning ideali ham xuddi qahramonlik modusidagi kabi jamiyat hayotidagi eng muhim va dolzarb vazifani ado etuvchi shaxsdir. Farqi shuki, satirik qahramonning mohiyati (imkoni, saviyasi va b.) u ijro etayotgan rol (ijtimoiy mavqei, vazifasi)dan ancha tor. Qahramon buni anglab turgani holda, o'zini egallab turgan mavqeiga munosib qilib ko'rsatishga intiladi, bu esa uni qahramonlik va tragik moduslardan farqlaydi. Satirik modusning voqe bo'lishida muallifning faol munosabati, kulgi orqali inkor qilish mavqeida turishi muhim. Shu bilan birga, satirik modus markazidagi shaxs muallif uchun kulgi ob'ektigina bo'lib qolmaydi, u ham, modus nazariyasidagi «men-olamda» kontsepsiyasiga ko'ra, tragik va dramatik qahramonlar kabi muallif (kitobxon) uchun o'z-o'zini anglash imkoniyatidir. Aytish kerakki, modus ma'nosidagi S. komiklik turi sifatida tushunilgan S. bilan doim ham muvofiq kelmaydi. Bu o'rinda S. qahramonlik modusining transformatsiyaga uchrashi natijasida va uning ziddi sifatida paydo bo'lgani (qahramon – aksilqahramon), shuningdek, komiklik S.ning bosh xususiyati emas, balki uning uchun fakultativ hodisa ekanligini esda tutish lozim. Bundan tashqari, bitta asar doirasida turli badiiylik moduslari qorishiq holda namoyon bo'la oladi. Agar shulardan kelib chiqilsa, mas., A.Qahorning “Sarob” romanidagi Saidiyga faqat dramatik modus emas, satirik modus qahramoni sifatida ham qarash kerak. Muallif uni inkor qiladi, biroq qahramon estetik analogiya sifatida yozuvchi uchun o'z-o'zini anglash vositasi bo'lib, Saidiyning yo'li noto'g'ri ekanligini o'zi uchun tasdiqlab olishni xohlaydi. Tabiiyki, o'quvchida ham xuddi shu holning kechishi ko'zda tutiladi. Demak, “Sarob”dan tragik yoki faqat dramatik katarsisni kutish o'zini oqlamaydi, chunki bu holda sub'ekt – ob'ekt – o'quvchi birligiga erishilmaydi. “Sarob”ning ba'zan noto'g'ri talqin va baholarga uchrangani asar badiiyatining ayni shu xususiyati doim ham e'tiborga olinmagani bilan izohlanishi mumkin.

**SYeNTIMYeNTALIZM** (fr. sentiment – his) – XVIII asrning ikkinchi yarmida Yevropa milliy adabiyotlarida vujudga kelgan oqim, nomlanishi ingliz adibi L.Sternning “Sentimental sayohat”(1768) asari bilan bog'lanadi. Ma'rifatparvarlik ratsionalizmining tanazzulga uchrashi natijasida maydonga chiqqan S., undan farqli o'laroq, inson tabiatining javhari ong emas, hisdir, degan qarashga asoslanadi. Shunga ko'ra, S. mukammal insonni tarbiyalashning sharti dunyoni aqlga muvofiq tarzda qayta qurish emas, unga tabiatan xos bo'lgan hislarni erkinlashtirish va rivojlantirishdir, deb biladi. S. adabiyotining qahramoniga xos muhim xususiyat yuqori darajada individuallashtirilganlik bo'lib, bu jihati bilan u jonli insonga yaqinroq turadi. Yana bir jihati, S.da quyi tabaqa kishilari hayoti, ichki dunyosi tasviriga ko'proq e'tibor beriladiki, bu uning yutuq tomoni, kashfi sifatida baholanadi. Tabiiyki, S.da insonni baholash mezon ham shunga mos o'zgardir: inson qimmatini uning his eta olish darajasi, katta tuyg'ularga qobilligiga qarab belgilanadi, his eta olish insonga xos eng yuksak fazilat hisoblanadi. S. adabiyoti inson ruhiyatini chuqur tahlil qilishga intildi, inson bir qolip doirasida qolmasligi, uning turli omillar ta'sirida “har xil” bo'lib turishi mumkinligini ko'rsata oldi va bu bilan insonni ancha hayotiy tasvirlashga erishdi. S.ning ko'plab vakillari inson ruhiyatini, umuman, insonni ijtimoiy muhit bilan bog'liqlikda tasvirlashga intildilar (J.Russo. “Yangi Eloiza”; D.Didro. “Fatalist Jak”). Bular S. bag'rida adabiyot taraqqiyotining keyingi bosqichlari – romantizm va realizmga xos xususiyatlar nish urib yetilgani, uning badiiy tafakkur rivojida sezilarli ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi. Ayni chog'da, S. adabiyotining o'rtamiyona namunalari me'yordan oshgan, sun'iylik darajasiga yetgan emotsionallik – yig'loqlilik, hissiyotga o'ta beriluvchanlik, hissiyotlar olamida o'ralashib qolishlik kabi jihatlar ham uchraydi. Ilmiy muomalada salbiy ma'noda qo'llanuvchi “sentimentallik” terminining kelib chiqishi shunga borib taqaladi. Shu bilan birga, jahon badiiy tafakkuri S.ning bosh xususiyati bo'lgan hissiylikni o'ziga singdirib olganini ham e'tirof etish kerakki, sentimentallik (q.) adabiyotdagi voqelikka munosabat turlaridan biri sifatida tushunilishi shundandir.

**SYeNTIMYeNTALLIK** (ruschadan kalka: “sentimentalnost”) – muallif emotsionalligi ko'rinishlaridan biri; ma'naviy dunyosi g'oyat boy bo'lgani holda, hayotda shunga munosib o'rin topolmagan, taqdirning izmi yoki jamiyatning joriy tartibotlari bir chetga surib qo'ygan insonlarga achinish hissi bilan yo'g'rilgan munosabat. Badiiylik moduslaridan farqli ravishda, S. ko'proq sub'ekt bilan bog'liq. Ya'ni bu o'rinda sub'ekt – ob'ekt – o'quvchi uchligidan birinchisi (ijodkor) yetakchilik qiladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, ijodkor S.i barcha o'quvchilarga birdek ta'sir qilolmaydi, bu narsa konkret o'quvchining xarakter xususiyatlari, badiiy didi, dunyoqarashi kabilar bilan bevosita bog'liqdir. Ya'ni ijodkor S.i ayrim o'quvchilarda shunga mos katarsisni yuzaga keltirsa, boshqalarida kinoyaviy munosabat ham uyg'otishi mumkin. Mazkur hol S.ning ob'ekt (qahramon)dagi asosi aniq-ravshan, mustahkam emasligi bilan bog'liqdir. Rivoya personaj tilidan berilgan yoki muallif o'zi bilan personaj orasida estetik distantsiyani saqlay olmagan (bu narsa, ayniqsa, boshlovchi ijodkorlarga xos) hollarda ob'ekt (qahramon)ning o'zida S. borday tuyuladi, lekin bu holda ham S., aslida, muallifning g'oyaviy-emotsional munosabati asosida yuzaga chiqadi. Chunki ob'ekt o'z tabiatiga ko'ra tragik yoki dramatik xususiyatga ega bo'lishi mumkin, biroq

muallif undagi bu jihatlarga urg‘u berishga emas, unga achinish tuyg‘ularini ifodalash va o‘quvchiga yuqtirishga intiladi. Mas., Cho‘lponning “Qurboni jaholat” hikoyasi qahramoni Eshmurodda drammatizmning kabi o‘zini o‘zgalarga (muhit, jamiyat holati) qarshi qo‘ygan holdagi ichki faol munosabat bor. Lekin muallif qahramonida mavjud drammatizm imkonlarini ro‘yobga chiqarish o‘rniga unga sentimental munosabtni ifodalash va shu orqali o‘quvchida achinish tuyg‘ularini uyg‘otishga intiladi. Natijada Eshmurod o‘quvchi achinishi kerak bo‘lgan “qurbon” maqomida qoladi, muallif S.i qahramonni yoqlab, uni “qurbon” qilayotgan muhitni inkor etishga qaratiladi. Sentimental qahramonlardan farqli o‘laroq, tragik va drammatik qahramonlar o‘z mavjudligini namoyon etish uchun olam tartibotiga (tragizm) yoki boshqa bir “men”ga – o‘zgalarga (drammatizm) qarshi tura oladi, ya’ni ular harakatsiz, passiv qurbon emas, ularning hatto o‘limi ham o‘z mavjudligini namoyon qilish yo‘lidagi harakat, urinish bo‘lib qoladi (Anna Karenina, Jyulen Sorel). Agar badiiylik moduslari asosida yotuvchi «men-olamda» kontseptsiyasi qahramonning o‘z mavjudligini anglashi va namoyon etishini talab etsa, S.da qahramonning mavjudligini idrok etgani holda uni namoyon qilolmasligi kuzatiladi va ayni shu hol uni “qurbon” maqomida qoldiradi (qiyoslang: “O‘tgan kunlar”dagi Kumush va “Dahshat”dagi Unsinning o‘limi).

**SILLABIK ShYe’R TIZIMI** (yun. syllabe – bo‘g‘in) – bir xil miqdordagi bo‘g‘inlardan tarkib topgan misralar takroriga asoslanuvchi she’r tizimi. S.sh.t. urg‘usi turg‘un bo‘lgan tillar (mas., frantsuz tili) tabiatiga mos bo‘lsa-da, tarqalish ko‘lami ancha kengki, bu turli omillarga bog‘liq. Mas., roman tillaridagi adabiyotlarda u antik she’r tizimi asosida, bu til egalari uchun lotin tilidagi hijolar qisqa-cho‘ziqligi ahamiyatsiz bo‘lib qolishi oqibatida (ya’ni qisqa-cho‘ziqlik farqlanmay qolgach, antik she’rlarda izometriya faqat hijolar soniga bog‘liqdek bo‘lib qolgan) yuzaga kelgan va u milliy til tabiatiga mos she’r tizimiga o‘tishda bir bosqich bo‘lib xizmat qilgan. Jumladan, rus she’riyatiga polyak adabiyotidan o‘zlashgan sillabik she’rlarda misra oxiri yoki o‘rtasida ritmni ta’kidlash uchun urg‘uli bo‘g‘in keltirilganki, bu keyinchalik sillabo-tonik she’r tizimiga o‘tishga asos bo‘lgan. Ba’zida S.sh.t. bilan barmoq bitta narsa deb tushunishga moyillik kuzatiladiki, bu to‘g‘ri emas. Barmoq tizimida, sillabik she’rdan farqli o‘laroq, misradagi bo‘g‘inlar sonigina emas, ularning qay tartibda turoqlanishi ham ahamiyatlidir (q. barmoq).

**SILLABO-TONIK ShYe’R TIZIMI** (yun. syllabe – bo‘g‘in, tonos – urg‘u) – she’r misralarida urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlarning bir tartibda guruhlanib takrorlanishiga asoslangan she’r tizimi, XX asrga qadar ushbu she’r tizimi “sillabo-metrik” deb nomlangan. Rus she’riyatida V.Trediakovskiy va M.Lomonosovlar o‘tkazgan islohotdan so‘ng mazkur she’r tizimi yetakchilik qila boshlagan. Rus sillabo-tonik she’r tizimida beshta stopa (rukn) bo‘lib, ular: xorey, yamb, daktil, anapest va amfibraxiy tarzida antik she’r tizimidan o‘zlashtirilgan terminlar bilan yuritiladi. Shu stopalarning tartibli takrori ritmni hosil qiladi, konkret she’r o‘lchovi esa uch stopali yamb, to‘rt stopali yamb qabilida nomlanadi.

**SIMVOLIZM** (yun. simbolon, fr. symbolisme – belgi, nishon) – Yevropada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida kuzatilgan madaniy-ma’naviy inqiroz sharoitida, pozitivistik yondashuv (q. naturalizm) va tobora urchib borayotgan omma adabiyoti (belletristika) namunalari obro‘sizlantirgan realistik tasvir printsiplariga qarshi o‘laroq, vujudga kelgan adabiy oqim. S.ning adabiy-estetik asoslari XIX asrning 60 – 70-yillarida P.Verlen, A.Rembo, S.Mallarme kabi frantsuz shoirlari ijodi bilan qo‘yilgan. Mutaxassislar S.ga romantizm vorisi sifatida qaraydilar, shu bois ham uning falsafiy asoslarini A.Shopengauer, E.Gartman va, qisman, F.Nitsshe ta’limotida ko‘radilar. Simvolistlar konkret-hissiy idrok doirasidan tashqarida turuvchi g‘oyalar, “o‘zi-o‘zidagi narsa”larni badiiy aks ettirishga intiladilar. Ularga ko‘ra, simvol kundalik maishat domidan qutulish va dunyoning ideal mohiyatini anglash uchun obrazdan ko‘ra samaraliroq vositadir. Ular shoir qalban mutlaq haqiqatga yaqin turadi, shu bois u olamni simvollar orqali intuitiv tarzda idrok eta oladi, deb hisoblaydilar. Umuman olganda, S. namoyandalari dunyoqarash nuqtai nazaridan Aflotunizm ta’limoti, panteizm falsafasi, olamni ramzli idrok etishga qaratilgan xristian diniy-mistik ta’limotlar (mas., Psevdo Dionisiy, Avgustin va b.) bilan ham bog‘lanadi. Rus S.ining falsafiy-estetik qarashlari (ular V.Solovyov ta’limotiga asoslanadi) ham ko‘p jihatdan g‘arblik hammaslamlari qarashlariga mos, biroq ular rus mentaliteti va mamlakat ijtimoiy-tarixiy sharoiti bilan bog‘liq o‘ziga xos jihatlarga ham ega. Jumladan, rus S.ining yetakchilaridan biri D.Merejkovskiy uni yuzaga keltirgan asosiy omilni jamiyatda “eng ashaddiy moddiyunchilik bilan ruhning eng ehtirosli ideal intilishlari” to‘qnash yashagan davr sharoitida ko‘radi. Ya’ni bu o‘rinda ashaddiy moddiyunchilar realistlar bo‘lsa, ruhning ideal intilishlari S.ga xosdir. Ularga ko‘ra, realistlar hayotning oddiy kuzatuvchilari, S.lar esa hamisha mutafakkirdir (K.Balmont). Simvolistlarning reallikdan bezgani, olamni intuitiv tarzdgina idrok qilish mumkin deb bilganlari ularni romantizmning bevosita vorislari deyishga asos beradi. Ular uchun dunyo qorong‘u bir zindon, undan chiqadigan birgina tuyuk borki, u ham bo‘lsa ijod onlaridagi ekstaz holatidir, ayni shu onlarda san’atkor

olamning mohiyatiga kira biladi. San'atning vazifasi esa shu onlarni manguga muhrlashdan iboratdir. Ya'ni san'at boshqa sohalarida vahiy deb ataluvchi narsaning o'zginasidir. Shunga ko'ra, ijodkor o'z qalbining qorong'u puchmoqlarini o'zi uchun oydinlashtirishga kirishgan palladagina san'at boshlanadi (V.Bryusov). S. vakillari uchun simvol – mangulikka ochilgan daricha. Ayni chog'da, simvollar voqelik qa'ridan tabiiy ravishda va beixtiyor oqib chiqishi lozim, mabodo ijodkor biron bir g'oyani ifodalash uchun ularni o'ylab topsa, uning o'lik allegoriyadan farqi qolmaydi. Ya'ni konkret mazmunga bog'langan allegoriyadan farqli o'laroq, simvol doimiy harakatda – u turfa mazmun qirralarini ochib boraveradi; simvol vositasida ifodalangan fikr sirli miltirab, hamisha o'ziga jalb etib turadi, u inson qalbiga so'z bilan aytgandan ko'ra kuchliroq ta'sir qiladi. Maydonga kelgan davr ijtimoiy hayotidagi bo'hronlar, ma'naviy tanazzul bilan bog'liq holda, S.da ham dekadans kayfiyati sezilarli, shunga qaramay, uning eng iqtidorli vakillari ijodi umumbashariy va mangu muammolarning badiiy idrokiga qaratilgan bo'lib, badiiy tafakkur rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shilgan.

SINYeKDOXA (yun. synekdoche – nisbat berish) – ko'chim turi, butun-qism aloqasi asosidagi ma'no ko'chishi, metonimiyaning bir ko'rinishi. S.da ham ma'no aloqadorlik asosida ko'chadi, shu sababli unga metonimiyaning bir turi (uning miqdoriy ko'rinishi) sifatida qaraladi. Mas., X.Davronning “Kulol muhabbati” she'ridagi ilk band:

Sahardan to oqshomga qadar,  
Ko'kda porlab yonmaguncha oy,  
Ertak so'ylar sarxush barmoqlar,  
Ertak tinglar qizil rangli loy...

Bunda “ertak so'ylar” deganda, kulol o'z ishiga butun mehri, qalb qo'ri bilan berilgan ijodning sehrli onlari nazarda tutiladi. Ertak so'ylayotgan “barmoqlar” – qism, u butunni – kulolni anglatadi. Metafora bilan S.ning birligi ifodaning go'zal va ta'sirli bo'lishini ta'minlaydi: go'yo yirik planli kino kadri kabi sehrli barmoqlar taftidan iyib, go'zal bir shaklga kirayotgan charxdagi loyni she'rxon ko'z oldiga keltiradi. Yoki M.Yusufning:

Faqat shu yer yaqin yurakka,  
Faqat shunda quvonar ko'zlar, –

misralarida “ko'z” odam ma'nosida ishlatilgani ham S.ga misoldir. Yakka narsa nomini atash bilan umumni nazarda tutishlik ham S. sanaladi. Sh.Rahmon bir she'rida: “Qadimda mevalar yetilgan paytda savob deb yashagan komil ajdodim musofir chanqog'in bossin deb atay buzib qo'yar ekan bog'lar devorin”, – deb yozarkan, “qadim ajdodim” birikmasi ostida ajdodlarni, butun xalqni nazarda tutadi. Shunga o'xshash, “O'zbekning qorako'z bolalariga bitta dunyo qolsin hayratlik”, deganida ham o'zbek xalqi nazarda tutilgan. Badiiy asarlarda atoqli otlarning turdosh ot ma'nosida qo'llanishi ham S.ning bir ko'rinishi sanaladi. Chunki, mas., shoir “faqat Jumavoyi bo'lgani uchun havaslaring kelar robinzonlarga” deganida, mashhur romanga ishora qilgani holda, Robinzonga o'xshash hayot kechiruvchi kishilarni – ko'pchilikni nazarda tutadi.

SITUASIYA (fr. situation – holat, shart-sharoit) – syujetshunoslik kategoriyalaridan biri, voqeaband syujetning muhim unsuri. S. deganda syujetning ikki muhim voqeasi orasidagi shunday holat nazarda tutiladiki, unda ishtirok etuvchi personajlar va ular orasidagi o'zaro munosabatlar muayyan darajada turg'unlik kasb etadi. Biroq sirdan turg'un ko'ringan holat o'z ichki ziddiyatlariga ega: turli personajlar mavjud holatni u yoki bu tarzda o'zgartirishni istaydi. Ichki ziddiyatlar holatni keskinlashtiradi va bu keskinlashuv S.ni kolliziyaga (q. kolliziya) aylantiradiki, endi sifat jihatidan boshqa S.ga o'tiladi. Shu ma'noda, syujet rivojini bir S.dan ikkinchisiga o'tish, shunday almashishlar yig'indisi sifatida ta'riflash mumkin. Mas., Cho'lponning “Kecha” romanidagi Zebi syujet chizig'ining ilk S.i: so'fining xonadonida tutqun maqomida yashayotgan, endi ko'ngli kengliklarga talpinayotgan Zebi (bu holat roman vaqtiga qadar shakllangan, uning ishtirokchilari Zebi, Razzoq so'fi va Qurvonbibi). S.da mavjud ichki ziddiyat Saltining kelishi va dugonasini qishloq safariga taklif etishi bilan ochiqroq namoyon bo'ladi. Razzoq so'fining kirib kelishi bilan kolliziyaga aylanadi va safarga ruxsat berilishi bilan sifat jihatidan yangi S.ga almashadi. Umuman, Zebi syujet liniyasi yana safar – to'y arafasi – mingboshiga taslim bo'lish – kundoshlar orasidagi turmush – sud kabi S.larni o'z ichiga oladi. Ushbu S.larning har birida ishtirok etuvchi personajlarning



o‘zaro munosabatlari ma‘lum darajadagi turg‘unlikdan kolliziyaga va so‘ng sifat jihatidan yangi S.ga aylanishini kuzatish mumkin. S.ning syujetda namoyon bo‘lishi asar janri, turga mansubligiga qarab turlicha bo‘ladi. Jumladan, dramatik asar syujetida S. va uning almashinishi yaqqol ko‘zga tashlanishi muhim xususiyat, hikoyalarda esa S. va uning o‘zgarishi bir voqeaning ichki epizodlari darajasida namoyon bo‘ladi.

#### SIFATLASH – qarang: epitet

SONYeT (ital. sonetto, provanscha sonet – qo‘shiq so‘zidan) – qat‘iy she‘r shakllaridan biri, shakl xususiyatlariga ko‘ra tasnif etiluvchi lirik janr. S. o‘n to‘rt misradan tarkib topib, ikkita katren va ikkita tertsetni o‘z ichiga oladi. S.ning kanonik shakli ikki ko‘rinishda bo‘lib, “italyancha” variantida katrenlari abab abab, tertsetlari esa cdc dcd (yoki cde cde); “frantsuzcha” variantida katrenlari abba abba, tertsetlari ccd eed (yoki ccd ede) tarzida qo‘fiyalanadi. She‘riyat tarixida S.ning kanonik talablardan chekinish hollari ham uchraydi. Jumladan, “ingliz” S.ida uchta katren va bitta distixdan tashkil topib, katrenlari abab cdcd efef tarzidagi kesishgan, distix esa gg tarzida juft qo‘fiyalanadi. Shuningdek, S.ga bundan boshqa ham turli o‘zgarishlar (qo‘fiyalanishiga: boshdan oxirigacha juft va toq misralari ababab... tarzidagi sxema; kompozitsiyasiga: avval ikki tertset, keyin ikki katren; o‘lchoviga: katrenlardagi to‘rtinchi misra boshqa o‘lchovda va b.) kiritib, turfa variantlari tajriba qilib ko‘rilgan. Biroq S.ning kanonik shakllari baribir o‘z mavqegini daxtsiz saqlab qolgan, hozirda ham S. deganda shular nazarda tutiladi.

SONYeTLAR GULChAMBARI – sonetlar guldastasi; o‘n to‘rtta sonetdan tarkib topgan turkum bo‘lib, har bir sonet o‘zidan avvalgi sonetning oxirgi misrasi bilan boshlanadi, o‘n to‘rtta sonetning birinchi misralaridan esa o‘n beshinchi sonet – magistral tarkib topadi. Magistral turkumning g‘oyaviy-kompozitsion asosi bo‘lib, odatda, u boshqalaridan avval yoziladi. Bu jihatdan qaralsa, magistralning har bir misrasi tartib bo‘yicha qolgan o‘n to‘rt sonetning birinchi misrasi bo‘lib keladi. O‘zbek she‘riyatida S.g. shoir B.Boyqobilov ijodida kuzatiladi.

SOSIALISTIK RYeALIZM – XX asr boshlarida Rossiya va Yevropaning boshqa mamlakatlari adabiyotida yuzaga kelgan adabiy yo‘nalish; sho‘rolar hukumati tomonidan rasman qo‘llab-quvvatlangan va sobiq Ittifoq hamda jahonning boshqa sotsialistik mamlakatlari adabiyotida yetakchilik qilgan ijodiy metod. Falsafadagi tushunchalarni adabiyotga “dialektik-materialistik ijodiy metod” tarzida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirishga qarshi o‘laroq, S.r. termini sho‘ro matbuotida ilk bor 1932 yilda ishlatilgan. Keyinroq, sobiq Ittifoq yozuvchilarining birinchi s‘ezdi (1934) M.Gorkiy tomonidan inqilobiy gumanistik g‘oyalarni amalga tatbiq etishga qaratilgan ijodiy dastur sifatida ta‘riflangan S.r.ni sho‘ro adabiyotining asosiy metodi deya e‘tirof etgan. To‘g‘ri, XX asr bo‘sag‘asiga kelib Yevropaning qator mamlakatlari, ayniqsa, Rossiyadagi inqilobiy harakatlar sabab jiddiy o‘zgargan ijtimoiy-tarixiy sharoitda adabiyotning dunyoni idrok qilishida ham jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi: realizmni inkor qilish bilan bir qatorda, uni sifat jihatidan yangilashga, yangilangan ijtimoiy voqelikni yangicha aks ettirishga intilish ham mavjud edi. Xuddi shu sharoitda yaratilgan M.Gorkiyning “Ona” romani, “Dushmanlar” pesasi S.r. adabiyotining ilk namunalari sifatida ko‘rsatiladi. Ijodiy printsiplari nuqtai nazaridan qaralsa, bu asarlar mohiyat e‘tibori bilan realistik adabiyot namunasi edi, lekin ularda hayot materialini tanlash, tasvirlash va baholash printsiplari yangilangandi. Ya‘ni bu adabiyot, avvalo, g‘oyaviy nuqtai nazardan farqlandi. Shu jihatdan S.r.ni XX asr boshlarida vujudga kelgan va sobiq Ittifoq, shuningdek, jahonning qator sotsialistik mamlakatlari adabiyotida 70-yillarga qadar yetakchilik qilgan adabiy yo‘nalish deb hisoblash mumkin. Mazkur yo‘nalishning tabiiy va qonuniy ravishda, ijtimoiy-tarixiy sharoitdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda yuzaga kelgani va adabiy jarayonda boshqa yo‘nalish va oqimlar qatori mavjud bo‘lgani shubhasiz. Biroq adabiyot sohasida o‘z gegemonligi, yakkahokimligini o‘rnatishga bel bog‘lagan sho‘ro siyosati uni muayyan adabiy-estetik kanonga aylantirish va barcha ijodkorlarni shu asosda birlashtirgan holda, o‘z mafkurasiga xizmat qildirishga intildi. S.r.ning qator talablari ishlab chiqildi. Jumladan, voqelikni inqilobiy rivojlanishda tasvirlash, asarning inqilobiy faol gumanizm bilan yo‘g‘rilgan bo‘lishi, uning markazida kommunistik g‘oyalar g‘alabasiga ishongan va shu yo‘lda tolmay kurashayotgan ijobiy qahramonning turishi, davr ziddiyatlarini marksistik sinfiylik nuqtai nazaridan tushunish hamda baholash va sh.k. Mazkur talablar tub mohiyati bilan g‘oyaviy asosda bo‘lib, ular voqelikni bir g‘oyaviy qolipda ko‘rishni taqozo etishi bilan, tabiiyki, ijodiy individuallikka raxna soladi. Ikkinchi tomondan, ular 30-yillarning o‘rtalarida, marksizm-leninizm asoschilarining qariyb 50 – 100 yillar avvalgi sharoitda aytgan fikrlariga tayangan holda ishlab chiqilgan. Holbuki, o‘tgan davrlar mobaynida hayot XX asr shiddatiga mos muttasil o‘zgarishda bo‘lgan. Albatta, bu ziddiyatli holatda S.r. nazariyasining ijod amaliyotidan orqada qolishi, uning dogmaga aylanishi tabiiy edi. Natijada nazariya bir tomon, adabiy jarayon bir tomonligicha qoldi. Hozirda sovet davri adabiyoti bilan sotsialistik realizm adabiyoti bitta narsa emasligi keng e‘tirof etiladi. Zero, chinakam san‘atkorlar mafkura zug‘umi ostida ham dunyoni o‘zicha

ko'rish, tasvirlash va baholashga intildilar. Aksincha, shu qoliplar asosida, sho'ro adibi oldiga qo'yilgan talablarga og'ishmay amal qilib yozilgan asarlarning aksariyati g'oyaviy sxematizm qurboni bo'ldi, metod zug'umi sabab ijodiy imkoniyatlar ro'yobga chiqmadi. O'tgan asrning 60 – 70-yillaridan boshlab metodning dogmaga aylanib borayotgani ochiq ko'zga tashlana boshladi. Xuddi shu sharoitda nazariyada S.r.ni ochiq sistema sifatida talqin etish, boshqacha aytgach, uni isloh qilishga intilish ham kuchaydi. Biroq bu harakat metodni inqirozdan saqlab qolishga ojiz edi, chunki yakkahokim mafkura sharoiti metodning asosi (ya'ni markscha-lenincha falsafa) daxlsiz qolishini taqozo etardi. Hozirgi adabiyotshunoslikda S.r. metodi va adabiyotiga salbiy munosabat, uni "soxta metod" deb atash ustuvorroq. Albatta, bunga muayyan asos ham yo'q emas. Ayni chog'da, S.r. adabiyot tarixining ma'lum bosqichida tabiiy ravishda vujudga kelganini ham e'tirof etish zarur. Faqat shu hodisani mutlaqlashtirib, uni badiiy ijoddagi yagona va eng to'g'ri yo'l deb tushunilgani, muayyan davr adabiyotiga xos xususiyatlar asosida go'yo universal qoidalar ishlab chiqilgani va ijodkorlarning ularga rioya qilishi lozimligi deyarli ma'muriy tarzda belgilab qo'yilgani uni muqarrar tanazzulga olib keldi.

**SOSIOLOGIK MYeTOD** – badiiy adabiyotni, adabiy hodisa va faktlarni ijtimoiy hayot bilan uzviy aloqada o'rganishga asoslanuvchi tadqiqot metodi. Adabiyot va san'atga ijtimoiy hodisa sifatida qarash qadimdan mavjud (mas., Aflotun. "Davlat") bo'lsa-da, ularning ijtimoiy tabiatini ilmiy asosda o'rganish XIX asr o'rtalaridan boshlandi. Adabiyotga sotsiologik yondashuv tamoyillari ilk bor madaniy-tarixiy maktab faoliyatida ko'zga tashlanadi. Jumladan, shu maktabning yirik namoyandasi I.Ten adabiy asarda ma'lum bir tarixiy davrdagi "xalq ruhi" aks etadi deb biladi, bu ruh esa millatning ayni shu davrdagi tafakkur darajasi, turmush tarzi, urf-odatlar va sh.k.lar bilan chambarchas bog'liq. Tenga ko'ra, adabiy asar tabiati "irq" (millatga xos tug'ma sajiya), "muhit" (tabiat, iqlim, ijtimoiy sharoit) va "davr" (erishilgan madaniy daraja va an'ana) xususiyatlari bilan belgilanadi. Shuning uchun ham adabiy asarni alohida olib emas, balki shu omillarni hisobga olgan holda tahlil va talqin qilish zarurki, shunday yondashuvgina ilmiy jihatdan asosli xulosalar chiqarishga imkon beradi. Shundan bo'lsa kerak, XIX asr o'rtalaridan boshlab adabiyotshunoslikda sotsiologik yondashuvning salmog'i muttasil ortib bordi; sotsiologik yondashuv marksistik adabiyotshunoslikning, xususan, sho'ro adabiyotshunosligining ham asosini tashkil qildi. Darhaqiqat, S.m. adabiyotshunoslikning qator masalalarini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Mas., badiiy voqelik bilan reallik munosabatlari, uning tarixan haqqoniylik darajasi, hayot haqiqati bilan badiiy haqiqat munosabati kabi masalalarni o'rganishda S.m.gina qo'l kelishi mumkin. Unga tayanib, asarning g'oyaviy-mafkuraviy tomonlari, qahramonlarning xarakter xususiyatlari, asardagi konfliktlar tabiati, obrazlar tizimi va h. badiiy unsurlarning ijtimoiy ildizlarini ochish mumkin. Hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylanish jarayoni, xarakter va prototip, tarixiy shaxs obrazi va real tarixiy shaxs munosabati kabi ijod jarayoni bilan bog'liq muammolarni o'rganishda ham sotsiologik yondashuv asos vazifasini o'taydi. S.m.ning adabiyotshunoslikda muhim ahamiyatga molikligi shubhasiz, biroq uni mutlaqlashtirish yaramaydi. Aksincha, unga mavjud tadqiq metodlaridan biri sifatida qarash, muayyan masalani o'rganish uchun zarur o'rinlarda va boshqa metodlar bilan birlikda qo'llash samaraliroq natija beradi. Zero, adabiyot faqat ijtimoiy omillargagina bog'liq emas, adabiyotshunoslikning predmeti, uni qiziqtirgan masalalar g'oyat serqiradir. Buni e'tiborga olmaslik esa adabiyot uchun zararli oqibatlariga olib kelishi mumkinki, bunga yorqin misollarni sho'ro adabiyotshunosligidan istagancha topishimiz mumkin bo'ladi. Mas., sho'ro adabiyotshunosligidagi vulgar sotsiologizm ko'rinishlari S.m. mavqeini mutlaqlashtirish natijasi edi. Badiiy asarlar, adabiy hodisalar tahlilida S.m. buzib qo'llangan, ularni shu asosda baholagan tanqidiy maqolalar keyincha ko'plab ijodkorlarni qatag'on qilish uchun dastakka aylandi, o'quvchi ommani o'sha ijodkorlarni "xalq dushmani", asarlarini "zararli" deb tushinishga tayyorladi. Aytish kerakki, sho'ro davrida ayriча ahamiyat berilgan S.m. hozirda ancha e'tibordan qolgan, ko'pincha unga salbiy munosabat kuzatiladi. Biroq bunga qo'shilib bo'lmaydi, chunki gap metodda emas, hamma gap uning qanday va qay maqsadda qo'llanishidadir. Demak, undan voz kechish to'g'ri emas, zero, adabiyotshunoslikdagi talay masalalarni tadqiq etishda S.m.ning muhimligi inkor qilib bo'lmaydigan haqiqatdir.

**SOQIYNOMA** (ar. ????? – suv ulashuvchi, ruhiy ozuqa beruvchi, ????? – xat) – mumtoz adabiyotdagi o'ziga xos kompozitsion qurilishga ega yirik hajmli lirik janr. S. bir necha banddan tashkil topib, uning har bir bandi masnaviy shaklidagi bir necha baytdan (a-a, b-b, v-v va h.) tarkiblanadi. Manbalarda S.ning qat'iy shakli belgilari sifatida mutaқorib bahrida yozilishi va har bir bandining soqiyga murojaat bilan boshlanishi ko'rsatiladi. Mas., Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devoniga kiritilgan S. jami 32 banddan iborat bo'lib, uning birinchi bandi quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Soqiyo, tut qadahi shohona,

Qatrası la'l vale yakdona.

**STILIZASIYA** (yun. *stylos* – muamlangan taxtachaga yozish uchun ishlatilgan tayoqcha; uslub) – muayyan badiiy-estetik maqsadlarni ko‘zlab, o‘zga bir ijodkor, davr, adabiy yo‘nalish va sh.k.larga xos uslubiy xususiyatlarni qayta tiklashga asoslangan usul. Manbalarda biron bir ijtimoiy guruhga mansub shaxs tilining o‘ziga xos jihatlarni qayta yaratish ham S.ning bir ko‘rinishi deb ta’riflanadi. Biroq buni personaj nutqini individuallashtirishdan farqlash lozim: S. haqida rivoya personaj-hikoyachi tilidan olib borilgan va o‘sha hikoyachi nutqiga xos uslub qayta tiklangan hollarda gapirish to‘g‘ri bo‘ladi. Mas., G‘.G‘ulomning “Shum bola” qissasida rivoya personaj tilidan olib borilgan va unga xos uslubiy xususiyatlar qayta yaratilgan. Yoki X.Sultonovning “Ko‘ngil ozodadur” qissasida XIX asr adabiy tili, xususan, Gulxaniy uslubiga xos jihatlari qayta yaratiladi. Yozma adabiyotda folklorga xos uslubni qayta yaratish ham S.ning ancha keng tarqalgan ko‘rinishidir. Bunga xalq yo‘lida yozilgan she‘rlar (I.Mirzo. “Farg‘onacha”; E.Shukur. “Mengim momoning yo‘qlovi”), adabiy ertaklarni (G‘.G‘ulom. “Hasan Kayfiy”, “Afandi o‘lmaydigan bo‘ldi”) misol qilish mumkin. U.Azimning “Baxshiyona” turkumi, X.Davronning “Baxshi o‘g‘illari haqida rivoyat”, Faxriyorning “Baxshining sevgisi” asarlari xalq dostonlariga S. qilish asosida yaratilgan. Shuningdek, S. parodiyaning o‘zak xususiyati sanaladi, unda ob‘ektga xos uslubiy xususiyatlar saqlangani holda, bu ish hajviy-kulgili tarzda amalga oshiriladi.

**STOPA** (yunon tilidan ruschaga kalka: oyoq, tovon) – antik she‘r tizimidagi ritmik birlik, cho‘ziq va qisqa hijolarning muayyan tartibdagi guruhi, ularning takrorlanishi hisobiga ma‘lum o‘lchovli ritm yuzaga keladi. Terminning paydo bo‘lishi qadimda she‘r ritmi oyoqni ko‘tarib-tushirish orqali belgilab (doirada usul belgilangani kabi) borilgani bilan bog‘liq: qisqa hijoda oyoq (tovan) yerdan uzilib, cho‘ziq hijoda yerga urilgan. Termin rus sillabo-tonik she‘riyati tomonidan o‘zlashtirilgan bo‘lib, unda S. urg‘uli va urg‘usiz hijolarning muayyan tartibdagi guruhini bildiradi. Bu she‘r tizimida beshta stopa (rukn) bo‘lib, ular: xorey (– V), yamb (V –), daktil (– V V), anapest (V V–) va amfibraxiy (V – V) tarzida antik she‘r tizimidan o‘zlashtirilgan terminlar bilan yuritilgan (urg‘usiz: V, urg‘uli: –). Mohiyatiga ko‘ra, S. aruz tizimidagi rukn (q.) bilan o‘xshashdir.

**STROFIKA** (yun. *strophe* – burilish; band) – she‘rshunoslikning band tuzilishi haqidagi bo‘limi, she‘riy misralarning bandga birikish tamoyillari (hajm, jumla qurilishi, ritmik kompozitsiya) va qonuniyatlarini, shuningdek, qat‘iy band tuzilishiga (strofik) ega va ega bo‘lmagan (astrofik) she‘r shakllari, shakliyl belgilariga ko‘ra tasniflanuvchi qat‘iy she‘riy shakllarni o‘rganadi.

**STRUKTURALIZM** (lot. *structura* – qurilish, joylashish) – XX asrdagi ikkita jahon urushi oralig‘ida shakllangan va 60-yillarga kelib keng (ayniqsa, Frantsiyada) ommalashgan yo‘nalish, ijtimoiy va gumanitar ilm sohalaridagi tadqiqot metodi. S.ning otasi sifatida zamonaviy tilshunoslikning asoschisi F. de Sossyur (1857 – 1913) e’tirof etiladi. Olim o‘zining “Umumiy tilshunoslik kursi” asarida real nutq birligi bilan uning asosida yotuvchi sistemani farqlaydiki, bu sistema inson tomonidan til o‘rganish jarayonida o‘zlashtiriladi. Sossyurga ko‘ra, shu sistemaning strukturasi (tuzilishi, unsurlari, ularning o‘zaro munosabati)ni tavsiflash va o‘rganish tilshunoslikning asosiy vazifasidir. Xuddi shu tamoyil keyincha, Ikkinchi jahon urushidan so‘ng boshqa ijtimoiy-madaniy hodisalarga ham ko‘chirilib, tilshunoslik metodlari estetika, san‘at va madaniyatning barcha sohalariga tatbiq etila boshlandi. Tilshunoslik metodlari bilan birga, S. o‘z faoliyatida mantiqiy-matematik tadqiq usullariga tayandi, psixoanalizdagi ongsizlik kategoriyasini o‘zlashtirdi. Dunyoqarash nuqtai nazaridan S. eksiztentsializmga zid mavqe egallangani holda, falsafadagi ba’zi (marksizm, fenomenologiya, germeneytika) ta’limotlar bilan mushtarak nuqtalari ham bor. Xususan, mutaxassislar S.ning hammadan ham neopozitivizmga yaqin turishini ta’kidlaydilarki, bu gumanitar bilim sohasini aniq va tabiiy fanlar (ya’ni aniq va qat‘iy qonuniyatlariga ega ilm) darajasiga yetkazish maqsadi bilan izohlanadi. Xullas, o‘tgan asr o‘rtalariga kelib S. ijtimoiy-madaniy hodisalar zamirida yotuvchi modellarni ochish, shu asosda ijtimoiy-gumanitar sohalarida ob‘ektiv ilmiy bilish imkoniyatlarini namoyon etishni maqsad qilgan ilmiy yo‘nalish, metodga aylanadi. S. tilshunoslik, adabiyotshunoslik va antropologiyada boshqa sohalariga qaraganda kuchliroq namoyon bo‘ldiki, ilmiy yo‘nalish sifatidagi S.ning

yetakchilari sifatida tilshunos R.Yakobson, adabiyotshunos R.Bart, antropolog K.Levi-Strosslarning e'tirof etilishi shundan.

S.ning adabiyotshunoslikdagi ilk kurtaklari rus formal maktabi namoyandalari (R.Yakobson, V.Shklovskiy, Yu.Eyksenbaum, Yu.Tinyanov va b.) faoliyatida yuz ko'rsatgan bo'lsa, V.Proppning «Sehrli ertak morfologiyasi» (1928) asari mazkur metod ancha izchil qo'llangan tadqiqot sanaladi. Keyincha struktur adabiyotshunoslik markazi Frantsiyaga ko'chib, uning rivoji R.Yakobson, R.Bart, S.Todorov kabi olimlar faoliyati bilan bog'liq holda kechdi. Shuningdek, struktur adabiyotshunoslik rivojida Yu.M.Lotman boshchiligidagi Moskva-Tartu ilmiy maktabining ham katta xizmati bor. Shu o'rinda struktural adabiyotshunoslikka xos xususiyatlardan ayrimlarini keltirib o'tish o'rinli. Jumladan, u adabiy asarga immanentlik tamoyili asosida yondashadi, ya'ni adabiy asarni alohida hodisa sifatida olib, uning ichki qurilishini tadqiq etadi, asardan tashqaridagi omillar (genezisi, rivojlanishi, tashqi vazifalari va sh.k.) e'tibordan soqit qilinadi. Immanent tahlilning maqsadi esa tadqiq etilayotgan asarning ichki qurilishi, undagi unsurlarning asarning sistem butunlik sifatida namoyon bo'lishini ta'minlovchi o'zaro aloqa va munosabatlarini o'rganishdan iboratdir. S. ifoda va ma'no munosabatiga noan'anaviy yondashadi. An'anaga ko'ra, ma'no avvaldan mavjud va ifodalashni taqozo etadigan narsa sifatida tushunilsa, S. buni inkor qilib, struktura – shakl unsurlarining o'zaro aloqa-munosabatlari sistemani yuzaga keltirishi davomida ma'no voqe bo'ladi, deb biladi. Ya'ni bu xil yondashuvda, bir tomondan, ma'no strukturaning hosilasi sifatida tushuniladi; ikkinchi tomondan, har qanday hodisaning tub va universal strukturalari mavjud degan qarashdan kelib chiqib, ayni shu strukturalarga ma'noni shakllantiruvchi omil deb qaraladi, natijada esa ijodda sub'ektning roli pasaytiriladi yo butkul istisno qilinadi. Tub universal strukturalarni aniqlash, narsa-hodisalarning matematik aniqlikdagi modellarini yaratish S. o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadlardan biridir. Jumladan, S.Todorov struktural poetika o'z tushunchalarini konkret asarga emas, balki har qanday adabiy matnga qaratadi, deb aytadi. Ya'ni model janrga mansubligidan qat'i nazar, har qanday asar tahlilini asoslashga yaramog'i kerak. R.Bart esa o'z oldiga yanada maksimal maqsadni qo'yadi: u “so'nggi struktura” yoki “matritsa”ni izlaydiki, u nafaqat adabiy, balki umuman har qanday matn, bunga qadar yaratilgan, yaratilayotgan va yaratilajak matnlar mohiyatini aks ettira olsun. Model va strukturalarni yaratish, tabiiyki, tadqiq ob'ektining strukturaviy unsurlarini ajratish, tasniflash, ular orasidagi turli (binar oppozitsiya, kontrast, zidlash, to'ldirish, simmetriya, asimmetriya va b.) munosabatlarni o'rganishni taqozo etadi. Shunga ko'ra, struktur adabiyotshunoslikda mazkur talabga mos tushunchalar tizimi, tahlil usullari ishlab chiqilgan.

70-yillarga kelib S. o'z imkonlarini sarflab bo'ldi, o'rnini o'zining bag'rida yetishgan, o'zining davomchisi va ziddi sifatida maydonga chiqqan poststrukturalizmga (q.) bo'shatib berdi. Umuman olganda, S. o'z oldiga qo'ygan ulkan maqsadlarga, xususan, adabiy asarga badiiy-estetik qadriyat sifatida yondashish masalasini hal qilishga erisha olmadi. Zero, badiiy asarning ichki tuzilishi, struktura elementlari va ularning o'zaro aloqalari, qismlarning butunlikka birikish qonuniyatlarini nechog'li chuqur va atroflicha o'rganmasin, uning tahlillari badiiy asarning estetik ta'sir kuchi va badiiy qimmatini belgilaydigan qator omillarni e'tibordan soqit qilgan edi. Shunga qaramay, S. adabiy-nazariy tafakkurni, badiiy asar haqidagi mavjud tasavvurlarni boyitdi, uning ilgari yetarli e'tibor berilmagan tomonlariga diqqatni jalb qila bildi, u ishlab chiqqan metodlar hozirgi adabiyotshunoslikning badiiy tahlil imkonlarini kengaytirdi.

SYuJYeT (fr. sujet – predmet, asosga qo'yilgan narsa) – badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri, asardagi bir-biriga uzviy bog'liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimi. Syujetlilik badiiy adabiyotning xos xususiyatlaridan biri bo'lib, S. tur yo janridan qat'i nazar, barcha asarlarda bor, biroq uning namoyon bo'lishi ko'p jihatdan qaysi tur yoki janrga mansubligiga bog'liq. Mas., lirikada voqealar tizimi yo'q, lekin unda o'y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji bor va bu uning S.ini tashkil qiladi. Yoki eposning kichik shakllari, xususan, novellalardagi S. ham “voqealar tizimi” degan ta'rifga muvofiq emas: bunda bir hayotiy holat ichidagi o'sish, rivojlanish kuzatiladi (mas.: Cho'lpon. “Taraqiy”; A.Qahhor. “Bemor”). Shuni ko'zda tutgan holda, adabiyotshunoslikda voqeaband va voqeaband bo'lmagan S. lar ajratiladi. Ayrim adabiyotshunoslar (mas., G.Pospelov) S. epik va dramatik asarlarga xos, lirik asarlar S.ga ega emas, deb hisoblaydi. Bu qarashga ko'ra, lirik asarda kompozitsiya S. (voqealar tizimi) o'rnini bosib, o'y-kechinmalarni muayyan tartibda uyushtiradi. Mazkur qarash terminologik chalkashliklardan qochish, S. terminini bir ma'noda – voqealar tizimi deb tushunish imkonini beradi. Keng ommalashgan ta'riflardan biriga ko'ra, S. “u yoki bu xarakterning, tipning tarixiy rivojlanishi, tashkil topib borishidir”(M.Gorkiy). Biroq xarakter doim ham rivojlanish, o'sish va shakllanishda ko'rsatilmaydi. Mas., hikoyada xarakterlar tayyor holda beriladi, voqea davomida rivojlanmaydi, S. bu

o'rinda voqeaning ichki rivojini namoyon etadi, xolos. Demak, mazkur ta'rif universal emas, u ayrim tipdagi asarlarga (mas., "Qutlug' qon") nisbatgina to'g'ridir. Albatta, S. rivoji davomida xarakterning shakllanishi, ochilishi ham bor gap, lekin bu S.ning badiiy funktsiyalaridan biri, uning mohiyati emas. Xullas, agar "syujet" termini ostida epik va dramatik asarlarga xos S. nazarda tutilsa, unda S. asardagi "bir-biriga bog'liq voqealar tizimi" yoki "konkret holat, bitta voqeaning ichki rivoji"dir.

S.ning birlamchi funktsiyasi asar problemasini badiiy tadqiq etishga imkon beradigan hayot materialini uyushtirib berishdan iboratdir. Demak, S. ning qanday bo'lishi mazmunga, muallif ijodiy niyatiga bog'liq. Mas., A.Qodiriy "O'tgan kunlar" uchun tanlagan S. Otabekning Toshkentdan, Kumushning Marg'ilondan bo'lishi – ijodiy niyat ijrosi uchun eng maqbul variant. Negaki, S.ning "o'q"i – "ishqiy-maishiy" S. chizig'i Toshkent bilan Marg'ilonni bog'lagani yozuvchiga o'zini o'ylatgan problemalar tadqiqi uchun zarur voqea va tafsilotlar (xon o'rdasi, Toshkent isyoni, qipchoq qirg'ini kabi)ni asarga olib kirish imkonini beradi. Muhimi, ular asarga hech bir zo'rakiliksiz, o'quvchi xayolini band etgan Otabek-Kumush liniyasiga uzviy bog'langan holda olib kiriladi, natijada adibga shaxs erki, millat erki, millat taqdiri muammolarini atroflicha badiiy tadqiq etish, fikrlarini ifodalash imkoni yaratiladi. Ko'rinadiki, S. hayot materialini shunchaki emas, balki badiiy kontseptsiyani shakllantirish va ifodalashga eng qulay (optimal) tarzda uyushtirish ekan.

S. personajlarning "harakat"laridan tarkib topadi. Personajlarning makon va zamonda kechuvchi xatti-harakatlari ham, ruhiyatidagi o'y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji ham harakatdir. Shu harakat tiplaridan qaysi biri yetakchilik qilishiga qarab, S.ning ikki tipi ajratiladi: a) "tashqi harakat" dinamikasiga asoslangan S.; b) "ichki harakat" dinamikasiga asoslangan S. Birinchi tipdagi S.larda personajlarning biror maqsad yo'lidagi xatti-harakatlari, kurashi, to'qnashuvlari, hayotidagi burilishlar tasvirlanadi va shu asosda ularning taqdiri, ijtimoiy mavqeda muayyan o'zgarishlar yuz beradi. Bu nav S.larda voqea to'laqonli tasvirlanadi va o'z holicha ham badiiy-estetik qimmat kasb etadi. Kelib chiqishi jihatidan S.ning bu turi qadimiyroq (folkloridagi sehrli ertaklar, rivoyatlar, dostonlar). Yangi o'zbek adabiyotida ham S.ning bu tipi kengroq tarqalgan: "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Kecha va kunduz", "Qutlug' qon", "Sarob" – bularning barida tashqi harakat dinamikasi yetakchilik qiladi. Albatta, bu asarlarda "ichki harakat" dinamikasi ham bor, biroq u mavqe jihatidan S. tipini belgilashga ojizlik qiladi. S.ning ikkinchi tipida voqealar o'z holicha emas, personaj ruhiyatidagi jarayonga turtki berishi jihatidan ahamiyat kasb etib, asar davomida personajlar hayotida, taqdirida yoki ijtimoiy holatida emas, uning ruhiyatida burilishlar, o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu tip S.lar adabiyotimizda ancha keyin, XX asrning 80-yillardan paydo bo'lib, hozircha nasrning kichik va o'rta (mas., A.A'zam. "Bu kunning davomi", "Asqartog' tomonlarda") shakllarida, shuningdek, bir qator dramatik (mas., Sh.Boshbekov. "Taqdir eshigi", "Eshik qoqqan kim bo'ldi") asarlarda sinab ko'rildi.

Voqealarning o'zaro munosabatiga ko'ra S.ning xronikali va kontsentrik turlari ajratiladi. Xronikali S.da voqealar orasida vaqt munosabati (A voqea yuz berganidan so'ng, B voqea yuz berdi) yetakchilik qilsa, kontsentrik S. voqealari orasida sabab-natija munosabati (A voqea yuz bergani uchun, B voqea yuz berdi) yetakchilik qiladi. Xronikali S., bir tomondan, hayotni keng epik ko'lamda tasvirlash, ikkinchi tomondan, qahramon taqdirini davriy izchillikda, xarakterini rivojlanishda ko'rsatish uchun qulay. Chunki unda asosiy syujet bilan yondosh holda yordamchi syujet chiziqlarini ham yurguzish, juda katta hayot materialini qamrab olish imkoniyati mavjud. Xronikali S.da asarning "badiiy vaqt"i istalgancha kengaytirilishi mumkin: unda "parallel vaqt"da kechayotgan voqealarni tasvirlash, retrospektsiya – zamonda ortga qaytish usulidan foydalanish imkoniyatlari ancha keng. Shuningdek, xronikali S.ga qurilgan asarga S.dan tashqari unsurlar (rivoyatlar, kiritma epizodlar va b.), muallif mushohadalari, tafsilotlarni tabiiy ravishda kiritish, badiiy matnga singdirib yuborish mumkin. Shu bois ham katta epik asarlarda (S.Ayniy. "Qullar"; P.Qodirov. "Yulduzli tunlar") ko'proq xronikali S. qo'llanadi. Kontsentrik S. esa voqealarning bitta asosiy voqea tegrasida aylanishi bilan xarakterlanadi. S.ning bu turi voqealarning konflikt asosida shiddat bilan rivojlanib, yechimga tomon intilishini taqozo qiladi. Kontsentrik S. asarning shakl-kompozitsion jihatdan mukammal, o'qishli va qiziqarli bo'lishiga imkon beradi. Chunki bu nav S. o'quvchi diqqatini bitta nuqtada tutib turadi, uning o'qish jarayonidagi faolligini oshiradi (mas., detektiv asarlar). Kontsentrik S. nisbatan qisqa vaqt ichida kechgan voqealarni qamrashi, yondosh S. chiziqlarini kiritish imkoniyatlarining kamligi bilan ham xarakterlanadi. Sanalgan xususiyatlarni O.Yoqubovning "Muqaddas", "Billur qandillar", "Ulug'bek xazinasi" kabi asarlari misolida kuzatish mumkin. Aytish kerakki, S.ning bu ikki turiga xos xususiyatlar, ko'proq, aralash holda zuhur qiladi. Zero, xronikali S. voqealari orasida sabab-natija (oldin yuz bergan voqea keyin yuz bergan voqeaga qisman sabab bo'lib keladi) munosabati, kontsentrik S. voqealari orasida esa vaqt munosabati (natija sababdan keyin keladi) kuzatilishi tabiiy. Shunga ko'ra, konkret asardagi S. tipi mazkur munosabatlarning qaysi biri yetakchi mavqega egaligiga qarab belgilanadi. Ba'zi asarlarda S.ning ikkala tipiga xos xususiyatlar ham salmoqli va uyg'un holda namoyon bo'ladi, ayni shu uyg'unlik ularning jozibasini ta'minlaydi. Mas., A.Qodiriyning "O'tgan kunlar",

Cho'loning "Kecha va kunduz" romanlarida shu xil uyg'unlikni ko'ramiz. Ikkala romanda ham xronikalilik yetakchi bo'lgani holda, kontsentrik S. xususiyatlaridan keng foydalanilganki, har ikki tipga xos eng yaxshi jihatlarning uyg'unlashuvi badiiy mukammallikka xizmat qiladi.

SYURRYEALIZM (fr. surrealisme – oliy realizm, realizmdan yuqori) – adabiyot va san'atdagi XX asrning 20-yillarida maydonga kelgan avangardistik yo'nalish. S.ning paydo bo'lishi frantsuz shoiri A.Breton (1896 – 1966) boshchiligidagi yozuvchi va rassomlar guruhining faoliyati bilan bog'liq. S.ning ilk namunasi sifatida A.Breton bilan F.Supo hammuallifligida yozilgan "Magnit maydonlari" (1919) asari e'tirof etiladi, uning adabiy-badiiy harakat sifatidagi faoliyatining boshlanishi 1924 yilga to'g'ri keladi. Xuddi shu yili A.Bretonning "Syurrealizm manifesti" (uning yaratilishida L.Aragon ham qatnashgan) e'lon qililib, unda guruhning adabiy-estetik qarashlari dasturiy tarzda ifodalangan. S. Birinchi jahon urushidan keyingi ma'naviy inqiroz sharoitida vujudga kelgan bo'lib, uning nazariy asosini Berkli, Kant, Nitsche kabi mutafakkirlar, shuningdek, B.Kroche tomonidan yangicha idrok etilgan Hegel ta'limotlari tashkil qiladi. 20-yillarda ijodkor ziyolilar orasida urf bo'lgan Freyd ta'limotining S.ga ta'sirini alohida ta'kidlash lozim.

S. ratsionalizmni, shu bilan bog'liq holda realizmni inkor qiladi. Jumladan, "Syurrealizm manifesti"da yozilishicha, insoniyat "hamon mantiq zulmi ostida yashamoqda", holbuki, hozirgi vaqtda mantiq faqat ikkinchi darajali masalalarni hal qilishgagina yaroqli, ratsionalizm bevosita tajriba bilan bog'liq faktlarinigina idrok eta oladi, xolos. Pozitivizm poydevoriga qurilgan realizm esa – insondagi har qanday aqliy va ruhiy parvoz dushmani, u tushuntirib bo'lmaydigan narsalarni tushuntirishga telbalarcha berilgan va bu bilan aqlarni mudroq holga soladi, undagi tahlil istagi jonli sezimlarni bosib ketadi. Bularga qarshi o'laroq, S. taxayyul erkinligi, insonni tsivilizatsiya zug'umidan ozod qilish shiorlari bilan maydonga chiqdi, ob'ektiv voqelikni tasvirlash va badiiy bilish emas, balki undan-da yuqori turuvchi reallikni yaratish, inson ongining chuqur puchmoqlarini tasvirlash, uning ongosti qatlamlariga ta'sir qilish orqali badiiy muloqotni amalga oshirishni maqsad qildi, "avtomatik yozish"ni ijodning asosiy usuli deb bildi. Ijodning mazkur usuliga manifestda quyidagicha ta'rif beriladi: "Sof psixik avtomatizm ko'zlaydigan maqsad – xoh og'zaki, xoh yozma va xoh istalgan boshqa yo'sinda fikrning real yashashini ifodalashdir. Fikrni aql nazoratidan xoli tarzda, hech bir estetik yoki ma'naviy andishalarsiz o'qib berish demakdir". "Magnit maydonlari", mualliflarining ta'kidlashlaricha, xuddi shu yo'sinda, fikr va assotsiatsiyalarni bevosita, qanday tezlikda tug'ilgan bo'lsa, o'shanday tezlikda qayd etish natijasida dunyoga kelgan. Ya'ni bunda, bir tomondan, chetda xolis turgan ijodkor go'yo fikrlarni qayd etuvchi apparatga aylanadi; ikkinchi tomondan, ijodkor o'zidan o'tkazib berilayotgan olam, ob'ektning bir qismi, til esa vosita emas, balki sub'ekt bo'lib qoladi. Syurrealistik obrazda voqelik deformatsiyalangan (bu hol, ayniqsa, rassomlikda yaqqol ko'zga tashlanadi, tasvirlanayotgan narsalarning shakl-shamoyili kuchli o'zgarishga uchraydi) holda akslanadi, unga erkin assotsiativlik (q.), bir-biriga aslo qo'shilolmaydigan (misoli o't bilan suvdek) narsalarning birlashib ketishi xos. S.ga xos obrazning tabiati terminni ilk bor ishlatgan Apollinerning: "Inson yurishga taqlid qilmoqchi bo'lganida, g'ildirakni – oyoqqa o'xshamaydigan narsani yaratdi. Bu g'ayrihuuriy syurrealizm edi", – deganida o'zining muxtasar ifodasini topgan. Syurrealistik obrazda narsa go'yo qismlarga ajratiladi-da, keyin mantiqqa to'g'ri kelmaydigan tarzda qayta birlashtiriladi, natijada narsa realizmdagi kabi asliga monand aksini topmaydi, u haqda irreal taassurot hosil qilinadi. Bu umuman S. estetikasiga xos bo'lib, undagi go'zallik tushunchasi "go'zallik anatomik stolda tikuv mashinasi bilan yomg'irpo'shning tasodifiy uchrashuvi" deguvchi frantsuz shoiri Lotremon (1846 – 1870) qarashlaridan oziqlanadi. Realizm voqelikdagi sabab-natija asosidagi o'zaro bog'liqlikni diqqat markaziga qo'ysa, S. unda "ob'ektiv tasodif" (A.Breton) ustuvor deb biladi. S. estetikasida "ob'ektiv tasodif" bilan bir qatorda "g'aroyiblik"ka ham katta ahamiyat beriladi: "g'aroyib narsa har vaqt go'zal, barcha g'aroyib narsalar go'zal, faqat g'aroyib narsalargina go'zal", – deyiladi "Syurrealizm manifesti"da. Shuning uchun ham syurrealistik asarlarda g'ayrioddiy, fantastik elementlar keng o'rin tutadi, ular realistik detallar bilan g'alati tarzda birikadi va go'yo oliy realizmni, aslidagidan ham haqiqiyroq voqelikni yaratishga xizmat qiladi. S. obrazni san'at doirasidan chiqaradi, uni belgi emas, balki moddiy mavjudlik deb biladi. S.ning yirik namoyandasi rassom S.Dali hazilnamo yo'sinda buni quyidagicha ifodalaydi: "Go'zallik yo'yeyishli bo'ladi, yo umuman bo'lmaydi". Tabiiyki, bunda badiiy asarning estetik ob'ekt emas, balki mavjud narsa sifatida qabul qilinishi, estetik ta'siri ham jisman (shahvoniy lazzat, dahshat, tashvish va sh.k. tarzda) his etilishi ko'zda tutiladi. S. san'atni mifologik asosga ega deb biladi, miflarga murojaat qilish bilan birga yaqin o'tmish adabiyoti va san'atidagi obrazlar, motivlar asosida yangi miflar yaratishga intiladi; badiiy ijodda sub'ekt rolini yuqoridagicha tushungani bois ham san'atni ko'proq kollektiv ijod mahsuli deb hisoblashga moyil. Yana badiiy ijodga o'yin deb qarash ham xos bo'lib, S.ning mavjud voqelikka munosabatida kinoya, yumor ustuvor, biroq u ko'proq "qora yumor" ko'rinishida, mavjud qadriyatlarini anarxik inkor qilishga qaratilgan bo'lib, mohiyatan absurdga yaqin turadi. Bulardan ko'rinadiki, bayrog'iga "Sevgi, go'zallik, isyon" so'zlarini bitgan

“dunyoni qayta tuzish” (K.Marks), “hayotni o‘zgartirish” (A.Rembo) maqsadlari bilan maydonga chiqqan S. o‘zidan avvalgi va o‘ziga zamondosh isyonkor, avangardistik oqimlarga xos jihatlarni o‘ziga singdirgan edi.

S.ning adabiy-badiiy maktab sifatidagi faoliyati uzoq davom etmadi, Ikkinchi jahon urushi arafasida tarqalib ketdi. Shunga qaramay, u XX asr adabiyoti va san’atida chuqur iz qoldirdi: uning bag‘ridan P.Elyuar, L.Aragon, G.Lorka kabi ulkan shoirlar, S.Dali kabi rassomlar, J.Kokto, A. Misho, A.Xichkok kabi kino arboblari yetishib chiqdilar. S. vakillarining nazariy qarashlari esa o‘zidan keyingi struktur psixoanaliz, strukturalizm, poststrukturalizm kabi qator ilmiy yo‘nalishlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

SO‘Z BOSH I – adabiy asar (kitob)ga muallif, boshqa bir ijodkor yoki tanqidchi, tarjimon, tahririyat, noshir kabilar tomonidan yozilgan, asosiy matndan ajralib turuvchi adabiy-tanqidiy xarakterdagi muxtasar maqola, qayd va sh.k.lar. Muallif tomonidan yozilgan S.b.lar ko‘pincha o‘quvchiga bevosita murojaat shaklida bo‘lib, u asarning tushunilishi uchun zarur deb bilgan qo‘shimcha ma’lumotlarni (yozilish sababi, maqsad-muddaosi, muayyan retseptiv yo‘nalishni ta’kidlash va sh.k.) o‘z ichiga oladi va turli sarlavhalar (“Yozuvchidan”, “Muallifdan”, “O‘quvchilarimga” va b.) ostida beriladi. Noshirlik ishida asarga boshqa shaxslar tomonidan yozilgan S.b.larni berish ham keng tarqalgan. Bunday S.b.lar ham, avvalo, asarni targ‘ib qilish, uning tushunilishiga ko‘maklashish maqsadini ko‘zlaydi va shunga mos ma’lumotlar (muallifning hayoti va ijodi, asarning yozilish tarixi, yozilgan davri bilan bog‘liq jihatlari, muxtasar tanqidiy mulohazalar va sh.k.)ni o‘z ichiga oladi. Aksariyat hollarda bu xil S.b.lar mutaxassislar (tanqidchi, adabiyotshunos, matnshunos va sh.k.) tomonidan yoziladi, ular muayyan darajada o‘zining janr xususiyatlarini shakllantirgan bo‘lib, haqli tarzda adabiy-tanqidiy janrlar sirasida sanaladi. Mutaxassislar tomonidan yozilgan S.b.larning alohida nomlanishi ham, boshqa turli umumiy nomlar (“So‘z boshi”, “So‘z boshi o‘rnida”, “Nashrga tayyorlovchidan”, “Tarjimondan” va b.) ostida berilishi ham kuzatiladi. Shuningdek, vaqtli matbuotda keng ommalashgan taniqli yozuvchi-shoirlar tomonidan yosh ijodkorlarning ilk asarlariga yozilgan “oq yo‘l”lar ham S.b.ning ko‘rinishlaridan biridir.

SO‘NGSO‘Z – adabiy asar oxirida beriluvchi qo‘shimcha. S. muallif yoki boshqa biron (yozuvchi, tanqidchi va b.) tomonidan yozilib, odatda, asarning tushunilishi uchun zarur ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi va asosiy matndan yaqqol ajralib (o‘zaro asosiy matn – yondosh matn munosabati asosida) turadi. Epilog va keyingi tarixdan farqli ravishda S. syujetning bevosita yoki bilvosita davomi emas, u badiiy matn tarkibiga to‘liq singib ketmaydi, ya’ni strukturaviy jihatdan mustaqildir. Muallif tomonidan yozilgan S.lar uslubiga, ko‘proq, o‘quvchiga bevosita murojaat etish, u bilan do‘stona samimiy muloqotga moyillik, mazmun-mundariyasi jihatidan turlichalik (asarni muxtasar lirik-falsafiy xulosalash, ayrim nuqtalarga o‘quvchi diqqatini qayta jalb etish, minnatdorchilik yoki uzrxohlik va sh.k.) xosdir. Noshirlik amaliyotida asarga o‘zgalar tomonidan yozilgan S.larni ilova qilish ham keng ommalashgan. Bunday S.lar ham mazmun-mundarijasiga ko‘ra turlicha (yozuvchi hayoti va ijodi bilan tanishtirish, asar haqidagi mulohazalar, uning yaratilishi bilan bog‘liq ayrim tafsilotlar, muallif haqidagi xotiralar va sh.k.) bo‘lishi mumkin. Asosiysi, bunday S.larning pirovard maqsadi bitta – asarni targ‘ib etish, uning tushunilishi, kitobxonlar dilidan o‘rin olishiga ko‘maklashish bo‘lib qolaveradi.

TAAJJUB (ar. ??? – ajablanish) – mumtoz adabiyotdagi she’riy san’at, biror narsa-hodisa, holat va sh.k.lardan hayratda qolganlik, ajablanishni ifodalash. T. san’ati qo‘llangan o‘rinlarda shoir go‘yo o‘zini hayratda qolganday ko‘rsatib, asl muddaosini bayon qilib oladi, asl muddaosi yorni vasf etish, oshiq ahvoli ruhiyasini tasvirlash va sh.k.lar bo‘ladi. Mas., Mashrab yorga xitoban “Malaksan yo bashar, yo huru g‘ilmonsan, bilib bo‘lmas” deya T. izhor qiladi, asl muddaosi esa yorning go‘zallikda tengsizligini ta’kidlashdir. Yoki Navoiyning baytlaridan birida quyidagicha T. izhori bor:

Gar quyoshqa el nazar qilsa ko‘ziga yosh to‘lar,  
Ul quyosh borgach nazardin, ko‘zlarimga to‘ldi yosh.

Mazkur baytda shoir “aslida, odam quyoshga qarasa ko‘zi yoshlanadi, mening ko‘zlarim esa quyoshim (yorim) ketgach yoshlanmoqda” deya hayratlanadi va shu orqali hijrona qolayotgan oshiq ahvolini mohirona tasvirlashga erishadi.

TABDIL (ar. ????? – almashtirish, o‘zgartirish) – qarang: tardu aks

TABLIG‘ (ar. ????? – yuqori darajaga, me‘yoriga yetkazish) – qarang: mubolag‘a

TAVZYE‘ (ar. ????? – tarqatmoq, taqsim qilmoq, joylashtirmoq) – mumtoz adabiyotdagi she‘riy san‘at, baytda bir xil tovushlarni takrorlash. T.ga berilgan ta‘riflarda ixtiloflar mavjud: ayrim manbalarda T.ning yuzaga chiqishi uchun faqat undosh tovushlar takrorlanishi shart qilinadi, boshqalarida esa bu shart qo‘yilmaydi, undosh yo unlilar takrorlanayotganidan qat‘i nazar, T. deb yuritilaveradi. T.dan hosil bo‘luvchi poetik samara shuki, bir necha bora takrorlanuvchi tovush (yoki tovushlar guruhi) baytga o‘ziga xos ohang, musiqiylik baxsh etadi. Mas., Navoiyning:

Oshiq o‘ldum, bilmadim yor, o‘zgalarga yor emish,  
Olloh-olloh, ishq aro mundoq balolar bor emish, –

bayti g‘oyat xushohang, chunki uning tarkibida “O” unlisining o‘n bir marta takrorlangani, yana bir jihati, birinchi va ikkinchi misralardagi “O” tovushi egallagan pozitsiyalarning bir-biriga mosligi musiqiylikni kuchaytirib bermoqda. Mirzo Kenjabekning quyidagi baytida esa T. san‘ati “s” va “q” undoshlarining bir necha marta takrorlanishi natijasida voqe bo‘lgan:

Sekin-sekin suzardim suvdan so‘rab saodat,

Qalqa-qalqa qayig‘im qolmish sarob ichinda.

Qayd etish kerakki, T. tovushlarning mexanik takrori yoki shaklbozlikka moyillik emas, aksincha, uning sara namunalarida takrorlanayotgan tovushlar ifoda etilayotgan mazmun bilan uyg‘unlik kasb etadi, mazmun ifodasini ritmik-intonatsion jihatdan kuchaytiradi. Jumladan, misolga olingan baytda sirg‘aluvchi “s” tovushi takrori hosil qilayotgan ohang sekin-sekin qalqib borayotgan qayiq holatiga mos va bu narsa uning o‘quvchi tasavvurida jonlanishiga yordam beradi.

TAVIL (ar. ????) – uzun) – aruz bahrlaridan biri, arab nazmidagi eng uzun vaznli bahr bo‘lgani uchun shunday nomlanadi. Faulan (V– –) va mafoiyun (V– –) asllarining ketma-ket takroridan hosil bo‘ladi. T. arab she‘riyatiga xos bahr bo‘lib, forsiy va turkiy she‘riyatda deyarli qo‘llanmagan. Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida T. bahrlarining birgina vazni, Boburning “Muxtasar”ida esa olti vazni misollar bilan keltirilgan. Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devonidagi uch she‘r tavili musammani solim (v – – / v – – – / v – – / v – – –) vaznida yaratilgan bo‘lib, ulardan birining matla‘si quyidagicha:

Yuzungdek qamar yo‘qtur, qadingdek shajar yo‘qtur,  
Shajar bo‘lsa ham anda, labingdek samar yo‘qtur.

TAVSIF (ar. ????? – sifatlash, maqtash) – rivoyaviy asar kompozitsiyasining uzviy qismi, asar voqeligiga kiritilayotgan narsa-hodisa, joy, portret, interer, eksterer va sh.k.lar tasviri. T.ning statik va dinamik ko‘rinishlari ajratiladi: voqea rivoji to‘xtatilgan holda berilgan T.lar statik, voqea rivoji davomida berilgan T.lar esa dinamik deb yuritiladi (q. peyzaj, portret). Voqeaband syujet asosidagi asarlarda T. qadimdan bor. Jumladan, xalq og‘zaki ijodidagi dostonlarda T. keng o‘rin tutadi: qahramon portreti, uning oti, qurol-yarog‘i va sh.k.larning bo‘rtma T.i asarning ta‘sir kuchini oshiradi, voqealarni asoslaydi, xarakterologik xususiyatlar kasb etadi. Zamonaviy adabiyotda, xususan, epik asarlarda statik T. salmog‘i birmuncha kamayib, ko‘proq dinamik T.lar berilayotgani kuzatiladi. Shuningdek, T. boshqa turlarga mansub asarlarda ham mavjud bo‘lib, u har bir janrning kompozitsion-uslubiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo‘llanadi. Mas., dramatik asarlardagi remarkalarda berilgan T.lar alohida muhim detallar qaydidangina iborat, ular yarim tayyor holda bo‘lib, sahnalashtirish vaqtida konkretlashtirilish va to‘ldirilishni ko‘zda tutadi. Lirik asarlardagi T. detallari, umuman olganda, his-tuyg‘u ob‘ekti sifatida muhim. Shu bilan birga, tavsifiy lirikada, jumladan, peyzaj lirikasida T. janr belgilovchilik xususiyatiga ega bo‘ladi.



TAVTOLOGIYA (yun. *tauto* – aynan o‘sha, *logos* – so‘z) – matnda bitta so‘zning takrorlanishi; bu hodisa mumtoz adabiyotshunoslikda takrir (q.) deb atalgan. Xalq og‘zaki ijodida, poetik nutqda T.dan she‘riy nutq emotsionalligini oshirish, ifodalanayotgan fikr yoki tuyg‘uga aloqador muhim so‘zni ta‘kidlash orqali ta‘sirni kuchaytirish vositasi sifatida keng foydalaniladi. Mas., I.Mirzo she‘ridan olingan bir bandda “yumshoq” so‘zi to‘rt bora aynan takrorlanadi:

Ushuq urgan ko‘saklar yumshoq,

Paxta yumshoq,

go‘daklar yumshoq –

Domlaga gap qaytarmas edik,

Yer ham yumshoq – botardi etik...

Takrorlanayotgan “yumshoq” so‘zi sho‘ro zamonida paxtaga qul qilingan xalq fojiasini “yumshoqlik” bilan ochib beradi, lekin bu “yumshoqlik”ning ta‘siri ancha-muncha invetiva ruhidagi xitoblardan ta‘sirliroq. Buning bosh omili T.ning o‘rinli, maqsadli amalga oshirilganidir. Gap takrorlanayotgan so‘zlarning o‘rniga tushganidagina ham emas, muhimi, ular fikr-tuyg‘uni ta‘kidlab-bo‘rttirib ifodalayotganida. Takrorlanayotgan “yumshoq” so‘zi “osmon uzoq, yer qattiq” naqli bilan pinhon zid qo‘yiladi va shu asosda holatning mantiqqa sig‘maydigan, chidab bo‘lmaydigan ekanligi anglashiladi. Demak, bu o‘rinda T. o‘zini har jihatdan oqlaydi. Biroq badiiy nutqda birgina so‘z takrorlanar ekan, bunda me‘yorni unutmashlik, ayni so‘z har gal takrorlanganida, qo‘shimcha tarzda muayyan badiiy-estetik yuk tashishi lozimligini e‘tiborda tutish zarur. Zero, badiiy usul sifatidagi T. bilan nuqson sanaluvchi T. orasidagi chegara deyarli shaffof bo‘ladi. Matnda bitta so‘zni o‘rinsiz, muayyan badiiy-estetik vazifa yuklamagan holda takrorlash salbiy ma‘nodagi T.ni yuzaga keltiradi. Amalda termin shu ma‘noda faolroq ishlatiladi.

TAVSHIH (ar. ????? – ziyatlash) – mumtoz adabiyotdagi she‘riy san‘at, misra yoki bayt boshidagi (ba‘zan esa taqte‘lar chegarasidagi) harflar yig‘indisidan biror so‘z (ism) keltirib chiqarish. Mazkur san‘at asosida yozilgan she‘r muvashshah deb nomlanadi. T. san‘ati g‘oyat nozik, u shoirdan juda katta mahoratni talab etadi, chunki keltirib chiqarish ko‘zda tutilgan so‘z misra (yoki bayt)ni ma‘lum bir harf bilan boshlashni talab etadi. Bu esa misra (yoki bayt)ni mazmun ifodasi uchun eng maqbul so‘z bilan emas, chiqariladigan ismga mos so‘z bilan boshlashni taqozo qiladi, natijada shakl mazmundan ustuvorroq bo‘lib qoladi. Ya‘ni T. san‘ati yuksak mahorat va did bilan qo‘llansagina, she‘rga zeb bo‘ladi, aks holda, u she‘rning badiiy saviyasini tushirib yuborishi ham mumkin. Mas., XX boshlarida shoirlar davralarida “muvashshahbozlik” keng rusum bo‘lgan: Muqimiy, Furqat, Hamza kabi davr shoirlarining ko‘pgina she‘rlari T. san‘ati asosiga qurilgan, lekin ularning bari ham badiiy jihatdan yetuk bo‘lolmagan. Albatta, adabiyotimizda T. san‘ati mahorat va did bilan qo‘llangan she‘rlar ham talaygina. Shulardan biri sifatida E.Vohidovning “Ismi ne ul qushnikim...” deb boshlanuvchi g‘azalini keltirish mumkinki, uning har bir bayti boshidagi harflar yig‘indisidan “istak” so‘zi kelib chiqadi.

TAGMA‘NO – matnning bevosita mazmuniga muvofiq kelmaydigan, kontekst doirasida va muloqot sub‘ektlariga ma‘lum bo‘lgan muayyan shart asosidagina voqe bo‘luvchi ma‘no. T. fikrning “kosa tagida nim-kosa” tarzida ifodalanishi natijasida voqe bo‘ladi, shuning uchun ham bunday hollar “tagdor qilib gapirmoq” deya ta‘riflanadi. So‘zlashuv jarayonida T.ga turlicha yo‘llar bilan ishora qilinishi (ba‘zan esa, aksincha, nutq situatsiyasi bilan bog‘liq holda T. yashirilishi) mumkin. Mas., tasavvur qilingki, bir necha kishi orasidagi suhbat asnosi quyidagicha ikkita gap aytiladi:

– Havo sovub ketdimi?

– Ha-a, bu yil havo pastroq, Ahmadjon, qish ham kelib qoldi...

Agar birinchi suhbatdosh qishda qaytarish sharti bilan Ahmadjondan qarz olgan bo‘lsa, unda keyingi gap T. kasb etadi, ya‘ni Ahmadjon suhbatdoshiga qarzni qaytarish muddati yaqinlashib qolganini eslatgan bo‘lib chiqadi. Biroq bu ma‘no faqat ularning ikkisiga (shartdan xabardor bo‘lganlari uchun) ma‘lum, xolos, boshqa suhbatdoshlar gapning bevosita ma‘nosini qabul qiladilar. T.ning muhim xususiyati

ham shu, bunda matnning zohiriy (bevosita) ma'nosi bilan botiniy ma'nosi mustaqil holda yashaydi, bir-biriga xalaqit bermaydi. Badiiy adabiyotda T. turli omillar (mas., fikrni ochiq ifodalash imkonini yo'qligi; xoslar uchun yozish istagi va sh.k.) ta'sirida yuzaga keladi va turli g'oyaviy-badiiy maqsadlarni ko'zlaydi. Mas., Cho'lponning "Men qochmadim" (1921) nomli she'ri noma janrida yozilgan bo'lib, sarlavha ostida adresat aniq ko'rsatib qo'yilgan: "Toshkentdagi o'rtoqlarimga". She'r "Toshkentdagi o'rtoqlari" shoirning Buxoroga jo'nashini qaynoq ijtimoiy hayotdan qochish deb baholaganlariga javob tarzida yozilgan. Eskidan aloqada bo'lgan kishilar orasida "muloqot konteksti" mavjud, shuning uchun she'r adresatga o'zining bevosita ma'nosidan ko'proq ma'nolarni yetkazadi:

Men yangilar o'lkasidan sinmagan

Bir qanotni taqib olib qo'zg'aldim:

Shu yo'limda yaproqlari so'lmagan

"Yosh yog'och"ning soyasida to'xtaldim.

Shoirning o'rtoqlari Cho'lpon "yangilar o'lkasi" deganida, qizil Turkistonni nazarda tutayotgani, bu yerda uning "bir qanoti singan"i, ya'ni ozodlikka bo'lgan umidlari chilparchin bo'lganini biladilar. Endi shoir sinmagan qanotini taqib, "yo'l"ga tushgan, u hali o'z "yo'l"idan ("Shu yo'lim", ya'ni kurash yo'lidan) qaytgan emas. Ya'ni unda ozodlikka erishish orzusi hali ham bor va shu yo'ldagi kurashni davom ettirish uchun yangi tashkil topgan Buxoro Jumhuriyati ("Yosh yog'och")ga borgan. Cho'lpon "yosh yog'och"ning yaproqlari so'lmaganligini ayri-ayri ta'kidlaydiki (buning T.si shoir ijodi kontekstidagina ochiladi), kontekstdan xabardor do'stlari uning nima demoqchiligini payqab olishlariga ishonadi. Cho'lpon she'riyatida inqilob faqat bir bora quyoshga o'xshatilgan: "Muhabbat osmonida go'zal Cho'lpon edim, do'stlar, Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku". Xuddi shu asosda Cho'lponni "erga botirgan" quyosh hali "yosh yog'och"ning yaproqlarini so'ldirib ulgurmagani, shoir shu daraxt "soyasi"da undan omonlik topmoqchi, degan T. kelib chiqadi. Bundan ayon bo'ladiki, shoir ijodida takrorlanuvchi poetik motivlar T.ga ishora qiladi (q. motiv). Umuman, badiiy adabiyotdagi T. ko'proq ramziy obrazlar (mas., Oybek. "Na'matak"), narsa-hodisalar orasidagi analogiyalar (mas., tarix – zamona), assotsiativ aloqalar (mas., tabiat – jamiyat) asosida yuzaga chiqadi.

TADRIJ (ar. ?????– saralash) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, she'rning boshlanishida qo'yilgan mavzuning oxiriga qadar izchil davom ettirilishi. Ya'ni T. san'ati matla'da aytilgan fikr (holat, tavsif, ta'rif va sh.k.) keyingi baytlarda muttasil kuchaytirib borilishini taqozo etadi. Mas., Sayfi Saroyining bir g'azali:

Topilmas husn mulkinda senga teng bir qamar manzar,

Na manzar? Manzari shohid. Na shohid? Shohidi dilbar, –

matla'si bilan boshlanib, unda ma'shuqaning go'zal yuzi ta'riflanadi. Keyingi baytlarda ham shoir yor yuzining go'zalligi ta'rifida davom etadi, uni detallashtirib, bo'rttirib, ranglarini boyitib, xullas, izchil rivojlantirib boradi:

Bu kun Yusuf jamolini qilibtur haq senga baxshish,

Na baxshish? Baxshishi davlat. Na davlat? Davlati mafxar.

So'zung durru javohirdur, ko'ngullar ganjina loyiq,

Na loyiq? Loyiqi xusrav. Na xusrav? Xusravi kishvar.

Shakardin totlidur xulqung, karamda xotiring matlab,

Na matlab? Matlabi ma'dan. Na ma'dan? Ma'dani javhar.

Zihi davlatlu oshiqkim, sening birla qilur ishrat,

Na ishrat? Ishrati jannat. Na jannat? Jannati kavsar.

Bu husnung shavqu zavqini ko'ngul to'tilari topti,

Na topti? Topti xush lazzat. Na lazzat? Lazzati shakkar.

Shoir yorning yuz go'zalligini shu tariqa ta'riflab keladi-da, maqta'da asli maqsadi shu bo'lganini, ushbu g'azali "yor jamoli shavqi"dan so'z vositasida tortilgan surat ekanligini ta'kidlaydi:

Jamoling shavqina Sayfi Saroyi bog'ladi surat,

Na surat? Surati husno. Na husno? Husni jonparvar.

Ayrim manbalarda T. san'atiga berilgan ta'rif birmuncha farqlanadi. Unga ko'ra, T. san'atining voqe bo'lishi uchun birinchi bayt qaysi so'z bilan tugasa, keyingi baytning shu so'z bilan boshlanishi va bu tartib she'rning boshidan oxirigacha saqlanishi talab etiladi. Garchi bu ta'rifda she'rning shakliy tomoniga ko'proq e'tibor berilayotgan bo'lsa-da, u yuqoridagi ta'rifni inkor qilmaydi. Chunki avvalgi bayt oxiridagi so'zning keyingi bayt boshida takrorlanishi tabiiy ravishda mazmun izchilligini ham ta'minlaydi. Ta'riflardagi farqning asosi shuki, ularning birida T.ga she'r san'ati (ya'ni nutq bezagi), ikkinchisida esa kompozitsion usul sifatida qaralmoqda.

TAJZIYA (ar. تاجزىيە – bo'lak-bo'lak qilmoq) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, bayt misralarini ikki bo'lakka ajratib, har bir bo'lakni o'ziga muqobil bo'lgan ikkinchi bo'lak bilan qofiyadosh qilish. Ya'ni birinchi misraning birinchi bo'lagi ikkinchi misraning birinchi bo'lagi bilan, birinchi misraning ikkinchi bo'lagi esa ikkinchi misraning ikkinchi bo'lagi bilan qofiyalanadi. Misralarning bu ko'rinishda qofiyalanishi, asosan, fard, g'azal yoki qasidaning matla'si hamda masnaviy shaklida qofiyalanuvchi baytlarda kuzatiladi. Mas., Mashrabning mashhur:

Agar oshiqlig'im aytsam, kuyib jonu jahon o'rtar,

Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi ul xonumon o'rtar, –

baytida birinchi misradagi "aytsam" so'zi ikkinchi misradagi "etsam" so'zi bilan, birinchi misradagi "jahon" so'zi ikkinchi misradagi "xonumon" so'zi bilan o'zaro qofiyalangan. T. musajja'ga (q.) o'xshab ko'rinsa-da, haqiqatda undan farqlidir: musajja'da to'rt bo'lak qilingan baytning uch bo'lagi qofiyalansa, T.da faqat ostin-ustin bo'laklar o'zaro qofiyalanadi.

TAJNIS (ar. تاجنىس – hamjins, jinsdosh) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, shakli bir xil (omonim) yoki bir-biriga yaqin (omograf, omofon, omofoma) bo'lgan so'zlarni baytning turli o'rinlarida keltirgan holda, har bir o'rinda alohida ma'noni ifodalash. T. mumtoz she'riyatda eng faol qo'llangan san'atlardan biri sanaladi. Uning asosida alohida she'riy janr (tuyuq) shakllangani, ayrim san'atlarning maxsus navlari (tajnisli tarse', raddning ayrim ko'rinishlari va b.) voqe bo'lishi ham ijodkorlar shakldosh so'zlar taqdim etuvchi badiiy-estetik imkonlarga alohida e'tibor bilan qaraganlaridan dalolatdir. Mas., Navoiyning mashhur:

Qaro ko'zum, kelu mardumlig' emdi fan qilg'il,

Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il, –

matla'sining birinchi misrasida "mardum" so'zi inson ma'nosida (ya'ni mardumlig' – odamiylik, odamgarchilik), ikkinchi misrasida esa "ko'z qorachig'i" ma'nosida qo'llangan. Navoiyning boshqa bir:

Zulfi savdosi meni sudu ziyondin qildi fard,

Menu ul savdo, ishim yo'qtur ziyonu sud ila, –

bayti birinchi misrasida “savdo” so‘zining “shaydolik”, “savdo-sotiq” kabi ma‘nolari, ikkinchi misrasida esa “savdoyilik”, “es-hushdan ayrilganlik” ma‘nosi nazarda tutilgan.

Ilmi badi‘ga oid manbalarda T.ni turlarga ajratish masalasida ixtiloflar mavjud. Ushbu masalaga maxsus to‘xtalgan adabiyotshunos Yo.Ishoqov T.ni, avvalo, ikkiga – T.i tom va T.i noqisga ajratishni, so‘ng esa T.i noqisning turlarini farqlashni taklif qiladiki, bu nazariy jihatdan to‘g‘ri yo‘ldir. T.i tom deganda, takrorlanayotgan so‘zlarning yozuv va talaffuzda aynan bir xil bo‘lgani holda, turli ma‘no ifodalashi, T.i noqis deganda esa ularning yozilishi yo talaffuzida juz‘iy farqlar bo‘lishi nazarda tutiladi. Yuqoridagi ikkala bayt ham T.i tomga misol bo‘la oladi. Navoiyning quyidagi tuyug‘ida esa T.i noqis kuzatiladi:

La‘lidan jonimga o‘tlar yoqilur,

Qoshi qaddimni jafodin “yo” qilur,

Men vafosi va‘dasidin shodmen,

Ul vafo, bilmonki, qilmas yo qilur.

Bunda “yoqilur” so‘zi birinchi misrada “yoqmoq, alangalatmoq” ma‘nosida, ikkinchi misrada “yo qilmoq, egmoq” ma‘nosida, to‘rtinchi misrada esa “qilarmikan yo qilmasmikan” ma‘nosida qo‘llangan. Lekin birinchi holda “yoqilur” bitta so‘z, ikkinchisida qo‘shma fe‘l, uchinchisida esa so‘z qo‘shilmasining bir qismi bo‘lib, ular yozilishda farqlanadi. Shu farq ushbu T.ning nuqsoni bo‘lib, tajnisi noqis (nuqsonli tajnis) atalishiga sababdir. Manbalarda nuqsonli T.ning tajnisi muzayyyal, tajnisi muzori’, tajnisi lohiy, tajnisi aks, tajnisi muzdavaj, tajnisi murakkab, tajnisi xattiy, tajnisi mushavvash kabi ko‘rinishlari sanaladi. Shuni ham qayd etish lozimki, ularning nomlanishida turlichaliklar mavjud.

TAJOHUL UL-ORIF (ar. ????? ????? – biluvchining bilmagan bo‘lib ko‘rinishi, o‘zini bilmaslikka solish) – mumtoz adabiyotdagi she‘riy san‘at, shoirning aslida bilgan narsasini bilmagandek qilib ko‘rsatishi, bunda shoirning asl muddaosi biror narsaning asl holatini bilmagandek, uni boshqa biror narsaga o‘xshatish, yo madh etish, yo mubolag‘a, yo hazil qilish bo‘ladi. T.o. qo‘llangan bayt ritorik so‘roq gap tarzida shakllanadi, ya‘ni shoir, aslida, biror narsani so‘rash, noaniq narsa yoki belgiga aniqlik kiritishni emas, ritorik so‘roq orqali yorning go‘zalligi, oshiqning holati yoki boshqa shu kabi biror vaziyatni o‘xshatish, qiyoslash orqali e‘tirof etishni maqsad qiladi. Mas., Atoyining:

Ko‘z uchidin qiyo-qiyo sheva bila boqishlaring,

Jon tamurin qiyor uchun tig‘mu yo nazarmudur? –

baytida yorning “qiyo-qiyo” boqishlarini “bu shunchaki bir nazarmi, yo jon tomirini qiyish uchun tig‘mi?” tarzida yor nigohlarining tig‘dek o‘tkir ekanligini e‘tirof etmoqchi. Yoki Navoiyning:

Yuzni gullardin bezabmu bizni qurbon aylading,

Yo yuzingga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach? –

baytida ham yor yuzidagi qizillikning asl sababini bilmagandek bo‘lib, “yuzingni gullar bilan bezaganmisan yoki bizni qurbon qilish chog‘ida qon sachraganmi?” tarzida ifoda etmoqda. She‘riyatimizda boshdan oxir T.o. san‘ati asosida yozilgan g‘azallar ham uchraydi. Mas., Atoyining:

Ey pari paykar sanam, sen nasli odamdinmusen,

Yo malak, yo hur, yo ruhi mujassamdinmusen? –  
matla‘li g‘azali shu tarzda bitilgan.

**TAZKIRA** (ar. تذكير – zikr etish, tilga olish, eslash) – Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan adabiy-tanqidiy janr. T.larda shoirlarning hayoti va ijodi haqidagi muxtasar ma'lumotlar zikr etilib, ularning asarlaridan namunalar (odatda, bir necha bayt hajmida) keltiriladi va ijodiga umumiy tarzda baho beriladi. T.larda ijodkorlar haqida ma'lumotlar berish bilangina cheklanib qolinmasdan, she'riyat va uning nazariy masalalari bilan bog'liq e'tiborga loyiq fikr-mulohazalar, ma'lum bir davr adabiy hayoti haqidagi muhim ma'lumotlar ham o'rin oladi. Adabiyot tarixida shoirlargina emas, balki olimlar, avliyolar haqidagi T.lar ham yaratilgan (mas., A.Navoiy. "Nasoyim ul-muhabbat"; Sidqiy. "Tazkirai Imomi A'zam"). T. yozish an'anasi dastlab arab va fors adabiyotlarida shakllangan bo'lib, keyinroq turkiy adabiyotda ham keng ommalashgan. T.ning eng qadimgi namunasi sifatida Abu Mansur as-Saolibiyning "Yatimat ad-dahr fi mahosili ahli asr" ("Zamona ahlining fazilatlarini haqida yagona durdona", XI asr) asari e'tirof etiladi. Mazkur T.dan o'sha davr Arab, Ajam, Movarounnahr, Xorazm va Xuroson adabiyoti va san'ati haqidagi qimmatli ma'lumotlar o'rin olgan. Turkiy tildagi ilk T. sifatida Navoiyning "Majolis un-nafoyis" asari ko'rsatiladi. T.lar mumtoz adabiyot tarixi, alohida ijodkorlar asarlarini, ular bilan bog'liq nazariy masalalarni o'rganishda muhim manba sanaladi. Jumladan, Muhammad Avfiy Buxoriyning "Lubob ul-albob" ("Bilimlar mag'zi", XIII asr), Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" (XV), Maleho Samarqandiyning "Muzakkir ul-ashob" (XIX asr), Rahmatulla Vozehning "Tuhfat ul-ahbob" (XIX asr), Fazliyning "Majmuai shoiron" (XIX asr), Ahmad Tabibiyning "Majmuai shoiron" (XIX asr); XX asr boshlari adabiyoti haqida ma'lumot beruvchi Ne'matulla Muhtaram, Mirsiddiq Hashmat va Abdilarning bir xil – "Tazkirat ush-shuaro" nomli, shuningdek, P.Qayumovning "Tazkirayi Qayyumiy" asarlari shunday T.lar sirasidandir.

**TAZMIN** (ar. تازمين – o'z ichiga olish) – qarang: nazira

**TAZOD** (ar. تازود – zid qo'yish, qarshilantirish) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, nasr yo nazmda bir-biriga qarama-qarshi ma'noli so'zlarni ishlatish. Ilmi badi'ga oid asarlarda T. san'ati tiboq, taboq, tatbiq, takofu, mutobaqa, mutobiqa, taqobul, mutazod kabi nomlar bilan ham yuritilgan, nomlanishi turlicha bo'lsa ham, ular mohiyatan deyarli bir xil. Shoir lirik qahramon ko'nglidan kechayotgan ziddiyatli kechinmalarni bayon etish, bir-biriga zid manzaralar chizish yo boshqa shu kabi maqsadlarni ko'zlab, bayt tarkibida bir-biriga qarama-qarshi ma'noli so'zlar (antonimlar)dan foydalanadi. T.ni yuzaga keltirayotgan qarama-qarshi ma'noli so'zlar anglatuvchi tushunchalar bir-biriga mutlaqo zid (o't va suv) bo'lishi, zidlik darajasi u qadar keskin bo'lmasligi (qora va qizil), fe'lining bo'lishli-bo'lishsiz shakllari orasidagi kabi (keldi-kelmadi) faqat shartli ravishdagina zidlanishi ham mumkin. Mumtoz adabiyotshunoslikda shu jihatlardan kelib chiqib, T.ning bir necha turlari farqlangan bo'lsa ham, hozirgi adabiyotshunoslikda zidlikning qaysi ko'rinishi bo'lishidan qat'i nazar, T. atamasi bilan yuritiladi. Mas., Lutfiy g'azallaridan birini:

Yo'qturur yolg'iz bu Lutfiy jonig'a javri raqib,  
Qayda bir dono durur, ul javri nodon tortadur, –

maqta'si bilan yakunlarkan, "raqib jabru jafosini tortayotgan faqatgina Lutfiy emas, qaerdaki bir dono bo'lsa, u nodon jabrini tortadi", aslida hayotning qonuni shunday, degan chuqur falsafiy xulosaga keladi. Baytda qo'llangan T., dono va nodon so'zlari orasidagi zidlik mazkur falsafiy xulosaga asos bo'lib, uni yorqin ifodalashga xizmat qilgan.

**TAKRIR** (ar. تكرر – takror) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, bir so'zni baytning turli o'rinlarida takrorlash. Ayrim manbalarda raddning bir ko'rinishi sifatida ta'riflansa ham, T.ni alohida san'at sifatida tushunish, uni raddan farqlash maqsadga muvofiqdir. Chunki, birinchidan, T.da so'zning takrorlanish o'rni qat'iy belgilangan emas: bitta so'z ketma-ket takrorlanishi ham, bayt yo she'rning turli o'rinlarida takrorlanishi ham mumkin; ikkinchidan, T.ning badiiy-estetik funktsiyasi fikrni ta'kidlash bo'lib, ushbu san'at qo'llangan bayt (yoki she'r) ohangi ham shunga mosdir. Mas., Feruzning:

Qilurman yutub shavqi la'lingda qon

Fig'onu fig'onu fig'onu fig'on, –

baytida T. ma'noni ta'kidlab kuchaytiradi va shunga mos ohang bilan o'qishni taqozo etadi. Yoki Erkin Vohidovning:

Kechir, yanglishmagan kim bor, mening ham ko‘p gunohim bor,

Odamzot asli nokomil, kechir, yo rab, kechir, yo rab.

baytidagi “kechir” so‘zining takrori iltijo ohangini kuchaytirib, lirik qahramon ruhiy holatini yorqin ifodalashga xizmat qiladi.

**TAKROR** – matniy, kompozitsion yoki tematik birliklarning ma‘lum badiiy-estetik maqsadlarni ko‘zlagan holda takrorlanishi, badiiy matn (va asar kompozitsion qurilishi)ga xos shunday usullarning umumiy nomi. T. badiiy asarning turli sathlarida kuzatiladi. Jumladan: a) badiiy nutqda: fonetik (alliteratsiya, assonans, fonetik anafora, ishtiyoq), leksik (so‘z T.i, klimaks, anafora, epifora, anadiplosis va b.), semantik (gradatsiya, ma‘no T.i) sintaktik (sintaktik parallelizm, xiazm); b) ritmik birliklarning o‘lchov asosida tartibli takrorlanishi: turoq (rukn), misra (yoki bahr), band; v) she‘r kompozitsiyasi darajasida: misra T.i (refren, tarje), band T.i (naqorat); g) obrazli-tematik T.lar (tematik parallelizm, motiv).

**TALMYeH** (ar. ?????– chaqmoq chaqishi, ko‘z qirini tashlash, nazar solmoq) – mumtoz adabiyotdagi she‘riy san‘at, she‘rda mashhur tarixiy voqea, shaxslar, badiiy asarlarga ishora qilish. T. shoirni ko‘zda tutilgan fikrni batafsil aytish, holatni batafsil tasvirlash zaruratidan xalos etib, ko‘zlangan samaraga o‘sha fikr yoki holatga mos keladigan boshqa biror hayotiy yoki badiiy faktga ishora qilish bilanoq erishish imkonini beradi. Natijada oz so‘z bilan ko‘p ma‘no ifoda qilish (q. iyjoz) mumkin bo‘ladi, zero, T. qo‘llangan bayt mazmuni ishora qilinayotgan tarixiy voqea yoki badiiy asar mazmuni bilan boyiydi. T.dagi ishora tarixiy voqea yoki badiiy asar nomini keltirish, ular bilan bog‘liq biror lafzni tilga olish orqali ochiq yoki yashirin tarzda amalga oshirilishi mumkin. Shu jihatdan Mashrabning:

Shayx San‘onin bo‘lub to‘rt yuz murid sohibkamol,

Ko‘rdi tarsozodani, xo‘kbonu tarso qildi ishq, –

bayti bilan Nodiraning:

Zohido, ishq muhabbat ahlini ma‘zur tut,

Yor ko‘yida na bo‘ldi shayx San‘on oqibat, –

baytini qiyoslash mumkin. Ikkala baytda ham mashhur “Shayx San‘on qissasi”ga ishora qilingan. Baytlardagi ma‘noni teran anglash uchun, avvalo, o‘quvchining qissa voqealaridan, Shayx San‘on taqdiridan xabardor bo‘lishi talab etiladi. Keltirilgan baytlarning birinchisida ishora ikkinchi baytdagiga nisbatan batafsil ifodalangan: unda mazkur qissani yodga soluvchi “Shayx San‘on”, “to‘rt yuz murid”, “tarsozoda”, “xo‘kbonu tarso” kabi bir necha tushunchalar bo‘lib, qissaga ishora ham, undan murod ham ochiq ifodalangan. Shunday bo‘lsa ham, shoirning ishq qudrati va qudratli ishqqa muhtalo bo‘lgan oshiq ahvoli haqidagi fikr-tasavvurlarini to‘la anglash uchun Shayx San‘on holatini yodga olish, qissa ruhini bayt ruhiga ko‘chirish lozim bo‘ladi. Ikkinchi baytdagi ishora esa u qadar ochiq emas: shoir shayx San‘onga nima bo‘lganini ochiq aytmaydi, “shayx San‘onning yor ko‘yida nima bo‘lganiga qara” deya eslatish bilan cheklanadi, birinchi baytdagi kabi qissa voqealarini eslatuvchi so‘zlarni ishlatmaydi, xullas, ishora va undan ko‘zlangan muddao birmuncha yashirin qoladi. Shuning uchun ham A.Husayniy T.ni lug‘zga o‘xshatadi: “Bilgilkim, talmehning ba‘zisi lug‘zga o‘xshar, ul jihatdinkim, andin maqsad zohiriy ma‘oniy bo‘lmay, imo yo‘li bila ado etilgan ma‘no maqsad bo‘lur”. Ya‘ni T.da shoir asl maqsadini go‘yo ataylab yashirganday bo‘ladi va uni topish uchun xuddi topishmoqlardagi singari asl maqsadga yetaklovchi belgi-ishoralarni keltiradi, o‘quvchi esa shu belgilar bilan baytda aytilayotgan fikrlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar asosida asl maqsadni anglab yetadi.

T.da ishora qilinayotgan tarixiy yoki badiiy faktning mashhur, ya‘ni ko‘pchilikka tanish bo‘lishi ko‘zda tutiladi, shu shartning bajarilishi T.ning tushunarli bo‘lishi garovi hisoblanib, ishora qilinayotgan faktning mashhurlik darajasi nechog‘li yuqori bo‘lsa, T. mohiyatini tushunuvchilar doirasi ham shuncha keng bo‘ladi va aksincha. Mas., E.Vohidovning:

Ming Samarqand, ming Buxoro hadya etgum hol uchun,

Lek nigorimda havas yo'q mulku davlat, mol uchun, –

baytini o'qiboq Hofiz Sheroziyning mashhur matla'siga ishora qilinayotgani, shoir salafi bilan ijodiy musobaqaga kirishgani anglashiladi. Zero, bundagi oshiq muhabbati Hofiz talqinidagi oshiqnikidan kam emas – undan ming karra ortiq hadyaga tayyor; ma'shuqa esa mol-mulk havasidan forig', ya'ni shu tomoni bilan u ham Hofiz talqinidagi ma'shuqadan baland turadi. Bu jihatdan qaralsa, badiiy asar yoki tarixiy voqeaga umumiy tarzda qilingan ishorani tushunuvchilar doirasi ulardagi konkret epizod, detallarga qilingan ishorani tushunuvchilar doirasiga qaraganda torayadi. Mas.: Mashrab va Nodira baytlaridagi kabi Navoiyning:

Ko'nglum o'tidin ne tong gar topsa ruhsoring furug',

Sho'x tarso musxaf o'rtar shayx San'on o'tig'a, –

baytida ham "Shayx San'on qissasi"ga ishora qilingan. Biroq avvalgi baytlarda ishora umuman asarga (ya'ni ishq qudrati shayxni dinidan-da kechtirganiga) qaratilgan bo'lsa, bunda qissadagi konkret epizod – tarso ma'shuqa shartiga binoan musxafning kuydirilishiga ishora qilinadi. Ya'ni bu baytdagi T. mohiyatini anglash uchun qissadan umuman xabardorlik kam, uni yaqindan bilish talab etiladi. Bundan tashqari, E.Vohidov baytida kuzatilgani kabi, T.da ishora qilinayotgan ob'ekt nomi atalmasdan, uning mazmuniga ishora qilingan hollarda ham tushunish qiyinlashadi. Mas., Mashrabning:

Rizo mulkidaman halqumni tutdim tig'i Akbarga,

Bu yo'lda siynai poki Zabehullog'a sig'mamdur, –

baytida Ibrohim alayhissalomning o'g'li Ismoilni qurbonlikka keltirishi bilan bog'liq rivoyatga ishora qilinadi. Lekin baytda bu narsa oshkor aytilmaydi-da, shoir o'z holatini rizolik bilan bo'g'zini pichoqqa tutgan payg'ambarzodaga qiyosan ifoda etadi. Baytdagi T. mohiyatini anglash uchun o'quvchidan, avvalo, ishora ob'ektini tanib olish, shundan keyingina lirik qahramon ruhiy holatini rivoyatga qiyosan tasavvur etish talab qilinadi. Xullas, she'rda tasvirlanayotgan holat, ifoda etilayotgan fikr bilan tarixiy yoki badiiy faktlar orasida mushtarak nuqtalar mavjudligi T. san'atining zamini bo'lib, u hamisha o'xshatish asosida yuzaga keladi. Ya'ni T. matnning mazmun doirasini kengaytiradi, baytdagi va ishora qilingan faktlardagi fikr, holat, voqea va sh.k.ni analogiyalar asosida qiyoslash, muqobil qo'yish, qarshilantirish orqali badiiyatni kuchaytiradi, adabiy asarlarning dialogik aloqasini ta'minlaydi va namoyon etadi.

TAMANNI' (ar. ????? – orzu qilish) – insho yo'llaridan biri, fikrni ifodalash usuli, lirik qahramon o'y-kechinmalari, his-tuyg'ularining orzu-istak izhori tarzida ifodalanishi. T.da zohiran lirik qahramon orzusigina ifodalansa ham, botinda boshqa maqsad (ma'shuqa vasfi, o'z holining bayoni va b.) ko'zda tutiladi. Mas., Ogahiyning:

Mening maqsudim uldurkim, sening boshingdin aylansam,

Oyoqingg'a bo'lub sadqa, ko'zu qoshingdin aylansam, –

baytida lirik qahramonning "boshingdan, ko'zu qoshingdan aylansam, oyog'ingga sadqa bo'lsam" tarzidagi orzusi, bir tomondan, ma'shuqaning har jihatdan yetuk va go'zal ekanligi e'tirofi bo'lsa, ikkinchi tomondan, oshiqning cheksiz muhabbati izhoridir.

TAMSIL (ar. ?????– misol keltirish, dalillash) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, she'rda ifoda etilgan fikrni hayotiy misollar yordamida dalillash, tasdiqlash, izohlash. Mohiyatan, T. irsolu masal (q.) san'atiga o'xshash, faqat undan farqli o'laroq, fikr tasdig'i uchun misol hayotning o'zidan olinadi. Ya'ni agar irsolu masalda fikr tasdig'i uchun xalqning ming yilliklar davomidagi hayotiy tajribasini o'zida mujassam etgan maqollarga tayanilsa, T.da, ko'proq, shaxsiy tajriba, hayotiy kuzatishlarga asoslaniladi. T. o'xshatish

asosida voqe bo'ladi, chunki aytilayotgan fikr (yoki tasvirlanayotgan holat) va uning tasdig'i (yoki illyustratsiyasi) uchun keltirilayotgan hayotiy misol mohiyatida o'xshashlik bor. Biroq o'xshatishdan farqli ravishda, T.da o'xshatish vositalaridan foydalanilmaydi, fikr (yoki holat) parallel beriladi-da, ular orasidagi o'xshashlik, bog'liqlik, aloqadorlikni anglab olish o'quvchining o'ziga havola etiladi. Mas., Alisher Navoiyning quyidagi mashhur qit'asida fikrni dalillash uchun mohirona T. qilingan:

Nokasu nojins avlodin kishi bo'lsin debon,

Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami.

Kim, kuchuk birla xo'tukka necha qilsang tarbiyat,

It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami.

Qit'aning birinchi baytida shoir tarbiyada nasl hal qiluvchi ahamiyatga ega, shuning uchun "nokasu nojins"lar avlodini odam qilaman deb urinish befoyda, degan asosiy fikrini aytadi, so'ng uni asoslash uchun kuchuk bilan xo'tikni qancha tarbiyalasang ham, odam bo'lib qolmaydi, tarzidagi hayotiy misolni keltiradi.

TANKA (yaponcha "qisqa qo'shiq") – yapon she'riyatidagi ko'hna lirik janrlardan biri, turg'un she'riy shakl. T. besh misradan tarkib topadi, uning birinchi va uchinchi misralari besh bo'g'inli, qolgan uchta misrasi esa yetti bo'g'inli o'lchovga ega (5+7+5+7+7), misralarning qofiyalanishi talab qilinmaydi. Manbalarda bizgacha yetib kelgan eng qadimgi T.lar VIII asrda yozib olingan. Janrning gurkirab rivojlanishi X – XIII asrlarga to'g'ri keladi, buning omillari sifatida yapon hukmdorlari saroylarida muntazam o'tkazib turilgan mushoiralar, tankanavislar musobaqalari, T.lardan mamlakat miqyosida maxsus to'plamlar tuzib borilgani ko'rsatiladi. Tematik jihatdan T.lar chegaralanmagan bo'lsa ham, an'anaga ko'ra ularda ko'proq sevgi-muhabbat, hijron, safar, yil fasllari kabi mavzular qalamga olingan. Keyincha shakl tomonlariga e'tiborning kuchayishi janr taraqqiyotida turg'unlikka sabab bo'ldi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ijtimoiy mavzularda yaratilgan T.lar janr taraqqiyotida yangi sahifa ochdi. T. janrining boshqa xalqlar she'riyatiga jadal kirib kela boshlashi ham shu davrga to'g'ri keladi.

TANOSIB (ar. ????? – daxldorlik, aloqadorlik) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, fikrni bir-biriga aloqador, ma'no jihatidan yaqin va o'zaro mutanosib tushunchalarni bildiruvchi so'zlar orqali ifodalash. Mas., Navoiyning:

Shah yonin farzin kibi kajlar maqom etsa ne tong,

Rostravlar arsadin gar tutsalar ruhdek qiroq, –

baytida shah, farzin, arsa(shaxmat taxtasi), ruh so'zlari bir-biriga uzviy aloqador va mutanosib so'zlar bo'lib, shoir ular vositasida o'ziga xos obrazli lavha yaratgan.

TANSIQ US-SIFOT (ar. ?????? ????? – sifatlar tizmasi, ketma-ket, izma-iz sifat keltirish) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, narsa-tushuncha yoki shaxs ta'rifida bir necha sifatlarni ketma-ket sanash. Izma-iz keltirilayotgan sifatlar yordamida shoir o'sha tushuncha yoki shaxsni vasf etish, tasvirlash yoki salbiy jihatlarini eslatishni maqsad qilib qo'yadi. Mas., Furqatning:

Uzoring bargi guldin nozigu, xushrang, xushbo'yroq,

Bu yanglig' tozau tar gulki, yo rab, qay chamandandur, –

baytida sifatlarni ketma-ket sanashdan murod tavsiflanayotgan narsaning belgida ortiqligini ta'kidlab, mubolag'ali ta'rifu tavsifni yuzaga keltirishdir. T.s. san'ati bir bayt doirasida ham, butun boshli she'r (ruboiy, g'azal, qasida kabilar) doirasida ham yuzaga kelishi mumkin.



**TANQID** (ar. تَنْقِيْد – saylash, saralash; muhokama qilmoq) – badiiy tanqid; keng ma'noda hozirgi badiiy jarayon muammolarini o'rganish, yangi paydo bo'lgan san'at asarlarini muhokama qilish, ularning mazmun-mohiyati, yutuq va kamchiliklarini ochib berish, badiiy tafakkur taraqqiyotining joriy holati va ijtimoiy did nuqtai nazaridan baholash bilan shug'ullanuvchi soha. San'at turlarining qaysi biri bilan shug'ullanishiga qarab, T. sohalari ajratiladi: kino T.i, teatr T., musiqa T.i va h. Badiiy adabiyot bilan shug'ullanuvchi T. adabiy tanqid deb yuritiladi.

**TANQIDIY RYEALIZM** – XIX asrning o'rtalarida maydonga kelgan adabiy yo'nalish, ijodiy metod (q. realizm). Termin ilk bor M.Gorkiy tomonidan qo'llangan va sho'ro davri adabiyotshunosligida faol iste'molda bo'lgan. Darhaqiqat, XIX asr o'rtalaridan adabiy jarayonda yetakchilik maqomini egallay boshlagan realist adabiyotning ko'plab namunalari mavjud tuzum teran badiiy tahlil etilib, uning insoniylikka zid mohiyati ochib beriladi (mas., O.Balzak, F.Dostoevskiy, L.Tolstoy va b.). Ya'ni realist san'atkorlar o'z ideallaridan kelib chiqib, ko'pincha, voqelikka tanqidiy munosabatda bo'ladi va uni g'oyaviy-hissiy inkor qiladi. Holbuki, birinchidan, davr adabiyotida voqelikni inkor emas, tasdiq etuvchi asarlar ham bo'lgan, demak, ushbu atama davr adabiyotidagi hodisani to'liq qamray olmaydi; ikkinchidan, konkret badiiy asardagi g'oyaviy-hissiy inkor kunning dolzarb ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlari bilangina bog'liq mazmun qatlami, xolos, unda boqiy umuminsoniy qadriyatlar va mangu muammolar talqinidan kelib chiquvchi umumbashariy mazmun qatlami ham bor, demak, butun boshli adabiy-badiiy hodisa mohiyatini inkor ruhi bilangina belgilash unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Hozirgi adabiyotshunoslikda T.r. termini an'anaviy ravishda qo'llanib turgan bo'lsa-da, uning faolligi sezilarli darajada pasaygan.

**TARDU AKS** (ar. تَرْدُ اَكْس – quvmoq; teskari qilmoq, teskari qilib takrorlash) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, bayt tarkibidagi ikki so'z yoki birikmani avval ma'lum bir tartibda keltirib, so'ng ularning o'rnini almashtirib takrorlash. Bu holning bir misra doirasida voqe bo'lishi mahraj (tugallanmagan) T.a. deyiladi. Mas.:

Zulfi savdosi, bu savdoyi boshinda ko'pturur,

Bo'lsa savdo ahli, tong yo'q, ahli savdo birla do'st (Navoiy).

T.a. ning bayt doirasida voqe bo'lgan ko'rinishi mukammalroq hisoblanadi, shuning uchun ham u komil (tugallangan) T.a. deb ataladi:

Ofatijon, desam, kulib: rohatijon o'zim, dedi,

Rohatijonmisan, desam: ofatijon o'zim, dedi (Chustiy).

Ma'no nuqtai nazaridan ham T.a.ning ikki ko'rinishi farqlanadi. Agar o'rnini almashtirib takrorlaganda so'z yoki birikma ma'nosi o'zgarib, aksi mutahodiy deyiladi. Mas., E.Vohidovning quyidagi baytida "Zuhroyu Oy" birikmasini "Oyu Zuhro" tarzida takrorlash bilan ma'no o'zgarishsiz qoladi:

Men seni Zuhroyu Oy deb iltijo qildim va lek

Sen yiroqsan, garchi menga Oyu Zuhro bir qadam.

T.a.ning ma'no jihatidan farqlanuvchi ikkinchi ko'rinishi aksi mujriy deb nomlanib, bunda o'rin almashishi natijasida yangi ma'no hosil bo'lishi nazarda tutiladi. Mas., E.Vohidovning quyidagi:

Intilar borliqni inson barkamol etmoq uchun,

Ne ajab, insonni borliq barkamol etgan emas, –

baytida "borliqni inson" birikmasining "insonni borliq" tarzida qaytarilishi natijasida ega-kesim munosabati o'zgaradi va natijada yangi mazmun hosil bo'ladi.

Shuningdek, T.a. san'atida baytda akslanib, o'rni almashib kelayotgan so'z yoki birikmalar soni birdan ortiq bo'lishi ham mumkin. Mas., Navoiyning:

Dema ra'no qad ila jilvasidin xolingni,

Jilva jonimga balo, ul qadi ra'no ofat, –

baytida “ra'no qad” birikmasi ichida ham, bu birikma bilan “jilva” so'zi orasida ham o'rin almashib takrorlanish kuzatiladi.

**TARJIBAND** (ar. تَرْجِيْبَانْد – takrorlash, aylantirmoq, fors. تَرْجِيْب – bog'lash) – mumtoz adabiyotdagi o'ziga xos kompozitsion qurilishga ega yirik hajmli lirik janr. T. bir necha baytdan tashkil topib, uning har bir bandi g'azal tipida qofiyalanuvchi (a-a, b-a, v-a, g-a...) bir necha baytdan tarkiblanadi, har bir band oxirida esa masnaviy tipida qofiyalangan bir bayt aynan takrorlanadi. T.lar, odatda, har biri 8 – 11 baytdan tarkiblanuvchi 7 – 8 banddan tashkil topadi, biroq bu borada qat'iy me'yorlar belgilangan emas. T.lar, ko'proq, falsafiy-axloqiy mavzuda yoziladi, she'r davomida qo'yilgan mavzu keng va atroflicha yoritiladi. Mavzu birligi, ya'ni she'r davomida bitta mavzuning izchil rivojlantirilishi, bandlarning barini bog'lovchi tarje'ning mavjudligi T.ning yaxlitligini ta'minlaydi. Bandlarni o'zaro bog'lagani uchun takrorlanuvchi bayt – tarje' vosila bayt (bog'lovchi bayt) deb ataladi, unga T.ning eng muhim kompozitsion unsuri sifatida qaraladi, janrning nomlanishi ham shu bilan izohlanadi. Takrorlanayotgan baytning yana bir vazifasi lirik qahramon kechinmalarini ta'kidlash, o'quvchi diqqatini asosiy fikrga (q. leytmotiv) qayta-qayta jalb qilishdan iborat. Mazkur xususiyatlari bilan T. jiddiy falsafiy-axloqiy masalalarni lirik mushohada qilishga keng imkon beradi, shu bois Hofiz Xorazmiy, Navoiy, Fuzuliy, Yusuf Amiriy, Ravnaq, Miriy, Munis, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira, Tabibiy kabi mumtoz shoirlar ijodida keng o'rin tutadi.

**TARJI'** (ar. تَرْجِي' – takrorlamoq, aylantirmoq) – mumtoz she'riyatdagi san'at, she'rning har bir bandi oxirida misra yoki baytni takrorlash; takrorlanib kelayotgan misra yoki bayt ham tarji' deyiladi (q. refren). A.Husayniy Ajam shoirlari T.ni shunday tushunganini, arab shoirlari esa T.ni takrir turlaridan biri, bayt tarkibida bir ma'noni qayta-qayta takrorlashga asoslangan san'at deb hisoblashlarini aytadi. She'riyatimizda T. san'ati qo'llangan she'rlar ko'plab uchraydi. Mas., Furqatning “Sayding qo'ya ber, sayyod” musaddasining hamma bandlaridan so'ng quyidagi bayt T. sifatida takrorlanadi:

Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,

Kuygan jigari bag'ri sadpora ekan mendek.

Mashrab, Fuzuliy, Muqimiy kabi shoirlarning musammatlarida T. san'atidan mohirona foydalanilgan. Shuningdek, mumtoz she'riyatda T. asosida farqlanuvchi tarjiband (q.) janri ham mavjud.

**TARIXIY-FUNKSIONAL O'RGANISH** – badiiy adabiyotning ijtimoiy taqdirini, badiiy asarning o'quvchi omma ongidagi yashash tarixi, turli tarixiy bosqichlardagi talqinlarini o'rganish. Bu xil yondashuv badiiy adabiyotga kommunikatsiya jarayoni sifatida qarashni taqozo etadi. Modomiki, kommunikatsiya amalga oshgan shart-sharoitlar o'zgarib turar ekan, T.-f.o'. badiiy asarning ilgari amalga oshirilgan talqinlarini o'sha davr kontekstida tadqiq qilishni taqozo etadi. Shuning uchun ham muayyan asarning ilgari (adabiy tanqid, olimlar, o'quvchi omma, rejissyorlar, aktyorlar, kitob bezakchilari va sh.k. tomonidan) amalga oshirilgan talqinlari T.-f.o'. uchun material bo'lib xizmat qiladi. T.-f.o'. adabiy merosni to'g'ri baholash, ularning hozirgi kundagi ahamiyatini ochib berish, o'tmishda yaratilgan asarlarning ilmiy jihatdan to'g'ri, adekvat talqin etilishida muhim ahamiyatga egadir. Ayon bo'ladiki, ilgari yaratilgan asarlarning hozirgi hayotini o'rganish T.-f.o'.ning muhim va asosiy masalasidir. Adabiyot tarixi konkret asarga o'quvchi ommaning qiziqish darajasi, talqinlari, unga berilayotgan baholar o'zgarib turishiga ko'plab misollarni beradi. Zero, adabiy asar mazmuni ko'pqatlamli bo'lib, muayyan davr shart-sharoitlari (badiiy diddagi o'zgarishlar, shu davrda tug'ilgan ma'naviy-ruhiy ehtiyojlar) bilan bog'liq holda ulardan biri aktuallashaverdi. Ya'ni badiiy asarning turli davrlarda turlicha tushunilishi va baholanishi qonuniyat maqomidadir. Mas., A.Qodiriy “O'tgan kunlar” romanida o'z davri ijtimoiy muammolari (millat fojialarining ildizi, milliy ozodlik masalalari)ga munosabat bildirib, davri uchun benihoya muhim g'oyalarni singdirishga intilgan edi. 60-yillarda asar mazmunining bu qirrasini tushib qoladi-da, uning boshqa qatlami (ota-ona orzusi, sevgi va vafo) aktuallashdi, u ko'proq “ishqiy maishiy, sarguzasht” asar sifatida tushuniladi.

80-yillar oxirida, jamiyatda istiqloq va erk sog'inchi kuchaygan bir sharoitda, ijtimoiy-tarixiy sharoit asar yaratilgan davrdagiga mohiyatan yaqin edi, bu esa yana asar yaratilgan davrdagi aktual mazmuni oldingi planga chiqardi. Hozirgi kunda esa o'quvchini romandagi umuminsoniy muammolar talqini – yozuvchining inson erki, qadri va sha'ni, adolat va razolat, diyonat va xiyonat, shaxs va jamiyat, shaxsiy manfaat bilan o'zga shaxslar manfaati munosabati kabi qator murakkab masalalar haqidagi mulohazalari ko'proq qiziqtiradi. Istiqloq sharoitida o'tmish adabiy merosini qayta baholash zarurati yuzaga keldiki, bu narsa adabiyotimizni o'rganishda tarixiy-funksional yondashuvni dolzarb etib qo'ydi. Shu bois ham o'tgan asr oxirlaridan boshlab o'zbek adabiyotini T.-f.o'. borasida dadil qadamlar qo'yildi. Jumladan, A.Rasulov, S.Sodiq, R.Qo'chqor, B.Karimov kabi olimlarning A.Qodiriy va A.Qahhor asarlarini tarixiy-funksional aspektida o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlari bu boradagi jiddiy yutuqlardan sanalishi mumkin.

**TARKIBBAND** (ar.????? – tuzilish, fors. ??? – bog'lash) – mumtoz adabiyotdagi o'ziga xos kompozitsion qurilishga ega yirik hajmli lirik janr. T.ning har bir bandi g'azal tipida qofiyalanuvchi bir necha baytdan tarkiblanib, oxirida masnaviy tipida qofiyalanuvchi bayt keltiriladi. Qurilishidagi bu jihatlari bilan T. tarjibandga o'xshash, faqat unda bandlar oxiridagi bayt tarje' emas, har bir band oxirida butunlay yangi bayt keltiriladi. T.ning bandlari g'azalni eslatadi, faqat unda taxallus keltirilmaydi. T. bandlaridagi baytlar soni qat'iy belgilangan emas, lekin har bir T.da bandlardagi baytlar soni bir xil bo'lishi lozim (mas., Hofiz Xorazmiy devoniga kiritilgan T. har biri 8 tadan baytni o'z ichiga olgan 4 ta banddan tashkil topgan). T.dagi bandlar g'oya va mavzu jihatidan bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, bitta mavzuning izchil rivojlantirilishi asar yaxlitligini ta'minlaydi: qo'yilgan mavzu talqini banddan-bandga yorqinlashib boradi, g'azal ko'rinishidagi har bir band mavzuning qaysidir qirrasini atroflicha yoritishga xizmat qiladi. Shu jihatlari bilan T. jiddiy falsafiy masalalarni lirik mushohada etish uchun qulay shakl bo'lib, unga Hofiz Xorazmiy, Navoiy, Fuzuliy kabi mutafakkir shoirlar ayricha e'tibor qilganlari shundandir.

**TARSYe'** (ar. ????? – durni, gavharni ipga tizmoq) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, baytning birinchi misrasidagi barcha so'zlarning keyingi misradagi muqobillariga qofiyadosh va vaznda teng bo'lishi. Biroq T.ning asosiy sharti qofiyadoshlik bo'lib, "Agar qofiya tufayli vaznda ixtilof bo'lsa ham, zarari yo'qdir" (A.Husayniy). Ya'ni birinchi misradagi so'zlar ikkinchi misradagi muqobillari bilan qofiyadosh bo'lsa, vaznda tenglik buzilgan holda ham, T. san'ati yuzaga kelaveradi. Ayni paytda, misralardagi muqobil so'zlarning ham qofiyadosh, ham vazndosh bo'lishi T.ning mukammal ko'rinishi hisoblanadi. She'rga o'zgacha musiqiylik baxsh etishi sabab she'riyatimizda T. ancha faol qo'llangan, uning go'zal namunalari turli janrlarga mansub she'rlarda ko'plab uchratish mumkin. Faqat qofiyalanish tartibi o'ziga xos bo'lgani uchun g'azaldagi T., odatda, matla'da yuzaga kelishini unutmazlik lozim. Buning sababi shuki, T. bayt misralaridagi barcha so'zlarning o'zaro qofiyadosh bo'lishini taqozo etadi. G'azalda esa matla'dan keyingi baytlarning birinchi misralari ochiq qolgani holda, ikkinchi misralarining matla'ga qofiyadosh bo'lishi talab etiladi, shuningdek, aksar hollarda g'azal radifli bo'ladi – bularning bari matla'dan boshqa baytlarda T.ning yuzaga kelishiga xalaqit beradi. Ikkinchi tomondan, matla'ning T. asosiga qurilishi husni matla' (q.) san'ati talablariga mos bo'lib, ilk baytning o'quvchi yodida muhrlanib qolishiga xizmat qiladi, shu tariqa T. san'atini qo'llashda g'azal janri xususiyatlaridan kelib chiquvchi cheklov oxir-oqibat uning foydasiga ishlaydi. Mas., Navoiyning quyidagi matla'sida T. san'ati qo'llangan:

Ne xush kelgayki, kelgay nozananim,

Ne xush bo'lg'ayki, bo'lg'ay hamnishinim.

T. san'atining qo'llanishi, ayniqsa, bir baytdangina tashkil topuvchi fardlarda muhim, chunki hikmatli fikrning o'ziga xos ohang bilan jarang topishi uning o'quvchi yodida saqlanishida, ommalashib ketishida katta ahamiyat kasb etadi. Mas., Navoiyning:

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q,

Futuvvat barcha qilmakdur, demak yo'q, –

fardi misralaridagi qofiyalanayotgan so'zlar raviyda ham, harakatu sukun (unli va undoshlar)da ham bir-biriga muvofiq, u T.ning eng mukammal ko'rinishiga misol bo'la oladi.

Masnaviy shaklida yozilgan dostonlar tarkibidagi T. san'ati qo'llangan baytlar matnda ritmik o'ziga xosligi, musiqiyliги bilan alohida ajralib turadi. Shu bois ham bunday baytlar ko'proq voqealar shiddati ortgan, qahramon ruhiyatida dramatism kuchli namoyon bo'lgan o'rinlarda, muallif avval bildirgan fikrlarini umumlashtirib ifodalamoqchi bo'lgan hollarda uchraydi. Mas., "Layli va Majnun"da farzandini ishq balosidan xalos etish niyatidagi ota Qaysni Ka'baga olib boradi: u o'g'lining xudoga ishqdan xalos etishni so'rab munajat qilishini istaydi. Lekin Qays o'zini ishqdan ayro tasavvur qilolmaydi, Navoiy qahramonining bu holatini uning munajotidagi quyidagi baytlarda ifoda etadi:

Ko'nglumga fazo harimi ishq et,

Jonimg'a g'izo nasimi ishq et!

Ishq isidin et damimni mushkin,

Ishq o'tidin et yuzumni rangin!

Layli ishqin tanimda jon qil,

Layli shavqin ragimda qon qil!

Dardini najotim et, ilohi,

Yodini hayotim et, ilohi!

Kun yuzini aylading mushakkal,

Tun ko'zini aylading mukahhal.

Keltirilgan baytlardagi ayrim juftliklar (ko'ngil-jon, is-o't, dam-yuz, tan-rag)da raviyning yo'qligi mumtoz qofiya qoidalariga muvofiq bo'lmasa-da, ulardagi qo'shimchalar hisobiga yuzaga kelayotgan ohangdoshlik baytlarda T. san'ati mavjud deyishga imkon beradi. Shuningdek, baytlardagi barcha so'zlarda vazndoshlik kuzatilgani uchun, ularni muvozana (q.) san'atiga ham misol qilish mumkin.

TASBYE' (ar. ????? – barmoq bilan ko'rsatish) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, baytning birinchi misrasi qaysi so'z bilan tugasa, keyingi misrani shu so'z bilan boshlash, takror turlaridan biri. Birinchi misra oxirida va ikkinchi misra boshida takrorlanayotgan so'z shoir fikrini ta'kidlash, ma'noni kuchaytirish vazifalarini o'taydi. Mas., Navoiyning:

Yo'q demakim, ul quyosh yodida faryod aylamon,

Aylamon faryodkim, gardunni barbod aylamon, –

baytida takrorlanayotgan "aylamon" so'zi T.ni yuzaga keltirmoqda.

TASVIR (ar. ????? – tasvirlash, biror narsaning suratini solish) – badiiy vositalar yordamida voqelikdagi narsa-hodisalarni o'quvchi (tomoshabin) bevosita va yaxlit holda, ularga xos individual-betakror xususiyatlar bilan birlikda konkret his eta oladigan tarzda aks ettirish. Garchi mohiyatan T. termini tasviriy san'atga xos bo'lsa-da, uni boshqa san'at turlariga nisbatan, xususan, badiiy adabiyotga tatbiqan qo'llash ham o'rinlidir. Badiiy adabiyotda T. so'z vositasida amalga oshiriladi, shunga ko'ra, tasviriy san'atdan farqli o'laroq, adabiy asarda tasvirlangan narsa-hodisa "ichki ko'z" bilan ko'riladi: so'z vositasida o'sha narsa-hodisa chizgilari muayyan ketma-ketlikda qayd etiladi va oxir-oqibatda tasavvurda uning T.i – surati jonlanadi. Tasviriy san'atning, ayniqsa, adabiyot singari dinamik tasviriy san'at sanaluvchi kinoning rivojlanishi, san'at turlariaro aloqa va ta'sir jarayonining mavjudligi, o'quvchilarda estetik ob'ektни ko'rish orqali qabul qilish imkonlarining kengaygani badiiy adabiyotdagi T.ni sifat jihatidan o'zgartirib, imkoniyatlarini kengaytirdi. Zamonaviy adabiyotning T. imkoniyatlari kengaygani hozirda adabiy asar

tahlilida nuqtai nazar, perspektiva, rakurs, yirik plan, umumiy plan kabi terminlar tobora keng qo'llanayotganida ham ko'rinadi. Bu esa hozirda tavsifning ichida va uning bir sifat ko'inishi deb tushuniladigan T.ga, vaqti kelib, alohida kompozitsion unsur sifatida qaralishi mumkinligini ko'rsatadi.

TATABBU' (ar. تاتابو – biror narsaning ketidan tushish, izidan borib tekshirish) – qarang: nazira

TAFRYe' (ar. تافريه – tarmoqlanish, shoxlash) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, real narsa-hodisa, holat kabilarni inkor qilgan holda, boshqa narsa-hodisa, holatga o'xshatish. Mohiyatan, T. husni ta'lil (q.) san'atiga juda yaqin turadi. Ularning farqi shundan iboratki, husni ta'lilda shoir tabiiy holatga notabiiy, shoirona sabab ko'rsatishga harakat qiladi, T.da esa bir narsani boshqa bir narsa sifatida ko'rsatib, shu holatni isbotlashga urinadi, boshqacha aytsak, shoir o'z fikrida qat'iy turib oladi. Mas., Navoiy mashhur:

Lolazor ermaski, ohimdin jahonga tushdi o't,

Yo'q shafaqkim, bir qiroqdin osmonga tushdi o't, –

baytida xuddi shunday yo'l tutadi: keng lolazor va qizarib turgan ufqni "ko'rinib turgan kenglik lolazor emas, mening ohimdan jahonga o't tushdi va shuning uchun u qip-qizil olov ichida qoldi, ko'kda qizarib ko'rinayotgan narsa ham shafaq emas, o'sha ohimdan jahonga tushgan o't endi bir tarafdin ko'kka o'r'lamoqda", deydi.

TAFRIT (ar. تافريت – o'tkazib yuborish, sustkashlik qilish) – qarang: mubolag'a

TAFSIR (ar. تافسير – sharh, izoh) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, bayt avvalida mavhumroq tarzda aytilgan fikrni bayt davomida batafsil tushuntirib berish; ilmi badi'ga oid manbalarda tabyin deb ham yuritiladi. Ya'ni shoir go'yo o'zi aytgan fikr qandaydir noaniq, tushunarsiz ekanini his qiladi va uni izohlash, sharhlashga ehtiyoj sezadi, go'yo o'quvchiga mavhum bo'lib qolayotgan masala tushuntirilib, tafsir qilinadi. Mas., Navoiyning:

Ravzada kavsar qirog'inda xayol ettim Bilol,

Yuz aro lab, lab uza shabrang xolingni ko'rub, –

bayti birinchi misrasida shoir xayoliga kavsar qirg'og'ida o'tirgan Bilol kelganini aytib, keyingi misrada buning sababini izohlaydi, ya'ni yorning yuzi jannatni, labi kavsarni, xoli esa Bilolni xayoliga keltirganini aytadi. E.Vohidovning:

Uch balodan saqlasin, charxi balokash bo'lmasin,

Do'st mehrsiz, dardsiz ulfat, yor jafokash bo'lmasin, –

baytida esa avval "uch balodan saqlasin" degan istak ifoda etiladi, keyin "uch balo" deganda nimalar nazarda tutilayotgani sharhlanadi. Avvalida mavhum ifodalangan "uch balo" "mehrsiz do'st", "dardsiz ulfat" va "jafokash yor" tarzida konkretlashtiriladi. Ayrim manbalarda T. doirasi bir bayt bilan chegaralanmasdan, bir baytdagi mavhumlik keyingi baytda izohlanishi mumkinligi ham e'tirof etiladi.

TAXMIS (ar. تخميس – beshlik qilish) – qarang: muxammas

TAShBYeH (ar. تاشبيح – o'xshatish) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, ikki narsa va tushuncha, harakat yoki holat va sh.k.larni bir-biriga o'xshatish, qiyoslash. Adabiyotda, xususan, she'riyatda eng keng tarqalgan va qadimiy san'atlardan biri. T.ning yuzaga kelishida ikki narsa-tushuncha, ikki harakat va holat orasidagi o'xshashlik asos bo'ladi. O'xshatish uchun haqiqiy, real hayotiy narsa-buyumlar tanlangan

bo'lsa, haqiqiy T., noaniq, mavhum narsalar tanlangan bo'lsa, majoziy T. yuzaga keladi. T. san'ati to'rt juzv orqali yuzaga keladi: mushabbih, mushabbihun bih, vajhi shabih, vositai tashbih.

Mushabbih (yoki mushabbah) – o'xshatilayotgan narsa. Tushuntirish uchun “oy kabi go'zal yuz” T.i misol qilib olinsa, unda “yuz” mushabbihdir. Mushabbihun bih (yoki mushabbah bih) esa o'xshayotgan narsa, misolimizda “oy” mushabbihun bih bo'ladi. Vajhi shabih (yoki vajhi shibh) – o'xshatilish sababi, ya'ni ikki narsa-tushunchani bir-biriga o'xshatish asosi, “oy kabi go'zal yuz”da yuz bilan oy go'zallik vajidan o'xshatilayotir. Vositai tashbih (yoki odoti tashbih) – o'xshatishli konstruksiyadagi grammatik vosita, misolimizda “kabi” ko'makchisi o'xshatish vositasidir.

T.ning yuzaga kelishida mazkur unsurlarning barchasi ishtirok etishi ham, ulardan ayrimlari ishtirok etmasligi ham mumkin. Mas. Boburning:

Yo qoshing yanglig' egilgan jismi zorimnimu dey?

Yo sochingdek tiyra bo'lg'an ro'zgorimnimu dey? –

bayti har ikkala misrasida ham barcha unsurlari mavjud bo'lgan T. qo'llangan: birinchi misrada “qosh” – mushabbih, “yanglig'” – vositai tashbih, “egilgan” – vajhi shabih, “jism” – mushabbihun bih; ikkinchi misrada “soch” – mushabbih, -dek – vositai tashbih, “tiyra” – vajhi shabih, “ro'zgor” – mushabbihun bih. T.ning bu turi, ya'ni to'rtala unsur ham qatnashgan ko'rinishi tashbehi mufassal deyiladi.

Ilmi badi'ga oid adabiyotlarda T. tuzilishi (yuqoridagi unsurlarning ishtiroki), qiyoslanayotgan narsa-tushunchalar orasidagi o'xshashlik darajasiga ko'ra, yana bir qancha turlarga bo'linadi. Ularda tasnif bilan bog'liq turlichaliklar bo'lsa ham, T.ning ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan turlari sifatida quyidagilarni sanash mumkin: T.i mujmal (q.), T.i muyaqqad (q.), T.i mutlaq (q.), T.i kinoyat (q.), T.i mashrut (q.), T.i tasviyat (q.), T.i aks (q.), T.i izmor (q.), T.i tafzil (q.), T.i musalsal (q.), T.i mo'kad (q.)

TASHBYeHI AKS (ar. ????? ??? – teskari o'xshatish) – tashbeh turlaridan biri, avval bir narsa ikkinchi bir narsaga o'xshatiladi, so'ng buning aksi amalga oshiriladi, ya'ni ikkinchi narsa birinchi narsaga o'xshatiladi. Boshqacha aytilsa, T.a.da avval mushabbih bo'lgan so'z keyin mushabbihun bih, mushabbihun bih bo'lgani esa mushabbihga aylanadi. Mas., Navoiyning quyidagi:

Yuzung quyoshmi ekin yo quyosh yuzungmi ekin

Ki, qaysi, qaysi ekan farq emas, nechukki egiz, –

baytida avval yuz quyoshga, keyin esa quyosh yuzga o'xshatiladi, ya'ni “yuz” birinchi holda mushabbih bo'lsa, keyingisida mushabbihun bihga aylanadi.

TASHBYeHI IZMOR (ar. ????? ????? – yashirin o'xshatish) – tashbeh turlaridan biri bo'lib, bunda, zohiran qaralsa, shoir o'xshatishni maqsad qilmagandek tuyuladi, haqiqatda esa uning maqsadi o'xshatish bo'ladi. Boshqacha aytsak, T.i. tashbehi mutlaqning (q.) tamom ziddidir, unda bir narsaning ikkinchi narsaga o'xshatilayotgani haqida hech bir ishora bo'lmaydi; tashbehi muyaqqaddan (q.) farqli ravishda, T.i.da mushabbih va mushabbihun bih sintaktik birlik (gul yuz, sarv qad kabi) hosil qilmaydi; nihoyat, T.i. hamisha ifodadagi boshqa bir maqsad bilan go'yo pardalanadi. Shulardan kelib chiqib, mumtoz she'riyatdagi taajjub, tajohul ul-orif, husni ta'lil kabi san'atlar o'xshatish asosida voqe bo'lgan hollarning barida T.i. mavjud bo'ladi, deyish mumkin. Mas., tajohul ul-orif san'ati qo'llangan quyidagi:

Tun yarimda kun tug'urdi yoki beparvo chiqib,

Zulf arosidin yuzini oyga ko'rsatganmukin, –

baytida, zohiran qaraganda, shoirning muddaosi o'zini hayronu bexabar qilib ko'rsatishdek ko'rinsa ham, aslida, maqsadi yor zulfini tunga, yuzini kunga o'xshatishdir.

TAShBYeHI KINOYAT (ar. ????? ????? – ko‘chimli o‘xshatish) – tashbeh turlaridan biri, to‘rt unsurdan faqat mushabbihun bih ishtirok etuvchi tashbeh. Ya’ni T.k.da mushabbih, vositai tashbih va vajhi shabih tushirib qoldiriladi, mushabbihun bih esa mushabbih ma’nosida, ya’ni ko‘chma ma’noda ishlatiladi. Mohiyatan, T.k. istioradan farqlanmaydi. Mas., Navoiyning:

Otashin la’lidurkim, anda muzmar bo’ldi jon,

Otashin gulbargidan xil’atki jononimdadur, –

baytida “la’l” so’zi ko‘chma ma’noda qo’llanib, “lab” ma’nosini bildiradi.

TAShBYeHI MASHRUT (ar. ????? ????? – shartlangan o‘xshatish) – tashbeh turlaridan biri, narsa-hodisani boshqa narsa-hodisaga ma’lum bir shart bilan o‘xshatish. Ya’ni T.m.ning yuzaga chiqishi uchun avval o’sha shart bajarilishi lozim bo’ladi. Mas.:

Ey, Navoiy, durri nazming xutbadek topqay sharaf,

Lutf ila qilsa nazar bayram kuni sulton anga, –

maqta’sida Navoiy o‘zining she’rlari xutbadek sharaf topishini aytadi, biroq buning uchun sultonning ularga “lutf ila” nazar solishi shart qilib qo‘yiladi. Yoki boshqa bir baytda Navoiy:

Halol ona sutidekdur gar o‘zbekim tutsa,

Tobuq qilib yukunub to’stag’on ichinda qimiz, –

deydiki, qimiz “ona sutidek” halol bo’lishi uchun uni “o‘zbekim tutishi” shart qilib qo‘yilmoqda.

TAShBYeHI MUJMAL (ar. ????? ????? – noaniq o‘xshatish, o‘xshatilish sababi noma’lum) – tashbeh turlaridan biri, vajhi shabih tushirib qoldirilgan tashbeh. Mas., Navoiyning:

Ko’rdi to sarv qadu guldek yuzungni bog‘bon,

Gulshan ichra qilmadi shamshod ila sunbul havas, –

baytidagi “guldek yuz” tashbehida to‘rt unsurdan uchta bor: “gul” – mushabbihun bih, “yuz” – mushabbih, -dek – vositai tashbih, lekin “gul” bilan “yuz”ning o‘xshatilish sababi aytilmagan, vajhi shabih tushirib qoldirilgan.

TAShBYeHI MUSALSAL (ar. ????? ????? – ketma-ket o‘xshatish) – tashbeh turlaridan biri, bir narsani bir necha narsaga ketma-ket o‘xshatish. Ya’ni bunda shoir bir narsa (mushabbih)ni bir paytning o‘zida ketma-ket bir necha narsa (mushabbihun bih)ga o‘xshatadi. Mas., Sayfi Saroiyning:

So’zung durru javohirdur ko’ngullar ganjina loyiq,

Na loyiq? Loyiqi xisrav. Na xisrav? Xisravi kishvar, –

baytida so’z avval durga, keyin javohirga, Atoyining:

Ey lablari shahdu shakaru Misr naboti,

Yusuf kibi shirin harakatu sakanoti, –

baytida yor lablari asal (shahd), shakar va Misr novvotiga ketma-ket o‘xshatilmogda. T.m. ko‘pincha tajohul ul-orif san‘ati bilan qorishiq holda uchraydi, zero, mazkur san‘at aksar hollarda T.m. asosida yuzaga chiqadi. Buni, mas., Atoyining quyidagi baytida ko‘rish mumkin:

Sochmu yo sunbulmu yo ganj ustida yotur ilon,

Yo kelibdur Rum eliga Chinu Mochin lashkari?

TASHBYeHI MUTLAQ (ar. ????? ??? – ochiq o‘xshatish) – tashbeh turlaridan biri. T.m. manbalarda tashbehi sarif deb ham yuritiladiki, aslida, shu nom mohiyatni aniqroq ifoda etadi. Zero, sarif so‘zi lug‘atda “ochiq, oshkor, ravshan, aniq” ma‘nolarini ifodalaydi. T.m.da mushabbih va mushabbihun bih orasidagi munosabatni belgilovchi vositai tashbeh (kabi, singari, xuddi, yanglig‘, go‘yo, -dek, -day va b.)ning bo‘lishi shart va xuddi shu hol ikki narsa-tushunchaning bir-biriga o‘xshatilayotganini aniq bildirib turadi. Mas., Lutfiyning:

Pistadek og‘zinga shakar dedilar,

G‘ayb sirin ne muxtasar dedilar, –

baytida -dek qo‘shimchasi og‘izning pistaga o‘xshatilayotganini oshkor bildirib turadi.

TASHBYeHI MUFASSAL (ar. ????? ??? – to‘liq o‘xshatish) – qarang: tashbeh

TASHBYeHI MUYaQQAD (ar. ??? ???? – noaniq o‘xshatish) – tashbeh turlaridan biri, tarkibida faqat mushabbih va mushabbihun bih ishtirok etgan tashbeh. Mas., Boburning:

Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzing hajrida sarg‘ardim,

Ko‘rib rahm aylagil ey lolaruh bu chehrai zardim, –

baytidagi “gul yuzing” tashbehida to‘rt unsurdan ikkitasi (“gul” – mushabbihun bih, “yuz” – mushabbih) bor, lekin unda vositai tashbih bilan vajhi shabih tushirib qoldirilgan: o‘xshatish grammatik vositalarsiz amalga oshirilgan, o‘xshatish asosi ko‘rsatilgan emas.

TASHBYeHI MO‘KAD (ar. ??? ???? – ta‘kidli o‘xshatish) – tashbeh turlaridan biri. T.m. tuzilishiga ko‘ra tashbehi muyaqqadga yaqin: unda ham faqat mushabbih va mushabbihun bih ishtirok etadi, faqat farqi shuki, bunda mushabbih ega, mushabbihun bih esa ot kesim vazifasida bo‘ladi. Ya‘ni kesim vazifasidagi mushabbihun bih mushabbih haqidagi hukmni ta‘kidlaydi. T.m. tarkibidagi mushabbih ham, mushabbihun bih ham birgina so‘z yoki so‘z birikmasi bilan ifodalanishi mumkin. Mas., Navoiyning:

Chug‘z bo‘lmish ganji vasling shavqidin ko‘nglum qushi,

Zahmi ko‘p ko‘nglum uyi ul chug‘zning vayronidur, –

baytida “ko‘nglum uyi” – mushabbih ega bo‘lsa, “chug‘z vayronasi” – mushabbihun bih kesim vazifasidadir.

TASHBYeHI TAFZIL (ar. ????? ???? – chekinish yo‘li bilan o‘xshatish) – mumtoz adabiyotdagi she‘riy san‘at, tashbeh turlaridan biri. Shoir bir narsani ikkinchi bir narsaga o‘xshatib, so‘ng bu fikridan qaytadi-da, o‘xshatilmish (mushabbih)ni o‘xshayotgan narsa (mushabbihun bih)dan ustun qo‘yadi. Ya‘ni “yuzingni quyoshga o‘xshatay desam, quyoshning zavoli bor, yuzing esa bezavoldir” kabi. Mas., Boburning:



Takalluf har necha suratda bo'lsa andin ortuqsen,

Seni jon derlar, ammo betakalluf jondin ortuqsen, –

baytida avval yorning o'zgalar tomonidan jonga o'xshatilishi e'tirof etilib, so'ng yorning jondanda ortiqligi ta'kidlanadi.

TASHXIS (ar. ?????– shaxslantirish) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, shaxsga xos xususiyatlarning hayvonlar, qushlar, jonsiz narsa-predmetlarga nisbat berilishi. Ya'ni T.da insonlarga xos bo'lgan his-tuyg'u, xatti-harakatlar boshqa mavjudotlarga yoki jonsiz narsalarga ko'chiriladi. Biroq bu ko'chirish mexanik tarzda yoki shunchaki o'ylab topilgan bo'lmay, muayyan mantiqiy asosga egadir. Boshqacha aytusak, ko'chirilayotgan insonga xos xususiyatlar bilan hayvonlar, qushlar, o'simliklar yoki boshqa jonsiz narsalarning ayrim jihatlari orasida o'xshashlik, mushtarakliklar kuzatiladi. Mas., “yomg'ir yog'ishi” insonning ko'zyosh qilishiga monand, shuning uchun ham metaforik asosda “bulutlar ko'zyosh to'kdi” deyish ma'lum mantiqiy asosga ega bo'ladi. Jaloliddini Rumiyning quyidagi ruboiysida T. san'ati mahorat bilan qo'llangan:

Ruxsoringdan rangin o'g'irlabdi gul,

Yo'lto'sardek dorga osilmish kokil.

Qancha nola qildi foyda bo'lmadi,

Faraxbaxsh bo'yingdan jon oldi bulbul.

Ruboiydagi gulning yor ruxsoridan rang o'g'irlashi, kokilning dorga osilishi, bulbulning nola qilishiyu jon olishi – bular bari insonga xos xususiyatlarning gul, kokil va bulbulga ko'chirilishi natijasida voqe bo'lgan T.dir. Bunda gul rangi bilan yor ruxsorining rangi, kokilning osilib turishi bilan dorda yo'lto'sarning osilib turishi, bulbulning sayrashishi bilan insonning nola qilishi o'rtasida o'xshashlik borligi T. ning yuzaga kelishiga mantiqiy asos bo'lgan.

TA'DIL (ar. ?????– to'g'rilamoq) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, bir bayt tarkibida bir necha sodda otlarning ma'lum tartibda sanalishi. Mas., Mashrabning:

Malaksan yo bashar, yo huru g'ilmonsan, bilib bo'lmas,

Bu lufu bu nazokat birla sendin ayrilib bo'lmas, –

bayti T.ga yaxshi misol bo'la oladi.

TA'RIZ (ar. ????? – kinoya bilan so'zlash, e'tiroz bildirish) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, biror kishini olqish so'zlar, dabdabali maqtov orqali hajv qilish. Ya'ni zohiran shoir birovni maqtayotganday ko'rinsa-da, asl muddao uning kirdikorlarini fosh qilish, kesatish, kinoya bo'ladi. Mas., Zavqiyning:

Ho'qandlik, andijonlik, O'rotepa mardumin

Bir kurashda yiqitti, polvon ekan Bekturboy, –

baytida Bekturboy (Viktor) bir qarashda polvon sifati bilan maqtalayotganday ko'rinsa-da, aslida ho'qandlik, andijonlik, o'ratepalik savdogarlarni boplab aldab ketgan firibgar sifatida ta'riflanadi.

TA'RIX yoki TARIX (ar. ????? – o'tmish) – muhim tarixiy sanalar (ulug' kishilarning tavallud va vafot yillari, muhim ijtimoiy-siyosiy voqealarning yuz berish, asarning yozilish, binoning qurilish vaqti va sh.k.)ni abjad hisobi (q.) yordamida qayd etish. Sharq mumtoz she'riyatida T., odatda, she'riy yo'l bilan, ko'proq, bayt ichida qayd qilingan. Bayt tarkibida kerakli sanaga ishora qilayotgan harf, so'z yoki so'z birikmasi "T. moddasi" deb yuritiladi. Mumtoz adabiyotshunoslikka oid manbalarda T. goh badiiy san'at, goh esa janr sifatida ko'rsatib kelinadiki, bu xil turlichalik muayyan asosga ega. Chunki T. mumtoz janrlar (doston, qasida, marsiya, ruboiy, qit'a va b.) tarkibidagi baytlarda berilishi ham, ma'lum bir sanani qayd etish uchun alohida bayt (mas., biror bino peshtoqiga bitish uchun) sifatida maxsus yozilishi ham mumkin. Ikkinchi tomondan, ayrim T.lardan ko'zlangan muddao muayyan sanani qayd etish bilan cheklansa, boshqalarida buni san'atkorona mahorat bilan amalga oshirishga intilish kuzatiladi. Mas., "Yusuf va Zulayxo"dagi:

Zod edi tarix taqi heyu dol,

Muddati hijratdin o'tib mohi sol, –

baytida T. harflarni oddiygina qayd etish bilan cheklanadi. Bunda zod (800), he (8) va dol (4) harflari ifodalovchi raqamlar yig'indisidan doston hijriy 812 yilda yozilgani ayon bo'ladi. Albatta, bu baytdagi T.ni san'at atalsa, biroz zo'rakilik bo'ladi. Lekin T.ning shunday namunalari borki, ularni san'at hisoblash joiz. Mas., Navoiy zolim amaldorlardan biri, Mozandaronda qatl etilib, kallasi Hirotga olib kelingan Muhammad Amin vafoti T.ini quyidagicha ifodalaydi:

Zolimero kushta so'yi shahr ovardand sar,

Onchi ovardand qatlashro hamon ta'rix bud.

Tarjimasi: Zolimni o'ldirib, boshini shaharga olib keldilar, nimaiki olib kelgan bo'lsalar, o'sha uning tarixidir. Baytda voqea tarixiga "shaharga zolimning boshini olib keldilar" jumlasini orqali ishora qilinmoqda. Bundan murod esa "zolim" (????)ning boshi, ya'ni "ze" (?) harfidir. U abjad hisobi bo'yicha 900 ga teng. Demak, Muhammad Aminning qatl etilishi hijriy 900, milodiy 1495 yilga to'g'ri keladi. T.ni bu kabi san'atkorlik bilan ifodalash uchun katta mahorat talab etiladi. Zero, bu o'rinda shoir bayt tarkibiga kiritayotgan so'z yoki jumla mazmunga mos bo'lishi bilan birga, abjad hisobi bo'yicha kerakli raqamga teng kelishi ham zarur. Shuningdek, bu yo'sin bitilgan T.larda ishora qilinayotgan raqamni aniqlash uchun o'quvchidan, xuddi muammoda yashiringan so'zni topishdagi kabi, o'tkir zehn, topqirlik talab etiladi.

TA'SIS (ar. ????? – asoslash) – qarang: muqayyad qofiya

TAQLID (ar. ????? – ergashtirish, o'xshatish) – adabiyotda o'zigacha mavjud bo'lgan asar xususiyatlarini qayta yaratish, ijod amaliyotida u yoki bu san'atkor ergashish tarzida namoyon bo'luvchi hodisa. Adabiyotshunoslikda T. va taqlidchilikka nisbatan ko'proq salbiy munosabat kuzatilsa-da, bular adabiy jarayonda tabiiy ravishda mavjud hodisa bo'lib, turli omillar (vorisiylik qonuniyati, adabiy-estetik qarashlar mushtarakligi, ijodiy o'rganish) natijasi o'laroq yuzaga keladi. Vorisiylik qonuniyati asosidagi T. adabiyot taraqqiyotining an'ana ta'siri ustuvor bo'lgan bosqichlarida (traditsionalizm bosqichi, G'arb adabiyotida XVIII asrgacha) keng kuzatiladi: bunda an'anaviy tarzda etalon deb qabul qilingan asarlarga T. qilish odatiy holgina emas, ma'lum darajada ijodkorga qo'yiluvchi talablardan biri (q. klassitsizm) bo'lib, ma'lum syujetlar, obrazlarga qayta-qayta murojaat qilinishi odatiy edi. Xuddi shunga o'xshash hol Sharq adabiyotida ham kuzatiladi (mas., xamsachilik an'anasi, g'azalchilikdagi poetik obraz, lirik holatlar va b.). Biroq buni T. ob'ektiga, garchi uning ko'plab xususiyatlari saqlab qolinsa-da, ko'r-ko'rona ergashish deb tushunmaslik kerak, zero, u avvaldan mavjud obraz, syujet motivlarining an'ana doirasida yangilangan badiiy talqinini taqozo etadi. Badiiy ijodda individuallikning ahamiyati ortib borishi barobaridadada T. qilinayotgan asar bilan uning asosida yaratilgan asar orasidagi farq ochiq ko'zga tashlanmaydigan, mos ravishda T.ga munosabat ham salbiylashib borishi kuzatiladi. Mas., hozirgi o'zbek nasrida kuzatiluvchi G'arb modern adabiyotiga ergashish hollariga aksariyat mutaxassislar xushlamayroq qaraydilar. Holbuki, bu T. adabiy-estetik qarashlar mushtarakligi mahsuli bo'lib, G'arb adabiyotida qariyb bir asrdan ziyod muqaddam boshlangan izlanishlar bizda endi-endi kuzatilmogda, zero, shunday adabiy-estetik qarashlarning

shakllanishiga zamin bo'la oladigan, shunday asarlarga ehtiyoj tug'diradigan sharoit bizda birmuncha kechroq yetildi. Ya'ni bunda T. unsurlari bo'lgan choqda ham ko'r-ko'rona emas, aksincha, ijodiy o'zlashtirish bo'lib, yosh adiblarning milliy hayotimizni g'arblik hamkasblari tajribasini ijodiy o'zlashtirgan holda idrok etishga intilishidir. Shu bilan birga, bu hodisaga umumiy baho bo'lib, uning ichida salbiy bahoga loyiq, ko'r-ko'rona T. unsurlari mutlaqo yo'q degani emas. Har qanday ijodkor faoliyatining ilk bosqichi T.dan xoli emas, buning omili o'rganish istagidir. Hatto ulkan iste'dodlar ham ijodining avvalida salaflaridan o'rganadi, ularning tajribalarini o'ziga singdirib, ongiyu qalbida qayta ishlab, o'zinikiga aylantirishi va shu asno o'z ijodiy individualligini shakllantirishi uchun ma'lum vaqt kerak. Mas., ulug' adibimiz A.Qahhor hikoyalarida Chexov, Gogol asarlariga, ilk romani "Sarob"da J.Londonga; A.Oripovning ilk ijodida esa Pushkin, Lermontov, G'.G'ulomlarga T. unsurlari sezilib turadi. Muhimi, ularning o'rganish bosqichidayoq ijodiy yondashuv, o'z yo'lini topish va o'z so'zini aytishga intilish kuzatiladiki, shu narsa ularning salaflardan samarali saboq olishi va keyincha betakror individuallik kasb etishlariga asos bo'ldi. Sirasi, iste'dod kuchi o'rganish bosqichini ijodiy yondashgan holda va nechog'li tez, samarali bosib o'ta olishda namoyon bo'ladiki, saboqni quruq "yod olgan"lar yuksak cho'qqilarni aslo zabt etolmaydi. Ijodiy yondashuvdan mosuvo T. esa aslo iste'doddan emas, grafomanlik (q.) dardiga yo'liqqanlikdan, epigonlikdangina (q.) darak beradi.

TAQSIR (ar. ????? – kamchilik ko'rsatish) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, faxriyaning aksi. Ya'ni faxriyada shoir o'zini yuksak baholasa, T.da qusurlarini (osiy, omi, uquvsiz, devona va sh.k.) e'tirof etgan holda o'zini past oladi. Mas., Huvaydoning:

Devona Huvaydosan, pomoli xaloyiq bo'l,

Ko'p tepmaguncha bu loy, chinni bo'lori yo'qtur, –

baytida T. san'ati tamsil san'ati bilan qorishiq holda yuzaga chiqadi: shoirning o'zini "devona", "pomoli xaloyiq" deyishi T. bo'lsa, ishlatilgan tamsil (loy ko'p tepkilanib chinni bo'lishi) kamtar, xokisor bo'lishning afzalligini ta'kidlashga xizmat qiladi.

TAQTI' (ar. ????? – kesish) – aruzda yozilgan baytni ritmik bo'laklarga, ruknga teng qismlarga bo'lish, misralardagi ma'lum tartibda joylashgan mutaharrik va sokin harflarni guruhlash. T. qilish orqali baytning bahri aniqlanadi. Hozirgi aruzshunoslikda misralarni cho'ziq va qisqa hijolarga ajratish orqali guruhlash usuli keng tarqalgan. Baytdagi har bir misraning bir ruknga teng qismi, ya'ni T.si alohida nom bilan yuritiladi: birinchi misraning birinchi T.si sadr, oxirgi T.si aruz (yoki ajuz), ikkinchi misraning birinchi T.si ibtido, oxirgi T.si zarb, sadr va ajuz, ibtido va zarblar orasidagi T.lar hashv deb ataladi. Mas., Navoiyning quyidagi baytida T.lar mazkur ko'rinishda joylashgan:

sadr hashv hashv ajuz

Xil'atin to / aylamish jo / non qizil, so / rig', yashil,

– V – – / – V – – / – V – – / – V –

foilotun foilotun foilotun foilun

ibtido hashv hashv zarb

Shu'lai o / him chiqar har / yon qizil, so / rig', yashil.

– V – – / – V – – / – V – – / – V –

foilotun foilotun foilotun foilun

Bayt T.larga ajratilgach, undagi ruknlar soni, zihofga uchragan yoki uchramaganiga qarab, turlicha nomlanadi. Yuqoridagi bayt foilotun ruknining sakkiz marta takrorlanishi va misralar soʻngida ruknning hazf zihofga uchrashi koʻrinishida shakllangan, shundan kelib chiqib, bayt vazni ramali musammani mahzuf deb nomlanadi. Agar baytda rukn olti marta takrorlansa, undagi hashvlar soni ikkita boʻladi, toʻrt marta takrorlansa, baytda hashv ishtirok etmaydi. Mas., Navoiyning quyidagi baytida rukn olti marta takrorlangan:

sadr hashv ajuz

Bizing shaydo / koʻngul becho / ra boʻlmish,

V --- / V --- / V --

mafoiylun mafoiylun faulun

ibtido hashv zarb

Malolat dash / tida ovo / ra boʻlmish.

V --- / V --- / V --

mafoiylun mafoiylun faulun

Baytda mafoiylun rukni olti marta takrorlanmoqda va misra oxiridagi rukn hazf zihofga uchragan. Shundan kelib chiqib, bayt vazni hazaji musaddasi mahzuf deb nomlanadi.

TYEKST (lot. textus – mato, toʻqima, matn) – 1) yozuvda qayd etib qoʻyilgan nutq, termin bu maʼnosida ogʻzaki nutqqa qarshi qoʻyiladi; 2) nutqiy asar, jumladan, adabiy asarning yozma (harflar) yoki ogʻzaki (tovushlar) belgilar vositasida qayd etilgan konkret-hissiy (koʻrish yo eshitish) qabul qilinadigan tomoni. Bu maʼnodagi T. matnshunoslikning obʼekti sanaladi; 3) nutqiy kommunikatsiyaning nisbiy butunlik, yaxlitlik kasb etgan va nisbiy avtonomlik, alohidalik xususiyatiga ega eng kichik birligi, yaʼni adabiy badiiy asar. Bu maʼnodagi T.ning mazmuni uni tashkil qilayotgan nutq birliklari, ularning oʻzaro aloqalari bilangina cheklanib qolmaydi. Butun sifatida u muallif tomonidan muayyan nutqiy situatsiyada yaratilgan, uning butun sifatidagi mazmun-mohiyati oʻzidan tashqaridagi reallik bilan bogʻliq holda voqe boʻladi.

TYEKSTOLOGIYA – qarang: matnshunoslik

TYEMA (yun. thema – asosga qoʻyilgan) – qarang: mavzu

TYEMATIKA – tor maʼnoda muayyan asarga qoʻyilgan katta-kichik tema (mavzu)lar jami boʻlib, bu oʻrinda tema (mavzu) oʻz ichiga “problema” maʼnosini ham singdirgan boʻladi (q. mavzu). Hayotni keng koʻlamda aks ettiruvchi yirik hajmli asarlarda bosh mavzudan tashqari u bilan bogʻliq boʻlgan boshqa bir qator tema (mavzu)lar ham qoʻyiladi. Odatda, bu mavzular oʻzaro integrativ aloqada boʻlib, ular bir-birini toʻldiradi, biri ikkinchisini ochishga xizmat qiladi. Mas., “Oʻtgan kunlar”ning bosh mavzusi yurt (millat) taqdiri boʻlsa, uni koʻlamli tasvirlash va teran badiiy idrok etish uchun muhabbat, shaxs erki, otalar va bolalar muammosi, eskilik va yangilik kurashi, manfaati shaxsiya va manfaati milliya munosabati kabi qator mavzular ham ishlanadiki, ularning jami roman T.sini tashkil qiladi. Bundan tashqari, T. termini muayyan adib ijodi, adabiy avlod, adabiy oqim kabilarga nisbatan ham qoʻllanilib, ularning ijodiy faoliyatida asosiy oʻrinni tutgan mavzular jami tushuniladi. Mas., jadid adabiyotining T.si millat taqdiri, maʼrifat, taraqqiy, milliy istiqloq (pardalangan holda) kabi mavzularni oʻz ichiga oladi.

TYENDYENSIYA (lot. tendere – yoʻnaltirish, intilish) – tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga muallifning gʻoyaviy-hissiy munosabati, obrazlar sistemasi orqali aks etuvchi asar problematikasining badiiy idrok etilishi va baholanishi. T. asar problematikasidan kelib chiqib tanlangan hayot materialini muayyan maqsadga mos umumlashtirgan va yoʻnaltirgan holda, badiiy gʻoyani yuzaga chiqaradi. Aslida, T. yaratilajak asarning gʻoyaviy-tematik tomonlariga ijod jarayonining ilk bosqichidan boshlab faol taʼsir qiladi. Zero,

muallif o'zini qiynayotgan muammolar haqida ma'lum darajada shakllangan xulosaga ega, shunga ko'ra, T. qaysi materialning tanlanishini ham muayyan darajada belgilaydi. Ikkinchi tomondan, ijodkor o'zi tasvirlayotgan narsa-hodisalarga mutlaq betaraf mavqeda turishi mumkin emas. Ijod jarayoni uchun tabiiy va qonuniy sanaluvchi bu hol T.ning hamisha mavjud bo'lishini ko'rsatadi. Shunga qaramay, T.ning ochiq-oshkor ifodalanishi tendentsiozlikka olib kelishi, bu esa g'oyaviy-badiiy jihatdan jiddiy nuqsonlarni keltirib chiqarishini unutmazlik lozim.

**TYeRSYeT** (ital. *terzetto* – uchinchi) – uch misrali band shakli bo'lib, uning uchta ko'rinishi bor: 1) bandning uchala misrasi ham o'zaro qofiyalanadi; 2) bandning 1- va 2-misralari o'zaro qofiyalanib, uchinchisi ochiq qoladi; 3) banddagi ikki misra qofiyalanadi, uchinchi misra tertsinadagi (q.) kabi keyingi banddagi misralardan biri bilan qofiyalanadi. Tor ma'noda T. termini sonet tarkibidagi uch misrali bandlarni bildiradi.

**TYeRSINA** (ital. *terza rima* – uchinchi qofiya) – italyan she'riyatidagi uch misrali bandlardan tarkiblangan she'r shakli. T. band shaklida yozilgan she'r aba bcb cdc ded... shaklida, ya'ni bandning 1- va 3-misralari o'zaro, 2-misrasi esa keyingi bandning 1- va 3-misralari bilan qofiyalanadi. T. shaklida yozilgan she'r (yoki dostonning bobi) bitta alohida misra bilan yakunlanib, u oxirgi bandning 2-misrasi bilan qofiyalanadi: shu tariqa she'r ritmik-intonatsion jihatdan tugallik kasb etadi. Dante Aligerining mashhur “Ilohiy komediyasi” T. shaklida yaratilgan bo'lib, bu asar mazkur band shaklining etaloniga aylanib qoldi.

**TIP** (yun. *typos* – nusxa, namuna) – badiiy obrazning umumlashtirish darajasiga ko'ra turlaridan biri, insonning muayyan tarixiy davr va undagi konkret ijtimoiy muhitga xos umumiy xususiyatlarni o'zida jam etgan umumlashma obrazi. Termin adabiyotshunoslikda ikki xil ma'noda qo'llanadi. Birinchisi – T. so'zining leksik ma'nosiga mos, bunda o'zida insonga xos muqim fe'l-xususiyatni mujassam etgan obraz nazarda tutiladi. Ya'ni mohiyat e'tibori bilan bunday obraz emblemaga yaqinlashadi (mas., Sharq mumtoz adabiyotidagi Hotami Toyi; G'arb adabiyotida Don Juan), bunday obrazlar ma'lum bir fe'l-xususiyat (saxiylik, xasislik, ochko'zlik, ikkiyuzlamachilik va sh.k.)ning belgisiga aylanadi, ularda shaxs individualligi muhim emas. Ikkinchi ma'nosida esa T. muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoit, davr va muhitga xos muhim xarakterli xususiyatlarni o'zida namoyon etgan inson obrazini anglatadi. Realistik adabiyot insonni butun murakkabligi bilan, unda o'z davri va muhitga xos umumiy hamda individual xususiyatlarni (q. xarakter) jam etgan holda tasvirlashni ko'zda tutadi. Shu bilan birga, konkret asardagi barcha obrazlar badiiy xarakter darajasiga yetmaydi, qator obrazlar xarakterlar (etakchi personajlar) uchun fon vazifasini o'taydi. Mas., Cho'lponning “Kecha” romanidagi Miryoqub, Akbarali, Razzoq so'fi va qisman Zebi obrazlari badiiy xarakter darajasida yaratilgan bo'lsa, Qurvonbibi, Eshonbobo, Noyib to'ra, Poshshaxon, Maryam kabilar, ko'proq, T., ya'ni davr va muhitga xos umumiy xususiyatlarni jam etgan obrazlar sifatida ko'zga tashlanadi. Shu jihatdan qaralsa, sho'ro davri adabiyotshunosligida mavjud bo'lgan T.ga xarakterlilikning oliy darajasi sifatida qarash, uni xarakterdan yuqori qo'yishga intilish to'g'ri emas. Bunday qarash adabiy T.ni biroz o'zgacha tushunish natijasida yuzaga keldi. Unga ko'ra, insonda uning o'zigagina xos betakror xarakter xususiyatlari bilan birga, o'z davri va muhiti kishilari uchun umumiylik kasb etgan xususiyatlar ham mavjud, T.da shu ikki jihat uyg'un aks etishi lozim, bunda individuallik tipiklikni namoyon etish shakli bo'lib qolishi talab etiladi. Ya'ni bu xil qarashda badiiy xarakter bilan T. orasida farq qolmaydi, shuning uchun ham T.ga xarakterlilikning yuqori darajasi deb qarash va shundan kelib chiqib Pavel Vlasov, Pavel Korchagin, G'ofir, Yo'lchi kabi obrazlarni boshqalardan ustun qo'yish imkoni tug'iladi. Ikkinchi tomoni, voqelikdagi inson tiplarini to'g'ridan-to'g'ri adabiyotga kiritish natijasida inson obrazi jonlilikdan mahrum bo'lib, sxematiklik kasb etadi va muayyan g'oyani ifodalash vositasigina bo'lib qoldi. Sho'ro davri o'zbek adabiyotida, ayniqsa, 30 – 50-yillarda yaratilgan asarlarda harakatlangan “boy”, “kambag'al”, “dindor”, “bolshevik”, “bosmachi”, “kolxoz faoli”, “quloq” va h. T.larning aksariyatida shu hol kuzatiladiki, bu narsa o'sha asarlarning o'tkinchi hodisaga aylanib qolishiga sabab bo'ldi.

**TIPIK** – konkret davr voqeligidagi shart-sharoitlar (tuzum, ijtimoiy hayot, ijtimoiy munosabat shakllari, madaniy-ma'rifiy saviya, muayyan ijtimoiy muhit va sh.k.) bilan bog'liq holda eng ko'p uchraydigan, muayyan darajada normaga aylangan voqea-hodisalar, hayotiy holatlar, xarakter va sh.k.lar.

**TIPIKLASH TIRISH** – umumiylikning individuallashtirish orqali ifoda etilishi, konkret badiiy obraz (voqea-hodisa, hayotiy holat, xarakter va sh.k.)da muayyan davrga xos umumiy (tipik), xarakterli xususiyatlarni mujassamlagan holda aks ettirish, adabiyot va san'atdagi voqelikni badiiy idrok etish printsiplaridan biri. Agar antik adabiyotda voqelikning badiiy idroki “tabiatga taqlid qilish” (mimesis), o'rta asrlarda simvollar vositasida amalga oshgan bo'lsa, realizm bosqichiga kelib T. yetakchi printsipga aylandi. T. adabiyotning bilish imkoniyatlarini kengaytirdi, chunki u o'zigacha mavjud bo'lgan tamoyillarga xos kuchli tomonlarni birlashtirdi, ya'ni: agar mimesis voqelikdagi xususiy hollarga, simvallashtirish esa xususiyga ko'z yumgan holda umumiyga urg'u bergan bo'lsa, T. bu ikkisini uyg'un birlikda olishni taqozo etadi. Adabiyotning bilish funksiyasini ustuvor bilgan realizm bosqichiga kelib T. oldingi planga chiqdi,

endi “Tipiklashtirish ijodning qonunlaridan biri, usiz ijodning o‘zi mavjud emas” (V.G.Belinskiy) deb qarala boshlandi, xullas, T. realizmning nazariy asosi bo‘lib qoldi. Sho‘ro davri adabiyotida, garchi so‘zda ushbu printsipning yetakchiligi e‘tirof etilsa ham, ijod amaliyotida voqelikning haqiqatda emas, balki sotsialistik realizm talabidan kelib chiqqan holda, mafkura nuqtai nazaridan xarakterli sanalgan xususiyatlari umumlashtirildi, badiiy asarlar shu nuqtai nazardan baholandi. Buning natijasida sxematizm T. deb tushunila boshlandi. Ta’kidlash kerakki, sho‘ro davri adabiyoti sotsialistik realizm adabiyotigina bo‘lib qolmadi, chunki haqiqiy san’atkorlar sxematizm bilan T.ni farqlay bildilar, shu printsipga tayangan holda voqelikni badiiy idrok etishga intildilar. Xullas, hozirgi adabiyotshunoslikda T. masalasi birmuncha e‘tibordan qolgandek ko‘rinsa-da, u realizmning asosiy printsipi bo‘lib qolaveradi.

TRAGYEDIYA (yun. tragoidia – echki qo‘shig‘i) – dramatik turning uchta asosiy janridan biri, janr sifatida antik davrda shakllangan bo‘lib, uning asosiy estetik belgisi tragiklikdir. T. genetik jihatdan ma’bud Dionisning o‘limi va qayta tirilishi munosabati bilan ijro etilgan marosim qo‘shiqlariga borib taqaladi. T.ning janr xususiyatlari tragik konflikt, tragik holat va tragik qahramon tushunchalari bilan belgilanadi. Tragik konflikt deganda, mohiyatan yechimi yo‘q, mavjud sharoitda hal qilib bo‘lmaydigan ziddiyat tushuniladiki, u har vaqt qahramon ongida kechadi. Qadimgi T.larda konflikt shaxs va taqdiri azal o‘rtasida (mas., “Shoh Edip”) kechgan bo‘lsa, keyinroq bu konfliktning ikkinchi tomoni o‘zgardi: taqdiri azal o‘rnini endi shaxsdan yuqori turuvchi oliy ma’naviy kuchlar (bunda yozilmagan, biroq inson hayotini muayyan tartibga soluvchi ma’naviy qonun-qoidalar, mas., burch hissi kabilar nazarda tutiladi) egallaydi. Tragik konflikt asosida yuzaga keluvchi tragik holatning mohiyati shundaki, qahramon tashqi kuchlar bilan emas, o‘zi bilan o‘zi olishadi, mana shu olishuv oqibati o‘laroq, chuqur ma’naviy iztirob, ruhiy qiynoqlarga duchor bo‘ladi. O‘zining foje holatida ham maqsad sari intilishlik, ruhiy iztiroblaru qiynoqlarga qobilik tragik qahramonga xos xususiyatdir. Tragik qahramon qarshisida erkin tanlov imkoniyati mavjud – u maqsaddan voz kechishi, oson yo‘lni tanlashi mumkin, biroq u bunday qilmaydi, o‘zining jisman yoki ma’nan halokatga uchrashi mumkinligini bilgan holda ham maqsadidan, e‘tiqodidan qaytmaydi. Xuddi shu asosda tragik qahramonning xarakter kuchi, uning favqulodda shaxsligi namoyon bo‘ladi. Mas., “Shoh Edip”dagi Edip yurt boshiga kelgan ofatning sababchisi o‘zi bo‘lishi mumkinligini sezganidayoq taftishni to‘xtatishi, “yopiqlik qozon yopiqlicha” qolaverishi mumkin edi. Biroq u – tragik qahramon, chekiga tushgan iztirobu qiynoqlar qadahini tubigacha sipqoradi. Realizm bosqichigacha yaratilgan T.larda tragik qahramon sifatida, ko‘proq, mifologik personajlar, shohlar, shahzodalar, malikalaru sarkardalarning olingani bejiz emas, zero, o‘zining foje holatini idrok eta olish, qalbiyu ongida ma’naviy-ruhiy iztiroblarni kechira olish, shunda ham ruhan sinmay maqsad tomon yurishga o‘rtamiyona odamlarning chog‘i kelmaydi. Shu sababli ham adabiyotimizda XX asr o‘rtalarida yaratilgan T.ning janr talablariga to‘la javob berishga yaroqli “Mirzo Ulug‘bek”, “Jaloliddin Manguberdi” asarlaridan birining markaziga shoh, ikkinchisining markaziga sarkarda chiqarilgan. T.lar janr problematikasi nuqtai nazaridan turlicha: ularda ma’naviy-axloqiy (“Shoh Edip”, “QiroL Lir”), millatning tarixiy taqdiri (“Jaloliddin Manguberdi”) yoki romaniy problematika (“Mirzo Ulug‘bek”) badiiy talqin qilinishi mumkin. T. janri faolligini yo‘qotgan, zamonaviy dramaturgiyada bu janr deyarli ishlanmaydi, biroq tragiklik badiiy adabiyotda estetik belgi (q. badiiylik moduslari, pafos) sifatida saqlanib qolgan.

TRAGIKLIK, tragizm (ruschadan kalka “tragicheskoe”) – voqelikka munosabat turi; badiiylik modusi. T. satira kabi qahramonlik modusining keyingi davrlarda transformatsiyaga uchrashi natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, bu jihatdan tragizm qahramonlikka nisbatan vertikal, satiraga nisbatan gorizonta parallel qo‘yiladi. Tragik modus qahramoni o‘z ichidan belgilagan chegaralar uning uchun tashqaridan belgilangan chegaralardan ancha keng bo‘lishi bilan qahramonlik va satirik moduslardan farqlanadi. Tragizmga xos “men-olamda” kontseptsiyasiga ko‘ra, tragik qahramon olamdagi o‘zi uchun belgilangan o‘ringa sig‘maydi, qahramonning olamda o‘z mavjudligini tasdiqlashga intilishi olam tartibotiga zid keladi, bu esa tashqi olam uning uchun belgilagan chegaralarni buzish (tragik xato, tragik ayb) bilan tengdir. Shuning uchun ham tragik konflikt mavjud sharoitda yechimi yo‘q, kelishtirib bo‘lmas ziddiyat deya ta’riflanadi. Tragik qahramon uchun ikkita yo‘l bor: yo o‘zligidan voz kechish, yoki xato va ayb orqali bo‘lsa-da, o‘zligini tasdiqlash. Natijada qahramon hatto hayotdan ketish orqali bo‘lsa-da, o‘z mavjudligini, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘ziga belgilangan chegaralarni kengaytirish istagini namoyish qiladi (Edipning ma’budlar hukmini kutib o‘tirmay, o‘z-o‘ziga jazo berishi, Anna Kareninaning o‘limi). Tragik qahramon uchun o‘z-o‘zini tasdiqlash faqat o‘zi uchungina muhim bo‘lib qolmay, tashqi olam unga belgilagan chegaralarni o‘zgartirish, o‘zini tashqi olam uchun tasdiqlatib olish ham birdek zaruratga aylanadi. Shuning uchun ham tragik qahramon (uning istaklari, intilishlari) va unga qarama-qarshi turgan kuchlar (oliy darajadagi kuchlar, umuminsoniy qadriyatlar, mavjud sharoitda o‘zgartirishning iloji yo‘q bo‘lgan sharoit va b.) o‘rtasidagi ziddiyat aksar qahramonning o‘z ichki ziddiyati sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Ya’ni qahramonning o‘zini boricha tasdiqlatib olish istagi (ichki chegaralariga mos mavjudligi) bilan olam tartibotining bunga

imkon bermasligiga iqrorlik qahramon qalbida, ruhiyatida to‘qnashadi (Edip, Hamlet, Anna Karenina). Shunga ko‘ra, tragik qahramonning “olamdagi men”i bartaraf qilib bo‘lmaydigan ikkilanganlik xususiyatiga ega bo‘lib (Dostoevskiyning “Aka-uka Karamazovlar”ida: Ivan Karamazov – Iblis; N.Otaxonovning “Oq bino oqshomlari” hikoyasida Hafiza – xayoliy dugona), ikkinchi tomon birinchisini inkor qiladi. Shu jihatdan qaralsa, mavjudlikning tragik ko‘rinishi – satiraning ziddi: satirada qahramon o‘z-o‘zini tasdiqlash yo‘lidan borgan holda, pirovardida o‘zini inkor etishga kelsa, T.da o‘z-o‘zini inkor qilish mohiyatan o‘zini tasdiqlash demakdir.

TRADISIYA (lot. traditio – berib yubormoq, o‘tkazmoq) – qarang: adabiy an‘analari

TRILOGIYA (yun. tri – qo‘shma so‘zlar tarkibida uch va logos – so‘z, hikoya, rivoyat) – syujet-kompozitsion qurilishi jihatidan nisbiy mustaqillikka ega bo‘lgan uchta asarning umumiy personajlarga egaligi, syujet chiziqlarining davomiyligi, muallif niyatining yagonaligi va shulardan kelib chiquvchi yaxlit kontseptsiya tufayli butunlikka birikuvidan tashkil topgan asar. Antik adabiyotda uchta tragediyadan tarkib topuvchi turkumlar T. deb yuritilgan. Jahon adabiyoti tarixida dramatik asarlarni birlashtiruvchi T.lar ham, epik asarlarni birlashtiruvchi T.lar ham ko‘plab yaratilgan. Jumladan, P.Bomarshe ijodida komediyalardan (“Sevilyalik satarosh”, “Figaroning uylanishi”, “Aybdor ona”), L.N.Tolstoy merosida avtobiografik qissalardan (“Bolalik”, “O‘smirlik”, “Yoshlik”) tarkib topgan T.lar mavjud. T.ning o‘zbek adabiyotidagi namunasi sifatida S.Ahmadning “Ufq” (“Qirq besh kun”, “Hijron kunlarida”, “Ufq bo‘zag‘asida”) asarini ko‘rsatish mumkin.

TROP (yun. tropos – ko‘chim) – qarang: ko‘chim

TUGUN (ruschadan kalka: “zavyazka”) – epik va dramatik asarlardagi voqeaband syujetning muhim unsuri, voqealarning boshlanishiga turtki bo‘lgan voqea, asar konflikti qo‘yilgan joy. T. syujetning zaruriy elementi sanaladi, ya‘ni u syujetda har vaqt hozirdir. Faqat ayrim hollarda, xususan, ba‘zi xronikali syujetlarda, shuningdek, “ichki harakat” dinamikasi asosidagi syujetlarda u yetarlicha bo‘rtib ko‘rinmasligi mumkin. T., odatda, asarning boshlanishida, ekspozitsiyadan (agar u bo‘lsa) keyin beriladi. Muayyan badiiy-estetik maqsadni ko‘zda tutgan holda, T.ning o‘rni o‘zgartirilishi ham mumkin. Mas., “O‘tgan kunlar” romanida Otabek bilan Kumushning daf‘atan uchrashib qolishi – birinchi bo‘lim T.i, biroq bu voqea shu bo‘lim nihoyasida bayon qilinadi. Yana bir jihati, “O‘tgan kunlar”ning uchala bo‘limi ham o‘z T.ga ega: birinchi bo‘limdagi syujet yechimi – Otabek bilan Kumushning to‘yi ikkinchi bo‘lim voqealariga turtki bergan T. bo‘lsa, ikkinchi bo‘limdagi syujet yechimi – Otabekning o‘chini olgach Toshkentga ketib qolishi uchinchi bo‘lim voqealariga turtki beruvchi T.dir. O‘zgacharoq hol “Kecha va kunduz”da ham kuzatiladi: Akbaralining Zebiga sovchi qo‘yishi bitta T. bo‘lsa, Miryoqubning Maryamga ishq tushgani ikkinchi T.ni tashkil qiladi. Demak, yirik hajmli asarlar syujetida bir emas, bir nechta T. bo‘lishi, asarning nisbiy tugallikka ega qismlari yoki har bir mustaqil syujet liniyasi o‘z T.iga ega bo‘lishi mumkin ekan.

TUYUQ (turkiy ????? – tuymoq, his qilmoq) – turkiy xalqlar she‘riyatidagi to‘rt misralik, tajnisli qofiyaga asoslangan, ramali musaddasi maqsur (kamdan-kam hollarda ramali musaddasi mahzuf) vaznida yoziluvchi lirik janr. T.lar, ko‘proq, a-a-b-a tarzida qofiyalanadi, shuningdek, a-a-a-a yoki a-b-v-b tarzida qofiyalangan ko‘rinishlari ham mavjud. Dastlab xalq og‘zaki ijodida paydo bo‘lgan T. janri keyincha ko‘plab mumtoz shoirlar e‘tiborini tortgan: Lutfiy, Navoiy, Bobur, Yusuf Amiriy, Ubaydiy, Ogahiy so‘z san‘atkorlari janr takomiliga katta hissa qo‘shganlar. Ayrim manbalarda T.ning tajnisli qofiyaga ega bo‘lishi shart hisoblanmaydi (mas., Bobur. “Muxtasar”). Shunga qaramay, tajnisli qofiyaga ega bo‘lgan T.lar kengroq tarqalgan, tajnisli qofiyani janrni belgilovchi xususiyat sifatida tushunish ko‘proq ommalashgan. Jumladan, A.Navoiy ham “tuyug‘dirkim, ikki baytqa muqarrardur va sa‘y qilurlarkim, tajnis aytilg‘ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur...” deb hisoblaydi, ya‘ni tajnisli qofiya masalasida qat‘iy talab qo‘ymasa-da, “tajnis aytish”ga harakat qilish lozimligini uqtiradi. Haqiqatan ham tajnisli qofiya T. janriga o‘ziga xos joziba baxsh etadi, o‘quvchiga betakror zavq beradi. Mas.:

Ko‘z yoshim tuproq ila gar qotila,

Kelmagayman javridin, haqqo, tila.

G‘amzasi o‘ltirdiyu, ul bexabar,

Men agar o‘lsam, ne g‘am ul qotila, –

Lutfiyning mazkur T.ida tajnisli qofiya orqali quyidagi ma'nolar ifodalanmoqda: birinchi misrada "agar ko'z yoshim tuproq bilan qotilsa, aralashsa", ikkinchi misrada "jabridan, ey xudo, tilga kelmayman", to'rtinchi misrada "men o'lib ketsam, u qotilga nima g'am". Ya'ni T.da shakldosh so'zlar mo'jazzgina matn doirasida turli ma'nolarda va o'rinli qo'llanishi darkor, bu esa shoirdan yuksak badiiy mahoratni talab qiladiki, bunga javob bera oladigan T. ona tilining go'zalligidan zavqlanish, uning beqiyos imkoniyatlari bilan faxrlanishga asos bo'ladi.

TO'RTLIK – 1) to'rt misralik band turi; katren, murabba'. T. she'riyatda eng ko'p tarqalgan band turlaridan sanaladi. T. bandda qofiyalanish tartibining kesishgan (abab), o'rama (abba), juftlik (aabb) shakllari ko'proq tarqalgan. Shuningdek, T.ning murabba shaklidagi qofiyalanish tartibi (aaab sssb) ham bo'lib, bu shakl nisbatan kam tarqalgan. "Devonu lug'atit turk"da misol qilib keltirilgan xalq qo'shiqlari, asosan, T. bandlardan tarkib topgani uning turkiy xalqlar adabiyotida qadimdan mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Mumtoz she'riyatimizda T. band murabba' janrida saqlangan bo'lsa, XX asrda u yanada faollashdi. Hozirgi o'zbek she'riyatidagi lirik she'rlarning aksariyati T. bandlardan tarkib topgan; 2) to'rt misradan tarkib topuvchi she'r, xalq og'zaki ijodi va mumtoz sharq she'riyatidagi ruboiynavislik an'analarning davomi sifatida hozirgi o'zbek she'riyatida ancha keng tarqalgan she'r shakli; shakl jihatidan tasniflanuvchi lirik janr. Mumtoz lirikadagi ruboiy va tuyuqdan farqli o'laroq, T. janriga kiritish uchun she'rning to'rt misradan iborat bo'lishi kifoya: unga ruboiy yoki tuyuqqa ko'yilgan kabi vazn, kompozitsiya bilan bog'liq qat'iy talablar qo'yilmaydi. Ma'lumki, aruzda yozilgan har qanday to'rt misrali she'r ham ruboiy bo'la olmaydi, buning uchun she'r hazaj bahrining 24 tarmog'idan birida yozilishi shart. Demak, mantiqan qaralsa, T. aruzda ham, barmoqda ham yozilishi mumkin. Mas., Cho'lponning "XX asr", "Parcha" nomli hamda "Lola gulning dog'idur..." deb boshlanuvchi T.lari ramal bahrída yozilgan. Shunga qaramay, yangi o'zbek she'riyatida T.lar, asosan, barmoqda yozilmoqda. Mavzu jihatidan chegaralanmagani, voqelikdan olingan taassurotlar, hayot haqidagi fikr-xulosalarni ixcham, lo'nda ifodalash imkonini bergani uchun T. janri yangi davr she'riyatida ham keng ommalashdi. O'zbek adabiyotida Oybek, H.Olimjon, M.Shayxzoda, Uyg'un, Shuhrat, Ramz Bobojon, T.Yo'ldosh, A.Oripov, E.Vohidov, R.Parfi, O.Matjon, H.Xudoyberdieva kabi shoirlar ijodida T. janrining yaxshi namunalarini uchratish mumkin.



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
Adabiyotshunoslik kafedrası**

***ADABIYOT NAZARIYASI***  
*fanidan*

***ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

**Qarshi 2018 yil**

## O'QUV-USLUBIY ADABIYOTLAR VA ELEKTRON TA'LIM RESURLARI

### Asosiy.

1. Karimov I. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T. “O‘zbekiston” 2008
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik.-T.: «Fan», 1978-1979.
3. Alisher Navoiy. Mezon ul avzon. Asarlar. O‘n besh tomlik. 14-tom.T.: «Fan», 1967.
4. Arastu. Poetika. Ahloqi kabir.-T.: «Yangi asr avlodi», 2004
5. Valixo‘jaev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi.-T.: «O‘zbekiston»,1993.
6. Sulstonov I. Adabiyot nazariyasi.-T.: «Sharq», 2006.
7. Fitrat. Adabiyot qoidalari.-T.: «O‘qituvchi»,1995.
8. Olimov M. Risolai aruz.-T.: «Yozuvchi», 2002
9. Rahmonov V. She`r san`atlari.-T.: «Yozuvchi», 2001.
10. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati.-T.: «Sharq», 1999
11. Adabiy tur va janrlar. Uch jildlik. T. “Fan”, 1991 – 1992.

### Qo‘shimcha.

12. Abu Ali Ibn Sino. She`r san`ati. T. Adabiyot va san`at, 1980.
13. Abu Nasr Forobiy. She`r san`ati. T. Adabiyot va san`at, 1979.
14. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Asarlar. 15 tomlik, 12-tom. T. “Fan”, 1966.
15. Alisher Navoiy. Muhokamatul lug‘atayn. Asarlar. 15 tomlik, 14-tom. T. “Fan”, 1967.
16. Atoulllo Husayniy. Badoe‘us – sanoe. T., “Fan”, 1982.
17. Bualo N. she`riy san`at. T., Adabiyot va san`at, 1978.
18. Boboyev T. She`r ilmi ta`limi. T., “O‘qituvchi” 1996.
19. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T., “O‘zbekiston” 2002.
20. Bobur. Muxtasar. T., “Fan” 1972.
21. Vohidov E. Shoiru she`ru shuur. T., 1987.
22. Muxtor A. Yosh do‘stlarimga. T., “YOsh gvardiya” 1971.
23. Normatov U. Talant tarbiyasi. T., “YOsh gvardiya” 1980.
24. Oripov A. Ehtiyoj farzandi. T., “YOsh gvardiya” 1988.
25. Cho‘lpon. Adabiyot nadur. T., “CHO‘lpon” 1994.
26. Shukrullo. Javohirot sandig‘i. T., “YOsh gvardiya” 1968.
27. Qahhor A. Yoshlar bilan suhbat. T., “YOsh gvardiya” 1968.
28. Qodirov P. O‘ylar, badialar. T., Adabiyot va san`at, 1971.
29. Hoshimov O‘. Notanish orol. T., “Yosh gvardiya” 1990.
30. Homidiy H. Abdullayeva Sh. Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. T., “O‘qituvchi” 1970.

### Monografiyalar:

31. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash.-T.: “Fan”, 2006
32. Karimov B. Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. T.: “Fan”, 2006

### Internet ma`lumotlari:

33. [vvzv.vvzv.literatura.uz](http://vzv.vvzv.literatura.uz)

### Metodologik asos:

## **MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT**



### **IMOMOVA GULCHEHRA MUHAMMADIEVNA**

17.07.1960 yilda Qashqadaryo viloyati Nishon tumani Qovchin qishlog'ida tug'ilgan. Filologiya fanlari nomzodi.dotsent 1981 yil, Samarqand Davlat pedagogika institutini tamomlagan.